


1.98

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQ

DARSLIK




223446 — 223485

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQ

(60420100 — yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun)

DARSLIK 223476



Toshkent
«Yuridik adabiyottar publish»
2022

UO'K: 346.9(07)
KBK: 67.404ya7
I-98



O'ZBEKİSTON
RESPUBLİKASI
ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT
DAVLAT YURIDIK
UNIVERSİTETİ

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQ.

Darslik.

Mualliflar jamoasi. – Toshkent:
Yuridik adabiyotlar Publish,
2022-y. – 416 bet.

Mualliflar jamoasi:

Z. Esanova, yu.İ.d., proi, – 1-bob;
D. Xabibullayev, yu.f.n., prof. – 2,
4-bobler;
S. Xolboyev, yu.f.n., dotsent – 13-bob;
M. Kalandarova, yu.l.n., dotsent –
7-bob;
U. Saydaxmedov, sudy, PhD.,
dotsent – 8, 11, 12- boblar;
F. Ibratova, yu.f.d., dotsent – 9-bob;
L. Salimova, PhD. – 3, 14-bobler;
O. Pirmatov, PhD. – 5-bob;
G.M. Mamaraimova, katta
o'qituvchi – 6-bob;
M. Saidov, sudy – 10-bob.

Taqrizchilar:

N. Imomov – Toshkent davlat
yuridik universiteti Fuqarolik huquqi
kafedrasi mudiri, professor, yu.f.d.

Q. Avezov – Toshkent viloyat
sudining iqtisodiy ishlari bo'yicha
sudyasi, yu.f.d

O'zbekiston Respublikasi Oly
va o'rta maxsus ta'lim vaziri
ning 2021-yil 25-dekabrda
538-soni buyrug'iga asosan
nashrga tavsija etilgan.

Usbu darslikda iqtisodiy protsessual
huquq va iqtisodiy ishlarning taalluqiligi va
sudlovg'a tegishliliqi, iqtisodiy sud ishlarni
yuritish ishtirokchilar, iqtisodiy protsessda
isbotlash va dalillar, da'vo, sud xarajallari,
protsessual muddatlar, iqtisodiy ishni
qo'zg'atish, tayyorlash va sudda muhokama
qilish, birinchi instansiya sudining
qarorlari, buyruq tartibida ish yuritish,
soodalashtirilgan tartibda ish yuritish,
aholida tartibda ish yuritish, korporativ
nizolar bo'yicha ish yuritish, huquqiy ta'sir
choralarini qollash to'grisidagi ishlarni
yuritish, hakamlik sudining hal qiluv
qarorlari bilan bog'liq ishlarni yuritish,
iqtisodiy protsessda chet el shaxslarning
ishtiroki, sud hujjatlarini qayta ko'tish, sud
hujjatlarining ijrosi, shuningdek, har bir
mavzuga oid kazuslar, nazorat savolları
o'rinn olgan.

Darslik bakalavrast ta'llim yo'naliishi
talabalarini, tadqiqotchilar, shuningdek, keng
kitobxonalar ommasiga mo'ljalangan.

ISBN 978-9943-7580-9-4



9 789943 758094

© Mualliflar jamoasi, 2022-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y.

MUNDARIJA

So'zboshi	7
1-bob. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQIGA KIRISH	9
1.1. Iqtisodiy protsessual huquq tushunchasi va predmeti	9
1.2. Iqtisodiy protsessual huquqining tizimi va manbalari	11
1.3. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish tushunchasi, vazifasi va turlari	14
1.4. Iqtisodiy protsessning bosqichlari	15
2-bob. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQNING PRINSIPLARI	18
2.1. Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari tushunchasi va ahamiyati	18
2.2. Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarining tasnifi	20
2.3. Iqtisodiy protsessual huquqning konstitutsiyavli prinsiplari	22
2.4. Iqtisodiy protsessual huquqning maxsus prinsiplari	28
3-bob. IQTISODIY ISHLARNING SUDGA TAALLUQLILIGI VA SUDLOVGA TEGISHLILIGI	38
3.1. Iqtisodiy ishlarning taalluqliligi tushunchasi va turlari	38
3.2. Iqtisodiy ishlarning taalluqliligini belgilash mezonlari	46
3.3. Iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lgan ishlar	52
3.4. Iqtisodiy ishlarning sudlovligi tushunchasi va turlari	62
3.5. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi	69
3.6. Iqtisodiy ishlarning taalluqliligi va sudlovligi qoidalariga riyo qilmaslikning huquqiy oqibatlari	70
4-bob. IQTISODIY SUD ISHLARINI YURITISH ISHTIROKCHILARI	74
4.1. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatları	74
4.2. Taraflar, ularning protsessual huquq va majburiyatları	76
4.3. Iqtisodiy protsessda birlgilikda ishtirok etish, ishga daxldor bo'limagan javobgarni almashtirish tartibi	77
4.4. Protsessual huquqiy vorislik	79
4.5. Uchinchi shaxslar va ularning turlari	81
4.6. Prokuroring iqtisodiy protsessda ishtirok etish shakllari, asoslari hamda protsessual huquq va majburiyatları	84
4.7. Iqtisodiy protsessda davlat organlari va boshqa shaxslarning ishtiroki	86
4.8. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar	88
4.9. Sudda vakillik	95

5-bob.	IQTISODIY PROTSESSDA ISBOTLASH VA DALILLAR. IQTISODIY PROTSESSDA DA'VO	102
5.1.	Isbotlash majburiyati	102
5.2.	Dalillar tushunchasi va tasnifi	103
5.3.	Dalillarga baho berish	106
5.4.	Iqtisodiy protsessda ekspertiza tayinlash	108
5.5.	Dalillarni ta'minlash va sud topshiriglari	109
5.6.	Da'vo tushunchasi, elementi va turlari	110
5.7.	Himoyaning boshqa vositalari	114
5.8.	De'vonni ta'minlash choralar	116
5.9.	Da'volarni birlashtirish va ajratish	118
6-bob.	SUD XARAJATLARI. PROTSESSUAL MUDDATLAR	121
6.1.	Sud xarajatlari tushunchasi	121
6.2.	Sud xarajatlari turlari	121
6.3.	Sud xarajatlarining stavkalari	123
6.4.	Iqtisodiy sudlar tomonidan davlat boji undirilishining o'ziga xos xususiyatlari	126
6.5.	Sud xarajatlarini taqsimlash	129
6.6.	Sud xarajatlarini to'lashdagi imtiyozlar	131
6.7.	Davlat bojini qaytarish	136
6.8.	Protsessual muddatlar tushunchasi	138
6.9.	Protsessual muddatlar turlari	139
6.10.	Protsessual muddatlararning o'tishi va ularni o'tkazib yuborish oqibatlari	140
6.11.	Protsessual muddatlarining to'xtatilishi, uzyatirilishi va tiklanishi	142
7-bob.	IQTISODIY ISHNI QO'ZG'ATISH, TAYYORLASH VA SUDDA MUHOKAMA QILISH.	
	BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING QARORLARI	146
7.1.	Ishni sud muhokamasiga tayyorlash	155
7.2.	Sud muhokamasi	158
7.3.	Sud majlis	159
7.4.	Sudning ish yuritishni to'xtatib turish majburiyat	181
7.5.	Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish	182
7.6.	Ish yuritishni tugatish asoslari	195
7.7.	Ishni mazmunan ko'rish	200
8-bob.	BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISH. SODDALASHTIRILGAN TARTIBIDA ISH YURITISH	225
8.1.	Sud buyrug'i berish bo'yicha talablar. Sud buyrug'in berish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni hamda unga ilova qilinadigan hujjalalar	225

8.2.	Davlat boji. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish va qaytarish.....	230
8.3.	Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga e'tiroz. Sud buyrug'ini berish tartibi va muddati hamda uning mazmuni. Sud buyrug'ini bekor qillish asosiari.....	233
8.4.	Soddalashdirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar	236
8.5.	Soddalashdirilgan ish yuritish tartibidagi ishni ko'rib chiqish xusuşiyatlari.....	239
9-bob.	ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISH	245
9.1.	Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar tushunchasi va ariza bilan murojaat qilish huquqi	245
9.2.	Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasining xusuşiyatlari.....	249
9.3.	Yuridik shaxslar va fuqarolarning bankrotligi tushunchasi.....	251
9.4.	Bankrotlik to'g'risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash	258
9.5.	Bankrotlik to'g'risidagi ishlarni iqtisodiy sudda ko'rish	263
10-bob.	KORPORATIV NIZOLAR BO'YICHA ISH YURITISH	276
10.2.	Korporativ nizolar bo'yicha da'vo erisasining shakli va mazmuni, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va sud muhokamasiga tayyorlash	282
10.3.	Sudlarda korporativ nizolarni ko'rb chiqishning o'ziga xos xusuşiyatlari	286
11-bob.	HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI QO'LLASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH	303
11.1.	Huquqiy ta'sir choraları	303
11.2.	Huquqiy ta'sir choraları turları	304
11.3.	Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arizanining şakli va mazmuni va unga ilova qilinadigan hujjatlar	306
11.4.	Faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash	308
11.5.	Banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish	309
11.6.	Moliyaviy sanksiyalarni qo'llash	310
11.7.	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish	314

11.8.	Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ishi bo'yicha xabarlar va chaqiruvlar hamda sud muhokamasi.....	320
11.9.	Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ishi bo'yicha hal qiluv qarori.....	321
11.10.	Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ishlarni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari.....	322
12-bob.	HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORLARI BILAN BOG'LIQ ISHLARNI YURITISH.....	325
12.1.	Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni va uni ko'rib chiqish tartibi.....	325
12.2.	Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishi bo'yicha ajrimning mazmun-mohiyati.....	331
12.3.	Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishning umumiy qoidalari va arizaning shakli	334
12.4.	Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi: berishni rad etish asoslari va bu ish bo'yicha ajrim.....	337
13-bob.	IQTISODIY PROTSESSDA CHET EL FUQAROLARI VA TASHKIOTLAR, FUQAROLIGI BO'LМАGAN SHAXSLARNING ISHTIROKI.....	342
13.1.	Chet elliq shaxslor tushunchasi, ularning huquqly maqomi	342
13.2.	Chet elliq shaxslor ishtirokidagi ishlarni ko'rishda sudlovga tegishlilik masalalari. Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish tartibi.....	353
13.3.	Chet davlat sudlarining va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini iqtisodiy sudlar tomonidan tan olish hamda ularni ijroga qaratish tartibi	362
14-bob.	SUD HUJJATLARINI QAYTA KO'RISH. SUD HUJJATLARINING IJROSI	381
14.1.	Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti tushunchasi va ahamiyati.....	381
14.2.	Apellyatsiya instansiyasida ish yuritish.....	382
14.3.	Kassatsiya instansiyasida ish yuritish	394
14.4.	Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish	401
14.5.	Sud hujjatlarining ijrosi.....	409

SO'ZBOSHI

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohada bo'lgani kabi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalgalashmoqda. Sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qator huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Kelib chiqayotgan nizolarni hal qilish, ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori chiqarish vazifasi va vakolati iqtisodiy sudlar zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 40-moddasiga ko'ra tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaqidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni va korporativ nizolarni, shuningdek, qonun bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati ishlarni birinchi instansiya, appellatsiya va cassatsiya tartibida, jumladan, cassatsiya instansiya sudida takroran ko'radi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudlarining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati ishlarni tegishlilik bo'yicha birinchi instansiya va appellatsiya instansiya ko'radi.

Mualliflar jamoasi (nazariyotchi olimlar, amaliyot xodimlari, soha mutaxassislari) tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiy protsessual huquq» darsligi yangi qabul qilingan Iqtisodiy protsessual kodeksi normalari asosida yaratildi.

«Iqtisodiy protsessual huquq» darsligi «Iqtisodiy protsessual huquq» modulini o'rGANISHDA muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur darslikda Iqtisodiy protsessual huquqning umumiyligi va maxsus qismiga oid institutlar, jumladan, fanning tushunchasi va manbalari, sud ishlarni yuritish turlari, taalluqliligi va sudlovlligi, protsessual muddatlar, sud xarajatlari, isbotlash va

dalillar, shuningdek, iqtisodiyot sohasida fuqarolar, tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rildigan nizolar tushunchasi, turlari va xususiyatlari batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, kelib chiqayotgan iqtisodiy nizolarni hal qilish nuqtayi nazaridan sudga murojaat qilish tartibi, ish ko'rish xususiyatlari, ishning yakuni bo'yicha chiqariladigan sud hujjatlari, ularni qayta ko'rish va ijro etishga oid mavzular o'rinn olgan.

Darslikning e'tirofli jihatlari shundaki, ushbu manba modulni puxta o'zlashtirishga, o'qituvchilarining va talabalarning o'z ustida ishlashini kuchaytirishga, tegishli bilim va malaka olish imkoniyatini oshirishga, mustaqil fikrlash va mushohada yuritishga, o'z-o'zini nazorat qilishga, muammoli vaziyatlarga yechim topishga imkon beradi.

1-bob. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQIGA KIRISH

1.1. Iqtisodiy protsessual huquq tushunchasi va predmeti

O'zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimida iqtisodiy protsessual huquq protsessual huquq sohalari ichida mustaqil protsessual huquq sohasi hisoblanadi. Iqtisodiy protsessual huquqning vujudga kelishi va rivojlantishi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy huquqiy islohotlar bilan uzviy ravishda bog'liq. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti asosini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etar ekan, ushbu tizimda tadbirkorlar asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Asosiy Qonunimiz iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Davlat tadbirkorlikni har toronlarma qo'llab-quvvatlash, uni rivojlantirish va mustahkamlash uchun huquqiy asoslar negizini to'liq shakllantirishga erishdi. Ushbu huquqiy asoslarning bir qismi iqtisodiyot sohasida, tadbirkorlik sohasida vujudga keladigan nizolarni hal qilish uchun asosiy huquqiy maydon vazifasini o'taydi.

Iqtisodiy protsessual huquq, garchi boshqa huquq sohalari kabi qadimiy va tarixiy bo'lmasa ham, bugungi kunda odil sudlov tizimida o'z o'rниga va o'ziga xos protsessual mexanizmga ega. Iqtisodiy protsessual huquq o'zining konstitutsiyaviy asoslariga ega va bu asoslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Iqtisodiy protsessual huquq predmeti doirasida qamrab olinayotgan munosabatlar, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlari o'rtaqidagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish, mamlakatimiz iqtisodiyoti sohasida vujudga keladigan iqtisodiy nizolarni hal etish va mamlakatimiz iqtisodiyotini boshqarish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar hisoblanadi.

Yodda tuting!

Iqtisodiy protsessual huquq tushunchasi – iqtisodiy sudlar tomonidan odil sudlovni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalar yig'indisi.

Yodda tuting!

Iqtisodiy protsessual huquq predmeti – iqtisodiy sudlov ishlarni yuritish sohasida sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'rtaida vujudga keladigan protsessual huquqiy munosabatlarni o'rganadi. Mazkur huquqiy munosabatlar mazmunida iqtisodiyot sohasiga oid moddiy va protsessual huquqiy xususiyatlar, fanga doir nazariy qoidalar, amaliyatdagi muammoli masalalar va ularning protsessual yechimiga doir holatlar o'z ilodasini topgan.

Iqtisodiy protsessual huquqning vazifalari:

- iqtisodiy sudlov ishlarni yuritishda iqtisodiyot sohasida faoliyatni amalga oshirishda subyektlarning buzilgan huquq va manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga erishish;
- iqtisodiy sudlov ishlarni yuritishda buzilgan huquq va manfaatlarini to'laqonli himoya qilish jarayonida qonuniylikni mustahkamlash, amaldagi qonun va qonunosti hujjatlariga so'zsiz va qat'iy amal qilinishini ta'minlashga erishish;
- iqtisodiy sudlov ishlarni yuritishda nizolarni qonunda belgilangan tartibda o'z vaqtida hal etish;
- ular tomonidan huquq normalarini to'g'ri qo'llash, moddiy va protsessual huquq normlariga qat'iy rioya qilish, ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlari chigarishga erishish;
- iqtisodiy sudsarda ish yuritish qonun va sudga hurmat ruhida bo'lishi kerak.

Huquqiy tartibga solish uslubi (metodi) deganda iqtisodiy protsessual huquq predmeti hisoblangan munosabatlarni va faoliyatga ta'sir qiluvchi tartibga solishning yuridik vosita va usullari yig'indisi tushuniladi.

Iqtisodiy protsessual huquqda huquqiy tartibga solishning quyidagi uchta asosiy uslubi (metodi) ajratiladi:

- a) ruxsat beruvchi;
- b) taqiqlovchi;
- v) ko'rsatma beruvchi.

Mazkur uslublar orqali sud nizolashuvchi subyektlar faoliyati (xatti-harakatlari)ga ta'sir ko'rsatadi va muayyan huquqiy oqibatlarga sabab bo'ladi. Ushbu uslublar sudning qarorlari mazmun-mohiyatida hamda qaror (xulosa) qismida bevosita namoyon bo'ladi.

1.2. Iqtisodiy protsessual huquqining tizimi va manbalari

Yedda tuting!

Iqtisodiy protsessual huquq tizimi – iqtisodiy protsessual huquq fanining asosiy elementlaridan biri sifatida umumiy va maxsus qislardan iborat tuzilishga ega bo'lib, mazkur normalarning uzviy va ketma-ketlikda joylashuvi hamda mazmunan bir-birini to'ldirishiga aytiladi.

Iqtisodiy protsessual huquqning umumiy qismi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 1-bo'limiga kirgan «Umumiy qoidalar»ga bag'ishlangan normalar (1-16-boblar)ni o'z ichiga qamrab oladi. Unga ko'ra, «Asosiy qoidalar» deb nomlangan 1-bob; «Iqtisodiy sud ishlarni yuritish prinsiplari» deb nomlangan 2-bob; «Sudning tarkibi» deb nomlangan 3-bob; «Sudyani va sud protsessining boshqa ishtirokchilarini rad qilish» deb nomlangan 4-bob; «Iqtisodiy ishlarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligi» deb nomlangan 5-bob; «Iqtisodiy sud ishlarni yuritish ishtirokchilari» deb nomlangan 6-bob; «Dalillar va isbotlash» deb nomlangan 7-bob; «Da'veoni ta'minlash» deb nomlangan 8-bob; «Ish yuritishni to'xtatib turish» deb nomlangan 9-bob; «Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish» deb nomlangan 10-bob; «Ish yuritishni tugatish» deb nomlangan 11-bob; «Sud xarajatlari» deb nomlangan 12-bob; «Protsessual muddatlar» deb nomlangan 13-bob; «Sud jarimalari» deb nomlangan 14-bob; «Sud xabarnomalari va chaqiruvlari» deb nomlangan

15-bob; «Yarashtirish tartib-taomillari» deb nomlangan 16-bob normalaridan iborat.

Umumiy qismida ko'rsatilgan yuqoridagi normalar va ularda ifodalangan protsessual institutlar, protsessual harakatlar maxsus qismga tegishli normalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ishlarni hal qilishda to'liq tatbiq etiladi.

Iqtisodiy protsessual huquqning maxsus qismida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining **2-bo'limiga** kirgan «Birinchi instansiya sudida ish yuritish»ga bag'ishlangan normalar (17–30-boblar)ni; **3-bo'limiga** kirgan «Chet elliq shaxslar ishtirotidagi ishlarni yuritish»ga bag'ishlangan normalar (31–33-boblar)ni; **4-bo'limiga** kirgan «Iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish»ga bag'ishlangan normalar (34–37-boblar)ni; **5-bo'limiga** kirgan «Iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini ijro etish»ga bag'ishlangan normalar (334–347-moddalar)ni o'z ichiga qamrab oladi.

Iqtisodiy protsessual huquqning manbasi deb vakolatli organlar tomonidan iqtisodiy protsessual huquqi sohasini tartibga solishga qaratilgan, iqtisodiy sudlov faoliyatiga bevosita va bilvosita daxldor bo'lgan, iqtisodiy nizo (ish)larni hal qilishda moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llashda asos bo'ladigan normativ-huquqiy hujjatlar turkumi tushuniladi. Iqtisodiy protsessual huquqning manbalariga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasining qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalarining qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining buyruqlari hamda qarorlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi iqtisodiy protsessual huquqi uchun ham bosh manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati» deb nomlangan 22-bobi normalari bevosita iqtisodiy sudlar faoliyatiga ham tegishlidir.

Jumladan, **Konstitutsiyaning 110-moddasiga asosan** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

Iqtisodiy protsessual huquqning asosiy manbalaridan biri **O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni** (2021-yil 28-iyulda qabul qilingan) hisoblanadi.

«Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida ko'rsatilgan «Sudning vazifalari» ham bevosita iqtisodiy sudlarga tegishli bo'lib, unga ko'ra Sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda kalolatlangan huquqlari hamda erkinlikdarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdag'i tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan mansaattlarini himoya qilishdan iborat.

Sudning Iaoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

Bundan tashqari, «Sud himoyasida bo'lish huquqi» deb nomlangan 14-moddada O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar davlat organlari hamda boshqa organlarning har qanday g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdar shaxslarining xatti-harakatlaridan (harakatsizligidan), shuningdek, hayoti va sog'lig'i, sha'ni hamda qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Yuridik shaxslar ham sud himoyasida bo'lish huquqiga egadir.

Iqtisodiy protsessual huquqning maxsus manbasi sifatida 2018-yil 1-apreldan amalga kiritilgan **O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksini** ko'rsatish mumkin. Mazkur kodeks bevosita 5 ta bo'lim, 37 bob, 347 moddadan iborat bo'lgan normalarni o'z ichiga olgan. Ushbu manbaning xususiyati shundaki, bevosita mazkur Kodeksda ifodalangan normalar orqali iqtisodiy sudlar faoliyati huquqiy

tartibga solinadi, jumladan, ushbu manbada ish bo'yicha da'vo arizasi (ariza) ni ish yuritishga qabul qilishdan boshlab, sudga tegishli nizoli (nizosiz) talabni hal qilish va ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli sud qarori chiqarish hamda uning ijrosini ta'minlashgacha bo'lgan harakatlarni amalga oshirishning protsessual tartibi qat'iy mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari iqtisodiy protsessual huquqning manbasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Xususan, iqtisodiy sudlar tomonidan nizoni hal qilishda moddiy va protsessual huquq normalariga tayangan holda ishni ko'rish va sud qarorini chiqarish muhim shartlardan biri sanaladi. Shu ma'noda iqtisodiy protsessual huquqning vujudga kelishi va tartibga solish mexanizmini tahlil qilganda uning tarkibiy qismi moddiy va protsessual huquq normalari orqali harakatga keladi yoki ushbu huquq sohasining yashash shakli sifatida ko'rinishi. Hozirda respublikamizda fuqarolik, iqtisodiy, tadbirkorlik, tijorat, investitsiya va boshqa turdosh huquqlarni tartibga soluvchi, tom ma'noda olganda iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab qonunlar qabul qilinmoqda.

1.3. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish tushunchasi, vazifasi va turlari

Yodda tuting!

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish deganda iqtisodiy sudlarga taalluqli ishlarning nizo predmeti, nazoning toifalari, nizolashuvchi subyektlar tarkibi, ishning taalluqliligi va sudloviligi kabi xususiyatlarga ko'ra iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib hal qilinishiga aytildi.

Iqtisodiy protsessual kodeksining 2-moddasida iqtisodiy sudda sud ishlarini yuritish vazifalari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra:

birinchisi – iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

ikkinchisi – iqtisodiyot sohasida qonuniylikni mustahkamlash va huquqbarliklarning oldini olishga ko'maklashish;

uchinchisi – qonunga va sudga nisbatan hurmatda bo'lish munosabatini shakllantirishdan iborat.

Iqtisodiy protsessual huquq sud ishlarini yuritishning quyidagi turlarini nazarda tutadi:

- da'vo tartibida yuritiladigan ishlar;
- sud buyrug'ini berishga oid ishlar;
- bankrotlik to'g'risidagi ishlar;
- yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'-risidagi ishlar;
- hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlar;
- korporativ nizolar bo'yicha ish yuritish;
- huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar;
- investitsiyaviy nizolar bo'yicha ishlar;
- raqobatga oid ishlar;
- soddalashtirilgan tartibda ish yuritish;
- chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni yuritish.

1.4. Iqtisodiy protsessning bosqichlari

Aksariyat yuridik adabiyotlarda «Iqtisodiy protsessual huquq» fani «Iqtisodiy protsess» fani deb nomlanadi. Iqtisodiy protsess – iqtisodiy sudlov ishlarini yuritish jarayoni sanaladi, iqtisodiy protsessual huquq esa ana shu jarayonni o'rghanadi va huquqiy tartibga soladi, protsessual huquq institutlariga oid dolzarb muammolarni aniqlab, ular ustida muhim ilmiy taddiqot ishlarini olib boradi.

Yodda tuting!

Iqtisodiy protsess bosqichlari – iqtisodiy sudlarda iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishda nizoni hal qilish maqsadida protsessual harakatlarning tizimli va ketma-ketlikda amalga oshirilishi hamda maqsad va vazifalariga ko'ra bo'linishiga aytildi.

Iqtisodiy protsessual huquqning moddiy shakli iqtisodiy protsess bosqichlari va unda amalga oshiriladigan protsessual harakatlarda ko'rinishi va iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishning aniq bajariladigan joyi, tartibi, shakli va mazmuni sifatida ifodalanadi.

Iqtisodiy protsess bosqichlari:

- birinchi instansiya sudida ish yuritish (2-bo'lim);
- appellatsiya instansiyasida ish yuritish (34-bob);
- kassatsiya instansiyasida ish yuritish (35-bob);
- yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritish (37-bob);
- sud hujjatlarini ijro etish (5-bo'lim).

Ish bo'yicha iqtisodiy sudlov ishlarini yuritish yuqorida ko'rsatilgan bosqichlardan ketma-ketlikda olib boriladi. Har bir bosqichdagi odil sudlov jarayoni mustaqil sud hujjatini qabul qilish bilan yakunlanadi. Ammo muayyan iqtisodiy ish iqtisodiy protsessning barcha bosqichlaridan o'tishi shart emas. Ishni ko'rish birinchi instansiya sudida hal qiluv qarori qabul qilinishi bilan yakunlanib, boshqa bosqichiarni chetlab ijro bosqichiga ham o'tishi mumkin. Agar sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yuzasidan appellatsiya shikoyati berilgan bo'lsa, ish appellatsiya instansiyasida ko'rib chiqilgandan keyingina ijro bosqichiga o'tish mumkin.

Iqtisodiy protsessning belgilari:

- iqtisodiy protsessual huquqiy munosabatlarning zaruriy subyekti sifatida iqtisodiy sud qatnashadi;
- sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqiy harakatlari huquqiy, iqtisodiy protsessual huquqiy harakatlar bo'lishi kerak.
- iqtisodiy protsessning obyekti, predmeti iqtisodiy sudlarga taalluqli ishlar bo'lishi kerak.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sud-huquq islohotlari sharoitida yangi tahrirdagi Iqtisodiy protsessual kodeksga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
2. O'zbekistonda iqtisodiy sudlarning tashkil topishi va rivojlanishini izohlab bering.
3. Iqtisodiy protsessual huquq sohasining ilmiy o'rganilganlik darajasini sharhlab bering.
4. Iqtisodiy sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikativ texnologiyalarini joriy etishning afzalliklarini ochib bering.

KAZUSLAR

1-kazus

Da'vogar «I» xususiy korxonasi bilan javobgar «A» mas'uliyati cheklangan jamiyati o'ttasidagi oldi-sotdi shartnomasiga asosan da'vogar javobgarga 10 000 000 so'mlik qurilish materiallari yetkazib berishi, javobgar esa olingan mahsulotlar uchun 30 kun ichida kelishilgan mablag'ni to'lab berishi lozim edi. Lekin javobgar tomonidan da'vogar talabnomasi yuborgandan keyin ham to'lov amalga oshirilmagan, da'vogar 10 000 000 so'mni undirish to'g'risida iqtisodiy sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan. Da'vo arizasi ish yurituvga qabul qilinib, sud muhokamasiga tayinlanishi to'g'risida ajrim chiqarilib taraflarga yuborilgan. Sud muhokamasida aniqlanishicha, da'vogar tomonidan yuborilgan da'vo arizasi sudga yetib kelmasidan oldin javobgar to'lovni to'liq amalga oshirgan.

Sud ushbu holda da'voni qanoatlantiradimi yoki yo'qmi? Bunday holatda sud xarajatlari kimning zimmasiga yuklatiladi? Nizoni sudgacha hal etish tartibi va kelishuv bitimi haqida nimalarni bilasiz? Uning afzalliklari qanday?

2-kazus

Iqtisodiy sud «Tabiat» shirkat xo'jaligi da'vosi bo'yicha «Istiqlol» shirkat xo'jaligidan 12 000 000 so'm asosiy qarzni undirish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilgan. «Istiqlol» shirkat xo'jaligi bu hal qiluv qaroridan norozi bo'lib, qarorni olgandan keyin ikki oy o'tgach kassatsiya shikoyatini viloyat iqtisodiy sudi orqali Oliy sudga yuborish uchun topshirgan.

Iqtisodiy sudning sudyasi o'z ajrimi bilan ushbu hal qiluv qarori bo'yicha shikoyat appellatsiya instansiyasida ko'rilmaganligini asos qilib kassatsiya shikoyatini qaytargan.

Sudyaning ajrimi asoslimi? Iqtisodiy sudlov ishlarini yuritish va fuqarolik sudlov ishlarini yuritishning o'xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qiling.

2-bob. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQNING PRINSIPLARI

2.1. Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari tushunchasi va ahamiyati

Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarining mazmun-mohiyatini tahlil qilishdan avval prinsip so'zining ma'nosini anglab olish lozim.

Yodda tuting!

Prinsip so'zi lotincha «**principium**» so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida asos, qoida, negiz, degan ma'noni anglatadi.

Dernak, iqtisodiy protsessual huquqning prinsiplari ham mazkur huquq sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda hamda qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotida boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy protsessual huquqning prinsiplari iqtisodiy protsessual qonunchilik mazmuniga singdirilgan asosiy ko'r-satmalar sifatida odatda odil sudlovni sifatli, tartibli amalga oshirish, iqtisodiy protsess ishtirokchilari xatti-harakatlarini maqsadli yo'naltirish, ish bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlash, qonuniy, adolatli va asoslantirilgan qaror chiqarish vazifalariga xizmat qiladi.

Huquqiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, iqtisodiy protsessning prinsiplari barcha protsessual institutlarning tizimi va ularning mavjud tomonlarining ochib beruvchi umumiy rahbariy qoidalarni tashkil etadi.

Yodda tuting!

Iqtisodiy protsessual huquqning prinsiplari qonunda mustahkamlangan, protsessual institutlarning barcha tizimlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, iqtisodiy ishlarni to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishda odil sudlovni ta'minlaydigan asosiy rahbariy qoidalardir.

Iqtisodiy sudlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Iqtisodiy protsessual kodeksi (keyingi o'rnlarda IPK deb yuritiladi) hamda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlangan prinsiplarga rioya qilgan holda o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydag'i «Birinchi instansiya sudi tomonidan iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarorida ham iqtisodiy sudlarining e'tibori nizolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga qat'iy rioya etgan, taraflarning tengligi, sud ishlarini yuritishning oshkoraliqi, tortishuvlighi va odil sudlovnning boshqa prinsiplarini ta'minlagan holda hal etish zarurligiga qaratilishi ko'rsatilgan.

Demak, sudlar tomonidan odil sudlovnii amalga oshirishda ushbu prinsiplarga qat'iy rioya qilingan holda qonuniy, adolatli va asosli hal qiluv qarori chiqarilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy protsessual huquqning qaysi bir prinsipini olmaylik, har bir prinsipning ahamiyati uning boshqa prinsiplar bilan o'zaro ta'siri va ularning hammasi iqtisodiy protsessning barcha bosqich hamda institutlariga nisbatan ta'siri bilan belgilanadi. Masalan, tortishuvchilik prinsipini erkin huquq prinsipisiz tushunib va amalga oshirib bo'lmaydi. Bu prinsip erkin huquq prinsipining davomi hisoblanadi. Bu ikki prinsip oshkoraliq, og'zakilik, bevositalik prinsipi qoidalari bilan mustahkamlangan bo'lib, sud tomonidan obyektiv haqiqat aniqlanishini ta'minlaydi hamda protsess ishtirokchilarining protsessual huquqlari amalga oshishini kafolatlaydi.

Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari iqtisodiy protsessual huquq fani rivojlanishida, iqtisodiy protsessual qonunchilikni takomillashtirishda hamda iqtisodiy sudlar tomonidan iqtisodiy ishlarni hal qilishdagi ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- iqtisodiy sud ishlarini yuritishda sudning odil sudlovnii amalga oshirishdagi rahbariy va yo'naltiruvchi rolini belgilab beradi;

- iqtisodiy protsessual huquqning normalarini to'g'ri qo'llash va huquq yoki qonun analogiyasi qo'llaniladigan hollarda ishlarni to'g'ri hal etish imkoniyatini beradi;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud protsessi davomida o'z manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositalaridan to'liq ravishda foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi;
- iqtisodiy sud ishlarini yuritish vazifalarining to'liq bajarilishini, ya'nii qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorini chiqarish yo'li bilan fuqarolik ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida ko'rish hamda hal qilinishini ta'minlaydi;
- fuqarolar, tashkilotlar, davlat va jamiyat manfaatlarining himoya qilish bo'yicha odil sudlovning umumiyligi maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishni ta'minlaydi;
- iqtisodiy protsessual huquq sohasining istiqboldagi rivojlanishini oldindan belgilab beradi.

2.2. Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarining tasnifi

Iqtisodiy ishlarni ko'rish va hal qilishda iqtisodiy sudlar tomonidan chiqarilayotgan qarolarning adolat mezonlariga qanchalik mos kelish yoki kelmasligi iqtisodiy protsess prinsiplariga nechog'li amal qilingan-qilinmaganligiga bog'liq. Chunki ushbu prinsiplarning qaysi birini olmaylik, masalan, qonun va sud oldida tenglik, taraflarning tortishuvi hamda teng huquqliligi, sudda ish ko'rishning bevositaligi, oshkoraliq va boshqa prinsiplarning mazmun-mohiyatida xalqning xohishi-irodasi, adolat to'g'risidagi huquqiy qarashlari, g'oyalari singdirilgan. Shu nuqtayi nazardan aytadigan bo'lsak, ushbu prinsiplar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Huquq nazariyasida huquq prinsiplarini uch guruhga, ya'nii umumhuquqiy, sohalararo va sohaviy prinsiplarga ajratish keng tarqalgan. Iqtisodiy protsessual huquqi prinsiplarini ham umumhuquqiy, sohalararo va sohaviy prinsiplarga ajratib tasniflash mumkin.

Umumhuquqiy prinsiplar barcha huquq sohalari uchun umumxarakterga ega bo'lganligi bilan izohlanadi. Masalan,

ushbu prinsiplarga demokratizm, insonparvarlik, qonuniylik va boshqa prinsiplarni kiritishimiz mumkin.

Sohalararo prinsiplar huquq sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarda belgilangan prinsiplar, boshqa huquq sohasi uchun ham amal qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan sudyalarning mustaqilligi, taraflarning tengligi va tortishuvi, bevositalik, oshkoraliq, sud ishlari yuritiladigan til kabi prinsiplar ham O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida belgilangan hamda iqtisodiy protsessual huquq sohasi uchun ham amal qiladi.

Sohaviy prinsiplar har bir huquq sohasining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib tatbiq etiladigan prinsiplarni nazarda tutadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi IPKning 14-moddasida chet davlat huquqi normalarini qo'llash prinsipi musstahkamlangan. Demak, ushbu prinsip mazkur huquq sohasining sohaviy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda ham iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarini tasnifi to'g'risida fikrlar bildirilgan. Masalan, huquqshunos olim Sh.Sh. Shoraxmetov iqtisodiy protsessual huquqi prinsiplarini ikki guruhga: sud tuzilishi hamda sud ishlarini yuritishga oid umumiy prinsiplarga va faqat sud ishlarini yuritishga xos prinsiplarga ajratadi.

F. Ibratova iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarini konstitutsiyaviy hamda iqtisodiy protsessual huquqda mustahkamlangan prinsiplarga ko'ra tasniflaydi. Uning fikricha, iqtisodiyot sohasi va uni boshqarish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy nizolar yuzasidan odil sudlovni amalga oshirishning konstitutsiyaviy prinsiplariga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sndlari tizimi yagonaligi prinsipi, odil sudloving faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipi, sudyalarning saylanishi va tayinlanishi prinsipi, iqtisodiy sndlari sudyalarining mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysumishi prinsipi, iqtisodiy sndlari sudyalarining daxlsizligi prinsipi, sud ishlarini yuritishning oshkoraliqi prinsipi, sud ishlarini yuritishda til prinsipi, sud hokimiyati hujjalarinining

majburiyligi prinsipi. Iqtisodiy protsessual huquq tomonidan mustahkamlangan prinsiplar: qonuniylik prinsipi, dispozitivlik prinsipi, qonun va sud oldida tenglik prinsipi, ishlarni yakka va hay'atda ko'riliши prinsipi, protsessning ko'p marotaba bo'lishi prinsipi, taraslarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipi, sud muhokamasining og'zakiligi prinsipi, sud muhokamasining bevositaligi prinsipi, taraslarning vakilligi prinsipi, sud muhokamasining uzlucksizligi prinsipi.

Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarini turli xil mezonlarga ko'ra tasniflash amalga oshirilgan bilan ular o'zaro aloqador hamda chambarchas bog'liqidir. Chunki prinsiplardan ba'zilari boshqa prinsiplarning qoidalarini to'ldiradi va rivojlanadir, boshqa hollarda ayrim prinsiplar boshqalarining kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, birgina dalillarni tekshirishning bevositaligi prinsipining buzilishi qoida tariqasida boshqa prinsip – qonuniylik prinsipining yoki butun prinsiplar zanjining buzilishiga olib keladi.

2.3. Iqtisodiy protsessual huquqning konstitutsiyaviy prinsiplari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida odil sudlovnинг faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'y sunishi, qonun va sud oldida tenglik, sud ishlari yuritiladigan til, sud muhokamasining oshkoraliги, sud hujjatlarining majburiyligi kabi sud ishlarini yuritishning konstitutsiyaviy prinsiplarining mustahkamlanishi iqtisodiy sud ishlarini yuritish tartib-taomillarni belgilab berishda fuqarolar va tashkilotlarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari iqtisodiy sudlar tomonidan samarali himoya qilinishini amalda ta'minlaydi.

Odil sudlovnинг faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipi. Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 6-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra iqtisodiy ishlar bo'yicha odil sudlov IPKda belgilangan qoidalar bo'yicha faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

Odil sudlovni faqat sudlar tomonidan amalga oshirilish prinsipi nafaqat iqtisodiy protsessual huquqiga, balki fuqarolik protsessual huquqi, jinoyat protsessual huquqiga ham xos konstitutsiyaviy prinsip hisoblanib, o'z maqsad va vazifalariga ko'ra huquqiy munosabatning turidan qat'i nazar, faqat odil sudlovni amalga oshiradi. Demak, odil sudlovni sud tizimining qaysi bo'g'inidagi sudlar amalga oshirishidan qat'i nazar, ularning asosiy vazifasi fuqarolar, korxona, muassasa hamda tashkilotlarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, qonuniy, asosli va adolatli hukm, hal qiluv qarorlari qabul qilishdir. Bu esa mazkur prinsipni ushbu huquq sohalari uchun mushtarakligidan dalolat beradi.

Qonun va sud oldida tenglik prinsipi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, IPKning 7-moddasi va «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida belgilangan. Mazkur prinsip iqtisodiy sud ishlarini yuritishga xos konstitutsiyavly prinsip hisoblanadi.

Yodda tuting!

O'zbekiston Respublikasi IPKning 7-moddasiga ko'ra sudda nizolarni hal qilish yuridik shaxslarning mulkchilik shaklidan, qayerda joylashganligidan, kimga bo'y sunishidan qat'i nazar, fuqarolarning esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan, shuningdek, boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

Qonun va sud oldida tenglik prinsipi odil sudlovni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. O'z mazmuniga ko'ra u barcha iqtisodiy sud ishlari yuritish ishtiokchilariga tegishli bo'ladi. Shuningdek, mazkur prinsip chet ellik shaxslarga ham tegishlidir.

Chet ellik shaxslar iqtisodiyot sohasida o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun IPKda belgilangan sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik qoidalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudlariga murojaat qilish huquqiga ega.

Chet ellik shaxslar O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolari bilan teng protsessual huquqlardan foydalanadi va protsessual majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Ishda ishtirok etuvchi chet ellik shaxslar o'zining yuridik maqomini va iqtisodiyot sohasida faoliyatni amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi dalillarni O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudiga taqdim etishi kerak.

Sudlarida O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining va fuqarolarining protsessual huquqlariga nisbatan maxsus cheklovlarga yo'l qo'yilayotgan davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslariga nisbatan javob tariqasida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida cheklovlari belgilanishi mumkin (IPKning 245-moddasi).

Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'y sunishi prinsipi. Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida, IPKning 8-moddasida, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi IPKning 8-moddasiga ko'ra, odil sudlovnii amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'y sunadilar. Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4850сон, 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son va 2017-yil 21-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini sud tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4966-son, 2018-yil 13-iyuldag'i «Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5482-son, 2020-yil 24-iyuldag'i «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga

doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6034-son farmonlarining qabul qilinishi sudyalarning mustaqilligini mustahkamlashda va ularni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirishda, odil sudlovni sifatini oshirishda hamda suda kadrlarni tanlash va ularni tayinlash (saylash)da, sudyalikka qo'yilgan talablarni samarali tizimini joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sudyalarning mustaqilligi prinsipining amal qilishi odil sudlovning fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning, ular o'ttasidagi nizolarni hal etishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Odil sudlovni amalg'a oshirish jarayonida suda to'liq mustaqil bo'lib, faqatgina qonunga bo'ysunishi kerak.

Sudyalarning mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining bir qator huquqiy normalarida ham mustahkamlangan. Masalan, Iqtisodiy protsessual kodeksning 175-moddasiga ko'ra sud ish bo'yicha dalillarni tekshirish va sud muzokaralari tugaganidan keyin sud hujjatini qabul qilish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) kiradi. Shuningdek, iqtisodiy sudda ish hay'atda ko'rيلayotganda va hal qilinayotganda kelib chiqadigan masalalar bo'yicha sudyalarning qaroriga qo'shilmagan suda o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli (IPKning 18-moddasi).

Bundan tashqari, Iqtisodiy protsessual kodeksning 74-moddasiga ko'ra iqtisodiy sud ishdagi mavjud dalillarni har tomonlama, to'liq va xolis tekshirishga asoslangan o'z ichki komil ishonchi bo'yicha baholashi, hech qanday dalil sud uchun oldindan belgilab qo'yilgan kuchga ega emasligi ham sudyalarning mustaqilligini protsessual jihatdan arnalda kafolatlaydi.

Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi. Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, IPKning 10-moddasi hamda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 10-moddasiga ko'ra iqtisodiy sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi. Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan sud protsessi ishtirokchilarining

tarjimon orqali ish materiallari bilan tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish hamda sudda o'z ona tilida yoki erkin tanlangan muloqot tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud muhokamasi jarayonida qabul qilinadigan sud hujjatlari sud majlisi qaysi tilda o'tkazilgan bo'lsa, o'sha tilda tuziladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunining qabul qilinishi sud ishlari yuritiladigan til prinsipini huquqiy jihatdan yana bir bor mustahkamladi.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonunining 8-moddasi ikkinchi qismida sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanishi belgilangan.

Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslarga jarayonning tushunarli, shu bilan birga sudda ish ko'rishning tarbiyaviy xarakterda bo'lishini ta'minlaydi. Sud ishlari yuritiladigan til prinsipiga rivoja etilishi ish holatlarini to'g'ri aniqlashiga qonuniy, asosli hal qiluv qarori chiqarilishiga ko'maklashadi.

Sud ishlari yuritiladigan til prinsipiga binoan iqtisodiy sudda sud ishlari qaysi tilda va yozuvda olib borilgan bo'lsa, o'sha tilda va yozuvda sud majlisi bayonnomasi va sud qarori yozilgan bo'lishi shart.

Yodda tuting!

O'zbekiston Respublikasi IPKning 279-moddasiga binoan ishni ko'rishda sud ishi yuritiladigan til to'g'risidagi qoidalarning buzilishi protsessual huquq normalarining buzilishi hisoblanib, har qanday holda ham birinchi instansiya iqtisodiy sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Sud muhokamasining oshkoraliyi prinsipi. Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasida, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasi, IPKning 12-moddasida mustahkamlangan.

Iqtisodiy protsessual kodeksining 11-moddasiga ko'ra iqtisodiy sndlarda ishlar muhokamasi oshkora o'tkaziladi. Davlat sirini, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash zarur bo'lgan taqdirda ishni yopiq sud majlisida eshitishga yo'l qo'yildi. Ishni yopiq sud majlisida videokonferensaloqa rejimida eshitishga yo'l qo'yilmaydi, bunday majlisning audio va videoyozuvlari amalga oshirilmaydi.

Eshitish yopiq sud majlisida o'tkazilgan taqdirda ishni elektron shaklda shakkantirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ishni yopiq sud majlisida muhokama qilish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari sudning rasmiy veb-saytida taraflarning roziligi bilan yoki shaxsi ko'rsatilmagan tarzda e'lon qilinadi, bundan sudning yopiq majlisida qabul qilingan sud hujjatlari mustasno.

Iqtisodiy sud ishlarini yuritishning oshkoraliqi prinsipi quyidagi ahamiyati bilan ajralib turadi:

birinchidan, oshkoraliq bu sndlarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'y sunishining muhim kafolati hisoblanadi;

ikkinchidan, oshkoraliq prinsipi jamoatchilikning odil sudlov ustidan nazorat yuritishni ta'minlaydi;

uchinchidan, mazkur prinsip muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u jarayonda ishtirok etuvchilar va tadbirdorlar qonunni buzsa qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqishi haqida ogohlantiradi;

to'rtinchidan, oshkoraliq prinsipi sud hokimiyatining qandayligini, bu to'g'risida aholini ma'lum bir sud jarayoni haqida ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi;

beshinchidan, odil sudlovni amalga oshirishda xalq nazoratining o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Sud hujjatlarining majburiyligi prinsipi. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuning 10-moddasiga ko'ra qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va

tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Vodda tuting!

O'zbekiston Respublikasi IPKning 5-moddasiga binoan iqtisodiy sud hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug'i shaklidagi sud hujjatlarini qabul qiladi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu prinsip ham barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun odil sudlov hujjatlarini ijrosini to'liq ta'minlash, ularning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni hamda sud hujjatlariga rioya qilinishi, ularda ko'rsatilgan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini amalda ta'minlaydi.

2.4. Iqtisodiy protsessual huquqning maxsus prinsiplari

Iqtisodiy sud ishlarni yuritishda iqtisodiy protsessual huquqning maxsus, ya'ni ushbu huquq sohasi uchun amal qiladigan, funktional prinsiplari mavjud. Ushbu prinsiplarga ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish, erkin huquq, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi, sud muhokamasining bevositaligi, og'zakilik, chet davlat huquqi normalarini qo'llash prinsiplarini kiritish mumkin.

Ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipi. Ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipi iqtisodiy protsessda ishtirok etuvchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, IPK va boshqa qonun hujjatlariga antiq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shartligini bildiradi. Ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipi odil sudlovnii amalgaga oshirishni, huquqni to'g'ri qo'llashni, sud

hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli chiqarilishini, yuqori instansiya sndlari tomonidan quyi sndlarning hal qiluv qarorlarining qonuniyligini tekshirib chiqishni ta'minlab beradi.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 13-moddasiga ko'ra sud ishlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qiladi. Sud ishni ko'rishda davlat organining yoki boshqa organning hujjati qonunga muvofiq emasligini, shu jumladan, ushbu hujjat vakolat doirasidan chetga chiqilgan holda qabul qilinganligini aniqlasa, qonunga muvofiq qaror qabul qiladi. Nizoli munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari mavjud bo'limgan taqdirda, sud shunga o'xhash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalalarini qo'llaydi, bunday normalalar ham mavjud bo'limganda esa nizoni qonunlarning umumiylashtirishini va mazmuniga tayanib hal qiladi.

Tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, banklar o'rtasidagi nizolar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishda qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi.

Sud O'zbekiston Respublikasining qonuniga yoki xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatlarning huquq normalarini qo'llaydi.

Erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi iqtisodiy sud ishlarini yuritishni harakatga keltiruvchi prinsip hisoblanadi.

Yodda tuting!

Iqtisodiy protsessual huquqda erkin huquq prinsipi – bu o'zining yoki boshqa shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'reqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida iqtisodiy protsessni yujudga keltirish, harakatlantirish va tugatish bilan bog'liq bo'lgan protsessual huquqlardan foydalanish erkinligidir.

Erkin huquq prinsipiga muvofiq, iqtisodiy ishlari umumiy qoidaga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tashabbuslari ta'siri ostida qo'zg'atiladi, rivojlantiriladi, o'zgartiriladi, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tadi va o'z xohishiga ko'ra tugatiladi. Ushbu prinsipning vujudga kelish asoslari iqtisodiy ish yuritishning barcha bosqichlarini qamrab olib, iqtisodiy ishini qo'zg'atish bosqichidan ijro bosqichiga qadar nizoni hal qilishda amal qiladi.

Erkin huquq prinsipi mazmunini iqtisodiy sud ishlarini yuritishda da'vo qo'zg'atish, da'vadan voz kechish, da'voni tan olish, kelishuv bitimi tuzish, sud qarorlari ustidan shikoyat (protest) berish, qarshi da'vo keltirish tashkil etadi.

IPK 157-moddasida ko'rsatilishicha, da'vogar ishni birinchi instansiya sudida ko'rish chog'ida ishning mazmunan ko'riliishi yakuni bo'yicha chiqariladigan sud hujjati qabul qilinguniga qadar da'veoning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirishga yoki kamaytirishga haqli.

Da'vogar ishni har qanday instansiya sudida ko'rishda tegishli sud instansiyasida ishni ko'rish yakuni bo'yicha chiqariladigan sud hujjati qabul qilinguniga qadar da'vadan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli.

Sud da'veoning asosi va predmeti bir vaqtida o'zgartirilishini qabul qilmaydi. Sud da'vadan voz kechishni, da'vo talablari miqdorini kamaytirishni ham, agar bu qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzsa, qabul qilmaydi. Bunday hollarda sud ishni mazmunan ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 131-moddasiga ko'ra taraslar nizoni kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzib hal etishi mumkin. Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv da'vo tartibidagi har qanday ish bo'yicha tuzilishi mumkin. Kelishuv bitimi iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida va sud hujjatini ijro etish jarayonida, mediativ kelishuv esa birinchi instansiya sudida alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar taraslar tomonidan tuzilishi mumkin.

Kelishuv bitimi u sud tomonidan tasdiqlanganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Shu o'rinda aytish kerakki, sud kelishuv bitimini tasdiqlashni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

- 1) uning shartlari qonun hujjatlariga zid bo'lsa;
- 2) uning shartlari uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari daxildor bo'lsa;
- 3) u shart asosida tuzilgan bo'lsa.

Iqtisodiy sudga murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilishi mumkin. Mazkur huquqiy norma ham iqtisodiy sudga murojaat qiluvchi shaxslarning erkin huquq prinsipidan foydalanishga yana bir bor imkoniyat beradi.

Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipi. O'zbekiston Respublikasi IPKning 9-moddasiga ko'ra iqtisodiy sudida sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi.

Tortishuvchilik prinsipi iqtisodiy sud ishini yuritish hamda iqtisodiy sudlar tomonidan qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Yuridik adabiyotlarda tortishuvchilik prinsipi ishda ishtirok etuvchi har qanday shaxs iqtisodiy ish to'g'risida arz qilishi, bayonotlar berishi, e'tiroz bildirishi, iltimoslar qilishi, sudga dalillar topshirish bilan o'zining haqligini isbotlashi, ish mazmuni bo'yicha o'z fikrlarini aytishi mumkin; ikkinchidan, prokuror ish holatlarini isbotlashi, ishning ayrim masalalari yuzasidan, shuningdek, hamma ish bo'yicha sudga o'z fikrini berishi mumkinligi yoki tortishuvchilik prinsipi nizolashayotgan tarallarning qarama-qarshi moddiy huquqiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lib, sudda ish yuritishning boshidan oxirigacha taralar bir biri bilan protsessual qarama-qarshilikda bo'lishini bildirishi haqida fikrlar bildirilgan.

Darhaqiqat, iqtisodiy protsessda tortishuvchilik butun protsess davomida da'vogar va javobgarlarning huquqiy bahsalashuvi shaklida ro'y berishida ifodalananadi. Taraflar o'z talab va

e'tirozlarini isbotlash uchun sudga dalillar taqdim etadilar va tushuntirishlar beradilar. Iqtisodiy protsessda tortishuvchilik prinsipi shundan iboratki, taraflar asos sifatida keltirayotgan dalillar doirasini o'zlar belgilaydilar.

Tortishuvlik prinsipiga muvofiq ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talab va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak. Yuridik shaxslar va fuqarolarga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda huquqiy ta'sir choralarini qo'llash uchun asos bo'lgan holatlarni isbotlash majburiyati nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatiladi (IPKning 68-moddasi).

Taraflar tortishuvi orqali obyektiv haqiqat aniqlanadi. Chunki tortishuvchilik prinsipi sudga ishni to'g'ri hal qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli darajada imkon beradi.

Taraflarning teng huquqliligi prinsipi, bir tomondan, ularning protsessual huquqlarining to'liqligini, ikkinchi tomondan, protsessda taraflarning holati sudga nisbatan tengligini ifoda etadi. Taraflarning teng huquqliligi prinsipiga mulkiy jihatdan emas, balki protsessual nuqtayi nazardan yondashish kerak. Shuning uchun ham taraflarning teng huquqliligi protsessual ma'nodagi tengligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu protsessual ma'nodagi tenglik tarallarning protsessual huquqlardan teng foydalanishi, ya'nish ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, ko'chirma nusxa olish, rad qilish to'g'risida ariza berish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish, arz qilish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) hamda IPKda o'zlariga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqini amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Sud ishlarini yuritishda taraflarning teng huquqliligi prinsipini teng protsessual imkoniyatlar sifatida tushunish lozim. U nafaqat protsessual huquqlar, balki protsessual majburiyatlarda

ham narmoyon bo'ladi. Aynan shu prinsipga asosan bir tarafga ruxsat etilmagan barcha narsalar, ikkinchi tarafga ham man etilgan, bir tarafga yuklatilgan majburiyatlar ikkinchi tarafga ham yuklatiladi.

Sud muhokamasining bevositaligi prinsipi. O'zbekiston Respublikasi IPKning 12-moddasiga ko'ra iqtisodiy sud ishni ko'rishda ish bo'yicha barcha dalillarni bevosita tekshirishi shart.

Ushbu prinsipga binoan iqtisodiy sudlar ishni ko'rayotganida ishga oid dalillarni bevosita tekshirishi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko'rsatmalarini, ekspertlarning xulosalarini eshitishi, yozma dalillar bilan tanishishi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishi shart. Sud bevosita faqat tarallarning tushuntirishlarini eshitish bilan kifoyalaniq qolmasdan, balki uchinchi shaxslarning, prokurorning fikrini ham eshitishi kerak. Chunki ish bo'yicha ishtirok etayotgan uchinchi shaxs yoki prokurorning fikri nizoni to'g'ri, adolatli hal etishda u yoki bu darajada yaxshi natija beradi.

Bevositalik prinsipi ish bo'yicha laqat dalillarni tekshirishdangina iborat bo'lmay, balki butun sud muhokamasi vaqtida sud tarkibining o'zgarmasligini ham kafolatlaydi. Masalan, sudyu sud muhokamasining tayyorlash qismida almashtirilsa, dastlabki sud tarkibi dalillarni hali tekshirmagan bo'lsa ham, ish boshidan qayta ko'riliishi kerak. Shuningdek, agar sudyu sud muzokarasi vaqtida sud majlisi zalidan chiqib ketsa yoki taralarning so'zlarini boshqa aloqa vositalari orqali eshitishi ushbu prinsipning buzilishiga sabab bo'ladi.

Bevositalik prinsipining eng qo'pol tarzda buzilishi, ya'ni hal qiluv qarori sudyalardan birortasi tomonidan imzolanmagan bo'lsa yoki hal qiluv qarorida ko'rsatilmagan sudyalar tomonidan imzolangan bo'lsa yoki hal qiluv qarori ishni ko'rgan tarkibagi sudyalardan boshqa sudyalar tomonidan qabul qilingan bo'lsa, protsessual huquq normalarining buzilishi hisoblanib, sud hal qiluv qarorini bekor bo'lishiga olib keladi (IPKning 279-moddasi).

Iqtisodiy protsessual qonunchiligi ayrim hollarda bevositalik prinsipidan chetga chiqishga ruxsat beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 91-moddasiga

binoan, ishni ko'rayotgan sud boshqa tuman yoki shahar hududidagi dalillarni olish zarur bo'lgan taqdirda, tegishli sudga muayyan protsessual harakatlarni bajarishni topshirishga haqli. Sud topshirig'i to'g'risidagi ajrimda ko'rileyotgan ishning mazmuni qisqacha bayon qilinadi, aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar, topshiriqni bajaradigan sud to'plashi kerak bo'lgan dalillar ko'rsatiladi.

Sud topshirig'i to'g'risidagi ajrim topshiriq berilgan sud uchun majburiydir va u ajrim olingan paytdan e'tiboran o'n besh kungacha bo'lgan muddatda bajarilishi kerak. Demak, mazkur holatda iqtisodiy ishni ko'rayotgan sud o'zi protsessual harakatlarni bevosita amalga oshirmasa ham, bevositalik prinsipi buzilgan hisoblanmaydi.

Sud muhokamasining og'zakiligi prinsipi. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida og'zakilik prinsipi alohida moddada mustahkamlanmagan bo'lsa-da, iqtisodiy protsessual qonunchiligi huquqiy normalarining mazmun-mohiyatiga singdirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 42-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlaridan biri sifatida iqtisodiy sudga og'zaki tushuntirishlar berishi, IPKning 88-moddasida guyoh o'zi bilgan ma'lumotlar va holatlarni iqtisodiy sudga og'zaki xabar qilishi, ekspertlarning o'z xulosalarini og'zaki tushuntirishlari sud majlisи bayonnomasida ko'rsatilishi belgilangan.

Iqtisodiy sndlarda ham taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat boshqaruvi organlari va boshqa organlartushuntirishlari, fikr va xulosalari og'zaki eshitiladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslardan tashqari odil sndllovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar – guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislar, tarjimonlarning tushuntirishlari og'zaki ravishda ifodalananadi.

Sudga taqdim qilingan yozma dalillar ham og'zakilik prinsipiiga ko'ra sudda og'zaki muhokama qilinadi. Sud majlisida og'zaki tekshirilgan vaqtida aniqlangan va tasdiqlangan materiallarga sud qaroriga asos qilib olinadi.

Sud majlisida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimos-normalari va arzlar og'zaki ravishda tekshiriladi. Iqtisodiy sudlarning sud majlisida ish materiallarini og'zaki tekshirilishi ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga, tarallarning huquqlarini samarali himoya qilinishini hamda odil sudloving tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Og'zakilik prinsipi barcha instansiya sudlarida amal qiladi. Ya'ni, iqtisodiy ishni yuqori instansiyalarda ko'rishda ham sud majlisida ishtirok etuvchi shaxslar o'zlarining tushuntirish va xulosalarini og'zaki ravishda ifoda etadi. Sud tarkibi a'zolari ham o'z ma'ruzalarini og'zaki o'qib eshittiradi.

Og'zakilik prinsipi taraflarning tortishuvini yuzaga kelishiga, vaqt ni tejashga va iqtisodiy sud ishlarini tezda ko'rib hal qilishni soddalashtiradi.

Chet davlat huquqi normalarini qo'llash prinsipi. Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga yangi kititilgan prinsilardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 14-moddasida ko'rsatilishicha, chet davlat huquqi normalarini qo'llashda sud ushbu normalarning mazmuni ularning tegishli chet davlatda sharhlanishiga va amalda qo'llanilishiga muvofiq holda aniqlaydi.

Chet davlat huquqi normalari mazmunini aniqlash maqsadida sud ko'maklashishni va tushuntirib berishni so'rab, O'zbekiston Respublikasining hamda chet davlatlarning vakolatli organlariga yoki tashkilotlariga belgilangan tartibda murojaat qilishi yoxud ekspertlarni jalg etishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar talablariga yoki e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan chet davlat huquqi normalari mazmunini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etishi va ushbu normalarning mazmunini aniqlashda iqtisodiy sudga boshqacha tarzda ko'maklashishi mumkin.

Agar ko'rigan chorralarga qaramay chet davlat huquqi normalarining mazmuni aniqlanmasa, iqtisodiy sud O'zbekiston Respublikasining tegishli huquq normalarini qo'llaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari va ularga rioya qilmaslik oqibatlarini sud amaliyotidan misollar keltirib tahlil eting.
2. Sud-huquq islohotlari sharoitida sudyalarining mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunish prinsipini amalda ta'minlash maqsadida qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi? Javobingizni normativ-huquqiy hujjatlar asosida asoslantiring.
3. Iqtisodiy protsessual huquqning maxsus prinsiplarini misollar asosida tahlil qiling.
4. Iqtisodiy protsessual va fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarini o'zaro o'xhash va farqli jihatlarini tushuntiring.

KAZUSLAR

1-kazus

2018-yil 12-iyun kuni iqtisodiy sudga da'vogar «Arko» qo'shma korxonasi javobgar «Gilya» MChJga nisbatan qarz undirish haqidagi da'vo bilan murojaat qildi. «Gilya» MChJ 2016-yil 10-dekabrda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «Ukain» xolding kompaniyasining tarkibiga qo'shib olindi. Sud majlisi vaqtida «Gilya» MChJ vakili o'zbek tilini yoki dunyo tillarining birontasini ham bilmasligini aytib, agarda sud majlisini bir haftaga keyinga qoldiradigan bo'lsa, boshqa vakilni sudga jalb etishi mumkinligini aytdi. Ammo bunga da'vogarning vakili rozi bo'lmedi va agarda sud bir hafta keyinga qoldirilsa, qo'shma korxona bankrot holatiga kelib qolishi mumkinligini ta'kidladi. Iqtisodiy sud sudyasi ishni ko'rishni boshladi. Qarz shartnomasidagi munosabatlarni biron-bir huquq normasi bilan tartibga solishning iloji bo'lmagandan keyin iqtisodiy sud o'z ishonchiga ko'ra hal qiluv qarorini chiqardi. Sud majlisida sud majlisi kotibi og'ir betob bo'lgani uchun ishtiroy eta olmadi, suda bu holatni ish yengil bo'lgani tufayli ahamiyatga ega emas deb baholadi, taraflar o'zining huquqlar bilan tanishtirilmadi, shuningdek, qarz shartnomasi tijorat siri bilan bog'liq bo'lgan

holatlarni aniqlagach, sud bu qismga oid bo'lgan da'voni alohida berish kerakligini taraflarga tushuntirib o'tdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Sud majlisi bayon-nomasining yo'qligi qaysi prinsipning buzilishi hisoblanadi? Javobingizni qonun hujjatlari asosida izohlang?

2-kazus

Chilonzor turman hokimligi iqtisodiy sudga murojaat qilib, «ALSTRAS» xususiy ishlab chiqarish tijorat firmasini tugatishni so'ragan. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori bilan da'vo rad etilgan.

Apellatsiya instansiyasi sudi 2017-yil 19-apreldagi o'z ajrimi bilan hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining 2017-yil 22-iyundagi qarori bilan mazkur iqtisodiy ishni 2017-yil 19-aprelda viloyat sudi appellatsiya instansiyasida ko'rishda qatnashib raislik etgan sudya, shu ishni 2017-yil 20-martda birinchi instansiya tartibida ko'rlishida ham qatnashganligini ko'rsatib, appellatsiya instansiyasi sudi ajrimini bekor qilib, ishni yangidan appellatsiya instansiyasida ko'rish uchun yuborgan.


Vaziyatga huquqiy baho bering. Javobingizni qonun hujjatlari bilan asoslantiring.

3-bob. IQTISODIY ISHLARNING SUDGA TAALLUQLILIGI VA SUDLOVGA TEGISHLILIGI

3.1. Iqtisodiy ishlarning taalluqliligi tushunchasi va turlari

Taalluqlilik tushunchasi yuridik adabiyotlarda odatda keng (umumiyl) va tor (maxsus) ma'nolarda tushuniladi. Keng ma'noda taalluqlilik davlat funksiyalarini turli organlar o'rtasida taqsimlash yo'lli bilan uning normal faoliyatini ta'minlovchi mexanizm sifatida izohlanadi va muayyan davlat organi, mansabdar shaxs yoki jamoat tashkilotining amalga oshiradigan funksiyalariga muvofiq ular ish yurituvidanagi har qanday obyekt (ishlar)ning tegishliligi bilan belgilanadi.

O'z navbatida taalluqlilik instituti – sohalararo protsessual institut hisoblanadi. Shuning uchun ham taalluqlilik institutini tor (maxsus) ma'noda tushunish asosan protsessual huquq sohasida, xususan fuqarolik protsessual huquqi va iqtisodiy protsessual huquqi nazariyasida keng tarqalgan bo'lib, «fuqarolik ishlarining taalluqliligi» va «iqtisodiy ishlarning taalluqliligi» tushunchalarini shakllangan.



Yuridik adabiyotlarda taalluqlilik turlarining tasniflanishi, ularning huquqiy tabiatini va nomlanishi xususida yagona yondashuv mavjud emas.

Biroq, aksariyat yuridik adabiyotlarda **taalluqlilikni yuridik ishlarni hal etish vakolatiga ega bo'lgan organlarning soniga** ko'ra tasniflash keng tarqalgan bo'lib, unga asosan **bir turdag'i va ko'p turdag'i taalluqlilik** turlari farqlanadi.




Bir turdag'i taalluqlilikda qonun bilan muayyan toifadagi ishlarni bevosita hal etish vakolatiga ega bo'lgan organ ko'rsatilib, boshqa organlar ushbu ishni hal etish vakolatiga ega bo'lmaydi. Taalluqlilikning ushbu turi ayrim yuridik adabiyotlarda mustasno yoki maxsus taalluqlilik turi deb ham nomlanadi. Taalluqlilikning ushbu turiga misol qilib, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlar, bankrotlik to'g'risidagi ishlar, korporativ nizolar bo'yicha ishlarni keltirish mumkin.

Bir turdag'i taalluqlilik turidan farqli ravishda ko'p turdag'i taalluqlilik iqtisodiy ishlarning bir nechta organlar tomonidan ko'rib hal qilinishi mumkinligini belgilaydi.

Ko'p turdag'i taalluqlilik bir nechta organlar tomonidan muayyan toifadagi ishlarni ko'rib hal etilishi mumkin bo'lgan ishlar doirasini belgilab beradi. Shuning uchun, uning turlarini tasniflash qonun bilan belgilangan tartibda muayyan ishni hal etish vakolatiga ega bo'lgan tegishli organni tanlash usuliga ko'ra amalga oshiriladi. Ushbu organlar qatorida ijro hokimiyati

organlari (bojxona organlari, soliq organlari, notariat organlari), sud hokimiyati organlari (fuqarolik sudlari, iqtisodiy sudlar, ma'muriy sudlar), nodavlat organlar (hakamlik sudlari, xalqaro arbitraj sudlari) va boshqa organlar bo'lishi mumkin.



Demak, muayyan toifadagi ishni ko'rib, hal etish vakolatiga ega bo'lgan organni tanlash usuliga ko'ra ko'p turdag'i taalluqlitik turlari.

Imperativ taalluqlilik ishning qonun bilan belgilangan muayyan ketma-ketlik asosida bir nechta yurisdiksiyaviy organ tomonidan ko'rib chiqilishini nazarda tutadi. Ushbu yurisdiksiyaviy organlarni asosiy va qo'shimcha organlarga ajratish mumkin. Qonun bo'yicha ishni birinchi marotaba ko'rib chiqishi kerak bo'lgan organ asosiy (majburiy) organ, ushbu organ tomonidan ko'rib chiqilganidan so'nggina ishni ko'rishi mumkin bo'lgan organ qo'shimcha organ bo'lib hisoblanadi. Qo'shimcha organ ishni birinchi bo'lib ko'rib chiqishi lozim bo'lgan yurisdiksiyaviy organ tomonidan qaror qabul qilinmagan yoki manfaatdor shaxsni qoniqtirmaydigan qaror qabul qilingan taqdirda ishni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Imperativ taalluqlilik odatda quyidagi ikkita shartning birgalikda mavjudligi bilan tavsiflanadi:

birinchidan, ishning ikki yoki undan ortiq yurisdiksiyaviy organlar tomonidan muayyan ketma-ketlikda hal qilinishi qonun bilan belgilanadi;

ikkinchidan, bunday izchillikda ishni hal etish shartligi qonun bilan mustahkamlanadi.

Ya'ni, imperativ taalluqlilik iqtisodiy sudning muayyan ishni tegishli organ ko'rib chiqqandan so'ng ko'rib chiqish imkoniyatini nazarda tutadi.

Imperativ taalluqlilikka misol qilib mulk huquqini tan olish to'g'risidagi ishlarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2010-yil 19-noyabrdagi 220-sonli «Mulk huquqini tan olishga oid ishlarni ko'rishda iqtisodiy sudlar tomonidan qonun hujjatlari qo'llanilishining ayrim masalalari to'g'risida»gi Qarorining 10-bandiga asosan, mulk huquqini vujudga keltiruvchi shartnoma yoki boshqa hujjatni notarial tasdiqlash yoxud uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilingan holda, notariusga yoki davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun tegishli davlat organiga murojaat qilinmasdan, sudga mulk huquqini tan olish haqida da'vo kiritilsa, da'vo talabini qanoatlantirish rad qilinadi. Bunday holda da'vogarga notarius yoxud mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi tegishli davlat organiga murojaat qilish huquqi tushuntirilishi lozimligi belgilangan.

Bundan tashqari, ushbu plenum qarorida agar sudga notarius yoxud tegishli davlat organi tomonidan oldi-sotdi shartnomasi (yoki boshqa hujjat)ni tasdiqlash yoki ro'yxatdan o'tkazish rad etilganligi asos qilinib, mulk huquqini tan olish haqida da'vo kiritilsa, uni qanoatlantirish rad qilinishi lozimligi tushuntirilgan. Ushbu holatda iqtisodiy sud da'vogarga notariusning notarial harakatni amalga oshirishni rad qilish to'g'risidagi qarori yoki shartnoma (yoki boshqa hujjat)ni tegishli davlat organining ro'yxatdan o'tkazishni rad etishi ustidan ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqi tushuntirilishi lozim¹.

Imperativ taalluqlilikning belgilar:

- ❖ muayyan toifadagi iqtisodiy ishni bir nechta yurisdiksiyaviy organlar tomonidan ko'rib chiqilishi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2010-yil 19-noyabrdagi «Mulk huquqini tan olishga oid ishlarni ko'rishda iqtisodiy sudlar tomonidan qonun hujjatlari qo'llanilishining ayrim masalalari to'g'risida»gi 220-sonli qarori, 10.1-band.

❖ qonun bilan ishni ko'tish vakolatiga ega bo'lgan organlar ketma-ketligining belgilanganligi;

❖ ish iqtisodiy sud tomonidan ko'rilgunga qadar odatda ma'muriy organ tomonidan ko'riliishi lozimligi bilan xarakterlanadi.

Shuningdek, qayd etish lozimki, taalluqlilikning ushbu turi ayrim yuridik adabiyotlarda imperativ yoki shartli taalluqlilik sisatida qayd etiladi¹. Biroq, bizningcha, shartli taalluqlilik imperativ taalluqlilikdan farqli ravishda qonun bilan belgilangan muayyan shartlar mavjud bo'lgan taqdirda sudga murojaat qilish mumkinligini nazarda tutadi va taalluqlilikning mustaqil turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xuddi shu nuqtai nazardan, imperativ taalluqlilikka nisbatan shartli taalluqlilik terminini qo'llash maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

Shartli taalluqlilikda boshqa yurisdiksiyaviy organ tomonidan nizoni sudgacha hal qilish lozimligi nazarda tutilmaydi, shuningdek, taalluqlilikning ushbu turi muayyan toifadagi ishlarni hal etishga vakolatlari bo'lgan tegishli organni tanlash usuliga asoslangan ko'p turdag'i taalluqlilik turlarining tasniflanishi bilan qamrab olinmaydi. Shartli taalluqlilikni ko'p turdag'i taalluqlilik turlariga kiritmaslikning qo'shimcha argumenti sisatida shartnomaviy taalluqlilik qoidalarining qo'llanilishining nizoni sudgacha taraflarning o'zları tomonidan hal qilinishini istisno qilmasligi bilan belgilanadi².

Yuridik adabiyotlarda muayyan toifadagi nizolarni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibining imperativ taalluqlilik turiga kirishi to'g'risida turli xil fikr mulohazalar ilgari suriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda FK deb yuritiladi) 384-moddasi ikkinchi qismiga asosan, shartnomani o'zgartirish va bekor qilishda sudgacha

¹ Арбитражный процесс: учебник / отв. ред. В.В. Ярков. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Инфотропик Медиа, 2014. – С. 76; Арбитражное процессуальное право. Учебное пособие. В.В. Ефимова, «Дашков и К° ИТК, 2008. – С. 28; Арбитражный процесс: Учебник / Под ред. С.В. Никитина. – М.: РГУП. 2017. – С. 34.

² Стрелкова И.И. Подведомственность арбитражному суду дел по экономическим спорам и иных дел. Дисс. ... канд. юрид. наук наук. 12.00.15. – Екатеринбург, 2002. – С. 25.

talabnoma yuborish tartibiga rioya qilinishi lozimligi to'g'risida qoida mustahkamlangan. Unga muvosiq, bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'limganida esa – o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Shuningdek, FKning 724-moddasiga muvosiq, tashuvchiga nisbatan yuk tashishdan kelib chiqadigan da'voni qo'zg'atishdan oldin unga tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda talab qo'yilgan bo'lishi shart. Agar yuk tashuvchi talabni qondirishni to'liq yoki qisman rad etsa yoki o'ttiz kunlik muddat ichida talabga javob qaytarmasa, yuk jo'natuvchi yoki yuk oluvchi tashuvchiga nisbatan da'vo qo'zg'atishi mumkinligi belgilangan.

Bundan tashqari, IPKning 148-moddasi ikkinchi qismida ham agar qonunda muayyan toifadagi nizolar uchun sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi belgilangan yoxud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, faqat taraflar o'zaro munosabatlarini ixtiyoriy ravishda hal qilish choralarini ko'rghanlaridan keyingina sudda ish qo'zg'atilishi mumkinligi belgilangan.

Shunday ekan, nizolarni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra imperativ taalluqlilikdan farq qiladi va shartli taalluqlilik turi bo'lib hisoblanadi.

Nizolarni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi

- qonun bilan yoki shartnomaga bilan belgilanadi;
- nizolarni hal qilish yuridiksiyativ organlarga ermas, balki taraflarning o'ziga yuklatiladi

Imperativ taalluqlilik qoidalari

- qonun bidan mustahkamlanadi
- ishning ikki yoki undan ortiq yurisdiksiyativ organlar tomonidan muayyan ketma-ketlikda hal qilinishi belgilanadi

Nizolarni sudgacha hal qilish (talabnomá yuborish) tartibiga rivoja qilmaslik

arizani ish yuritishga qabul qilish va iqtisodiy ishni qo'zg'atish bosqichida da'vo-gar nizoni sudgacha hal qilish (talabnomá yuborish) tartibiga rivoja etilganligini tasdiqlovchi hujjalarni taqdirm etmagan bo'lsa, IPKning 155-moddasi 7-bandiga asosan da'vo arizasi qaytariladi.

iqtisodiy ish qo'zg'atilgandan so'ng qonunda yoldi tarallar shartnomasida nazarda tutilgan holarda da'vogar nizoni sudgacha hal qilish (talabnomá yuborish) tartibiga rivoja etmaganligi aniqlansa IPKning 107-moddasi 5-bandiga asosan da'vo arizasi ko'rmasdan qoldiriladi, agra bunday tartibni qo'llash imkoniyati boy berilgan bo'lsa, IPKning 110-moddasi 8-bandigz asosan ish yuritish tugatiladi.

Imperativ taalluqlilik qoidalariga rivoja qilmaslik

ishni qo'zg'atish bosqichida da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilish rad ettiladi (IPKning 154-moddasi 1-bandi)

ish qo'zg'atilgandan so'ng aniqlanganida ish yuritish tugatiladi (IPKning 110-moddasi 1-bandi)

Yuqoridagilardan kelib chiqib nizolarni sudgacha hal qilish (talabnomá yuborish) tartibi shartli taalluqlilik turiga kirishi va o'ziga xos xususiy belgilariga ko'ra imperativ taalluqlilikdan farq qilishi to'g'risida xulosaga kelishimiz mumkin.

Ko'p turdag'i taalluqlilikning ikkinchi turi **shartnomaviy taalluqlilik** hisoblanadi. Masalan, IPKning 29-moddasi nizolarni hal etishni hakamlik sudiga topshirish mumkinligini nazarda tutadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqib, yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamda iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan nizo tarallarning kelishuviga binoan, iqtisodiy sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda taalluqlilikning **alternativ taalluqlilik turi** ajratiladi. Alternativ taalluqlilik muayyan toifadagi ishlar bo'yicha o'zining buzilgan huquqlari

va qonuniy manfaatlari himoya qillinishini so'rab shaxs bir nechta organga murojaat qilishi mumkinligini nazarda tutadi. Bir qarashda shartnomaviy va alternativ taalluqlilik turlari bir xildek ko'rindi. Biroq, har ikki tur o'ziga xos protsessual xususiyatlarga ko'ra taalluqlilikning mustaqil turi bo'lib hisoblanadi. Shartnomaviy taalluqlilikda taraflar nizoni qaysi organ ko'rib hal qilinishini o'zaro kelishadi.

Bizningcha, aynan shu xususiyat shartnomaviy taalluqlilikni alternativ taalluqlilikdan farqlash imkonini beradi. Biroq, qayd etish lozimki, har ikki turda ham nizoni qaysi organ tomonidan ko'rib hal qilinishi taraflarning xohish-irodasi, ya'nini tanlovi asosida amalga oshiriladi. Shartnomaviy taalluqlilikda bu tanlovga har ikkala tarafning kelishuvি asosida erishilsa, alternativ taalluqlilikda bu tanlov taraflardan biriga, asosari, da'vogarga berilganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, shartnomaviy taalluqlilik qoidalariga muvofiq, nizo tegishli organ tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng boshqa organ tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas. Masalan, taraflar o'rtasida nizo hakamlik sudida ko'rib chiqilganidan so'ng iqtisodiy sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas. Agar taraflardan biri ushbu talablarning iqtisodiy sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishini so'rab murojaat qiladigan bo'lsa, IPKning 154-moddasi 4-5-bandlariga asosan da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish rad etiladi, agar ish qo'zg'atilgandan so'ng hakamlik sudining ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir assoslар bo'yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjudligi aniqlansa, IPKning 110-moddasi 3-bandiga asosan ish yuritish tugatiladi. Biroq, alternativ taalluqlilik qoidalariga muvofiq nizoni sudsiz hal qilinishini so'rab murojaat qilgan shaxs sudga murojaat qilish huquqidан mahrum bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, taalluqlilik turlarini tasniflash ishlarni o'z vaqtida vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqish imkoniyatini berishi orqali fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

3.2. Iqtisodiy ishlarning taalluqliligini belgilash mezonlari

Arz qilinayotgan talablarning sud yoki boshqa organlarga taalluqlilik masalalari nafaqat protsessual, balki moddiy qonunchilik normalari bilan ham tartibga solinadi.

Mazkur normalar umumiyligi qoidalar va ayrim istisno etuvchi holatlarni nazarda tutuvchi maxsus qoidalardan iborat bo'lib, ular yordamida arz qilinayotgan talablarning sud hokimiyati organlariga (fuqarolik ishlari bo'yicha sud, jinoyat ishlari bo'yicha sud, iqtisodiy sud, ma'muriy sud, harbiy sud), ijro hokimiyati organlariga (bojxona, soliq organlari va b.qa), notariat organlari, xalqaro tijorat arbitraji, hakamlik sudsari, shuningdek, boshqa organlarga taalluqliliği aniqlanadi.

Nafaqat mazkur organlar, balki murojaat qiluvchi shaxslar ham ushbu qoidalarga rioya qilishlari talab etiladi. Chunki taalluqlilik qoidalariaga rioya qilinishi, vakolatli organlar tomonidan arz qilingan talablarning o'z vaqtida to'g'ri ko'rib chiqilishi va hal etilishi imkonini yaratadi, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi.

Shunday ekan, taalluqlilikni belgilash qoidalari mazmun-mohiyatini tushunish talab etiladi. Chunki, aynan ushbu qoidalarga rioya qilmaslik, arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki ko'rmasdan qoldirish, qaytarish yoxud ish yuritishni tugatish kabi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqatishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda taalluqlilikni belgilashning asosiy va qo'shimcha mezonlari farqlanadi. Taalluqlilikni belgilashning **asosiy mezonlariga** ish(nizo)ning xarakteri, nizoli huquqiy munosabatning turi (harakteri), nizo vujudga kelgan soha va taraflarning subyektiv tarkibi kirsa, **qo'shimcha mezonlarga** taraslar o'rtasida shartnoma(kelishuv)ning mavjudligi, huquqning nizoli yoki nizosizligi, huquqiy aktning normativ yoki normativ tusda emasligi kiritiladi.

Iqtisodiy sudsiga arz qilinayotgan talablarning taalluqliligin belgilashda asosiy mezon bo'lib **ish(nizo)ning xarakteri**

hisoblanadi. Ushbu ish(nizo) iqtisodiy xarakterga ega bo'lib, tadbirkorlik yoxud boshqa iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lishi lozim. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasiga asosan, «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligin va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi», Demak, iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik qilish erkinligi davlat tomonidan berilgan konstitutsiyaviy kafolatlardan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 28-avgustdagи «Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 275-sон qarori bilan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari tasdiqlangan. Unga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati ham iqtisodiy faoliyatning bir turi ekanligi to'g'risida xulosaga kelishimiz mumkin.

Yodda tuting!

Demak, tadbirkorlik faoliyati yoxud boshqa iqtisodiy faoliyat olib borish jarayonida vujudga kelgan va qonun bilan iqtisodiy sudlar vakolatiga kiritilgan talablarga iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni¹ 3-moddasiga asosan, tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) deganda tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (joyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati tushuniladi. Biroq, qonun darajasida «iqtisodiy faoliyat» tushunchasining mustahkamlaganligi, aynan qanday faoliyat nazarda tutilayotganligini to'liq ifodalamaydi. Bizningcha, «iqtisodiy faoliyat tushunchasi va uning turlari» bo'yicha alohida monografik ilmiy tadqiqotlar ishlarini olib borish zarur.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2012-y., 18-son, 201-modd.

Nizoli huquqiy munosabatning xarakteri ham ishlarning iqtisodiy sudlarga taalluqlilagini belgilashning asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi. Huquqiy munosabatning xarakteri – tadbirkorlik faoliyati bilan bog'ilq bo'lgan fuqarovi, ma'muriy yoki boshqa xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Jumladan, FPKning 26-moddasiga asosan, ishlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lishi uchun fuqarolik, oila, mehnat, uyjoy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga kelgan bo'lishi talab etilsa, IPKning 25-moddasiga muvosiq, fuqarovi, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan yuzaga kelgan bo'lishi lozim.

Nizoning predmeti ham iqtisodiy ishlarning taalluqlilagini belgilab beradi. Masalan, yuridik shaxsni **tashkil** etish, qayta tashkil etish va tugatish bilan bog'ilq nizolar korporativ nizolar jumlasiga kirib, ushbu toifadagi ishlar iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lsa, aliment undirish, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taaalluqlidir. Ya'ni yuqorida qayd etilganidek, nizoning predmeti ushbu nizoning qaysi organga taalluqli ekanligini belgilab bermoqda.

Taraflarning subyektiv tarkibi. IPKning normalari tahlili asosida taraflarning quyidagi subyektiv tarkibini ko'rsatishimiz mumkin:

- 1) yuridik shaxslar;
- 2) yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar;
- 3) yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan fuqarolar;
- 4) fuqarolar (korporativ nizolar bo'yicha).

Ishlarning iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lishining qo'shimcha mezonnari silatida huquqning nizoli yoki nizosiz ekanligi, taraflar o'rtaida shartnomaning mavjudligi, nizolashuvchi huquqiy hujjatning xarakteri (normativ yoki normativ tusga ega bo'limgan) ko'rsatiladi.

Bizningcha, huquqning nizoli yoki nizosiz bo'lishi taalluqlilikni belgilashda munozarali hisoblanadi. Chunki ushbu mezonnini qo'llaydigan bo'lsak, nizoli huquqni sudga, nizosiz huquqni

boshqa organlar vakolatiga taalluqli deb qat'iy ajratishimizga to'g'ri keladi. Vaholanki, sud organlariga nafaqat nizoli, balki nizosiz huquq to'g'risidagi talablar ham taalluqlidir.

Fikrimizning isboti sifatida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin, chunki ushbu toifadagi ishlarda nizo bo'lmaydi.

Taraflar o'ttasida shartnoma(kelishuv)ning mavjudligi ham taalluqlilikni belgilashning qo'shimcha mezoni bo'lib xizmat qiladi. Chunki taraflar tomonidan shartnomaning sharti sifatida nizo vujudga kelgan taqdirda nizoni qaysi organ tomonidan ko'rib hal qilinishi kelishilgan bo'lishi yoki nizo vujudga kelgandan so'ng alohida kelishuv tarzida yozma shaklda rasmiylashtirilgan bo'lishi mumkin.

Taraflar o'ttasida shartnomaning mavjudligi quyidagi uchta shart mavjud bo'lgan taqdirdagina iqtisodiy sudlar bilan hakamlik sudsari, shuningdek, xalqaro tijorat arbitrajlari o'ttasida taalluqlilikni chegaralaydi:

- ❖ nizo fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqishi lozim;
- ❖ nizo bir vaqtning o'zida iqtisodiy sudga taalluqli bo'lishi lozim;
- ❖ taraflar o'ttasida nizoni hakamlik sudi hal qiluviga topshirish to'g'risidagi kelishuvga iqtisodiy sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar yoxud ishni mazmunan ko'rish tugallangunga qadar erishilgan bo'lishi lozim.

Yodda tuting!

Xorijiy yuridik adabiyotlarda taalluqlilikni belgilash mezonlari sudlovllilikni belgilash mezonlarida aks etganini ko'rish mumkin. Jumladan, sud ishni hal qilishdan oldin taraflarga, shuningdek, nizoning predmetiga nisbatan vakolatli bo'lishi zarur. Predmetli sudlovllilik (subject matter jurisdiction)ga sudning muayyan turdag'i ish bo'yicha hal qiluv qarorini chiqarish vakolatiga egaligi kiradi. Masalan, (1) Nyu Jersi rayon federal sudi boshqa shtat fuqarolari bo'lgan taraflar ishtirokidagi ishlarni hal qilish vakolatiga ega bo'ladimi? (2) Bingempton shahar sudi da'vo bahosi 1000 AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ishlarni hal qilish vakolatiga egami? degan savollarga javob berishi lozim.

Taraflarga nisbatan sudlovililik (jurisdiction over the parties) sudning muayyan taraflarga yoki mulkka nisbatan hal qiluv qarori chiqarish vakolatiga egaligi bilan belgilanganadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, taraflar o'rtasidagi nizo hakamlik sudi, xalqaro tijorat arbitraji yoki mediator ishtirokida hal qilinishi uchun topshirilishi mumkinligi mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudsari to'g'risida»gi Qonuni¹ 3-moddasiga muvofiq, hakamlik sudi – fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ hisoblanadi. Hakamlik sudsari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hal etmaydi. Taraflarning nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqidagi kelishuvi – hakamlik bitimi mavjud bo'lgan taqdirda, nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin. Qonunning 11-moddasiga asosan, vakolatli sudning hal qiluvida bo'lgan nizoga oid hakamlik bitimi vakolatli sud nizo yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilguniga qadar tuzilishi mumkinligi belgilangan.

IPKning 29-moddasida fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqib, yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamda iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan, iqtisodiy sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirilishi mumkinligi belgilangan.

2018-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonuni ning qabul qilinishi va 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirishi bilan mamlakatimizda nizolarni muqobil hal etishning (ADR – alternative dispute resolution) yangi usuli joriy etildi.

Qonunning 3-moddasida ushbu qonunning amal qilish sohasi sifatida fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek, yakka mehnat nizolariga va

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 42-son, 416-modda.

oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tatbiq etilishi belgilangan.

Mediatsiya – kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli bo'lib hisoblanadi. Qonunning 15-moddasida mediatsiyani qo'llash shartlari belgilangan bo'lib, unga muvoziq mediatsiya:

- ❖ taraflarning xohish-istagi asosida;
- ❖ suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar;
- ❖ nizoni hakamlik sudida ko'rish jarayonida ham hakamlik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo'llanilishi mumkinligi mustahkamlangan.

Taraflar nizo kelib chiqquniga qadar yoki u kelib chiqqanidan so'ng nizoni mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirgan holda hal etish zarurligi to'g'risida tuzilgan kelishuvni asosida nizoni mediator ishtirokida hal qilish uchun topshirishlari mumkin. Qonunning 17-moddasida qonunda nazarda tutilgan hollarda, vakolatli davlat organi ishning muhokamasini qoldirib, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish uchun muddat tayinlashi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, sudda ish qo'zg'atilganidan keyin mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari protsessual qonun hujjatlarida belgilanishi to'g'risidagi qoida mustahkamlangan.

Taraflar o'ttasida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda sud IPKning 101-moddasi 6-bandiga ko'ra ish yuritishni to'xtatib turishi shart. Chunki, ish yuritishning to'xtatilishi – taraflar tomonidan mediativ kelishuvga erishilmagan taqdirda, ish yuritishni tiklash va umurniy tartibda ishni ko'rish imkonini beradi. O'z navbatida, taraflar o'ttasida mediativ kelishuvga erishilgan taqdirda sud IPKning 107-moddasi 53-bandiga ko'ra da'vo arizani ko'rnasdan qoldiradi.

Huquqiy hujjatning normativ yoki normativ xususiyatga ega emasligi mezoni ushu ishlarning Konstitutsiyaviy sud, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasida taalluqlilagini chegaralaydi. Masalan, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlari fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga taalluqli bo'lsa, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonunchilikka mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlari – ma'muriy sudlarga taalluqlilidir.

Demak, huquqiy ishlarning taalluqlilik masalalari arz qilinayotgan talabning mazmuni, nizoning xarakteri; huquqiy munosabat turi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining subyektiv tarkibi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining faoliyati, huquqning nizoli va nizosiz ekanligi, taraflar o'rtasida shartnomalar (kelishuv) ning mavjudligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

3.3. Iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lgan ishlar

Iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lgan ishlar doirasi IPKning 25-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra iqtisodiy sudga quyidagi ishlar taalluqli:

1) iqtisodiy sohasida yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar, shuningdek, korporativ nizolar bo'yicha ishlar ko'rilib yotganda taraflar bo'lgan fuqarolar o'rtasidagi fuqaroviylari, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlari;

- 2) iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash (yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash) to'g'risidagi ishlar;
- 3) bankrotlik to'g'risidagi ishlar;
- 4) hakamlik muhokamasi bilan bog'liq ishlar;
- 5) korporativ nizolar bo'yicha ishlar, bundan mehnatga oid nizolar mustasno;
- 6) investitsiyaviy nizolar bo'yicha ishlar;
- 7) raqobatga oid ishlar;
- 6) chet davlat sudlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijro etishga qaratish to'g'risidagi ishlar.
- 7) yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan fuqarolar ishtirokidagi nizolarga doir ishlar (agar tegishli talablar ularning avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqsa).

Qayd etish lozim, IPKda iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lgan ishlar doirasasi qat'iy belgilanmagan, qonunda belgilangan hollarda iqtisodiy sudlar vakolatiga boshqa ishlarni ko'rish va hal qilish taalluqli bo'lishi mumkin.

Yodda tuting!

IPKda o'zaro bog'liq bo'lgan talablarning taalluqliligiga oid qat'iy norma belgilanganligini qayd etish darkor. Jumladan, IPKning 25-moddasi beshinchi va oltinchi qismlariga ko'ra:

- o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari iqtisodiy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talab birlashtirilgan taqdirda, barcha talablar fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ko'riliishi lozim.
- o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari ma'muriy sudga, boshqalari esa iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talabni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar, shuningdek, korporativ nizolar bo'yicha

ishlar ko'rilayotganda taraflar bo'lgan fuqarolar o'rtaсидаги fuqaroviy, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar.

IPKning 25-moddasasi birinchi qismi 1-bandi iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha iqtisodiy nizolarning umumiy doirasini belgilab beradi. Bunday xulosaga kelishimizga asos:

birinchidan, iqtisodiyot sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida ushbu nizolarning vujudga kelishi,

ikkinchidan, ushbu ishlarda ishtirok etuvchi subyektlar doirasining belgilanganligi (yuridik shaxslar, yakka tartibdag'i tadbirkor, fuqarolar (korporativ nizolar bo'yicha),

uchinchidan, iqtisodiy sudlarga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy nizolarning fuqarolik yoki ma'muriy, yoxud boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqishi bilan izohlanadi.

FKning 11-moddasida fuqarolik huquqlarini himoya qilishning qator shakllari sanab o'tilgan. Jumladan:

- ❖ huquqni tan olish;
- ❖ huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;
- ❖ burchni aslicha (natura) bajarishga majbur kilish;
- ❖ zararni to'lash;
- ❖ neustoyka undirish;
- ❖ huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;
- ❖ davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini hujjatini haqiqiy emas deb topish (ma'muriy sudlar vakolatiga o'tkazilgan¹);
- ❖ qonurda nazarda tutilgan boshqacha shakllar.

Moddiy huquqning ushbu normasida mazmunan fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy nizolar sanab o'tilgan deb hisoblash mumkin.

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son. 27-modda.

IPKnинг 26-моддаси 1-11-бандларда иқтисодиј сүд томонидан хал етиладиган, fuqarоviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning taxminiy ro'yxati berilgan bo'lib, унга асосан иқтисодиј судга:

- 1) tuzilishi majburiyligi qонунда назарда тutilган shartnomani tuzishda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar to'g'risidagi;
- 2) shartnomani тараflari томонидан ko'rib chiqilishi судга o'tkazilishi kelishilgan shartnomani tuzishda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqidagi;
- 3) shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi;
- 4) bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi;
- 5) majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi to'g'risidagi;
- 6) mulk huquqini tan olish haqidagi;
- 7) mulkdor yoki mulkning boshqa qонунијегаси томонидан mol-mulkni boshqa shaxsning g'ayriqonuniјegaligidan talab qilib olish to'g'risidagi;
- 8) intellektual faoliyat obyektlari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga mulkliy huquqlari buzilganligi haqidagi;
- 9) mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qонунијегасининг huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan holda buzilganligi to'g'risidagi;
- 10) zararning o'rnnini qoplash haqidagi;
- 11) ishchanlik obro'sini himoya qilish to'g'risidagi.

O'z navbatida, ushbu turdagи nizolarni, shartli ravishda, uch guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruhni shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga oid shartnomaviy nizolar tashkil qiladi. Bu иқтисодиј nizolarning eng yirik guruhi bo'lib hisoblanadi, chunki bozor иқтисодијоти sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va majburiyatlarining aksariyati aynan shartnomalardan kelib chiqadi;

ikkinci guruh – shartnomadan oldingi, ya'ni shartnomani tuzish va yoki uning mazmunini aniqlash

bilan bog'liq nizolar hisoblanadi. Ushbu nizolar qonun hujjatlariga muvofiq, taraslardan biri uchun shartnoma tuzish majburiy bo'lgan yoki taraflarning o'zaro roziligi bilan nizoni ko'rib chiqish uchun muayyan yurisdiksiyaviy organga topshirish to'g'risida kelishilgan hollarda vujudga keladi. Qolgan barcha hollarda nizo vujudga kelmaydi, chunki shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishning yetakchi prinsiplaridan biri shartnoma tuzishning erkinligi, ya'ni shartnoma tuzishga hech kim majbur qilinishi mumkin emasligi prinsipidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham iqtisodiy nizolarning ushbu turi amaliyotda kam uchraydi;

uchinchchi guruhga shartnomadan va uni tuzishdan ketib chiqmaydigan huquq va majburiyatlar to'g'risidagi nizolar kiradi. Ushbu nizolar toifasiga mulk huquqining buzilishi, mulkka zarar yetkazish bilan bog'liq nizolarni, iqtisodiy faoliyat subyektlarining ishchanlik obro'sini himoya qilish, tovar belgilari bilan bog'liq nizolarni keltirish mumkin.

Agar IPKning 26-moddasi 1–11-bandlarida qayd etilgan talablar fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan bo'lsa, 12–14-bandlarida qayd etilgan talablar esa ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqishini qayd etish mumkin. Ushbu bandlarga ko'ra:

❖ undirish so'zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatini yoki boshqa hujjatni ijro etish mumkin emas deb topish haqidagi;

❖ agar qonunda jarimalarni so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirish nazarda tutilmagan bo'lsa, nazorat qiluvchi organlar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolardan jarimalar undirish to'g'risidagi;

❖ nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonun hujjatlari talablarini buzgan holda so'zsiz (akseptsiz) tartibda hisobdan chiqarilgan pul mablag'larini budjetdan qaytarish haqidagi nizolar iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ushbu bandlarda nazarda tutilgan nizolarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy nizolar,

asosan, davlat boshqaruvi organi tomonidan o'ziga yuklatilgan ma'muriy-boshqaruv yoki ijro etuvchi funksiyaning iqtisodiy munosabat ishtirokchisiga nisbatan qo'llanilishi natijasida vujudga keladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-son Farmoniga muvofiq tadbirkorlik subyektlariga nisbatan quyidagi huquqiy ta'sir choralarini faqat sud tartibida qo'llanilishi belgilandi:

- 1) faoliyatni tugatish;
 - 2) faoliyatni to'xtatib qo'yish, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'iga boshqa haqiqiy xavf-xatar yuzaga kelishining oldini olish munosabati bilan faoliyatni ko'pi bilan o'n ish kunigacha to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno;
 - 3) qonunda nazarda tutilgan holatlarni mustasno qilgan holda, banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish;
 - 4) moliyaviy sanksiyalarni qo'llash, soliq va yig'imlarni to'lash muddatini o'tkazib yuborganlik uchun penya qo'shish, shuningdek, tadbirkorlik subyekti sodir etilgan huquqbazarlikdagi aybiga iqror bo'lish va moliyaviy sanksiya jarimalarini ixtiyoriy ravishda to'lash hollari bundan mustasno;
 - 5) huquqbazarlik predmetlarini davlat daromadiga o'tkazish;
 - 6) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish litsenziyalari (ruxsatnomalari)ni o'n ish kunidan ko'proq muddatga to'xtatib qo'yish yoki amal qilishini tugatish va bekor qilish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziyalar bundan mustasno.
- Huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritish IPKning 27-hobi bilan tartibga solinadi. Huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar so'f ma'noda ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi va ushbu toifadagi ishlarda bir taraf sifatida albatta nazorat funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organi turadi. Ushbu organ o'z nazorat

vazifalarini amalga oshirishda muayyan qonunbuzilish holatini aniqlasa va buning uchun tadbirkorlik subyektiga muayyan chora ko'rish uchun asos mavjud deb topsa, sudga murojaat qiladi.

Ushbu organlar sifatida soliq, prokuratura, litsenziyalovchi organlar, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, bojxona organlari va shu kabilar ishtirok etishi mumkin. Mazkur holatda murojaat qiluvchi organ davlat va jamiyat manfaatini iqtisodiy protsessda taraf sifatida himoya qiladi.

IPKning 25-moddasi birinchi qismi 1-bandida boshqa huquqiy munosabatlardan ham yuzaga keladigan nizolarning iqtisodiy sudlarga taalluqliligi belgilangan. «Boshqa huquqiy munosabatlari» deganda odatda soliq, bojxona, moliyaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy talablar nazarda tutiladi.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarga:

- ❖ yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ko'chmas mulkka o'z xususiy mulki sifatida egalik qilishi va undan foydalanishi faktini;
- ❖ yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ma'lum vaqtida va ma'lum joyda davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi faktini;
- ❖ agar yuridik shaxsning hujjatda ko'rsatilgan nomi, yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi, otasining ismi yuridik shaxsning ta'sis hujjatida ko'rsatilgan nomiga, yakka tartibdagi tadbirkorning pasportida yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasida ko'rsatilgan familiyasiga, ismiga, otasining ismiga to'g'ri kelmasa, iqtisodiyot sohasida amalda bo'lgan huquqni belgilaydigan hujjatning yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga tegishliligi faktini aniqlash kiradi.

Bundan tashqari, iqtisodiy sud tomonidan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlar ham, agar qonunchilikda ularni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, aniqlanishi mumkin.

Iqtisodiy sudga yuridik faktlarni aniqlash to'g'-risidagi ishlar quyidagi shartlarning yig'indisi mavjud bo'lgan taqdirda taalluqli bo'lishi mumkin:

agar qonunga ko'ra iakt huquqiy oqibatlarni, ya'n: tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat sohasida huquqiy munosabatlarning yujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishini keltirib chiqarsa;

agar yuridik faktning aniqlanishi keyinchalik iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan huquq to'g'risidagi nizoni hal yetish bilan bog'liq bo'masa;

agar arizachi yuridik laktini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarini olish yoki tikkashning boshqa imkoniyatiga yega bo'lmasa;

agar amaldagi qonun hujjatlarida yuridik faktni aniqlashning boshqa (sudden tashqari) tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa.

Bankrotlik to'g'risidagi ishlar jumlasiga yuridik shaxslarni hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va qonunda belgilangan tartibda yakka tartibdagi tadbirkor maqomini olgan fuqarolarni, shuningdek, pul majburiyatları bo'yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga va (yoki) majburiy to'lovlari bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir bo'lмаган, yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxslarni, agar pul majburiyatları va majburiy to'lovlari bo'yicha majburiyatlar ularning avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo'lsa, bankrot deb topish to'g'risidagi ishlar kiradi (IPKning 27-moddasi).

Hakamlik muhokamasi bilan bog'liq ishlarga:

birinchidan, da'veni ta'minlash yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi arizalar bo'yicha ishlar;

ikkinchidan, hakamlik sudsining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalar bo'yicha ishlar;

uchinchidan, hakamlik sudsalarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijob etish uchun ijob varaqalari berish to'g'risidagi arizalar bo'yicha ishlar kirdi.

Korporativ nizolar bo'yicha ishlarga:

- ❖ yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bilan bog'liq nizolar;
- ❖ xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning, ulushlarning, kooperativlar a'zolari paylarining mansubligi, ularga yuklamalar belgilash va ulardan kelib chiqadigan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq nizolar, bundan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni, ulushlarni, kooperativlar a'zolarining paylarini o'z ichiga oluvchi meros mol-mulkni yoki er-xotinning umumiyligi mol-mulkini bo'lish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan nizolar mustasno;
- ❖ yuridik shaxs ishtirokchilarining (muassislarning, a'zolarining) yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va (yoki) bunday bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash haqidagi da'volari bo'yicha nizolar;
- ❖ qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan, shu jumladan emitentning boshqaruvi organlari qarorlari yuzasidan nizolashish bilan, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish jarayonida tuzilgan bitimlar, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish (qo'shimcha ravishda chiqarish) natijalari bo'yicha hisobotlar (xabarnomalar) yuzasidan nizolashish bilan bog'liq nizolar;
- ❖ qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchilarning aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, qonunda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va (yoki) ularning muomalasi munosabati bilan qimmatli qog'ozlarning nominal saqlovchilari tomonidan amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar;
- ❖ yuridik shaxs ishtirokchilarining umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi nizolar;
- ❖ yuridik shaxs boshqaruvi organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi nizolar.

Qonunga muvofiq ushbu nizolardan tashqari korporativ nizolar doirasiga boshqa nizolar ham kiritilishi mumkin.

Investitsiyaviy nizolar bo'yicha ishlarga:

- ❖ investitsiya shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq nizolar;
- ❖ investitsiya shartnomalarini haqiqiy emas deb topish haqidagi nizolar;
- ❖ investitsiya shartnomasining bajarilishi bilan bog'liq nizolar;
- ❖ investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan soliq, bojxona, ijtimoiy, ekologik va boshqa majburiyatlarning investor tomonidan bajarilishi bilan bog'liq nizolar;
- ❖ investitsiya shartnomasi bo'yicha investorga berilgan mol-mulkni talab qilib olish yoki bunday shartnoma bo'yicha neustoyka undirish va (yoki) zararlar o'rnini qoplash to'g'risidagi nizolar kiradi.

Raqobatga oid ishlarga yuridik shaxslar, shu jumladan chet el yuridik shaxslari, xo'jalik boshqaruvi organlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda monopoliyaga qarshi organ o'tasida tovar va moliya bozorlarida raqobat sohasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar kiradi.

Chet davlat sndlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijro etishga qaratish to'g'risidagi ishlarga tadbirkorlik faoliyatini va boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan nizolar bo'yicha chet davlat sndlari va chet el arbitrajlari tomonidan qabul qilingan qarorni tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan fuqarolar ishtirokidagi nizolarga doir ishlar ham iqtisodiy sndlarga taalluqli bo'lishi mumkin. Faqat bunday toifadagi ishlarning iqtisodiy sndlarga taalluqli bo'lishi uchun – yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan fuqaroning arz qilgan talabi uning avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo'lishi shart. Chunki, IPKning 25-moddasi birinchi qismining 1-bandi mazmuniga ko'ra fuqaro – yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan bo'lsagina iqtisodiy sudga taalluqli iqtisodiy nizo(ish)ning ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Demak, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan, lekin davlat ro'yxatidan o'tmagan fuqaro yakka tartibdagi tadbirkor maqomini olmaydi va bunday shaxslar ishtirokidagi nizolar IPK 25-moddasiga muvofiq iqtisodiy sudga taalluqli emas. Ushbu qoida fuqaroning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligining amal qilishi, xususan, guvohnomaning amal qilish muddati tugashi, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini bekor qilish kabi boshqa asoslarga ko'ra tugatilgan holatlarga ham tadbiq etiladi.

Demak, IPKning 25-moddasasi birinchi qismida iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan iqtisodiy ishlar, 25-moddasining birinchi qismi 1-bandi va 26-moddasida esa ular tomonidan ko'rib chiqiladigan iqtisodiy nizolar belgilangan, deb hisoblash mumkin.

Ushbu xulosa quyidagilar bilan asoslanadi: IPKning 25-moddasasi birinchi qismi 1-bandi va 26-moddasida ko'rsatilgan iqtisodiy nizolar ishlarning mustaqil toifasini tashkil qilishi bilan bir qatorda protsessual jihatdan ham alohida ish yuritish – da'vo tartibida ko'rib chiqiladi.

3.4. Iqtisodiy ishlarning sudloviligi tushunchasi va turlari

Yuridik lug'atlarda sudlovga tegishlilik – suldarga taalluqli bo'lgan barcha ishlarning sud tizimi bo'g'lnlari o'rtaida taqsimlanishi sifatida izohlanadi. Dastlab arz qilingan talablarning iqtisodiy sudga taalluqli ekanligi aniqlangandan so'ng sudlovililik masalasi hal etiladi.


Yodda tuting!

Sudlovililik (sudlovga tegishlilik) tushunchasi – iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan iqtisodiy ishning sud tizimi bo'g'lnlari o'rtaida aynan qaysi iqtisodiy sud tomonidan ko'rib hal etilishini belgilab beradi.

Demak, taalluqlilik va sudlovlik – protsessual huquqning mustaqil institutlari bo'lib, har ikki institut nizo (ish)larni aynan qaysi organlar ko'rib, hal qilib berishini aniqlashda o'ziga xos funksiyani bajaradi. Jumladan, taalluqlilik aynan qaysi sud yoki organ nizoni hal qilishga vakolatli ekanligini aniqlab, nizo sudga taalluqli bo'lgan taqdirda sudlovlik ushbu nizoning aynan qaysi sud bo'g'ini (quyi, o'rta yoki yuqori) tomonidan ko'rib chiqilishi lozimligini belgilab beradi.

Protsessual qonunchilik (FPK, IPK, MSIYUtK)da sudlovlik – «sudlovga tegishlilik» termini orqali qo'llanilganligini qayd etish lozim. Biroq, ayrim yuridik adabiyotlarda «sudlovga taalluqlilik» termini ham qo'llanilgan. Protsessual qonunchilik va yuridik adabiyotlarda qo'llanilgan «sudlovga tegishlilik», «sudlovga taalluqlilik» terminlari aynan bir xil ma'noda qo'llanilib, «sudlovlik» institutini ifodalab keladi.

Shu o'rinda, xuddi shunday protsessual qonunchilik va ayrim yuridik adabiyotlarda qo'llanilgan «sudga taalluqlilik» va «sudga tegishlilik» terminlari – «taalluqlilik» institutini ifodalashini qayd etish lozim.




Sud tizimining quyidagi bo'g'inlari tomonidan iqtisodiy nizolar ko'rib chiqiladi:

- ❖ tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sndlari;
- ❖ Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudsining iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;

❖ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlov hay'ati.

Sudlovililikning turdosh va hududiy sudlovililik turlari bir-biridan farqlanadi.



Turdosh sudlovililikda iqtisodiy ishlarning sud tizimining qaysi bo'g'ini tomonidan ko'rib hal qilinishini nizoning predmeti, ijtimoiy ahamiyati, murakkablik darajasi, da'vo bahosi yoki subyektlar tarkibi belgilab beradi. Turdosh sudlovililikni belgilashning barcha mezonlari iqtisodiy protsessual qoununchilikda mustahkamlanmagan. IPKning 32-moddasi turdosh sudlovililik qoidalari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlov hay'atlari, shuningdek, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlarining iqtisodiy ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatlarini chegaralash imkonini beradi. Jumladan, umumiyoq qoidaga ko'ra iqtisodiy ishlar birinchi instansiyada tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudi sudloviga tegishli ishlar bundan mustasno hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari:

❖ taraflardan biri O'zbekiston Respublikasi norezidenti – chet el shaxsi bo'lgan ishlarni;

❖ chet davlat sndlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi:

❖ davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi iqtisodiy bitimlardan kelib chiqadigan nizolar ko'rishga;

❖ alohida holatlarni e'tiborga olgan holda har qanday ishni istalgan suddan olib qo'yish va uni birinchi instansiya bo'yicha o'z ish yurituviga qabul qilishga, ishni bir suddan boshqasiga o'tkazishga haqli hisoblanadi.

Investitsiyaviy nizolarning sudloviligi ham turdosh sudlovililikka misol bo'ladi. Chunki iqtisodiy protsessual qonunchilik yirik investorning, raqobatga oid ishlar bo'yicha taraflarning xohishiga ko'ra, ushbu toifadagi ishlar bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, qolgan investitsiyaviy nizolar investorning xohishiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chiqilishini belgilagan. Bu yerda turdosh sudlovililikni belgilovchi asosiy mezon sifatida ishning turini – investitsiyaviy nizo, subektini – yirik investor ko'rsatish mumkin.

Hududiy sudlovililikda nizoning u yoki bu iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqilishini hudud belgilab beradi.

Hududiy sudlovililikning umumiy, alternativ (muqobil), mutlaq va shartnomaviy turlari bir-biridan farqlanadi.

IPKning 33-moddasi sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalarini belgilaydi va shuning uchun sudlovililikning ushbu turi protsessual huquq nazariyasida **umumiy hududiy sudlovililik** deb nom olgan. Unga ko'ra, yuridik shaxslarga nisbatan da'volar ular davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi. Chunki, FKning 46-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, yuridik shaxsning joylashgan yeri, agar qonunga muvofiq yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bilan belgilanadi.

Yuridik shaxslarga nisbatan ularning alohida bo'linmalari faoliyatidan kelib chiqadigan da'volar alohida bo'linmalar davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Fuqarolarga nisbatan da'volar ular yakka tartibdag'i tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Alternativ (muqobil) sudlovllilik – hududiy sudlovllikning alohida turi bo'lib, qonun davogarga hududiy sudlovga tegishlilikning qoidalaridan chetga chiqqan holda, bir nechta iqtisodiy sudlar orasidan o'ziga qulay hududda joylashgan sudni tanlash imkonini beradi.

Muqobil sudlovllilik bo'yicha ish qaysi iqtisodiy sudga tegishliligini tanlash huquqi faqat da'vogarga beriladi. Bu shuni anglatadiki, javobgarlar bunday holatda da'vogar murojaat qilgan sud tomonidan sudyaning da'vo arizasini qabul qilish to'g'risidagi ajrimiga e'tiroz bildirishga haqli emas, suda esa muqobil sudlovllilik qoidalariga rioxal qilgan holda taqdim etilgan da'vo arizasini qabul qilishni rad etishga yoki da'vogarga boshqa sudga murojaat qilishi to'g'risidagi taklifni berishga haqli emas.

IPKnинг 34-moddasida alternativ sudlovllilikning quyidagi qoidalari belgilangan:

- ❖ turli yerlarda joylashgan bir necha javobgarga nisbatan da'volar da'vogarning tanlashi bo'yicha javobgarlardan biri davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga;
- ❖ davlat ro'yxatidan o'tgan joyi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan da'volar uning mol-mulki joylashgan yerdagi yoki uning ma'lum bo'lgan oxirgi joylashgan yeridagi sudga;
- ❖ O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan va boshqa davlat hududida turgan javobgarga nisbatan da'volar da'vogar joylashgan yerdagi yoki javobgarning mol-mulki joylashgan yerdagi;
- ❖ ijro etish joyi ko'rsatilgan shartnomadan kelib chiqadigan da'volar majburiyat ijro etiladigan joy bo'yicha;
- ❖ yirik investor bo'Imagan investorning investitsiya faoliyati bilan bog'liq da'volar javobgar joylashgan yerdagi tuman (shahar), tumanlararo iqtisodiy sudga yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga;
- ❖ yirik investorning investitsiya faoliyati bilan bog'liq da'volar, shuningdek, tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan da'volar javobgar joylashgan yerdagi tuman (shahar), tumanlararo iqtisodiy

sudga yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga taqdim etilishi mumkin.

Hududiy sudlovilikning uchinchi turi mutlaq sudlovilikdir. Mutlaq sudlovilik hududiy sudlovilikning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, uning umumiy qoidalari qo'llanilishini istisno etadi. Jumladan, da'vogarga o'ziga qulay hududda joylashgan muayyan iqtisodiy sudni tanlash imkoniyatini bermaydi yoki umumiy hududiy sudlovilik qoidalarini inkor etadi yoxud da'vo taqdim etishda tarailarning kelishuviga asosan hududiy sudlovilik turini o'zgartirishni istisno etadi.

Iqtisodiy protsessual kodeksi mutlaq sudlovilikning uchta turini nazarda tutadi:

- ❖ yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarning sudlovga tegishliligi;
- ❖ bankrotlik to'g'risidagi ishlarning sudlovga tegishliligi;
- ❖ alohida sudlovga tegishlilik.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarning o'ziga xos xususiyati unda huquq to'g'risidagi nizoning mavjud emasligidir. U yoki bu faktni aniqlash talabi bilan iqtisodiy sudga murojaat qilgan shaxs da'vogar deb emas, balki arizachi (manfaatdor shaxs) deb ataladi. Ushbu holatda hududiy sudlovilikning umumiy qoidalarini qo'llash istisno etiladi.

Agar arizachi iqtisodiy sudga ko'chmas mulkka egalikni aniqlash to'g'risida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni o'rnatish yuzasidan berilgan arizalar ko'chmas mulk joylashgan joydagi iqtisodiy sudga taqdim etiladi.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlar yuzasidan beriladigan arizalar ish bo'yicha arizachi davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Shunday qilib, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarning sudlovilikni aniqlanishi kerak bo'lgan faktlarning xarakteri va turiga bog'liq.

Bankrotlik to'g'risidagi ishlarning sudlovga tegishliligi ham alohida o'rin egallaydi. Ushbu toifadagi ishlarning sudlovga tegishliligi bo'yicha maxsus qoidalarni o'rnatilishini taqozo qiladi. Bunda qarzdorni bankrot deb topish

talabi bilan murojaat qilinganida, ish qarzdor turgan joydag'i iqtisodiy sudida ko'rildi. Ushbu qoida alohida sudlovga tegishlilik sifatida i'sodalangan va ishni to'g'ri ko'rib chiqish uchun qulay sharoitlarni ta'minlashga yo'naltirilgan. Chunki, bu vaziyat qarzorning to'lovga qobiliyatsizligini aniqlash to'g'risidagi dalillarni yig'ish hamda bankrotlik to'g'risidagi ishga doir turli masalalarni hal qilishda quylaylik yaratadi.

Alohida sudlovga tegishlilik mutlaq sudlovga tegishlilikning bir ko'finishi bo'lib, u ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqini tan olish va yo'lovchi, bagaj hamda yuk tashish shartnomasidan kelib chiqadigan ishlarning sudlovga tegishliligini belgilaydi.

Bino, inshoot, yer maydonlariga nisbatan mulk huquqini tan olish to'g'risidagi, bino, inshoot, yer uchastkasini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish, mulkdor yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lмаган holda buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi da'volar bino, inshoot, yer maydoni joylashgan joyda taqdim etiladi.

Demak, bunday ishlarning sudlovligi bino, inshoot, yer maydoni qayerda va qaysi joyda joylashganligiga bog'liq.

Shuni qayd etish kerakki, ko'chmas mulk ijerasi shartnomasi, ko'chmas mulkdan tekin joydalanish shartnomasi, ko'chmas mulknii ishonchli boshqarishdan kelib chiqadigan nizolar mutlaq sudlovlikning qoidalariга to'g'ri kelmaydi. Jumladan, ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha ko'chmas mulkka nisbatan to'lovlarni undirish to'g'risidagi nizolarga nisbatan ham ushbu qoidalari qo'llanilmaydi. Shuningdek, ko'chmas mulknii oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo arizalar yuqorida qayd etilgan Iqtisodiy protsessual kodeksining alohida sudlovlikka oid qoidasiga muvofiq kelmaydi, chunki bu yerda ko'chmas mulkka nisbatan egalik qilish huquqi nizolashiladi.

Shuning uchun ham Iqtisodiy protsessual qonunchilikda ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarning haqiqiy emasligi bilan bog'liq nizolar sudlovlikning umumiyy qoidalari asosida hal etilishini nazarda tutish lozim bo'ladi.

Yana bir holat, undiruv garovga qo'yilgan ko'chmas mulkka qaratilganda sudlovlik masalasi ham ko'chmas mulk joylashgan joy sudloviga tegishliliqi me'yorlari asosida hal etilishi lozim, bu esa alohida sudlovga tegishlilikning umumiy tamoyillariga mos keladi.

Yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasidan kelib chiqadigan yo'lovchi, bagaj va yuk tashuvchiga nisbatan da'volar, shu jumladan, yo'lovchi, bagaj va yuk tashuvchi javobgarlardan biri bo'lgan hollarda ham transport tashkilotining organi joylashgan joyda taqdim etiladi. Barcha holatlarda ham nizo transport organi joylashgan erdag'i iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Yuk tashish shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarga yuk tashuvchiga nisbatan qo'llaniladigan har qanday talabni tushunish mumkin. Masalan, shartnomalar majburiyatlarini bajarmaslikdan kelib chiqadigan zararni undirish, yuk tashish shartnomasini bekor qilish, yuk tashish shartnomasini to'la yoki qisman bekor qilish va boshqalar.

3.5. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi

Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi IPKning 39-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra, iqtisodiy sud quyidagi hollarda ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazishi mumkin:

birinchidan, ish sudlovga tegishlilik qoidalarini buzgan holda qabul qilinganligi ishni shu sudda ko'rish chog'ida ma'lum bo'lsa;

ikkinchidan, bir yoki bir nechta sudyalar rad qilinganidan keyin ularni mazkur sudda almashtirish mumkin bo'lmay qolsa, shuningdek, ishni ushbu sudda ko'rish mumkin bo'lmay qolgan boshqa hollarda.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 26-moddasi 8-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Olyi sudi raisiga ishni bir suddan boshqa sudga olib berish masalasini hal qilish vakolati berilgan. IPKning 32-moddasi to'rtinchi qismiga

ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi alohida holatlarni e'tiborga olgan holda har qanday ishni istalgan suddan olib qo'yish va uni birinchi instansiya bo'yicha o'z ish yurituviga qabul qilishga, ishni bir suddan boshqasiga o'tkazishga haqli ekanligi mustahkamlangan.

Ishni boshqa sudda ko'rishga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Bir suddan boshqa sudga yuborilgan ish u yuborilgan sudda ko'rish uchun qabul qilib olinishi kerak. O'z navbatida, iqtisodiy protsessual qonunchilikda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar o'ttasida sudlovga tegishlilik to'g'risida nizolarga yo'l qo'yimasligi to'g'risidagi qoida alohida mustahkamlanganligini qayd etish darkor.

3.6. Iqtisodiy ishlarning taalluqliligi va sudlovlligi qoidalariga rioya qilmaslikning huquqiy oqibatlari

Taalluqlilik va sudlovllik institutlarini bir-biridan huquqiy tabiatiga ko'ra farq qilib, ushbu institutlar qoidalariga rioya qilmaslikning huquqiy oqibatlarini tahlil qilish natijalariga ko'ra ularning farqli jihatlarini ko'rsatish mumkin.

IQTISODIY ISHNI QO'ZG'ATISH BOSQICHIDA

Nizoning sudga taalluqli emasligini aniqlasa, IPKning 154-moddasi birinchi qismi 1-bandiga asosan da've arizasini ish yuritishga qabul qilishni rad etadi

Nizo shu suđning sudloviga tegishli emasligi aniqlansa, IPKning 155-moddasi birinchi qismi 3-bandiga asosan da've arizasini qaytaradi.

IQTISODIY ISH NI QO'ZG'ATILGANDAN SO'NG

Ushbu ishning iqtisodiy sudga taalluqli emasligi aniqlansa, IPKning 110-moddasi birinchi qismi 1-bandiga asosan ish yuritish tugatildi. Ish yuritish tugatilgan taqdirda ayni bir shaxslar o'ttasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan sudga takroren imurojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudlovga tegishlilik qoidalariga rioya etilgan holda o'z ish yurituviga qabul qilib olingan ish, garchi keyinchalik boshqa suđning sudloviga tegishli bo'lib qolsa ham o'zi tomonidan mazmunan ko'rishi kerak. Agar ish sudlovga tegishlilik qoidalarini buzgan holda qabul qilinganligi ishni sau surʼia ko'rish chog'ida ma'lum bo'lsa, sud ishni boshqa sudga o'tkazadi.

ISH KO'RILGANDA

Taalluqlilik qoidalariga rivoja qilinmagan holda sud ishni ko'rib hal qituv qarorini qabul qilgan taqdirda, ushbu qaror yuqori instansiya sudi tomonidan IPKning 279-moddesiga ko'ta, moddiy va (yoki) protsessual huquq normalarining buzilganligi yoxud noto'g'ri q'llanilganligi asos qilinib bekor bo'lishiga olib keladi.

IPKning 39-moddasida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar o'rjasida sudlovoga legishlilik to'g'risida nizolarga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlangan. Ushbu holatda faqatgina yuqori turuvechi sud tomonidan qonun buzilish holatlarini artiglash va bartaraf etish, keyinchalik sud faoliyatida ushbu qonun buzilish holatlarini oldimi olish maqsadida xususiy ajrim chigarlishi mumkin.

DAVLAT BOJI

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6 yanvardagi «Davlat boji to'g'risidagi Qonuni» 18-moddasiga asosan sud tomonidan ishning taalluqli emasligi uqibatida arizani qabul qilish rad etilgan yoxud ish yuritish tugatilgan taqdirda davlat boji qaytariladi.

Sudlovlilik qoidalariga rivoja qilinmagan holatlarda davlat boji qaytarilmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan nizolar (ishlar) doirasini aniqlang.
2. Taalluqlilikni belgilash mezonlarini tahlil qiling.
3. Ishni bir iqtisodiy suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibini tushuntiring.
4. Hududiy va turdosh sudlovlilikning o'zaro farqli jihatlarini aniqlang.
5. Taalluqlilik va sudlovlilik qoidalariga rivoja qilmaslikning huquqiy oqibatlarini tushuntiring.
6. Sudlovoغا tegishlilikning umumiy qoidalarini tushuntiring.
7. Alternativ sudlovlilik qoidalarini izohlang.
8. O'zaro bog'liq talablarning taalluqliliginini tushuntiring.
9. Qaysi hollarda iqtisodiy nizolar hakamlik sullari tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin?

KAZUSLAR

1-kazus

Da'vogar D. Maxmudova javobgar «SHASH MAKSUMUM» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga nisbatan 2015–2020-yillardagi ushbu jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va buning uchun ekspertga moliyaviy faoliyatga oid barcha hisob-kitob hujjatlarini taqdim etish majburiyatini yuklashni so'rab Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilgan.

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ushbu talablar to'liq qanoatlantirilgan. Apellyatsiya instansiysi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirilgan.

Ish kassatsiya instansiya sudida ko'rilib, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori va apellyatsiya instansiysi sudining qarori bekor qilinib, arz qilingan talablarning iqtisodiy sudga taalluqli emasligi asos qilinib ish yuritish tugatilgan.

Muammoli vaziyatga huquqiy baho bering!

- ❖ Iqtisodiy sndlarga taalluqli bo'lgan ishlar doirasini aniqlang.
- ❖ Birinchi instansiya va apellyatsiya instansiysi sudi tomonidan qanday protsessual xatolikka yo'l qo'yilgan?
- ❖ Kassatsiya instansiysi sudining qarori asoslimi? Javobingizni huquqiy asoslantiring.

2-kazus

«APPLE EKSPORT» mas'uliyati cheklangan jamiyati va yakka tartibdagi tadbirkor K. Nazarov o'ttasida Yunusobod tumanida joylashgan muz konteyner xonani ijara olish shartnomasi yuzasidan nizo kelib chiqqan. Da'vogar «APPLE EKSPORT» mas'uliyati cheklangan jamiyati mulk ijarasini shartnomasi shartlari javobgar yakka tartibdagi tadbirkor K. Nazarov tomonidan bajarilmaganligi, natijada muz konteyner

xonada saqlangan 20 tonna olma mahsulotiga yetkazilgan zararni undirish, mulk ijarasi shartnomasi shartlarini o'zgartirishni so'rab Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilgan.

Ishni ko'rish bosqichida Yunusobod tumanida joylashgan muz konteyner xona javobgar tomonidan Zangiota tumaniga ko'chirilganligi aniqlangan. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan muz konteyner xona Zangiota tumaniga ko'chirilganligi asos qilinib iqtisodiy ishni Toshkent viloyati Zangiota tumanlararo iqtisodiy sudiga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqarilgan.

Toshkent viloyati Zangiota tumanlararo iqtisodiy sudi ish mazkur sudning sudloviga tegishli emasligini asos qilib iqtisodiy ishni o'z ish yurituviga qabul qilishni rad etgan.

Muammoli vaziyatga huquqiy baho bering!

❖ Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi va Zangiota tumanlararo iqtisodiy sudining protsessual harakatlariga huquqiy baho bering.

❖ IPKning 39-moddasi beshinchchi qismida «O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar o'rtaida sudlovga tegishlilik to'g'risida nizolarga yo'l qo'yilmaydi» deb mustahkamlangan. Ushbu normani sharhlang.

❖ Mazkur muammoli vaziyat qanday hal qilinishi lozim? Javobingizni huquqiy asoslantiring.

4-bob. IQTISODIY SUD ISHLARINI YURITISH ISHTIROKCHILARI

4.1. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatları

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining asosiy guruhini ishda ishtirok etuvchi shaxslar tashkil qiladi. Xususan, IPKning «Iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilar» deb nomlangan 6-bobida ishda ishtirok etuvchi shaxslar alohida (41-modda) bayon etilgan. Bu esa protsess ishtirokchilarining doirasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasidan birmuncha keng ekanligini ko'rsatadi.

IPKning 40-moddasiga ko'ra, iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilar quyidagilar hisoblanadi:

1) sud;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxstar;

3) odil sudlojni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar.

Iqtisodiy protsessual kodeksning 41-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga quyidagilar kiradi:

– tarafalar;

– uchinchi shaxslar;

– prokuror;

– davlat organlari va boshqa shaxslar;

– IPKda nazarda tutilgan alohida toifadagi ishlar bo'yicha arizachilar hamda boshqa manfaatdor shaxslar.

Yuqorida ko'rsatilgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ishning hal etilishidan manfaatdor bo'lismiga qarab, quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1) o'zining subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar. Ushbu shaxslarga tarafalar va uchinchi shaxslar kiradi.

2) protsessda boshqa shaxslarning subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar. Mazkur shaxslar qatoriga prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar, alohida toifadagi ishlar bo'yicha arizachilar hamda boshqa manfaatdor shaxslar kiritish mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari	Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatları
<ul style="list-style-type: none"> • Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, ko'chirma nusxa olish; • rad qilish to'g'risida ariza berish; • dalillar taqdim etish; • dalillarni tekshirishda ishtirok etish; • savollar berish; • iltimosnomalar kiritish; • arz qilish; • sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish; • ishti ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish; • ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish; • sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) hamda IPKda o'zlariga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqiga ega. <p>Korporativ nizoda ishtirok etayotgan taraflar bir-biridan va guvohlardan sudda ko'rilib yotgan ishga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasno.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Sud majlisiga o'z vaqtida kelish; • Sud majlisida protsessual tartibga rivoja qilish; • Davlat bojini va pochta xarajatlarini to'lash; • Dalillarni taqdim etish; • Isbotlash majburiyati; • O'zlariga tegishli barcha protsessual huquqlardan insolfi ravishda foydalanish; • IPKda nazarda tutilgan boshqa protsessual majburiyatlar.

4.2. Taraflar, ularning protsessual huquq va majburiyatlar

Taraflar iqtisodiy protsess ishtirokchilari ichida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki ushbu shaxslar o'rtasida nizoni kelib chiqishi, ularni tashabbusi bilan sudga da'vo qo'zg'atishi sud protsessini boshlab beradi.

Iqtisodiy protsessul qonunchiliga ko'ra, da'vogar (arizachi) va javobgar iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi taraflardir.

Vodda tuting!

Da'vogar – o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilish maqsadida da'vo taqdim etган yoki manfaatlari ko'zlanib da'vo taqdim etilgan yuridik shaxslar va fuqarolardir.

Javobgar – da'vo yoki bildirilgan talab taqdim etilgan yuridik shaxslar va fuqarolardir.

Arizachi – alohida toifadagi ishlar hamda IPKda nazarda tutilgan boshqa ishlar bo'yicha ariza bergan yuridik shaxslar va fuqarolardir.

Taraflarning protsessual huquqlarini umumiy va maxsus huquqlarga ajratish mumkin.

Taraflarning umumiy protsessual huquqlari (IPK 42-moddasi)	Taraflarning maxsus protsessual huquqlari (IPK-ning 131, 157, 160-moddalari)
<p>Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, ko'chirma nusxa olish;</p> <p>rad qilish to'g'risida ariza berish;</p> <p>dalillar taqdim etish;</p> <p>dalillarni tekshirishda ishtirok etish;</p> <p>savollar berish;</p> <p>iltimosnomalar kiritish;</p> <p>arz qilish;</p>	<p>Da'vogar:</p> <p>da'veoning asosini yoki premetini o'zgartirish;</p> <p>da'vo talablarining miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish</p> <p>kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish.</p> <p>Javobgar:</p> <p>Qarshi da'vo taqdim etish;</p> <p>E'tiroz bildirish;</p> <p>Da'veoni to'liq yoki qisman tan olish;</p>

<p>sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish;</p> <p>ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish;</p> <p>ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish;</p> <p>sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) hamda IPKda o'zlariga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqiga ega.</p> <p>Korporativ nizoda ishtirok etayotgan taraflar bir-biridan va guvohlardan sudda ko'rileyotgan ishga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasno.</p>	<p>Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish.</p>
---	---

Taraflarning protsessual majburiyatları:

1. Sud majlisiga o'z vaqtida kelish;
2. Sud majlisida tartib qoidaga rioya qilish;
3. Isbotlash majburiyati;
4. Dalillarni taqdim etish majburiyati;
5. Davlat boji va pochta xarakatlarini to'lash;
6. O'zlariga tegishli barcha protsessual huquqlardan insolli ravishda foydalanish;
7. IPKda nazarda tutilgan boshqa protsessual majburiyatlar.

4.3. Iqtisodiy protsessda birligida ishtirok etish, ishga daxildor bo'limgan javobgarni almashtirish tartibi

Da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda har doim ikki taraf ishtirok etadi. Biroq protsessda bir vaqtning o'zida har tarafda bir necha shaxslar ishtirok etishi mumkin. Sudga bir necha

da'vogar (sherik da'vogarlar) tomonidan bирgalikda yoki bir necha javobgarga (sherik javobgarlarga) nisbatan talab qo'yilgan ariza berilishi mumkin (IPKning 44-moddasi). Adabiyotlarda bu xildagi ishtirokchilik protsessual sherik ishtirokchilik deb nomланади va ularga bir xilda ta'riflar berilgan.

Yodda tuting!

Protsessda bирgalikda ishtirok etish deb, muayyan iqtisodiy ishning sudda ko'rilishida har ikki tarafdan ham bir necha da'vogarlar yoki bir necha javobgarlar ishtirok etishiga aytildi.

Iqtisodiy protsessda bирgalikda ishtirok etishning asosiy maqsadi sud tomonidan iqtisodiyk ishlarning ko'rilishini yengillashtirish, fuqarolar, yuridik shaxslarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tez va samarali himoya qilishdan iboratdir.

Iqtisodiy protsesual qonunchilikka ko'ra, da'vo bir necha da'vogar (sherik da'vogarlar) tomonidan bирgalikda yoki bir necha javobgarga (sherik javobgarlarga) nisbatan taqdim etilishi mumkin.

Da'vogarlar va javobgarlarning har biri boshqa tarafga nisbatan sud protsessida mustaqil ishtirok etadi.

Protsessda bирgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkin.

Boshqa javobgarning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin bo'limgan taqdirda, birinchi instansiya sudi hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogarning (da'vogarlarning) roziligi bilan o'sha javobgarni (javobgarlarni) ishda ishtirok etish uchun jalg etadi.

Agar qonunchilikda ishda boshqa javobgar ishtirokining majburiyligi nazarda tutilgan bo'lsa, sud shu javobgarni ishda ishtirok etish uchun o'z tashabbusi bilan jalg etadi.

Sud da'vogarning iltimosnomasi bo'yicha ham boshqa javobgarni ishda ishtirok etish uchun jalg etishga haqli.

Boshqa javobgarni ishda ishtirok etishga jalg etish yoki jalg etishni rad qilish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Yodda tuting!

Boshqa javobgar ishda ishtirok etish uchun jalg etilganda ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Sudga murojaat etgan da'vogar nizoli huquqiy munosabatning mavjud ekanligini hamda nizoli huquqning aynan o'ziga tegishli ekanligini isbotlashi talab etiladi. Sudda ish qo'zg'atilganida esa taraflar nizoli huquqiy munosabatlarning subyektlari ekanligi taxmin qilinadi, ya'ni ular mazkur ishga daxldor deb hisoblanadi. Biroq, ba'zan ishni sudda ko'rishga tayyorlash davomida yoki sudda ish ko'rish jarayonida javobgar tomon nizoli huquqiy munosabatning subyekti emasligi aniqlanishi mumkin. Bunday holatda ushbu javobgar ishga daxldor bo'limgan shaxs deb topiladi.

Sud da'vo bo'yicha javob berishi lozim bo'limgan shaxsga nisbatan da'vo taqdim etilganligini aniqlasa, ishga daxldor bo'limgan javobgarni hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogarning roziligi bilan ishga daxldor javobgar bilan almashtirishga yo'l qo'yishi mumkin.

Agar da'vogar javobgarni boshqa shaxs bilan almashtirishga rozi bo'lmasa, sud bu shaxsni da'vogarning roziligi bilan ikkinchi javobgar sifatida ishga jalg etishi mumkin.

Ishga daxldor bo'limgan javobgar almashtirilganligi to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Ishga daxldor bo'limgan javobgar almashtirilganidan so'ng ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

4.4. Protsessual huquqiy vorislik

Taraflardan biri nizoli yoki sud hujjati bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan chiqib ketgan hollarda (yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi, fuqaroning o'limi va majburiyatlardagi shaxslar o'zgarishining boshqa hollarida) sud bu tarafni uning huquqiy vorisi bilan almashtiradi.

Huquqiy vorislik iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin.

Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Taraf huquqiy voris bilan almashtirilganidan keyin iqtisodiy sud ishlarini yuritish almashtirish amalga oshirilgan bosqichning o'zidan davom ettiriladi.

Huquqiy voris ishga kirishguniga qadar sud protsessida amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o'rnni bo'shatib bergen shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, huquqiy voris uchun ham shu darajada majburiy bo'ladi.

Protsessual huquqiy vorislikka yo'l qo'yilsa, sud IPKning 101-moddasi 3-bandiga ko'ra, ish yuritishni to'xtatib turishi shart. Bu to'g'risla ajrim chiqaradi. Agar nizo protsessual huquqiy vorislikka qo'l qo'ymasa, sud IPKning 110-moddasi 5-bandiga ko'ra, ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim chiqaradi. Shuningdek, IPKning 273-moddasi 7-bandiga ko'ra, apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar ishda taraf bo'lgan fuqaro valot etsa, nizoli huquqiy munosabat esa huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa apellyatsiya instansiyasi sudi apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatadi.

Protsessual huquqiy vorislikni ishga daxldor bo'limgan javobgarni almashtirish bilan quyidagi farqli jihatlari mavjud:

birinchidan, protsessual huquqiy vorislik har qanday bosqichda yo'l qo'yilsa, ishga daxldor bo'limgan javobgarni almashtirish esa hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogarning roziligi bilan amalga oshiriladi;

ikkinchidan, protsessual huquqiy vorislikda huquqni qabul qiluvchi protsessdan chiqib ketgan shaxsning barcha protsessual huquqlariga ega bo'ladi va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Ishga daxldor bo'limgan javobgarni almashtirishda esa bunday holat yuz bermaydi;

uchinchidan, agar protsessda tegishsiz javobgar tegishli javobgar bilan almashtirilishida iqtisodiy ishning ko'riliши yangidan boshlansa, protsessual huquqiy vorislikning boshqa shaxs tomonidan qabul qilinishida unga ish materiallari bilan tanishish uchun vaqt va imkoniyat berilib, ishni ko'rish davom ettirilaveradi, yangitdan boshlanmaydi.

4.5. Uchinchi shaxslar va ularning turlari

Iqtisodiy protsessda har doim ham faqat taraflar ishtirot etmaydi. Taraflar o'rtasida nizolashilayotgan da'vo predmeti boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Masalan 2 ta tashkilot ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqi to'g'risida nizolashayotgan bo'lsa, boshqa tashkilot ushbu bino da'vogar va javobgarga ham tegishli emasligini, ushbu mulk unga tegishli ekanligi to'g'risida da'vo kiritdi. Mana shunday protsessual shaklda ishtirot etish protsessda nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan chiquvchi uchinchi shaxs deb tushuniladi.

Yoki boshqa bir holatni olsak, masalan, buyurtmachi pudratchidan shartnomada ko'rsatilgan subpudratchi aybi bilan ishlar sifatsiz bajarganligi sababli zararni undirish to'g'risida sudga da'vo qo'zg'atdi. Ushbu subpudratchi iqtisodiy protsessda javobgar tomonda turib mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida ishtirot etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiy protsessda ishtirot etuvchi uchinchi shaxslar ishning hal etilishidan qanday mazmunda manfaatdor ekanliklari hamda ish yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarori bilan qanday oqibatlar yuzaga kelishiga qarab, quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar;
2. Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar birinchi instansiya sudi hal qiluv

qarorini qabul qilguniga qadar ishga kirishishi mumkin. Ular da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va uning barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomha yuborish) tartibiga rioya etish majburiyati mustasno.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlanganidan keyin kirishsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar, agar ish ushbu shaxslarning taraflardan biriga nisbatan huquq yoki majburiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, da'vogar yoxud javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular tarafning iltimosnomasiga yoki sudning tashabbusiga ko'ra ham ishda ishtirok etishga jaib qilinishi mumkin.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar tarafning protsessual huquqlaridan foydalanadi va uning protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan da'veoning asosini yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vadan voz kechish, da'voni tan olish yoxud kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish, qarshi da'vo taqdim etish, sud hujjatining majburiy ijro etilishini talab qilish huquqi mustasno.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxsni ishda ishtirok etishga jaib qilish yoki jaib qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlanganidan keyin kirishsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar bilan nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni o'zaro farqi

<p>Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar da'vogar tomonidan ilgari surilgan predmetga nisbatan mustaqil da'vo qiladilar.</p>	<p>Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar tarafning iltimosnomasiga yoki sudning tashabbusiga ko'ra ham ishda ishtirok etishga jalg qilinishi mumkin.</p>
<p>Ular da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va uning barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etish majburiyati mustasno.</p>	<p>Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar da'veoning asosini yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vodon voz kechish, da'voni tan olish yoxud kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish, qarshi da'vo taqdim etish, sud hujjatining majburiy ijo etilishini talab qilish huquqiga ega emas.</p>
<p>Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar da'vogar va javobgarga nisbatan qaramaqarshi pozitsiyada bo'ladi.</p>	<p>Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar javobgar yoki da'vogar tomonidan turib ishtirok etadi.</p>
<p>Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar bilan nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni o'zaro o'xshash jihatlari</p>	
<p>Uchinchi shaxslarni ikkita turi ham birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar ishga kirishlari mumkin.</p>	
<p>Uchinchi shaxslarni ikkita turi ishga sud muhokamasi boshlanganidan keyin kirishsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.</p>	
<p>Uchinchi shaxslarni ikkita turi ham ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi.</p>	

Iqtisodiy protsessda uchinchi shaxstar ishtirok etishining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ldi:

birinchidan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning to'liq aniqlanishiga hamda iqtisodiy ishning to'g'ri hal etilishiga olib keladi;

ikkinchidan, **sud** va taraflarning vaqtlarini tejash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu protsessual tejamkorlik vositasidir, chunki regresss da'volarni ko'rib chiqish jarayonida dastlabki da'vo bo'yicha ishda ko'rib chiqilgan faktlarni yana qayta ko'rishga ehtiyoj qoimaydi;

uchinchidan, agar dastlabki mulkiy nizo alohida ko'rilsa, bu to'g'rida chiqarilgan qarorga muvofiq nizoli mulkning keyinchalik sotilishi yoki ishlatib yuborilishining oldi olinadi;

to'rtinchidan, dastlabki da'vo bilan uchinchi shaxs da'vosи alohida alohida ko'rligudek bo'lsa, keljakda bir-biriga muvofiq kelmaydigan sud hal qiluv qarorlari chiqarilishi kabi holatlar yuz berishi mumkin.

4.6. Prokurorning iqtisodiy protsessda ishtirok etish shakllari, asoslari hamda protsessual huquq va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, prokuratura organlari faoliyatini asosiy yo'nalishlaridan biri iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjalariiga protest keltirish belgilangan. Shuningdek, Iqtisodiy protsessual kodeksida ham prokuror ishtirok etishi bilan bog'liq normalar o'z ifodasini topgan.

Iqtisodiy protsessda prokuror IPKning 49-moddasiga ko'ra, 2 ta shaklda ishtirok etadi:

1. Prokurorning sudga da'vo arizasi (arizasi) asosida;
2. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning mazmuni bo'yicha fikrini bayon etadi, bundan uning boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga doir da'vo arizasi (arizasi) bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar mustasno qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin.

Iqtisodiy protsessual qonunchilik prokurorning iqtisodiy protsessida ishtirok etishining quyidagi asosini belgilaydi:

- 1) qonunda nazarda tutilgan hollarda;
- 2) prokurorning da'vo arizasi (arizasi) asosida qo'zg'atilgan ishlarda.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga ko'ra, tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlariga da'vo arizasini (arizani) – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar taqdim etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o'rinnbosarlari taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinnbosari O'zbekiston Respublikasining barcha iqtisodiy sudlariga da'vo arizasi (ariza) taqdim etishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat boji to'g'risida»gi qonunning 9-moddasiga ko'ra, prokuratura organlari sudga da'vo ariza (ariza) taqdim etganligi uchun davlat boji to'lashdan ozod etilgan.

Fuqaroning, yuridik shaxsning va davlatning manfaatlarini ko'zlab da'vo arizasi (ariza) taqdim etgan prokuror da'vogarning huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqi mustasno.

Prokurorning o'z da'vo arizasidan (arizasidan) voz kechishi da'vogarni (arizachini) ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Prokuror tomonidan da'vogarning huquqini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan da'vodan da'vogarning voz kechishi da'vo arizasini (arizani) ko'rmasdan qoldirishga olib keladi.

Prokuror apellyatsiya va cassatsiya instansiylarida ham ishtirok etishi mumkin. IPKning 259-moddasiga ko'ra, prokuror, yuqori turuvchi prokuror faqat prokuror ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha, shuningdek, tarallarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli. Apellyatsiya protesti keltirgan prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror ishni ko'rish yakuni bo'yicha sud hujjati chiqarilguniga qadar protestni chaqirib olishga haqli.

IPKning 282-moddasiga ko'ra, Prokuror, yuqori turuvchi prokuror birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan, apellyatsiya tartibida ko'rilgan hal qiluv qarori va apellyatsiya instansiysi sudining qarori ustidan, agar ish bo'yicha prokuror ishtirok etgan bo'lsa, shuningdek, taraflarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda, cassatsiya protesti keltirishga haqli. IPKning 288¹-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va ularning o'rindbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar prokurorlari IPKning 282-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda, cassatsiya protesti kiritish masalasini hal etish uchun tegishli iqtisodiy suddan ishni talab qilib olishga haqli.

IPKning 305¹-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki ularning o'rindbosarlari cassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha chiqarilgan sud hujjalari ustidan ishni cassatsiya tartibida takroran ko'rish haqida protest kiritishga haqli.

4.7. Iqtisodiy protsessda davlat organlari va boshqa shaxslarning ishtiropi

IPKning 50-moddasiga muvofiq, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda davlat organlari va boshqa shaxslar yuridik shaxslarning, fuqarolarning, jamiyat va davlatning huquqlari

hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida da'vo arizasi (ariza) taqdim etishi mumkin.

Demak, iqtisodiy sudga ba'zida huquqi buzilgan shaxsning o'zi emas, balki uning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari va buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida davlat organlari va boshqa shaxslar da'vo qo'zg'atadi.

Ushbu organlar faqat o'zlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, o'z vakolati doirasida sudga ariza berishadi. Masalan, davlat organlari va boshqa shaxslar sudga da'vo qo'zg'atishi, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessal kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni 25-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni 5-moddasi birinchi qismining 11-bandi, O'zbekiston Respublikasining «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Qonuni 12-moddasi birinchi qismining o'n oltinchi xatboshisi, 13-moddasi birinchi qismining o'n uchinchi xatboshisida ko'rsatilgan, shuningdek, yuqorida sanab o'tilmagan boshqa qonunlarda ham ushbu organlarni ishtirok etishi belgilangan holatlar bo'lishi mumkin.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'-risida»gi qonuni 43-moddasiga ko'ra, davlat soliq xizmati organining va boshqa vakolatli organning qarzdorni majburiy to'lovlari bo'yicha bankrot deb topish to'g'risida iqtisodiy sudga ariza berishligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni 56-moddasiga ko'ra, investorlarning, qimmatli qog'ozlar egalarining hamda davlatning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudda da'vo qo'zg'atishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Demak, yuqorida ko'rsatilgan davlat organlari qonunda belgilangan tartibda iqtisodiy sudga ariza berishi mumkin.

Da'vo taqdim etgan mazkur organlar va shaxslar IPKda belgilangan tartibda da'vogarning barcha huquqlaridan

foydalanadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Faqat, ushbu organlar kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqiga ega emas.

Davlat organi va boshqa shaxsning o'zi taqdim etgan da'vo arizasidan (arizadan) voz kechishi da'vogarni (arizachini) ishni mazmunan ko'rishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Davlat organi va boshqa shaxs tomonidan da'vogarning huquqlarini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan da'vo arizasidan (arizasidan) da'vogarning (arizachining) voz kechishi da'vo arizasini (arizani) ko'rmasdan qoldirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat boji to'g'risida»gi qonunning 9-moddasiga ko'ra, davlat organlari sudga da'vo ariza (ariza) taqdim etganligi uchun davlat boji to'lashdan ozod etilgan. Masalan, ushbu moddada adliya organlari, O'zbekiston Respublikasining Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va uning hududiy organlari, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi, uning joylardagi organlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi hamda uning joylardagi organlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning joylardagi organlari va boshqa subyektlar nazarda tutilgan.

4.8. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar

Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan bir qatorda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar – guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ishtirok etishi mumkin.

Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida guvohlar o'ziga hos o'rin egallaydi.

Yodda tuting!

Sudning nizoni to'g'ri hal etishi uchun ahamiyatga ega ma'lumotlar va holatlardan xabardor har qanday shaxs guvoh bo'lishi mumkin.

Quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas:

fugarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'-risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar – vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida;

jismoni yuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilishga yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuvalar berishga layoqatsiz shaxslar.

Guvohning huquqlari	Guvohning majburiyatları
<p>Guvoh advokatning yuridik yordamidan foydalanish, iqtisodiy sud ishi yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa, o'z ona tilida ko'rsatuvalar berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish, ko'rsatuvalarini o'z qo'li bilan yozib berish, ko'rsatuvalar berishda yozma qaydlar va hujjatlardan foydalanish huquqiga ega.</p>	<p>Guvoh sudning chaqiruviga binoan kelishi, ish yuzasidan o'zi xabardor bo'lgan ma'lumotlar va holatlar haqida to'g'ri ko'rsatuvalar berishi, sudya va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning savollariga javob berishi, sud majlisiga vaqtida tartibga roya etishi shart.</p>

Guvoh bila turib yolg'on ko'rsatuvalar bergenlik uchun jinoiy javobgar bo'ladi, sud tomonidan bu haqda ogohlantirilib, tilxat olinadi.

Esda saqlang! Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Qonunga muvofiq kasbiy burchini bajarishi jarayonida o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar va holatlar yuzasidan ko'rsatuv berishni rad qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ko'rsatuv berish majburiyati tatbiq etilmaydi.

Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida xulosa berish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega jismoniy shaxs ekspert sifatida tayinlanishi mumkin.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, boshqa korxona, muassasa, tashkilot xodimi yoki o'zga jismoniy shaxs ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin.

Belgilangan tartibda muormalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ekspert sifatida jalb etilishi mumkin emas.

Ekspertning huquqlari	Ekspertning majburiyatları
<p>Ekspert: ekspertiza predmetiga taalluqli ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish; joyida ko'zdan kechirishda ishtirok etish va ekspertizani o'tkazish uchun zarur qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish; sud muhokamasida ekspertiza predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va guvohlarga sudning ruxsat bilan savollar berish; ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish; o'z xulosasida nafaqat o'z oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha, balki ekspertiza predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham xulosalarini bayon etish; o'z xulosasi yoki ko'rsatuvlari ishda ishtirok etuvchi shaxslar va guvohlar tomonidan</p>	<p>Ekspert: IPKning 20 va 21-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, o'zini o'zi rad etishi haqida darhol arz qilishi; o'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirishdan o'tkazishi, o'z oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona yozma xulosa berishi; sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun sud chaqiruviga binoan kelishi; o'zi o'tkazgan ekspertiza xususida ko'rsatuvlar berishi va o'zi bergen xulosani tushuntirish uchun qo'shimcha savollarga javob berishi; ekspertiza o'tkazilishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;</p> <p>taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari ning but saqlanishini ta'min</p>

noto'g'ri talqin qilinganligi xususida sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish; agar u sud muhokamasi yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetaricha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish; agar ishni yuritayotgan sudning hal qiluv qarorlari, sudyaning harakatlari (harakatsizligi) ekspertning huquq va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

lashi; sud muhokamasi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

Agar ekspert qo'yilgan savollarni o'zining maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materialarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan dalolatnoma tuzadi hamda uni ekspertizani tayinlagan sudga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'-risida»gi Qonuni 23-moddasiga ko'ra, sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishinchaligiga sud eksperti yoxud sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir sud eksperti imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

Xulosada:

- sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy;
- sud ekspertizasini o'tkazish asosi;
- sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;

- sud ekspertri (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar;
- bila turib noto'g'ri xulosa bergenligi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek, xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun sud ekspertri jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi;
- sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar;
- sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari;
- sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar;
- qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va natijalarini, shuningdek, bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi;
- tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;
- ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar ko'rsatilishi lozim.

Xulosada huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlar, shuningdek, ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa tashkilotda qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) talabiga binoan ishga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi.

Agar taqdim etilgan tekshirish obyektlarining, material-larning yoki sud ekspertining maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshirish davomida ma'lum bo'lib qoisa, xulosa ayrim qo'yilgan savollarga javob berishni rad etish asosini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Tekshirish tugaganidan so'ng xulosa, tekshirish obyektlari va ish materiallari sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi.

Mutaxassis. Maslahatlar (tushuntirishlar) berish va ilmiy-teknika vositalarini qo'llashda yordam ko'rsatish yo'li bilan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda ko'maklashish maqsadida san, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilim va malakaga ega bo'lgan, voyaga yetgan, ish natijasidan manfaatdor bo'lmagan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalg qilinishi mumkin.

Mutaxassisni sud majlisida ishtirok etish uchun jalg qilish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Sudning mutaxassisni chaqirish haqidagi talabi uning ish beruvchisi uchun majburiydir.

Mutaxassisning huquqlari	Mutaxassisning majburiyatları
<p>Mutaxassis sifatida chaqirilgan shaxs:</p> <ul style="list-style-type: none"> • qanday maqsadda chaqirilganligini bilish; • agar tegishli bilim va malakaga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishni rad qilish; • sudning ruxsati bilan protsessual harakat ishtirokchilariga savollar berish; • protsessual harakat ishtirokchilarining e'tiborini o'zining dalillarni to'plash, tekshirish va 	<p>Mutaxassis etib tayinlangan shaxs:</p> <ul style="list-style-type: none"> • sudning chaqiruvi bo'yicha kelishi; • protsessual harakatlarni amalga oshirishda va sud muhokamasida maxsus bilim, malaka va ilmiy-teknika vositalaridan foydalangan holda ishtirok etishi; • maslahatlar berishi; • o'zi bajarayotgan harakatlar yuzasidan tushuntirishlar berishi shart.

baholashda, ilmiy-texnika vositalarini qo'llashda, ekspertiza tayinlash uchun materiallar tay-yorlashda ko'maklashish chog'idagi harakatlari bilan bog'liq holatlarga qaratish;

- o'zi ishtirok etgan protsessual harakat bayonnomasi, shuningdek, sud majlisi bayon-nomasining tegishli qismi bilan tanishish va uning ishtirokida amalga oshirilgan harakatlarning kechishi hamda natijalari qayd qilinishining to'liqligi va to'g'riliqi xususida bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arzlar va fikrlarni bildirish;

- agar ish yuritishda ishtirok etish uning xizmat vazifalari doirasiga kirmasa, protsessual harakatlarni amalga oshirishdagi ishtiroki bilan bog'liq xarajatlar o'rnı qoplanishi va bajargan ishi uchun pul mukofoti olish huquqiga ega.

Agar mutaxassis sud uzsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud chaqiruvi bo'yicha kelmasa, shuningdek, maslahatlar (tushuntirishlar) berishni assosiz ravishda rad etsa, unga nisbatan IPKning 14-bobida belgilangan tartibda sud jarimasi solinishi mumkin. Jarima solinishi mutaxassisi kelish va maslahatlar (tushuntirishlar) berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 10-moddasiga ko'ra, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan sud protsessi ishtirokchilarining tarjimon orqali ish materiallari bilan tanishish, sud harakatlarda ishtirok etish hamda sudda o'z ona tilida yoki erkin tanlangan muloqot tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi. Demak ushbu til prinsipini amalda ta'minlashda tarjimon muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima qilish uchun zarur tillarni biladigan hamda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan tayinlangan shaxs tarjimondir. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari, garchi tarjima qilish uchun zarur tillarni bilsa ham tarjimon vazifalarini o'z zimmasiga olishga haqlı emas.

Tarjimon huquqifari

- Tarjimon;
- tarjimanı amqlashtirish uchun sud majlisiga ishtirokchilarga savollar berish;
- agar tarjima qilish uchun tegishli bilinga ega bo'masa, sud muhokammasida ishtirok etishni rad qilish;
- sud majlisi bayonomomasi bilan tanishish;
- tarjima yozuvlarining yozilishi to'g'riligi xususida et'trozlashtirish etish huqqigina ega.

Tarjimon majburiyatlari

- Tarjimon;
- sud chaqlruvi bo'yicha kelishi;
- tarjimanı aniq, to'liq va to'g'ri amalga oshirishi;
- sud majlisi yaqtida tartibga roya etishi shart;
- tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilgantlik uchun jinoylar javobgar bo'ledi, sud tomonidan bu haqda ogohlantirilib, undan tizxfat olinadi.

4.9 Sudda vakillik

Sudda vakillik qilish mustaqil institut hisoblanib, uni fuqarolik huquqidagi vakillikdan vakil va unga ishonch bildiruvchi shaxs o'rtaсидаги munosabatlarning xarakteri va maqsadi, subyekt tarkibi, ma'lum yuridik harakatlarni bajarishga berilgan topshiriqlar, keltirib chiqaruvchi oqibatlari va asoslari bo'yicha farqlash mumkin.

Sudda vakillik qilishning maqsadi – fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashda va nizoning to'g'ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o'rtaсидаги moddiy huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo'ladi.

Sudda yuridik shaxslarning ishlarini ularning qonunchilikda yoki ta'sis hujjatlarida berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladigan organlari va (yoki) vakillari yuritadi.

Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan o'zları va (yoki) vakillari orqali yuritishga haqlidir. Fuqaroning ishda shaxsan

ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum qilmaydi.

Sudda vakillik qilish turlarini IPKda belgilangan normalardan kelib chiqib, quyidagilarga ajratish mumkin:

- qonuniy vakillik;
- shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik.

Qonuniy vakillik. Ma'lumki, vakillikning barcha turlari vujudga kelishining umumiy asosi huquq normasidir. Bu ma'noda vakillikning barcha turlari qonuniydir. Boshqacha qilib aytganda, qonuniy vakillik qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollarda yuzaga keladigan vakillikdir.

Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiyalar) himoya qiladi. Qonuniy vakillar sudda ish yuritishni o'zları tanlagan vakilga topshirishi mumkin.

Suddagi vakillikning navbatdagi turi shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik hisoblanib, IPKning 61-moddasida nazarda tutilgan. Shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni vakilga topshiradi.

Agar qonunda bu bevosita nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagilar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar bo'lishi mumkin:

- 1) advokatlar;
- 2) yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha;
- 3) notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari – shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha;
- 4) qonunda boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari;
- 5) birgalikdagi protsessual ishtirokchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;

6) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosiga binoan sud tomonidan ruxsat berilgan boshqa shaxslar.

Sudda vakil sifatida ishlarni yuritish bo'yicha professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin.

Fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishda, ularga malakali yuridik yordam ko'rsatishda shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida advokat ishtiroki muhim o'rinn egallaydi. Shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikning ushbu turining yuzaga kelishi uchun asos vakil bilan ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasida tuzilgan bitim hisoblanadi. «Advokatura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning «Yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma)» deb nomlangan 91-moddasiga muvoziq, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma) ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan advokat o'rtasida ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) o'ziga yoki u tayinlagan shaxsga yuridik yordam ko'rsatish uchun oddiy yozma shaklda tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomadan iboratdir.

Vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari qonunga muvoziq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma uning rahbari yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan imzolangan va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo'lganda) tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Shartnoma bo'yicha vakil sifatida harakat qiluvechi shaxs (bundan advokat mustasno) ishonchnomadan tashqari sudga shartnoma bo'yicha vakil maqomini tasdiqlaychi hujjatni taqdim etadi.

Vakilning vakolatlari o'z mazmuniga ko'ra umumiy va maxsus vakolatlarga ajratiladi.

Umumiy vakolatlar sudda ish yuritish vakolatlari vakiliga uni vakil qilgan shaxs nomidan barcha protsessual harakatlarni

amalga oshirish huquqini beradi. Masalan, ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish va xakazo.

Maxsus vakolatlar shunday vakolatlarki, unga ko'ra vakil muayyan protsessual harakatlarni bu haqda ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan bo'lsagina amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Ular quyidagilar: bundan da'vo arizasini imzolash, ishni hakamlik sudiga topshirish, da'vo talablaridan qisman yoki butunlay voz kechish va da'voni tan olish, da'vo predmetini yoki asosini o'zgartirish, kelishuv bitimi, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuv yoki mediativ kelishuvnvi tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga topshirish (ishonib topshirish), sud hujjati ustidan shikoyat qilish, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizani imzolash, sud hujjatining majburiy ijro ularning ko'chirma nusxalari ishga qo'shib qo'yiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs, uning vakili o'z vakolatlarini tasdiqlash uchun zarur hujjatlarni taqdim etmagan yoki qonunchilik talablariga muvosiq bo'limgan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda sud tegishli shaxsning ishda ishtirok etishga oid vakolatlarini tan olishni rad etadi, bu haqda sud majlisи bayonnomasida ko'rsatiladi.

Sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslar

1. To'la muomala layoqatiga ega bo'limgan yoxud vasiylik yoki homiylik ostidagi shaxslar sudda vakil bo'la olmaydi.

2. Sudyalar, tergovchilar, surishtiruvchilar, prokurorlar va sud devoni xodimlari sudda vakil bo'la olmaydi. Mazkur shaxslar sud protsessida tegishli sudiarning, prokuratura organlarining vakili sifatida yoki qonuniy vakil sifatida ishtirok etayotgan hollarga nisbatan ushbu qoida tatbiq etilmaydi.

3. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog'ida ayni shu nizo bilan bog'liq holda mediator sifatida ishtirok etgan shaxslar vakil bo'lishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan va mediatorning ishtiroki yuzasidan o'zaro rozilik bo'lgan hollar mustasno.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini tahlil qiling.
2. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tahlil qiling.
3. Iqtisodiy protsessda taraflar, ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntiring.
4. Uchinchi shaxslar tushunchasi, turlari va ularning o'zaro farqini tushuntiring.
5. Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi va yo'l qo'yish asoslarini tahlil qiling.
6. Ishga daxldor bo'limagan javobgarni almashtirish tartibini tushuntiring.
7. Prokuorning iqtisodiy protsessda ishtirok etish asoslari va shakllari nimalardan iborat?
8. Prokuorning iqtisodiy protsessda qanday huquq va majburiyatlar mavjud?
9. Iqtisodiy protsessda davlat organlari va boshqa shaxslarning ishtirok etish asoslarini tushuntiring.
10. Sudda vakillik qilish turlarini tahlil qiling.
11. Sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslarni tushuntiring.
12. Odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxslar va ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntiring.

KAZUSLAR

1-kazus

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi iqtisodiy sudga da'veo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar «NUR SAVDO»

mas'uliyati cheklangan jamiyati hisobidan mahsulotni o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun 4 306 936,60 so'm penya undirishni so'ragan.

Ishni sudda ko'rish jarayonida javobgar o'z nomi o'zgarganligini ma'lum qilib, tegishli javobgar bilan almashtirishni so'radi.

IPKning 45-moddasiga ko'ra sud da'vo bo'yicha javob berishi lozim bo'limgan shaxsga nisbatan da'vo taqdim etilganligini aniqlasa, ishga daxldor bo'limgan javobgarni hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogarning roziligi bilan ishga daxldor javobgar bilan almashtirishga yo'l qo'yishi mumkin.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Mazkur holatda ishga daxldor bo'limgan taraflni almashtirish tartibini tushuntiring.

2-kazus

O'zbekistan Savdo-sanoat palatasining Farg'ona viloyat hududiy boshqarmasi yakka tartibdagi tadbirkor Q. Nazarov manfaatida iqtisodiy sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, Qo'qon shahar hokimligidan 14 190 631 so'm moddiy zarar, 3 600 000 so'm ijara haqi, 30 000 000 so'm ma'naviy zarar, 39 666 662 so'm boy berilgan foydani undirishni so'ragan. Sudning 2017-yil 3-oktabrdagi ajrimi bilan fuqaro Q.Nazarov nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida jalg qilingan.

Mazkur iqtisodiy ishdagi hujjalarga ko'ra, fuqaro Q. Nazarovga tegishli bo'lgan Qo'qon shahri, Navoiy ko'chasi, 95-A uyda joylashgan «Shohrux» savdo do'koniga xususiy mulk sifatida Farg'ona viloyati ro'yxatdan o'tkazish ofisida 16/02-29-305-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilib, 2012-yil 16-martda TA-0301640-son guvohnoma berilgan. Qo'qon shahri hokimining 2016-yil 24-dekabrdagi 461-son qaroriga asosan Qo'qon shahar markaziy ko'chalarining obodonlashtirilishi munosabati bilan fuqaro Q. Nazarovga tegishli yuqorida ko'rsatilgan savdo do'koniga buzilishi belgilangan. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining Farg'ona viloyat hududiy boshqarmasi yakka tartibdagi tadbirkor Q. Nazarov manfaatida da'vo

arizasi bilan murojaat qilib, Qo'qon shahar hokimligidan 14 190 631 so'm moddiy zarar, 3 600 000 so'm ijara haqi, 30 000 000 so'm ma'naviy zarar, 39 666 662 so'm boy berilgan foydani undirishni so'ragan.

Mazkur ish bo'yicha birinchi instansiya sudining 2017-yil 3-oktabrdagi ajrimi bilan ish yuritish tugatilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Ushbu ishda ishtirok etuvchi shaxstar doirasini tahlil eting.

5-bob. IQTISODIY PROTSESSDA ISBOTLASH VA DALILLAR. IQTISODIY PROTSESSDA DA'VO

5.1. Isbotlash majburiyati

Iqtisodiy sud ishlarida taraflar tortishuvchanlik va tenglik prinsipi asosida o'z talab va e'tirozlarini asoslaydigan dalillarni taqdim qilish bilan iqtisodiy sud ishini o'z foydasiga hal qilishga harakat qiladi. Iqtisodiy sud ishlarida sudning hal qiluv qarori taraflar taqdim etgan dalillarga va ularni isbot qilishga qaratilgan harakatiga uzviy bog'liqdir.

Iqtisodiy protsessual qonunchilikka asosan har bir taraf o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashi shart.

Sud qanday holatlar ish uchun ahamiyatga ega ekanligini, ularni taraflardan qaysi biri isbotlashi kerakligini aniqlaydi, hatto taraflar bu holatlarni dalil qilib keltirmagan bo'lsa ham ularni sud muhokamasiga qo'yadi.

Dalillar taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Sud ularga qo'shimcha dalillar taqdim qilishni taklif etishi mumkinligi belgilangan.

Yodda tuting!

Ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak.

Iqtisodiy sudlar taraflar tomonidan taqdim qilingan dalillarni tekshirish va ularga huquqiy jihatdan baho bermasdan, hal qiluv qarorlarini qabul qilmaydilar.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga asosan iqtisodiy ish bo'yicha dalillar IPK va boshqa qonunlarda nazarda utilgan tartibda olingan faktlar haqidagi ma'lumotlar bo'lib, ular asosida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi holatlar, shuningdek, nizoni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar mavjudligini yoki mavjud emasligini

aniqlaydi. Bunday ma'lumotlar yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishi), guvohlarning ko'rsatuvlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari bilan aniqlanadi.


Qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

5.2. Dalillar tushunchasi va tasnifi

Iqtisodiy sud ishida ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni dalillardir.

Iqtisodiy protsessual huquqida dalillarni nazariy jihatdan o'rghanish va tahlil qilishda ularni klassifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Dalillar protsessual nazariy jihatdan huquqshunos olimlar tomonidan turlicha klassifikatsiya qilinadi.

Dalillarni quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin: dalillarni shakliga qarab: ashyoviy, yozma, og'zaki, elektron dalillar, manbasiga qarab: shaxsiy va ashyoviy; vujudga kelishiga qarab: birlamchi va hosila; dalillar bilan isbotlanuvchi fakt o'rtasidagi uzviy bog'lanishga qarab: to'g'ri va egri.



Yozma dalillar iqtisodiy sud ishini hal qilish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risida ma'lumot beruvchi yozma manbalardir.

Yozma dalillar turkumiga nafaqat xatlar, yozishmalar, hujjatlarni, balki turli xil bo'lgan chizmalar, xaritalar, kitoblar, koordinata o'qlari, diagrammalar, nota belgilari, matematik tenglamalarni ham yozma dalillar qatoriga kiritish mumkin.

Yozma dalillarni ikki turkumga ajratish mumkin:

- shaxsiy yozishmalar;
- hujjatlar.

Shaxsiy yozishmalarga shaxslarning o'zaro yozishmalari, kundalik daftari, tabriknomalar va boshqa yozishmalarni kiritish mumkin.

Hujjatlar tushunchasi nisbatan keng tushuncha bo'lib, hujjatlar turkumiga shartnornalar, bitimlar, yuridik va jismoniy shaxslarning ish faoliyatiga oid hujjatlar, sud qarorlari va boshqalarni kiritish mumkin.

Iqtisodiy protsessida ashyoviy dalillar quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, moddiy obyekt faktlar to'g'risida ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu noorganik va organik kelib chiqishga ega bo'lgan turli xil narsalar bo'lishi mumkin: shikastlangan mebel, yiritilgan kiyim, transport vositasi, oziq-ovqat va boshqalar.

Ikkinchidan, ashyoviy dalillardagi ma'lumotlarda moddiy obyektning aniq ko'rinishdagi belgilari bo'ladi. Sud va protsessning boshqa ishtirokchilari bu ma'lumotni vizual usullar orqali bilib olishadi.

Uchinchidan, ashyoviy dalillar qonun tomonidan belgilangan protsessual tartibda sud tomonidan baholanishi kerak.

To'rtinchidan, iqtisodiy sud ishida ashyoviy dalil sifatida ko'rsatilgan obyekt bir yaqning o'zida ham dalil, ham nizo predmeti bo'lishi mumkin.

Ashyoviy dalillar – har qanday moddiy obyektlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Faqat ular ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sudga taqdim qilinishi yoki sudning o'zi talab qilib olgan bo'lishi lozim.

Ular kelib chiqish turiga qarab organik va noorganik bo'lishi mumkin: noorganik ashyolarga shikastlangan mebel, kiyim-kechaklar kirsa, organik ashyolarga oziq-ovqat, meva-sabzavot va hokazolar kiradi.

Ashyoviy dalillar yozma dalillardan farq qiladi. Ashyoviy dalillarda axborot aniq belgililar ko'rinishida (masalan,

shikastlanish, zarar yetishi) bo'ladi. Hujjatda yozma dalil – ma'lumot an'anaviy belgilar (raqamlar, xatlar va boshqalar) yordamida kuzatiladi.

Protsessual qonunchilikka asosan ashyoviy dalillar ham sud uchun oldindan o'rnatilgan qonuniy kuchga ega emas. Ashyoviy dalillar ham sud majlisi yoki sud topshiriqlari yuborish natijasida sudlar tomonidan tekshiriladi hamda baholanadi.

Sud qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ashyoviy dalillar ular olingan shaxslarga qaytarib beriladi yoki sud ushbu ashyolarga kimning huquqi bor deb topgan bo'lsa, o'sha shaxslarga qaytarib beradi.

Elektron dalillar odatda saqlovchi qurilmalarda (fleshka, disk, kompyuter, Internet va boshqalarda) saqlanadi, ya'nii ular moddiy materialda saqlanishi bilan ashyoviy dalillarga o'xshaydi. Biroq ashyoviy dalil bilan elektron dalil o'rtasidagi asosiy farq shundaki, sud tomonidan ashyoviy dalilning o'zi tadqiq qilinsa, elektron dalillarga sud tomonidan baho berilayotganda elektron dalilni saqlovchi qurilma emas, balki uning ichidagi axborot tekshiriladi. Elektron dalillarning fleshka, disk yoki kompyuterda saqlanishi va ushbu texnik vositalar orqali tekshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu tafovut ashyoviy dalil bilan elektron dalil o'rtasidagi asosiy farqni belgilaydi.

Elektron dalillar asosan elektron hujjat, elektron yozishmalar, Internet xabarlari ko'rinishida bo'ladi. Bu esa uni yozma dalillarning bir ko'rinishi sifatida baholashga olib keladi.


Elektron dalillarning yozma dalillardan asosiy farqi shundaki, elektron dalillar texnik vositasiz yoki axborot-kommunikatsiya vositasiz tekshirib ham, baholab ham bo'lmaydi. Elektron pochtadagi xabarni o'qish uchun albatta kompyuter hamda Internet bo'lishi lozim.

Yozma va ashyoviy dalillarning nainunlari cheklangan bo'ladi, ularni bir necha kishi tekshirishi mumkin. Elektron dalillarni tekshirish va baholash zamon va makon tanlamaydi. Internet, ijtimoiy tarmoq yozishmalarni, elektron pochta xabarlarini dunyoning istalgan burchagidan cheksiz odam o'qishi hamda nusxa olishi mumkin.

Elektron dalillarni maxfiy saqlash boshqa dalillarga qaraganda nisbatan yuqoriroq. Elektron dalillar elektron imzo, login va parol bilan himoyalangan bo'ldi.

Yuqorida biz dalillar tuzilishiga (vujudga kelishi) qarab: birlamchi va hosila dalillarga bo'linishi haqida aytib o'tdik. Birlamchi dalillarga hisob-kitoblar, hujjatlarning asli misol bo'lsa, ularning nusxalari hosila dalil bo'lib hizmat qiladi. Dalillarni tuzilishiga (vujudga kelishi) qarab turkumlash elektron dalillarga xos emas. Elektron dalildan qancha ko'p nusxa olmang, elektron dalil o'z xususiyatini yo'qotmaydi hamda uning nusxasi ham aslidan hech qanday farq qilmaydi. Kompyuterdagagi ma'lumotlarni telegram ijtimoiy tarmog'iga yoki elektron pochtaga yoxud fleshkaga istalgancha nusxa ko'chirsangiz ham ularning xususiyati o'zgarmaydi. Bu esa elektron dalillarni tuzilishiga (vujudga kelishi) qarab: dastlabki va hosila dalillarga bo'linishi inkor etishi mumkin.

Dalillar manbasiga qarab: ashyoviy va shaxsiy dalillarga bo'linadi.



Shaxsiy dalillarga fuqarolarning shaxsiy yozishmlari, xatlari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi o'zaro yozishmlar, fuqarolarning shaxsiy buyumlari (soat, telefon)larni aytib o'tishimiz mumkin.

Ashyoviy dalillar esa iqtisodiy sud ishdarida tovarlar, ishlab chiqarish uskunalari, avtotransport vositalari bo'lishi mumkin.

5.3. Dalillarga baho berish

Iqtisodiy sud ishlarida sudyalar oldiga elektron dalillarni tekshirish, taqdim etilgan dalillarda qarama-qarshiliklar vujudga kelganda, ularni qonuniy va asosli baholash vazifasi qo'yilgan.

Dalillarga quyidagi baholash mezonlari orqali baho beriladi: dalillarning aloqadorligi, maqbulligi, ishonchliligi, dalillarning yig'indisi bo'lsa, ularning yetarligi prinsiplari sud tomonidan baholanadi.

Dalillar bir vaqtida dalillarning barcha baholash mezonlari orqali baholanadi. Agarda dalilni baholash mezonlaridan biri bilan baholash imkonи bo'lmasa, sud tomonidan qonuniy dalil sifatida baholanmaydi.

Har qanday dalil sudda ko'rileyotgan iqtisodiy ishga aloqador bo'lishi lozim. Huquqiy ta'sir chorasini ko'tish bilan bog'liq ishlarga elektron auksion bayonnomasi, oldi-sotdi shartnomasi aloqasi bo'lmasa, elektron auksion bayonnomasi, oldi-sotdi shartnomasi huquqiy ta'sir chorasini qo'llash bilan bo'g'lish ishlar bo'yicha aloqador dalil sifatida baholanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq muayyan dalillar bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan ish holatlari boshqa dalillar bilan tasdiqlanishi mumkin emas.

Shartnomalar notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi zarur bo'lgan holda ular og'zaki tuzilgan yoki video, audio shaklda tuzilgan bo'lsa, mazkur dalillar iqtisodiy sudlar tomonidan maqbul dalil sifatida baholanmaydi.

Iqtisodiy sudsarda dalillar qonuniy jihatdan olinishi, aldov, zo'rlik yoki hazil tariqasida olinmasligi lozim. Aldov, zo'rlik, hazil tariqasida olirungan bo'lsa, ular ishonchli deb baholanmasligi kerak.

Yodda tuting!

Ishning iqtisodiy sud tomonidan hammaga ma'lum deb topilgan holatlari isbotlashga muhtoj emas.

Iqtisodiy sudning ilgari ko'rilgan ish bo'yicha qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori bilan aniqlangan holatlar sud xuddi shu shaxslar ishtiroy etayoitgan boshqa ishni ko'rayotganida yangidan isbot qilinmaydi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning yoki ma'muriy sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori boshqa ishni ko'rayotgan iqtisodiy sud uchun fuqarolik ishlari bo'yicha sudning yoki ma'muriy sudning hal

qiluv qarorida aniqlangan va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga taalluqli bo'lgan holatlarga doir masalalar bo'yicha majburiydir.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi muayyan harakatlar sodir etilganligi yoki sodir etilmaganligi va ular kimlar tomonidan sodir etilganligi masalalari bo'yicha iqtisodiy sud uchun majburiydir.

5.4. Iqtisodiy protsessda ekspertiza tayinlash

Sudya bu huquqshunos. Iqtisodiy ishlarda adabiyot, san'at, madaniyat, sanoat, fan-teknika, hunarmandchilik sohalarida malaka talab qiladigan dalillar taraflar tomonidan taqdim qilinishi mumkin. Mazkur turdag'i dalillarga sud tomonidan baho berilishida, ularga nisbatan sud ekspertizasi tayinlanishi mumkin.

Ekspertiza tayinlash to'g'risida sud ajrim qabul qiladi. Mazkur ajrim asoslantirilgan bo'lshi, ajrimda ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lgan holatlar, tarafning keltirgan vaji yoki ishning aynan qaysi holati tekshirilishi va ushbu holatni tekshirish uchun qaysi sohadagi ekspert tomonidan o'tkazilishi, ekspert oldiga qo'yilgan savollar, taqdim etilgan obyektlar va materiallar ko'rsatib o'tilishi lozim.



Sud tomonidan qo'shimcha ekspertiza dastlabki ekspertiza xulosasidagi bo'shliqlarni to'ldirish va ularni aniqlashtirish uchun o'tkaziladi.

Ekspert xulosasi asoslanmagan bo'lsa yoki xulosaning to'g'-riligiga sud tomonidan shubha bildirilsa yoxud unga asos qilib

olingen dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki ekspertizani o'tkazish bo'yicha protsessual qoidalari jiddiy buzilganda takroriy ekspertiza tayinlanadi.

Qo'shimcha ekspertiza dastlabki ekspertizani o'tkazgan ekspert yoki boshqa ekspert tomonidan o'tkazilsa, takroriy ekspertiza boshqa ekspert tomonidan o'tkaziladi.

Takroriy ekspertizani tayinlash to'g'risidagi ajrimda takroriy ekspertizani tayinlagan sudning dastlabki ekspertiza xulosasiga e'tirozlar ko'rsatib o'tilishi lozim.

Ekspertiza bir necha ekspertlar tomonidan o'tkazilishi mumkin, agarda ekspertiza ayni soha bo'yicha ekspertlar tomonidan o'tkazilsa komissiyaviy ekspertiza sifatida o'tkaziladi. Organik mahsulotlar bo'yicha bir necha kimyogar tomonidan o'tkazilsa, bu ekspertiza komissiyaviy ekspertizaga misol bo'lishi mumkin.

Agarda turli soha bo'yicha ekspertlar tomonidan ekspertiza o'tkazilsa, u kompleks ekspertiza tarzida o'tkaziladi. Organik mahsulotlar bo'yicha ekspertiza o'tkazilayotganda fizik, kimyogar, biologlar tomonidan o'tkazilsa, bu kompleks ekspertizaga misol bo'lishi mumkin.

Sud ekspertlari umumiy fikrga kelganidan so'ng birlgilidagi xulosani yoki xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi.

Ekspertlar ekspertiza bo'yicha o'z xulosasini yozma shaklda beradi. Ekspertiza xulosisi uch qismdan iborat bo'lib: kirish, tadqiqot (tekshiruvchi) qism, xulosadan iborat bo'ladi.

Kompleks va komissiyaviy sud ekspertizasining xulosasida sud ekspertlarining har biri qaysi tekshirishlarni va qancha hajmda olib borganligi, qaysi holatlarni shaxsan o'zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko'rsatiladi. Sud ekspertlarining har biri xulosaning ushbu tekshirishlar bayon etilgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo'ladi.

5.5. Dalillarni ta'minlash va sud topshiriqlari

O'zbekiston Respublikasi IPKda elektron shakldagi dalillarni ta'minlash to'g'risidagi normalar mavjud emas. IPKning

90-moddasida taraflar dalillarni ta'minlashni iqtisodiy ishni yuritishiga qabul qilgan suddan ushbu dalillarni ta'minlash to'g'risida iltimosnomaga bilan murojaat qilishi mumkinligi belgilangan. Bundan ko'rindaniki, iqtisodiy sud ishlarni yuritishda elektron dalillarni ta'minlash to'g'risidagi iltimosnomalar faqat iqtisodiy ish qo'zg'atilgandan keyin beriladi.

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ariza iqtisodiy sud ishlardan ish qo'zg'atilgandan keyin taraflar tomonidan iqtisodiy ishi ko'rileyotgan sudga beriladi.

Agar sud dalillarni ta'minlash to'g'risidagi arizani qanoatlantirsa, elektron dalilni ta'minlash to'g'risida ajrim qabul qiladi, mazkur ajrim ustidan taraflar shikoyat keltirishi mumkin emas.

Dalillar ta'minlanayotganda, sud tomonidan davlat organlaridan, tashkilotlardan yoki fuqarolardan talab qilinadigan dalillar bevosita sudga yuboriladi.

Dalillarni ta'minlash to'g'risida sud taraflarni va boshqa shaxslarni dalillarni ta'minlash vaqtini va joyi to'g'risida xabardor qiladi. Taraflarni sud majlisiga kelmasligi dalillarni ta'minlashga to'sqinlik qilmaydi. Dalillarni ta'minlashda sud taraflarni, guvohlarni so'roq qiladi, ekspertiza tayinlaydi, dalillarni ko'zdan kechiradi.

Agarda ish uchun zarur bo'lgan dalillar boshqa tuman yoki shahar hududida joylashgan bo'lsa, ushbu dalillarni olish maqsadida dalillar joylashgan joydagiga sudga muayyan protsessual harakatlarni bajarish uchun sud topshirig'ini yuborishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi IPKga asosan sud topshirig'i to'g'risidagi ajrimda ko'rileyotgan ishning mazmuni qisqacha bayon qilinadi, aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar, topshiriqni bajaradigan sud to'plashi kerak bo'lgan dalillar ko'rsatiladi.

5.6. Da'vo tushunchasi, elementi va turlari

Da'vo iqtisodiy protsessual huquqning boshqa institutlari orasida muhim o'rinni tutadi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudsiz ham, iqtisodiy sudsizda ham buzilgan yoki nizolashayotgan

huquqni tiklashda da'vo muhim protsessual vositadir. Iqtisodiy protsessual qonunchiligidan buzilgan huquq va manfaatlarni sud orqali himoya qilish kafoflatlangan.

Yodda tuting!

Da'vo bu buzilgan yoki nizolashyotgan huquq va manfaatlarni tiklashga qaratilgan talabdir.

Da'vo murakkab huquqiy tushuncha bo'lib, da'voni ikki tomonini ko'rishimiz mumkin:

1) protsessual huquqiy tomoni – nizoni mohiyatan hal qilish, buzilgan yoki nizoli huquq yoxud qonun bilan himoyalangan manfaatlarni himoya qilish to'g'risida iltimosnomasi bilan iqtisodiy sudga murojaat qilish;

2) moddiy huquqiy tomoni da'vogarning javobgarga nisbatan nizoli moddiy da'vosi, shuningdek, shaxsiy nomulkiy huquqlari bo'lishi mumkin.

Da'vening protsessual huquqiy tomoni da'vogarning buzilgan huquqini tiklash maqsadida sudga murojaat qilishi bo'lsa, moddiy huquqi tomoni da'vogar talab qilayotgan moddiyat (pul summasi, ko'chmas va ko'char mol-mulk, mualliflik huquqi) sanaladi.


Nizolashyotgan huquq bo'yicha da'vogar sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi, o'z navbatida javobgar qarshi da'vo arizasi bilan munosabat bildirishi mumkin.

Da'vogarning javobgarga nisbatan moddiy da'vosining mavjudligi qarshi da'vo, da'voni ta'minlash, da'volarni birlashtirish va ajratish, da'vo talabni rad etish, da'voni tan olish kabi iqtisodiy protsessual huquqning institutlarini vujudga kelishiga yordam beradi.

Da'vogarning javobgarga nisbatan moddiy huquqiy talabi qat'iy belgilangan protsessual tartibda ko'rib chiqilishi va hal qilinishi kerak.

Iqtisodiy protsessual huquqda da'vo instituti da'vening har ikki tomoni bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Da'vening mazmuni ikki elementdan iborat:



Vodda tuting!

Da'vening predmeti da'vegarning talabi bo'lib, da'vegarning javobgardan talab qilayotgan narsasi bo'ladi. Kredit qarzlarni undirish, zararni undirish, mahsulot yetkazib berish kabi iqtisodiy ishlarda kredit summasi, zarar summasi, lozim darajada sislatli bo'lgan tovar da'vening predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Da'vening asosi – da'vegar javobgarga nisbatan talablarini asoslaydigan qonuniy faktlar. Da'vo asosi murakkab faktik tarkibdir, chunki da'vo asoslari bitta yuridik faktidan iboratligini tasavvur qilish qiyindir. Yuridik faktlar, faktik holatlar da'vening haqiqiy asosini tashkil etadi.

Da'vening faktik asoslaridan tashqari, da'vening huquqiy asoslari ham muhimdir. Da'vo arizasida qonun va boshqa normativ hujjatlarni buzganlik uchun ko'rsatma da'vo uchun huquqiy asosdir. Nizoli huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va boshqa normativ hujjatlar ham da'vening huquqiy asosi bo'lib hizmat qiladi.

Da'vening asosi bo'lib da'vo talabini tasdiqlaydigan dalillar sanaladi. Sharhnomalar, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi, e-auksion bayonnomasi, tuman, shahar hokimining qarori va boshqa hujjatlar da'vening asosi bo'lib xizmat qiladi.

Da'vo elementlarining zarurati shundaki, bir da'vo boshqa da'vodan farq qilishda, sud ishning yo'naliishi va ko'lami hamda da'volarning o'ziga xosligi aniqlashda hizmat qiladi.

Da'vening elementlari: da'vo predmetini yoki asosi o'zaro aloqador bo'lganda, da'vegar da'vo ariza bilan sudga murojaat


qilishi mumkin bo'ladi. Da'vo predmeti o'zgartirilsa, o'z navbatida da'vo asosi ham o'zgaradi.

Da'vo mavzusi va asoslari bilan bir qatorda adabiyot da'vo mazmunini uning uchinchi elementi silatida ham eslatib o'tadi. Da'vening mazmuni taraflarning protsessual huquq va majburiyatlari hisoblanadi. Aynan protsessual huquq majburiyatlari orqali taraflarga sudga murojaat qilishi, da'voden voz kechishi, da'vo predmetini o'zgartirishi, da'veni tan olishi, qarshi da'vo arizasi berishi mumkin bo'ladi.

Da'vogar tornonidan ko'zlanayotgan protsessual maqsadlarga qarab da'volar unduruvga qaratilgan va tan oldirishga qarailgan da'volarga bo'lishi mumkin.

Undiruvga qaratilgan da'volar da'vogar javobgardan ma'lum bir narsani undirish qaratilgan da'volar sanaladi.

Da'vogar zararni qoplash, birovning noqonuniy egaligidan mol-mulkni undirish yoki kredit majburiyatlari bajarish bo'yicha kredit mablag'larini undirish, sotuvchi sotib oluvchidan tovarlarga haq to'lash yoki kechiktirilgan kunlar uchun penya (jarimalar)ni undirish to'g'risidagi ishlarda da'vo undiruvga qaratilgan bo'ladi.



Iqtisodiy sud ishlarini ko'rib chiqish amaliyotida ko'pincha quyidagi da'volar uchraydi: javobgardan bino yoki turarjoy binolarini bo'shatish majburiyati to'g'risida, xaridordan mol-mulkni undirish to'g'risidagi da'volar, zararni qoplash to'g'risidagi da'volar. Ushbu da'volar unduruvga qaratilgan da'volar turkumiga kiradi.

Tan olishga qaratilgan da'volar huquqiy munosabatning mavjud yoki yo'qligini tasdiqlashga qaratilgan da'volardir. Tan olishga qartilgan da'volar muayyan huquq yoki narsa da'vogarga tegishli ekanligini tasdiqlashga qaratilgan bo'ladi. Bunday turdag'i da'volar turkumiga mulk huquqini tan olish haqidagi, intellektual faoliyat obyektlari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga mulkiy huquqlari buzilganligi haqidagi, intellektual faoliyat obyektlari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga mulkiy huquqlari buzilganligi haqidagi ishlardagi da'volar misol bo'lishi mumkin.

Sud tan olishga qaratilgan da'vo arizasida da'vogarning javobgarga nisbatan da'vogarning huquqlari yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirimaslik to'g'risidagi talabi da'vo predmeti bo'ladi.

Yedda tuting!

Da'vo taqdim etish huquqi bu manfaatdor shaxsning protsessual tartibda sub'ektiv moddiy huquqini himoya qilish imkoniyatidir.

Da'voni taqdim etish huquqi da'voning protsessual-huquqiy tomoni bo'lsa, da'voni qanoatlantirishga bo'lgan huquq – da'voning moddiy-huquqiy tomoni sanaladi.

Da'voni taqdim etish huquqi iqtisodiy sudda da'vo arizasi berilgan vaqtida tekshiriladi. Da'vogar da'voni taqdim etish huquqiga ega bo'lmasa, mazkur iqtisodiy ish sudda qo'zg'atilmaydi.

Da'voni qanoatlantirishga bo'lgan huquq sud majlisiga yakunida hal qiluv qarori qabul qilish jarayonida hal qilinadi. Agar da'vogarning talablari asosli va qonuniy deb topilsa, sud da'vogarning talablarini qanoatlantiradi.

5.7. Himoyaning boshqa vositalari

Da'vogar o'zining buzilgan huquq va manfaatlarini tiklash maqsadida sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

O'z navbatida javobgar da'vogarga nisbatan qarshi da'vo arizasi berishi mumkin. Ushbu harakat tijorat nizolarini to'g'ri ko'rib chiqish va hal qilish uchun juda muhimdir.

Qarshi da'vo quyidagi hollarda sud tomonidan qabul qilinadi:

qarshi talab dastlabki
talabni hisobga olishga
qaratilgan bo'lsa yoki
qarshi da'veoni qanoat-
lantirish dastlabki
da'veoni to'liq yoki
qisman
qanoatlantirishni
istisno qilsa

qarshi da'vo bifan
dastlabki da'vo
o'rtaida o'zaro
bog'liqlik bo'lib,
ularni birgalikda
ko'rib chiqish nizoni
o'z vaqtida va to'g'ri
hal etishga
olib kelsa

Qarshi da'vo arizasi iqtisodiy sudlarda javobgarning huquqlarini himoya qilishning asosiy protsessual vositalaridan biridir. Javobgar ish bo'yicha hal qiluvchi qaror qabul qilishdan oldin, uni dastlabki da'vo bilan birga ko'rib chiqish uchun da'vogarga nisbatan qarshi arizasi taqdim etishi mumkin.


Qarshi da'vo – javobgarning da'vogarga nisbatan da'vogar tomonidan qo'zg'atilgan va ular ishda ishtirok etadigan jara-yonda ko'rib chiqilishi uchun taqdim etilgan moddiy talabidir.

Dastlabki va qarshi da'volarni birgalikda ko'rib chiqish yoki uni mustaqil ish yuritishga ajratish ishning o'ziga xos holatlari bilan, nizoning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini va hal etilishini ta'minlash zarurligini hisobga olgan holda oldindan belgilanadi.

Iqtisodiy sud qarshi da'vo arizasining dastlabki talab bilan hech qanday aloqasi yo'qligini aniqlasa yoki ularni sud jarayonda birgalikda ko'rib chiqishning maqsadga muvoziq emasligini aniqlansa, javobgar taqdim qilgan qarshi da'vo arizasi mustaqil ish sifatida ham ko'riliishi mumkin.

Shuningdek, ayrim xorijiy davlatlarda cross claim deb nomlanuvchi himoyaning boshqa vositalari bo'lib, uni o'zbek tiliga tarjima qilishda bir qator xatoliklar mavjud, xususan, cross claim – qarshi da'vo arizasi sifatida tarjima qilish to'g'ri emas. Cross claim amaldagi iqtisodiy protsessual qonunchiligidizda

mayjud emas. Cross claim bu sherik ishtirokchilarning bir-biriga beradigan da'vo arizasidir, ya'nı sherik da'vogarlar bir biriga da'vo ariza berishi cross claim hisoblanadi. Shuningdek, sherik javobgarlar ham biri-biriga da'vo arizasi taqdim qilishi ham cross claim sanaladi.



Iqtisodiy sud ishlarida taraflar o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida e'tiroz va iltimonomalar taqdim qilishi mumkin.

5.8. Da'voni ta'minlash choralar

Da'voni ta'minlash – itqitodiy sud ish yuritish ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati. Da'voni ta'minlash instituti iqtisodiy sudi ishtirokchilari va boshqa shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari natijasida buzilgan mulk huquqlarini real va to'liq tiklashga qaratilgan protsessual choradir.

Da'voni ta'minlashning maqsadi iqtisodiy sudning qarorlarini to'g'ri va to'liq bajarilishini ta'minlashdir. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim qabul qilishda sud ushbu choralarни qabul qilish zaruratini aniqlashi lozim.

Shu bilan birga sudda bir nechta da'voni ta'minlash choralar ko'riliishi mumkin.

Iqtisodiy sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan da'vogar javobgar tomonidan o'z talabining bajarilishiga erishishi kerak. Agar sud qarorini ijro etish qiyin yoki imkonlitsiz bo'lib qoladi degan fikrga kelsa, da'vogardan kelgusida iqtisodiy sud qarorining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rishi so'rashi mumkin. Da'voni ta'minlash – bu iqtisodiy sud tomonidan

kelgusida sud qarorini aniq ijro etilishi kafolatlovchi choraldardir. Iqtisodiy sudda da'vo arizasi berilgandan da'voni ta'minlash choralarini ko'rishga haqlidir. Da'voni ta'minlashga iqtisodiy sud ishining istalgan bosqichida yo'l qo'yiladi.

Yodda tuting!

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani faqat da'vogar berishi mumkin. Agarda javobgar tomonidan qarshi da'vo arizasi berilsa hamda ushbu da'vo arizasi sud tomonidan qabul qilinsa, ushbu holatda ham javobgar qarshi da'vo arizasi doirasida sudga da'voni ta'minlash bo'yicha ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza hakamlik sudi tomonidan nizoni hal qilganida, u kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Sud arizani ko'rib chiqib, so'rovni qondirish yoki da'voni ta'minlashni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi. Qaror ustidan shikoyat qilish mumkin.

Protsessual qonunchiligidan da'voni ta'minlash uchun turli xil choralar ko'zda tutilgan. Da'voni ta'minlash choralar iqtisodiy ishning o'ziga xos holatlarini hisobga olgan holda va faqat zarurat tug'ilganda amalga oshirilishi kerak, chunki har qanday holatda da'voni ta'minlash javobgarning huquq va mansaatlariiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Quyidagilar da'voni ta'minlash choralarini bo'lishi mumkin:

- 1) javobgarga tegishli mol-mulkni yoki pul mablag'larini xatlab qo'yish;
- 2) javobgarga muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash;
- 3) boshqa shaxslarga nizo predmetiga aloqador bo'lgan muayyan harakatlarni bajarishni taqiqlash;
- 4) da'vogar nizolashayotgan, undirish so'zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat bo'yicha undirishni to'xtatib turish;
- 5) mol-mulkni xatlashdan ozod qilish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilgan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilishni to'xtatib turish;

6) nizoli mol-mulk buzilishining, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarning zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklatish;

7) nizoli mol-mulkni uchinchi shaxsga (saqlovchiga) o'tkazish.

5.9. Da'volarni birlashtirish va ajratish

Da'vogar bitta da'vo arizasida bir necha da'volarni ilgari surishi mumkin.

Birinchi instansiya sudi ayni bir shaxslar ishtirok etuvchi bir turdag'i bir nechta da'volarni bitta ish yuritishga birlashtirishi mumkin.

Bir necha da'volarni birlashtirish sudning hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Ishlarni birlashtirish to'g'risida sud tomonidan ajrim chiqariladi.

Agar sud da'vo arizasida ko'rsatilgan bir necha da'vo talablarini ajratishni lozim deb topsa, bir nechta birlashtirilgan talabni ajratib ko'rishga haqlidir.

Da'vo tartibida ish yuritishning o'ziga xos xususitlari quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- nizolarni ko'rib chiqish qat'iy tartibga solingan protsessual tartibda ko'rib chiqiladi;
- iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilish iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi;
- sud jarayoni ishtirokchilar protsessual huquqlari qonun bilan kafolatlangan bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy protsessda isbotlash majburiyati kimlarga tegishli? Bu haqida o'z fikringizni bilidiring.

2. Dalillarni baholash mezonlariga to'xtalib o'ting.

3. Elektron dalillarning ashyoviy va yozma dalillardan o'zaro farqini tushuntiring.

4. Da'vo va himoyaning boshqa vositalarini o'zaro farqini tushuntiring.

5. Da'voning elementi va turlariga to'xtalib o'ting.
6. Da'voni ta'minlash choralarini real hayotga bog'lab misollar keltiring.

KAZUSLAR

1-kazus

«TRANSTEX» qo'shma korxonasi xo'jalik sudiga da'vo bilan murojaat qilib, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «TAShTIB-TEX» qo'shma korxonasi hisobidan 66.000.000 so'm asosiy qarz, 33.000.000 so'm penya, 4.000.000 so'm ijara to'lovini undirishni so'ragan.

Da'vogar davlat boji to'lovidan ozod qilish haqida iltimosnomasi taqdim etgan bo'lib, da'vo arizasiga O'zR TIF Milliy banki Yunusobod filiali tomonidan da'vogarning 2012-yil 27-aprel holatiga tegishli hisob raqamida pul mablag'lari mavjud emasligi haqidagi 2012-yil 27-apreldagi TS-1576/03-son ma'lumotnornasini ilova qilgan. Da'vo arizasi sudga da'vogar tomonidan 2012-yil 17-mayda taqdim etilganligi sababli, xizmat ko'rsatuvchi bankning 2012-yil 27-aprel holatiga da'vogarning pul mablag'i mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomasi da'vo taqdim etilgan vaqtida pul mablag'lari mavjud emasligini tasdiqlamaydi.

Shunga ko'ra sud da'vogar pul mablag'lari mavjud emasligi haqidagi vajlarini yetarli darajada isbotlovechi dalillarni taqdim etmaganligi sababli da'vogarning davlat boji to'lovidan ozod etish haqidagi iltimosnomasi rad etilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Da'vogar tomonidan qanday isbotlouchi dalillar taqdim etilishi lozim?

2-kazus

Da'vogar «Krona qurilish lyuks» mas'uliyati cheklangan jamiyati iqtisodiy sudga 2018-yil 31-yanvarda da'vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar «2519-avtojamianma» davlat korxonasidan 45.184.220 so'm asosiy qarz va 19.700.319 so'm

penya jami 64.884.539 so'm undirishni so'ragan. Da'vogar «Krona qurilish lyuks» mas'uliyati cheklangan jamiyati sudga 2018-yil 24-fevralda da'veoni ta'minlash to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilib, javobgar «2519-avtojamylanma» davlat korxonasidan 45.184.220 so'm asosiy qarz va 19.700.319 so'm penya jami 64.884.539 so'm undirish to'g'risidagi da'vo arizasi ko'rib chiqilgunga qadar va keyinchalik sud hujjatini ijro etib bo'lmaydigan holga kelib qolishining oldini olish maqsadida javobgarning «O'zsanoatqurilishbank» Toshkent shahar filialidagi hisobraqamidagi pul mablag'larini xattab qo'yish shaklidagi da'veoni ta'minlash choralarini qo'llashni so'ragan.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Da'veoni ta'minlash asoslari va tartibini tushuntiring.

6-bob. SUD XARAJATLARI. PROTSESSUAL MUDDATLAR.

6.1. Sud xarajatlari tushunchasi

Iqtisodiy sndlarda ishlarni ko'rish muayyan xarajatlarni talab qiladi. Qonunchilik o'z navbatida ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan mazkur xarajatlarning qoplanishini nazarda tutadi. Sud xarajatlari – ishda ishtirok etuvchilardan davlat foydasiga va boshqa xarajatlar o'mmini qoplash uchun undiriladigan to'lov hisoblanadi.

Sud xarajatlari ikki guruhgaga bo'linadi: davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar. Bu ikki to'lovni undirishdan maqsad turlicha. Davlat bojlarini undirishdan asosiy maqsad sudga qilinishi mumkin bo'lgan asossiz murojaatlarning oldini olish, shaxslarni o'z majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishga da'vat etish, sndlarda ish yurtish xarajatlarini ma'lum ma'noda qoplashdir. Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar esa sud ishini yurtish, nizoli holat yoxud ariza talabini, shuningdek, qarshi tarafning e'tirozlarini aniqlash uchun jalb qilingan vositalar uchun qilingan xarajatlarni qoplashni nazarda tutadi.

6.2. Sud xarajatlari turlari

Davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar sud xarajatlarini tashkil qiladi. Davlat boji Sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalardan, sndlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellyatsiya, kassatsiya tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek, sndlар tomonidan hujjatlarning ko'chirma nuxxalarini bergenlik uchun davlat boji undiriladi. Ajrimlar ustidan ham apellyatsiya va kassatsiya tartibida shikoyat berish mumkin. Biroq mazkur shikoyailardan davlat boji undirilmaydi.

Iqtisodiy sndlarda davlat boji obyektlari. Iqtisodiy sndlар tomonidan davlat boji quyidagilardan undiriladi:

- 1) sndlarga beriladigan da'vo arizalaridan;

- 2) tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan;
- 3) nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish haqidagi arizalardan;
- 4) iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan;
- 5) hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalardan;
- 6) hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan;
- 7) chet davlat sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tanolish va ijroga qaratish haqidagi arizalardan;
- 8) apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyatlaridan:
 - a) iqtisodiy sndlarning hal qiluv qarorlari ustidan;
 - b) ish yuritishni tugatish to'g'risidagi, da'veoni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi ajrimlar ustidan;
 - v) hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ajrimlar ustidan;
 - g) hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ajrimlar ustidan;
 - d) chet davlat sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tanolish va ijroga qaratish to'g'risidagi ajrimlar ustidan;
- 9) sud hujjatlarining dublikatlarini va ko'chirma nusxalarini bergenlik uchun.
- 10) sud buyrug'i berish to'g'risidagi arizalardan;
- 11) da'veo miqdorini ko'paytirishdan to'g'risidagi arizadan.

Yodda tuting!

Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar. Iqtisodiy sud ishlarni yuritishda davlat bojidan tashqari ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar ham yuzaga keladi. Bular da'veo va ariza talablari, qarshi da'veo talablari, e'tirozlar va boshqalarni isbotlash uchun turli xil vositalarni jalb qilishdan,

sud ishini tashkil qilishdan, til muammosini bartaraf qilish va jarayonga axborot kommunikatsiya texnikalarni jaib qilishdan yuzaga keladi.

Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar quyidagilar:

- 1) sud xabarnomalari va sud hujjatlarini yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlardan;
- 2) sud tayinlagan ekspertizani o'tkazish;
- 3) guvohni chaqirish;
- 4) dalillarni joyida ko'zdan kechirish;
- 5) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlardan;
- 6) ishni ko'rish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan iboratdir.

6.3. Sud xarajatlариниң ставкалари

Iqtisodiy sudlar tomonidan ishlarni ko'rish bilan bog'liq sud xarajatlариниң ставкалари норматив huquqiy hujjat bilan hamda sud tomonidan belgilanadi. Xususan, davlat boji stavgalari qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa, sud chiqimlaridan pochta xarajatlari va sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq sud xarajatlариниң summasi sud tomonidan belgilanishi tartibi o'rnatilgan (IPK 116-modda).

Davlat boji stavgalari.

Mulkiy tusdagи talablardan. Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan mulkiy tusdagи talablardan da'vo bahosining 2 foizi miqdorida undiriladi. Qonun mulkiy tusdagи talablardan undiriladigan davlat bojining eng kam va eng ko'p miqdorini belgilab qo'yishi mumkin. Milliy qonunchiligimiz mulkiy tusdagи talablardan undiriladigan davlat bojining eng kam miqdorini belgilab qo'ygan: unga ko'ra, bu summa bazaviy hisoblash miqdorining 1 barobaridan kam bo'lmasligi kerak. Eng ko'p miqdori bizni qonunchilikda belgilanmagan. Biroq, bu boradagi xorijiy mamlakatlar qonunchiligidа belgilab qo'yilgan. Gruziya qonunchiligidа davlat bojining ayrim stavgalarining eng ko'p miqdorlari ham belgilab qo'yilgan.

Nomulkiy tusdagи talablardan. Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan nomulkiy tusdagи talablardan bazaviy

hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida davlat boji undiriladi. Nomulkiy talab bu mulk bilan bog'liq bo'Imagan talab, garchi uning natijasida mulk undirilsa ham. Misol uchun, tadbirkorlik subyektining ishchanlik obro'siga putur yetkazilganlik uchun ma'naviy ziyon undirilishi mumkin. Ziyon yetkazilganligi isbotlansa uning natijasida da'vogar muayyan miqdordagi pul summasini undirishi mumkin. Biroq talab mulkiy tusdagi bo'Imaganligi, ya'ni nizo predmeti biror-bir mulk bo'lmasdan, tadbirkorlik subyektining ishchanlik obro'si hisoblanib, nomulkiy tusdagi talablardan undiriladigan davlat boji stavkasi qo'llaniladi.

Misol uchun,

O'zboshimchalik bilan egallabolingan joylarni bo'shatish to'g'risidagi, natura shaklida maydon berish haqidagi, topshirish balansini qabul qilishga majburlash bilan bog'liq nizolar nomulkiy xususiyatga ega da'vo arizalari jumlasiga kiradi.

Ayrim turdag'i nomulkiy tusdagi talablarni iqtisodiy sudda ko'rib chiqish uchun maxsus stavkalar belgilangan. Misol uchun, shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish paytida kelib chiquvchi nizolar hamda shartnomani haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablarda shartnoma predmeti mol-mulk bo'lishidan qat'i nazar alohida stavka qo'llaniladi. Mazkur holatlarda talab mulkiy emas, balki nomulkiy hisoblanadi.

Misol uchun,

Ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish talabini muhokama qiladigan bo'lsak, nizo predmeti ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar emas, balki shartnomani yuridik shaxs o'z vakolat doiralaridan chetga chiqib fuzgan bo'lsa, shu fakt asosida uni haqiqiy emas deb topish.

Xususan

- bankrotlikka oid ish yuritish – BHMning 3 baravari;
- hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to'g'risidagi, shuningdek, hakamlik sudlarining hal

qiluv qarorlarini majburiy ijob etish uchun ijob varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan – BHMning 2 baravari;

– chet davlat sudsari va arbitrajlar qarorlarini tan olish va ijob etish to'g'risidagi arizalardan – BHMning 2 baravari;

– shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish paytida kelib chiquvchi nizolar hamda shartnomani haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi – BHMning 10 baravari;

Ma'lumki ariza va da'vo arizalar sudsdan nafaqat birinchi instansiya sudsida ko'rildi, taraflar yoki boshqa shaxslar sud qarorlaridan norozi bo'lishsa apellyatsiya va kassatsiya tartibida shikoyat berishlari mumkin. Apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida berilgan shikoyatlardan birinchi instansiya sudida ko'rib chiqish uchun arizalar berilganda to'lanadigan stavkaning 50 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

Iqtisodiy sudsdan sud hujjatlarning dublikatlarini hamda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosiga ko'ra iqtisodiy sud tomonidan ishlardan boshqa hujjatlarning ko'chirma nusxalarini bergenlik uchun hujjatning har bir beti uchun BHMning 2 foizi miqdorida davlat boji undirishi belgilangan. Biroq, bugungi kunda texnika rivojlanganligi natijasida, manfaatdor shaxslar hujjatlarning fotonusxalarini o'zlaridagi biror bir qurilmalarga tushirib olishlari mumkin. Bular uchun ulardan davlat boji olinmaydi.

Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar stavkasi. Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar stavkasi qonun bilan ham belgilangan, shuningdek, sud tomonidan ham belgilanadi. Xususan, sud hujjatlarni yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlarining summasi sud tomonidan belgilanadi, biroq bu summa bazaviy hisoblash miqdorining o'ndan bir qismidan oshmasligi kerak va da'vo arizasi (ariza, shikoyat) beruvchi shaxs tomonidan sudsning depozit hisobvarag'iga kiritilishi lozim.

Sud tomonidan belgilanadigan chiqimlardan biri bu sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlardir.

6.4. Iqtisodiy sudlar tomonidan davlat boji undirilishining o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy sudsarda davlat boji nafaqat ariza, da'vo arizalar hamda shikoyatlar berganlik uchun undiriladi, balki qarshi da'vo arizasi, shuningdek, uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalar berganlik uchun ham undiriladi. Qarshi da'vo arizalaridan hamda uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Undan tashqari, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda da'vogar, javobgar yoki uchinchi shaxs hisoblangan yuridik shaxs qayta tashkil qilinganda, talab qilish huquqidан boshqa shaxs foydasiga voz kechganda, qarzni boshqa shaxsga o'tkazganda, yakka tartibdag'i tadbirdor bo'lgan fuqaro o'lganda va majburiyatlardagi shaxslar o'zgarishining boshqa hollarida protsessning mazkur ishtirokchisi o'rniغا huquqiy voris krib kelishi mumkin. Bunday hollarda davlat boji bo'yicha huquq va majburiyatlar ham huquqiy vorisga o'tadi.

Ilgari ko'rmasdan qoldirilgan, takroran berilgan arizalar bo'yicha davlat boji qaytadan umumiy asoslarda to'lanadi. Agar ariza ko'rmasdan qoldirilganligi munosabati bilan davlat boji qaytarilishi kerak bo'lsa-yu, lekin qaytarilmasa, agar davlat boji budjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq da'vo muddati tugamagan bo'lsa, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat takroran berilgan arizaga ilova qilinishi mumkin.

Da'vogar tomonidan da'vo talablari kamaytirilgan taqdirda, to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi. Misol uchun, dastlab 100 mln. so'm undirishni so'ragan va keyinchalik, zarar qayta hisoblab chiqilishi natijasida kamroq summa, misol uchun, 70 mln. so'mligi aniqlangan taqdirda hamda da'vogar mazkur summani undirishni so'ragan taqdirda, davlat boji miqdori kamaytirilmaydi.

Da'vo summasi ko'paytirilgan taqdirda, davlat bojining yetishmayotgan summasi da'veoning ko'paytirilgan summasiga

muvoſiq to'lanadi. Misol uchun, dastlab faqat haqiqiy zararni undirmoqchi bo'lgan da'vogar unga keyinchalik boy berilgan foydani undirishni ham qo'shgan holda da'vo summasini ko'paytirsa, mutonosib ravishda yana davlat boji to'laydi.

Sudya bir yoki bir nechta birlashgan da'vo talabini alohida ish yuritish uchun ajratgan taqdirda, da'vo taqdim etilganda to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi va qaytarilmaydi. Alohida ish yurituvga ajratganlik yuzasidan davlat boji ikkinchi bor to'lanmaydi.

Muayyan sudda ko'riliſhi lozim bo'lgan bir nechta ish uchun bir to'lov topshiriqnomasi bo'yicha davlat boji o'tkazilgan hollarda topshiriqnomma ishlarning biriga ilova qilinadi. Mazkur ish bo'yicha to'langan davlat bojining summasi to'g'risida qolgan ishlarga belgi qo'yiladi va to'lov topshiriqnomasi qo'shib qo'yilgan ish ko'rsatiladi.

Da'vo birgalikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda, davlat boji da'yoning umumiy summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'ygan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi.

Da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan taqdirda da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardan (agar u davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa) davlat daromadiga belgilangan da'vo summasiga muvoſiq undiriladi.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bir yoki bir nechta da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilgan da'vo to'liq yoki qisman qanoatlantirilganda davlat bojini undirish sudning hal qiluv qaroriga binoan har bir javobgardan belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda alohida-alohida amalga oshiriladi. Agar bunday da'vo bir nechta da'vogar tomonidan bir javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, davlat boji javobgardan umumiy belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda budgetga undiriladi.

Sud boshqa shaxsni ikkinchi javobgar sifatida jalb qilgan va da'vo summasining bir qismini bir javobgardan, qolgan qismini esa ikkinchisidan undirishga qator qilgan taqdirda va, agar bunda

da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, davlat boji da'vening qanoatlantirilgan umumiy summasidan hisoblab chiqariladi hamda har bir javobgardan unga belgilangan da'vo summasi miqdoriga mutanosib ravishda budgetga undiriladi.

Davlat bojini to'lashdan ozod qilingan da'vogar o'z talablarini da'vo berilganidan keyin ular javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'liq yoki qisman qanoatlantirilganligi tufayli qo'llab-quvvatlamagan hollarda davlat bojining summasi javobgardan sud ajrimi bo'yicha budgetga undiriladi.

Da'vogar arizada da'vo summasini ko'rsatmagan hollarda sudya da'vo arizasini qabul qilish asnosida, da'vening taxminiy bahosidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojining miqdorini dastlabki tarzda belgilaydi. Agar sud hal qiluv qarorini chiqarganda da'vening umumiy summasi oshsa, davlat boji da'vening oshib ketgan summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda vujudga kelgan farq da'vogardan yoki da'vo to'liq qanoatlantirilgan taqdirda – javobgardan budget daromadiga undirilishi lozim. Sud da'vogar arizada ko'rsatgan talablar doirasidan qonun hujjalari belgilangan hollarda ish holatlariga bog'liq ravishda chiqib ketganda ham davlat boji shunday tartibda hisoblab chiqariladi. Bunday hollarda da'vo qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji javobgardan da'vening qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, davlat bojining qolgan qismi esa da'vogardan undirilishi lozim.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi, mol-mulkni talab qilib olish haqidagi, mol-mulkdagi ulushga bo'lgan huquqni e'tirof etish to'g'risidagi, umumiy mol-mulcdn ulush ajratish haqidagi da'vo arizalari uchun davlat boji ushbu mol-mulk yoki uning ulushi qiymatidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim.

Bir vaqtning o'zida mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan da'vo arizalari uchun mulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha va nomulkiy xususiyatga ega da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalarga ko'ra, har bir talab bo'yicha alohida-alohida davlat boji to'lanadi.

Da'vo arizasini (arizani, shikoyatni) qaytarishga asos bo'lgan sharoitlar bartaraf etilganidan so'ng takroran beriladigan da'vo arizalariga (arizalarga, shikoyatlarga) davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat davlat boji takroran to'lanishining oldini olish uchun ilova qilinishi mumkin.

Arizachi davlat bojini to'lashdan ozod qilingan hollarda da'vo qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji, agar javobgar davlat bojini to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan undiriladi.

Davlat boji to'lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bildirilgan talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji ariza qaysi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan bo'lsa, shu shaxslardan da'vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi.

Sud buyrug'i bekor qilingan taqdirda, undiruvchi tomonidan to'langan davlat boji qaytarilmaydi. Da'vo undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan da'vo ishini yuritish tartibida qo'zg'atilgan taqdirda u to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji hisobiga o'tkaziladi.

Pul mablag'lari mavjud bo'limgan va bu xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan taqdirda, tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga sudning ajrimiga ko'ra davlat bojini kechiktirib to'lashga ruxsat berilishi mumkin. Bank tasdig'ida sudga murojaat qilingan sanadan ko'pi bilan uch kun oldingi sana qayd etilgan bo'lishi kerak.

Aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi da'vo bilan iqtisodiy sudga murojaat qilgan taqdirda aksiyadorlarga davlat bojini to'lash muddati kechiktirilib, bu boj keyinchalik aybdor tarafdan undirib olinadi.

6.5. Sud xarajatlarini taqsimlash

Sud xarajatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda

ularning zimmasiga yuklatiladi. Misol uchun da'vogar 100 mln. so'm miqdordagi zararni undirishni so'ragan. Va bu uchun 2 mln. davlat boji to'lagan. Sud mazkur talabni qisman qanoatlantirdi, ya'ni 70 mln. so'm miqdordagi talabni qondirdi. Bunday vaziyatda javobgardan 1,4 mln. so'm miqdordagi pul mablag'lari da'vogar foydasiga undiriladi.

E'tibor bering

Da'vogar 100 mln. so'm miqdordagi zararni undirishni so'ragan. Va bu uchun 2 mln. davlat boji to'lagan. Sud mazkur talabni qisman qanoatlantirdi, ya'ni 70 mln. so'm miqdordagi talabni qondirdi. 30 mln. so'm bu asosli so'ralgan neustoyka summasi bo'lib, u ish holatlariga ko'ra javobgardan undirilishi lozim bo'lgan summá, biroq sud o'zining neustoyka miqdorini kamaytirish huquqidán kelib chiqib, so'ralgan neustoyka summasining 30 mln. kamaytirshga qaror qildi. Bunday vaziyatda yuqoridagi vazyaiddagidan farqli o'laroq javobgardan 2 mln. so'm (da'vogar to'lagan summa to'liq) da'vogar foydasiga undiriladi.

Mazkur vaziyat uchun asos (norma): agar da'vogar tomonidan bildirilgan neustoykani undirish haqidagi talab asosli bo'lib, biroq uning miqdori qonunchilikda belgilangan huquqdan foydalanilgan holda sud tomonidan kamaytirilgan bo'lsa, sud xarajatlarining kamaytirilishi hisobga olinmagan holda undirilishi lozim bo'lgan neustoyka summasidan kelib chiqqan holda, sud xarajatlari javobgarning zimmasiga yuklatilishi lozim.

Hal qiluv qarori o'z foydasiga chiqarilgan tarafga ish bo'yicha qilingan barcha sud xarajatlarining o'tni, garchi boshqa taraf davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa ham ushbu boshqa taraf hisobidan qoplanadi.

Da'vogar to'lashdan belgilangan tartibda ozod qilingan davlat boji, agar javobgar boj to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan respublika budjeti daromadiga undiriladi.

Agar ish ishda ishtirok etuvchi shaxs tomonidan mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomá yuborish) tartibini buzish (talabnomani javobsiz qoldirish, talab qilingan hujjatlarni jo'natmaslik) oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, sud

ishning natijasidan qat'i nazar, sud xarajatlarini shu shaxsning zimmasiga yuklatishga haqli.

Da'vogarning talablari u sudga murojaat qilganidan so'ng javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda qanoatlantirilsa, sud xarajatlarini javobgarning zimmasiga yuklatiladi.

Davlat boji to'lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan da'vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji manfaatlari ko'zlanib da'vo taqdim etilgan shaxslardan da'vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud xarajatlarini taqsimlash to'g'risidagi kelishuviga ko'ra, sud ushbu kelishuvga muvofiq hal qiluv qarorini qabul qiladi.

6.6. Sud xarajatlarini to'lashdagi imtiyozlar

Iqtisodiy sudlar tomonidan davlat bojini undirishda qo'llaniladigan imtiyolar ikki turga bo'linadi. Birinchisi, pasaytirilgan stavkalarda davlat boji to'lash bo'lsa, ikkinchisi davlat boji to'lashdan ozod qilishdir.

Pasaytirilgan davlat boji stavkasi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari amalga oshiradigan tadbirkorlik faoliyati doirasida sudiarga imurojaat qilish chog'ida quyidagilar uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida davlat boji to'laydi.

- mulkiy talablari;
- nomulkiy talablari;
- bankrotlikka oid ish yuritish;
- shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish paytida kelib chiquvchi nizolar hamda shartnomani haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablari;
- sud hujjatlarining dublikatlarini hamda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosiga ko'ra iqtisodiy sud tomonidan ishlardan boshqa hujjatlarning ko'chirma-nusxalarini berganlik uchun.

Imtiyoz faqat kichik tadbirkorlik subyektlari uchun bo'lib, kichik tadbirkorlik subyektlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

1) yakka tartibdagagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'ttacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan boshqa tarmoqlardagi, band bo'lgan xodimlarining o'ttacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'ttacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yengil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'ttacha yillik soni ko'pi bilan ikki yuz kishi;
- metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'ttacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishslash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'ttacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan boshqa sohalardagi, band bo'lgan xodimlarining o'ttacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar.

Faoliyatning bir necha turini amalgalashuvchi (ko'p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko'p bo'lgan faoliyat turi mezonlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlariga kiradi.

Davlat bojidan ozod qilish. Iqtisodiy sudlarda ishlari ko'riltgani uchun muayyan xarajatlar yuzaga keladi va bu

xarajatlarni qoplash aybdor taraf yoki asossiz da'vo qilgan taraf zimmasiga tushadi. Biroq, qonunchilik ishda ishtirot etuvchi shaxslarning mulkiy ahvoli, ijtimoiy holati va boshqa jihatlarini e'tiborga olib ularni davlat boji to'lashdan ozod qilgan. Davlat bojidan ozod qilish holatlari qonun bilan belgilangan. Iqtisodiy sudlarda davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) da'vogarlar – o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmondan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o'rmon fondiga yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi, o'rmon xo'jaligi daromadi summalarini (shu jumladan, o'rmon daraxtlarini o'sib turgan joyida sotish qoidalarini buzganlik uchun zarar va neustoykani, shuningdek, o'zboshimchalik bilan o'rmon daraxtlarini kesganlik, pichan o'rganlik va mollarni o'tlatganlik uchun jarimalarni) undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha;

2) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan, biroq mazkur talablarni qanoatlantirish to'liq yoki qisman rad etilgan taqqirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi, bunda Savdo-sanoat palatasi o'z manfaatlarini ko'zlab ariza bergenlik uchun davlat boji undiriladi;

3) Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlar – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar bo'yicha;

4) nogironligi bo'lган shaxslarning jamoat birlashmali, shuningdek, ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmali – barcha da'volar bo'yicha;

5) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari – «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi

O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiyalarini to'lashga ketgan mablag'larni tashkilotlardan undirib olish bo'yicha da'volar, shu jumladan regress da'volar yuzasidan;

6) sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organi – majburiy sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq barcha ishlar bo'yicha;

7) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning joylardagi organlari – suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash uchun mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

8) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari – atrof-muhitni iflosantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning tartib va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

9) O'zbekiston Respublikasining Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va uning hududiy organlari – o'z zimmasisiga yuklatilgan vakolatlariga muvofiq sudlar ko'rib chiqishi uchun kiritiladigan da'volar bo'yicha;

10) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy organlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi hamda uning hududiy organlari – o'z zimmasisiga yuklatilgan vakolatlariga muvofiq sudlarga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan da'volar va arizalar bo'yicha;

11) O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi va uning hududiy organlari – o'z zimmasisiga yuklatilgan vakolatlariga muvofiq sudlar ko'rib chiqishi uchun kiritiladigan da'volar bo'yicha;

12) davlat soliq xizmati organlari, moliya va bojxona organlari – barcha ishlar hamda hujjatlar bo'yicha, shuningdek, alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar bergenlik uchun;

13) prokuratura organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda beriladigan arizalar yuzasidan;

14) adliya organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda beriladigan arizalar yuzasidan;

15) undiruvchi yoki davlat ijrochisi – qonunda nazarda tutilgan taqdirda, qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

16) xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan hukumatlararo kelishuvlar asosida berilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzdor sifatida qatnashuvchi davlat organlari va tashkilotlari – subzayorn oluvchilardan paydo bo'lgan qarzdorliklarni undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

17) davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish shartnomalari bo'yicha sotib oluvchi hisoblangan davlat organlari va tashkilotlari – yetkazib beruvchilar (pudratchilar) tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi bilan bog'liq da'volar yuzasidan;

18) O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari – fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan;

19) arizachi va javobgar – huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar bo'yicha;

20) chet el investitsiyalari ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatları – ularning huquqlari va qonuniy manfaatları buzilganligi to'g'risidagi da'volar yuzasidan, biroq mazkur talablarni qanoatlantirish to'liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi;

21) tadbirdorlik subyektlari – hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risida ariza berganda, biroq mazkur talablarni qanoatlantirish to'liq

yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi;

22) O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, uning joylardagi organlari – yer to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi bilan bog'liq da'volar bo'yicha;

23) O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti va uning hududiy boshqarmalari – moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

24) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi hamda uning joylardagi organlari – qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik bo'yicha davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda beriladigan arizalar yuzasidan;

25) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil – tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini ko'zlab beriladigan da'volar, arizalar va shikoyatlar yuzasidan;

26) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi – O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni ko'zlab qilingan da'volar va beriladigan arizalar yuzasidan.

6.7. Davlat bojini qaytarish

Iqtisodiy sud tomonidan davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytarilishi shart:

1) davlat boji talab uchun belgilangan stavkadan ortiqcha miqdorda to'langanida;

2) sud da'vo arizasini (arizani, shikoyatni) qaytarganda yoki qabul qilishni rad etganda;

3) apellyatsiya, cassatsiya shikoyati qaytarilganda yoki uni qabul qilish rad etilganda;

- 4) davlat boji to'langan da'vo arizasi (ariza, shikoyat) yoki apellyatsiya, cassatsiya va nazorat shikoyati sudga kelib tushmaganda;
- 5) agar ish sudga taalluqli bo'lmasa, ishni yuritish tugatilganda;
- 6) ariza ko'rmasdan qoldirilganda, agar u muornalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- 7) sudning yoki hakamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda;
- 8) agar taraflar o'rtasida nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to'g'risida hakamlik bitimi tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda;
- 9) agar taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda;
- 10) ishda ishtirok etgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa;
- 11) da'vogar nizoni sudga qadar hal etish (e'tiroz bildirish) tartibiga rioya etmaganda, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo'lsa;
- 12) agar ishda ishtirok etayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;
- 13) sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilganda.

Davlat boji summalarini qaytarish sudga davlat bojini tshlagan shaxsning yozma arizasiga binoan yoki sudning hal qiluv qarorlari asosida amalga oshiriladi. Davlat boji summasini qaytarish uchun arizachi davlat bojini qaysi sudga to'lagan bo'lsa shu sudga murojaat qilishi kerak. Davlat bojini undirgan sud uni qaytarish qonuniyligini tasdiqlagan taqdirda, sud ilgari o'z hisobvaraqlariga o'tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismlarini to'lovchining yozma arizasi olingan kundan e'tiboran besh kun ichida qaytaradi. O'z navbatida sud qaytarilishi lozim bo'lgan, ilgari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti

daromadiga o'tkazilgan davlat boji summasining bir qismini qaytarish to'g'risida davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda xabar yuboradi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti daromadiga o'tkazilgan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi qaror soliq organi tomonidan sud xabarnomasi olingen kundan e'tiboran o'n kun ichida qabul qilinadi. Davlat bojini qaytarish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda soliq organi davlat bojini to'lovchiga qaytarishni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining G'aznachiligiga qaytarish to'g'risida tegishli topshirinoma yuboradi.

6.8. Protsessual muddatlar tushunchasi

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish amaldagi qonunlarga asoslanadi. Sudlarda ishlarni belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish va hal qilish jamiyatda yuzaga kelgan nizolarni o'z vaqtida hal qilinishiga olib kelib, barqarorlikka xizmat qiladi. Ikkinchidan, sud huquq subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi va tiklovchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. Uning mazkur faoliyatda sust harakat qilishi protsess ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ham iqtisodiy sudlarda ish yuritishda muddatlarga amal qilish bu sud uchun ham ishda ishtirok etuvchilar uchun ham muhim hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlari protsessual qonunchiligidagi sud ishlarini yuritishda doim ham muddatlar belgilanmagan. Xususan, Germaniya Respublikasida tadbirkorlik huquqiy faoliyat bilan bog'liq iqtisodiy nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi va hal qilinadi. Mazkur mamlakat protsessual qonunchiligidagi sud ishlarini yuritishga nisbatan protsessual muddatlar belgilanmagan. Xuddi shuningdek, Yaponiyada ham shunday tartib amal qiladi.

Mazkur mamlakatlar qonunchiligidan farqli ravishda, milliy qonunchiligidan iqtisodiy sud ishlarini yuritishda muddatlar belgilab qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rildigan ishlarni o'z vaqtida ko'rish, ortiqcha

sansalorlik va vaqt yo'qotishlarning oldini olishiga xizmat qiladi deb baholashadi.

Iqtisodiy sudlarda har bir amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni bajarish uchun muayyan protsessual muddatlar belgilanadi. Protsessual muddatlar deb iqtisodiy sudlar tomonidan ko'riladigan ishlarni hal qilish uchun qonun bilan belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatlarga aytildi.

Protsessual muddatlar protsessual harakatlarni amalga oshirish albatta yuz berishi kerak bo'lgan voqeа ko'rsatilgan aniq kalendar sana (misol uchun: birinchi sud muhokamasи kuni 13.07.2021-yil kuni) yoki vaqtning harakat amalga oshirilishi mumkin bo'lgan davri bilan belgilanadi (hal qiluv qarori chiqqan kundan boshlab 1 oy ichida).

6.9. Protsessual muddatlar turlari

Protsessual muddatlarni olimlar quyidagi ikki guruhga ajratishadi.

- qonun bilan belgilab qo'yilgan protsessual muddatlar;
- sud tomonidan belgilanadigan protsessual muddatlar.

Iqtisodiy sud ishlarini ko'rish va hal qilish davomida amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni bajarish qonun bilan belgilangan yoki sud tomonidan tayinlanadigan muddatlar protsessual muddat deyiladi.

Qonun bilan belgilangan muddatlar. Protsessual harakatlar qonunlarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Misol uchun sud muhokamasining muddati. Qonunga ko'ra sud muhokamasi ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda tugallanishi kerak. Yana, bir misol: da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi masalani hal etish. Sudya da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi, qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish haqidagi masalani da'vo arizasi sudga kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay yakka tartibda hal qiladi.

Demak, muayyan protsessual harakatni amalga oshirish qonun tomonidan aniq vaqt oralig'i bilan belgilab qo'yilishi

mumkin. Bu protsessual muddat qonun tomonidan belgilab qo'yilgan protsessual muddat deb yuritiladi.

Sud tomonidan tayinlanadigan protsessual muddatlar. Protsessual harakatlar qonunlarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi, protsessual muddatlar belgilanmagan hollarda esa ular sud tomonidan tayinlanadi. Sud biror bir protsessual harakatni amalga oshirish uchun muayyan muddat belgilaydi. Misol uchun ishni ko'rishni keyinga qoldirish, dalillarni taqdim etish muddati va boshqalar. Ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan dalillarni ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar oldida, sud belgilagan muddat doirasida ohib berishi lozim. Sud tomonidan tayinlangan protsessual muddatlar ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasi bo'yicha shu sud tomonidan uzaytirilishi mumkin. Protsessual muddatni uzaytirish haqida yoki uzaytirishni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi.

6.10. Protsessual muddatlarning o'tishi va ularni o'tkazib yuborish oqibatlari

Protsessual muddatlarning o'tishi boshlanishi. Protsessual harakatlarni amalga oshirish muddatlari albatta yuz berishi kerak bo'lgan voqealarni ko'rsatilgan aniq kalendar sana bilan yoki vaqtning harakat amalga oshirilishi mumkin bo'lgan davri bilan belgilanadi. Protsessual muddatlar yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi. Yillar, oylar yoki kunlar bilan hisoblanadigan protsessual muddatning o'tishi kalendar sananining ertasidan yoki boshlanishi aniqlangan voqealarni yuz bergan kundan boshlanadi. Misol uchun, kassatsiya shikoyatini berish protsessual harakatining muddati. Amaldagi qonunga ko'ra kassatsiya shikoyati apellyatsiya instansiyasi sudi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir yil ichida berilishi mumkin. Apellyatsiya instansiyasida 2020-yil 21-aprelda qabul qilinsa, bir yillik muddat 2020-yil 22-apreldan o'ta boshlaydi. Va 2021-yil 22-aprel kuni soat 24:00 da tugaydi. Biroq shikoyat 2020-yil 21-aprelda ham berilishi mumkin. Faqat bir yillikni muddatni hisoblash qaror chiqqan kunning ertasidan hisoblanmoqda.

Protsessual muddatlarning tugashi. Yillar bilan hisoblanadigan protsessual muddat belgilangan muddatning oxirgi yilining tegishli oyi va kunida tugaydi (yuqoridagi misol 2021-yil 22-aprel kuni soat 24:00 da tugaydi). Protsessual harakat belgilangan muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtgacha bajarilishi mumkin.

Oylar bilan hisoblanadigan protsessual muddat belgilangan muddatning oxirgi oyining tegishli kunida tugaydi.

Agar oylar bilan hisoblanadigan protsessual muddatning tugashi tegishli kuni bo'limgan oyga to'g'ri kelsa, muddat shu oyning oxirgi kunida tugaydi. Misol uchun 31 yanvar kuni sud muhokamsiga tayyorlash to'g'risida ajrim chiqdi. Qonunga ko'ra sud muhokamasi ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda tugallanishi kerak. Biroq sevarla oyida 31 sana bo'limganligi uchun, sud muhokamasi tegishincha 28 yoki 29 fevral kuni tugashi kerak.

Kunlar bilan hisoblanadigan protsessual muddat belgilangan muddatning oxirgi kunida tugaydi.

Protsessual muddatning oxirgi kunida harakat qilish. Protsessual muddatning oxirgi kuni ish kuni bo'limgan kunga to'g'ri kelgan hollarda, undan keyin keladigan birinchi ish kuni muddatning tugashi kuni deb hisoblanadi. Agar ariza, shikoyat va boshqa hujjatlar pochtaga topshirilgan, elektron hujjat tarzida yuborilgan, tegishli organga yoxud ularni qabul qilib olish vakolatiga ega bo'lgan shaxsga protsessual muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtga qadar berilgan bo'lsa, muddat o'tkazib yuborilgan deb hisoblanmaydi. Agar protsessual harakat bevosita sudda yoki boshqa tashkilotda amalga oshirilishi kerak bo'lsa, muddat ushbu sudda yoki tashkilotda ish kuni tugagan yoki tegishli operatsiyalar tugatilgan soatda tugaydi.

Protsessual muddatlarni o'tkazib yuborish oqibatlari. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunlarda belgilangan protsessual muddatlar yoki sud tomonidan tayinlangan muddat o'tishi bilan protsessual harakatlarni amalga oshirish

huquqini yo'qotadi. Bu holatda protsessual muddatlarning o'tishi ko'rsatilgan shaxslarni o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Protsessual muddatlar o'tganidan keyin berilgan arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlar, agar o'tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash to'g'risida iltimosnomasi mavjud bo'lmasa yoxud uni qanoatlantirish rad etilgan bo'lsa, ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

6.11. Protsessual muddatlarning to'xtatilishi, uzaytirilishi va tiklanishi

Protsessual muddatlarni to'xtatib turish va uzaytirish. Ish yuritish to'xtatib turilishi bilan barcha o'tib ketmagan protsessual muddatlarning o'tishi to'xtatib turiladi. Ish yuritish tiklangan kundan e'tiboran protsessual muddatlarning o'tishi davom etadi. Sud tomonidan tayinlangan protsessual muddatlar ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasi bo'yicha shu sud tomonidan uzaytirilishi mumkin.

O'tkazib yuborilgan protsessual muddatlarni tiklash. Sud qonunda belgilangan, o'tkazib yuborilgan protsessual muddatni, agar u o'tkazib yuborilish sabablarini uzrli deb topsa, ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasiga ko'ra tiklashga haqli. O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash haqida yoki tiklashni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi. Protsessual muddatni tiklashni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sud xarajatlarini undirishdan maqsad nima?
2. Sud xarajatlarini undirishdagi imtiyozlar qaysilar?
3. Davlat bojini qaytarish tartibini tushuntiring.
4. Nomulkiy tusdag'i talablar bo'yicha belgilangan davlat boji stavkalariga munosabatingiz.
5. Davlat bojidan ozod qilingan davlat organlari, tashkilotlar tomonidan boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari

ko'zlab sudlarga ariza yoki da'vo arizalari berilganda hamda bu talablarni qanoatlantirish rad qilinganda davlat boji masalasi qanday hal qilinadi tahlil qiling.

6. Yuqori instansiya sudida ko'rib chiqish uchun beriladigan shikoyat arizalaridan undiriladigan davlat bojlarining bugungi stavkalariga munosabatingiz.

7. Protsessual muddatlar tushunchsini tahlil qiling.

8. Protsessual muddatlar va moddiy huquqiy muddatlarning o'zaro farqini ochib bering.

9. Protsessual muddatlarning o'tganligi oqibatlarini tahlil qiling.

10. Protsessual muddatlarni qanday turlarga bo'lasiz? Ularni turlarga bo'lish mezonlari va maqsadini tushuntiring.

KAZUSLAR

1-kazus

«BG» ma'suliysi cheklangan jamiyati «O'zbekiston havo yo'llari» AJga nisbatan 2021-yil 3-yanvar kunida Toshkent tumanlararo iqlisodiy sudiga da'vo arizasi kiritgan. Da'vo ariziga ko'ra «BG» MCHJ O'zbekiston havo yo'llaridan 450 mln. haqiqiy zarar, 70 mln. boy berilgan foyda hamda 200 mln. jarimani undirib berishini so'rangan. Sud arizani 2021-yil 8-yanvar kuni ish yurituviga qabul qilib, iqtisodiy ishni qo'zg'atgan.

Ish holatlari: 2020-yil 19-dekabr kuni «BG» ma'suliysi cheklangan jamiyati o'ziga tegishli yuklarni Istanbul – Toshkent teysi bilan «O'zbekiston havo yo'llari»ning samolyoti orqali Toshkentga jo'natadi. Yukni jamiyatning ma'sul xodimi topshirgan. Yuk topshirilganda baholanmagan. Yuk Toshkentga 2020-yil 20-dekabr kuni soat 7:10 da yetib kelishi kerak edi, biroq, samolyot baxtsiz hodisaga uchrab yuklarni yetkazib bera olmadi. Aviahalokat sabablari o'rganilgan, samolyotdagi texnik nosozlik bunga sabab bo'lган. Ma'lum bo'lishicha, AJ mazkur samolyotni ta'mirlattirgan. Ta'mirlash ishlarini «Star» AJ amalga oshirgan. Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, «Star»

AJ tomonidan sarnolyot yoqilg'i tizimiga o'rnatilgan shlangning diametri unga ulanuvchi shlang diametridan sezilmash darajada (juda kichik miqdorlarda) farq qilganligi aniqlangan.

Kazusdagagi vaziyatni quyidagi berilgan savollarga bog'lagan holda javob bering.

1. Mazkur holat bo'yicha sud arizani ish yurituviga qabul qilish shartlari nimalardan iborat?

2. Mazkur ish bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar statusini belgilang.

3. Da'vo predmetini aniqlang, da'vo bahosi da'vogar tomonidan to'g'ri belgilanganmi?

4. Ushbu ish bo'yicha sud xarajatlarini tahlil qiling.

5. Ushbu ish bo'yicha sud xarajatlarini taqsimlang.

2-kazus

2021-yil 15-fevral kuni «Samo» fermer xo'jaligi «Piskent paxta tozalash zavodi» AJga nisbatan Toshkent tumانлараро iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat etgan. Javobgardan 23.024.400 so'm asosiy qarz va 11.604.348 so'm penya undirishni so'ragan. Da'vogar arizaga ilova qilingan davlat boji to'g'risidagi hujjatga ko'ra 648 213 so'm davlat boji to'langan. Ariza ish yurituviga 2021-yil 20-fevral kuni qabul qilingan. Birinchi sud majlisiga 23-martga tayinlangan. Ushbu majlisga da'vogar keldi. Javobgar tegishli ravishda habardor qilingan bo'lsa-da kelmadi. 4-aprel kuni ko'rigan ikkinchi majlisga ko'ra, javobgar 19-fevral kuni 23.024.400 so'm qarzdorlikni da'vogarning bankdagi hisob varag'iga o'tkazganligini ma'lum qildi va buni tasdiqlovchi hujjatlarni sudga taqdim qildi.

Kazusdagagi vaziyatni quyidagi berilgan savollarga bog'lagan holda javob bering.

1. Ushbu holat bo'yicha ikki tarafning manfaatlarini himoya qilgan holda taraf larga tavsiya bering (eng optimal variant bo'lsin).

2. Da'vo predmetini aniqlang, to'langan davlat boji da'vo bahosiga mutanosibmi? Penya undirish bo'yicha talablar

yuzasidan davlat bojini undirishning o'ziga xos jihatlarini tahlil qiling.

3. Ishni ko'rishning muddatlarini ish holatlaridan kelib chiqib tahlil qiling.

4. Mazkur ish bo'yicha isbotlash predmeti va dalillarni tahlil qiling.

5. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessga kelmasligining oqibatlarini tahlil qiling.

7-bob. IQTISODIY ISHNI QO'ZG'ATISH, TAYYORLASH VA SUDDA MUHOKAMA QILISH. BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING QARORLARI

Ish qo'zg'atish iqtisodiy protsessning dastlabki bosqichi bo'lib, mana shu bosqichda sud ishi vujudga keladi va aniq protsessual subyektlar shakllanadi. Aynan mana shu bosqichda manfaatdor shaxslar o'zining sud himoyasida bo'lish konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishni boshlaydilar.

Ish qo'zg'atish da'vo taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Yodda tuting!

Da'vo taqdim etish – ish yuritishni qo'zg'atishga qaratilgan protsessual va faktik harakatlarning majmui.

Da'vo taqdim etish quyidagi harakatlarni ketma-ketlik amalga oshirish orqali amalga oshiriladi:

- da'vo arizasining belgilangan shakli va mazmuniga rioya qilingan holda tayyorlash;
- da'vo arizasini iqtisodiy sudga taqdim etish;
- iqtisodiy sud tomonidan tegishli ajrim qabul qilinishi.

Da'vo arizasini ish yurituvga qabul qilishning birinchi sharti nizoning iqtisodiy sudda ko'rib chiqishga taalluqli bo'lismashdir. Agar nizo iqtisodiy sudga taalluqli bo'lmasa, suda da'vo arizasini qabul qilishni rad etadi.

Da'vo taqdim etishning ikkinchi sharti ayni bir shaxslar o'rtaSIDagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ishni yuritishni tugatish to'g'risida iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ajrimi yoxud umumiy sudning kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida hal qiluv qarori yoki ajrimi bo'lmasligidir. Uning mohiyati shundaki, sudlar ayni bir shaxslar o'rtaSIDagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ishni faqat bir marotaba ko'rib chiqadilar.

Da'vo taqdim etishning uchinchi sharti iqtisodiy sudning, umumiy sudning, hakamlik sudining ish yuritishida ayni bir

shaxslar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lmasligidir. Qonunning ushbu ko'rsatnasi sudlar o'rtasida nizolarni ko'rib chiqishda takrorlashlarga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, nizo bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi sud hujjatlarini qabul qilinishiga olib kelmaslik, boshqacha qilib aytganda nizoni hal qilishda bir xil yondashuv bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Da'vo taqdim etishning to'rtinchchi sharti ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qabul qilingan hakamlik sudining qonuniy kuchga kirgan qarori bo'lmasligidir. Iqtisodiy sud hakamlik sudining qarorini majburiy ijob etish uchun ijro varaqasini berishni rad etib, ishni qarorni qabul qilgan hakamlik sudiga yangidan ko'rish uchun qaytargan, biroq ishni o'sha hakamlik sudida ko'rish imkoniyati bo'limgan hollar bundan mustasno.

Da'vo taqdim etishning beshinchchi sharti ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni **bir** asoslar bo'yicha nizo yuzasidan hakamlik muhokamasini tugatish to'g'risida chiqarilgan ajrim bo'lmasligidir.

Da'vo arizasi sudga
kelib tushganidan
so'ng quyidagilar
tekshirilishi
lozim:

• IPKhning 154-moddasida nazarda tutilgan da'vo arizasini qabul qilishni rad etish uchun asos bo'luvchi huquqiy to'siqlarning mavjud emasligi.

• IPKhning 155-moddasida nazarda tutilgan, da'vo arizani qaytarish uchun asoslarning mavjud yoki mavjud emasligi.

Da'vogarning protsessual qonunchilik talablariga rivoja qilinganligi suda yuzasidan ish qo'zg'atish haqida ajrim chiqarish majburiyatini yuklaydi. Suda ish yurituvga ishni qabul qilingunga qadar tekshirilmagan kamchiliklar u ish yurituvga qabul qilinganidan so'ng aniqlanganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash yoki ishni sudda ko'rish jarayonida bartaraf etishiga to'g'ri keladi.

Da'vo arizasini ish yurituvga qabul qilish jarayonida quyidagi holatlar mavjudligiga e'tibor qaratiladi:

- nizoning iqtisodiy sudning sudloviga taalluqliligi;
- nizoning shu sudning sudloviga tegishliligi;
- ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ishni yuritishni tugatish to'g'risida ajrimi yoxud fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qarori yoki kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida ajrimi mavjud emasligi;
- iqtisodiy sudning, fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlik sudining ish yuritishida ayni bir shaxslar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud emasligi;
- mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnama yuborish) tartibiga rivoja etilganligi;
- da'vo arizasi uni imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan imzolanganligi;

FK 138-moddasining birinchi qismiga ko'ra yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsnинг muhri (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) bositadi.

- da'vo arizasini IPKning 149-moddasida nazarda tutilgan talablarga mos kelishi, unda da'vo arizasi sudga yozma ravishda taqdim etilishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:
 - ariza berilgan sudning nomi;
 - da'vogarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi (da'vo arizasida da'vogarning yoki uning vakilining telefon va faks raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin);
 - javobgarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi (javobgarning yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin); agar taraf yuridik shaxs bo'lsa, u holda da'vo arizasida ularning to'liq nomlanishi: tashkiliy-

huquqiy shakli (mas'uliyati cheklangan jamiyat yoki aksionerlik jamiyati va boshqalar), nomlanishi («Media» shunga o'xshash) hamda ularning pochta manzillari ko'rsatiladi. Agar ishda ishtirok etayotgan shaxslar fuqaro-tadbirkorlar yoki jismoniy shaxslar bo'lsa, u holda da'vo arizasida ularning familiyasi, ismi, sharifi va pochta manzili ko'rsatiladi.

– agar da'vo baholanishi lozim bo'lsa, da'vening bahosi;

Da'vening bahosi da'vogar tomonidan IPKning 114-moddasida ko'rsatilgan qoidalar asosida belgilanadi. Da'vo bahosiga nafaqat da'vogar o'z foydasiga undirib berishni so'ragan asosiy qarz miqdori yoki mulkning qiymati, balki da'vo arizasida ko'rsatilgan neustoyka miqdori (penya va jarima) ham kiradi.

– da'vo talablariga asos bo'lgan holatlari;

Da'vo talablariga asos bo'lgan holatlarga baho berishda ularning qonun yoki shartnoma, tomonlarning huquq va majburiyatlar kelib chiqishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq munosabatlardan vujudga kelganligi o'rganilishi lozim. Da'vo arizasida nizoni mazmunan to'g'ri hal etish uchun yuridik holatlari aniq bayon etilishi lozim.

– da'vo talablarining asoslarini tasdiqlovchi dalillar;

ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talab va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak. Shu sababli da'vo arizasida da'voga asos bo'lgan har bir holatni tasdiqlovchi dalillar keltirilishi lozim. Bunda IPKning 66, 71–72-moddalarida belgilangan qoidalar inobatga olinishi lozim;

– undirilayotgan yoki nizolashilayotgan summaning hisob-kitobi;

Pul mablag'ini undirish yoki undirilganligini nizolashish haqidagi da'vo taqdim etilishida, da'vogarga undirilayotgan yoki nizolashilayotgan pulning hisob-kitobini taqdim etish majburiyati yuklatiladi. Hisob-kitob asoslantirilgan hamda aniq va tushunarli bayon etilgan bo'lishi shart. Agar hisob-kitobni asoslantirish qiyin va katta hajmda bo'lsa, da'vo arizasida yakuniy pul miqdori bayon etilishi mumkin, batafsil hisob-kitobni esa da'vo arizasiga ilova qilish lozim.

– ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati;

Ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatilayotganida IPKnning 151-moddasi talablari e'tiborga olinishi lozim. Bundan tashqari, da'vo arizasiga undirilayotgan summaning hisob-kitobi ham ilova qilinishi mumkin (IPKnning 149-moddasi 1-qismining 6-band). Agar da'vo arizasi matnida bayon etilmagan bo'lsa, turli iltimosnomalar (guvohlarni chaqirtirish, yozma dalillarni so'rab olish, da'voni ta'minlash va boshqalar) ilova qilinishi mumkin.

— da'vogarning qonun hujjatlariga asoslanib keltirgan talablari, da'vo bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda esa ularning har biriga nisbatan talablar;

Da'vogarning talablari, uning aniq huquqiy normalardan kelib chiqqan subyektiv huquqlarining buzilishi bilan bogliqligi sababli, u da'vo arizasida o'zining talablari kelib chiqadigan qonun va boshqa qonunchilik hujjatlariga tayanishi shart.

Agar da'vogar tornonidan talablar bir necha javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, da'vo arizasida ularning har biriga qo'yilgan talablar aniq va tushunarli bayon etiladi.

— javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi malumotlar, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

Nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi malumotlar, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, da'vo arizasida ko'rsatiladi.

Sudya da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi, qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish haqidagi masalani da'vo arizasi sudga kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay yakka tartibda hal qiladi, ya'ni da'vo arizasini ish yurituvga qabul qilish masalasi u sud devonxonasiidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab besh kun ichida hal etilishi lozim. Ajrimda ajrim chiqarilgan sana, nizo predmeti, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va ajrim chiqarilayotgan masala ko'rsatilishi lozim.

IPKda belgilangan qoidalar asosida rasmiylashtirilgan hamda kodeksda nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilingan holda taqdim etilgan da'vo ariza (ariza) ish yurituviga qabul qilinib, ish qo'zg'atilishi majburiydir.

Izoh: *Ba'zi da'vo arizalariga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar mavjudki, ular ishni tez va sifatli ko'rilishiga xizmat qiladi. IPKnning 219-moddasiga ko'ra, huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ushbu Kodeks 151-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari hujjatlar ham ilova qilinadi.*

1) faoliyatni tugatish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashirish to'g'risidagi arizaga – ta'sis hujjatlarining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxalari; yuridik shaxs yoki fuqaro tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilganligini tasdiqlovchi, faoliyatni tugatish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashirish uchun asos bo'ladijan dalillar;

2) faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash to'g'risidagi arizaga – ta'sis hujjatlarining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxalari; yuridik shaxs yoki fuqaro tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilganligini tasdiqlovchi, faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash uchun asos bo'ladijan dalillar;

3) banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi arizaga – soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilingantigini yoki soliq to'lovchi daromadlar olish uchun foydalanayotgan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog'liq hududlarni, binolarni, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun davlat soliq xizmati organining mansabdar shaxslarini kiritish rad etilganligini tasdiqlovchi dalil;

4) moliyaviy sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi arizaga – tekshirish o'tkazilishiga asos bo'lgan hujjatlar (nazorat

qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori, bundan shunday qarorni olish qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hollar mustasno; agar tekshirish jinoyat ishi doirasida o'lkazilsa, tergov organining (surishtiruv organining) qarori; tekshirish o'tkazish to'g'risidagi buyruq; tekshirish o'tkazish rejasи va hokazo); tekshirish natijalari bo'yicha tuzilgan dalolatnoma yoki boshqa hujjat va unga ilova qillinadigan hujjatlar; tekshirish materiallarini ko'rib chiqish bayonnomasi va qaror, agar ularni tuzish yoki qabul qilish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa; qarorning ko'chirma nusxasi javobgarga topshirilganligi yoki yuborilganligi datili;

5) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lган muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish to'g'risidagi arizaga – litsenziyaning (ruxsatnomaning) va litsenziya shartnomasining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxzari; normativ-huquqiy hujjatlar talablari va litsenziya shartnomasi shartlari litsenziyaning (ruxsatnomaning) amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va (yoki) litsenziyani (ruxsatnomani) bekor qilish uchun asos bo'ladigan tarzda yuridik shaxs yoki fuqaro tomonidan buzilganligini tasdiqlovchi dalil.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2006-yil 27-yanvardagi 142-sonli «Bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi qarori (keyingi o'rnlarda 142-sonli Plenum qarori deb yuritiladi)ga ko'ra bankrot deb topish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi lozim:

– davlat soliq xizmati organi va boshqa vakolatli organ (O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning undirilishi ustidan nazorat olib boruvchi vakolatli organ)ning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga qonun

hujjatlariga muvofiq majburiy to'loolar bo'yicha qarzni olishga doir choralar ko'rilganligi haqida dalillar ilova qilinishi kerak. Arizaga kreditorning qarzni undirish to'g'risidagi sud qarori, ijro hujjati (ijro varaqasi, qarzdor tomonidan akseptlangan to'lov talablari, notariusning ijro xati va boshqalar) yoki kreditor talablari qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lsa, ilova qilinadi;

- hisob raqumga qo'yilgan va qarzdorning pul mablag'lari yo'qligi uchun bank bajarmagan inkasso topshiriqnomalarining arizaga ilova qilinishi davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan qarzni olishga doir choralar ko'rilganligining dalili bo'lishi mumkin;

- davlat soliq xizmati organi qarzdorning mol-mulkı mavjud bo'lganda soliq qarzini undirishni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi iqtisodiy sudning qarorini va undirishni mol-mulkka qaratish natijasida soliq qarzi to'lanmaganligini tasdiqlovchi dalillarni arizaga ilova qilishi shart.

- qarzdorni bankrotlikning soddalashtirilgan taomili bo'yicha bankrot deb topish (tugatilayotgan qarzdor) haqidagi ariza bilan iqtisodiy sud murojaat etilganda, arizaga qarzdorni tugatish to'g'risidagi qaror ilova qilinishi lozim.

Da'vogar o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta talabni bitta da'vo arizasiga birlashtirishga haqli. Bog'liqlik juda keng tushuncha bo'lib, pul undirish talablari ham bir biri bilan bog'liq, bir vaqtning o'zida bitta da'vo arizasida bir necha talablarni birlashtirish mumkin, masalan, asosiy qarz, penya va zararni undirish talablari. Talablar o'zaro bog'liq bo'lsagina ularni birlashtirishga yo'l qo'yiladi, masalan, bitimni haqiqiy emas deb topish talabi bilan zararni undirish to'g'risidagi talablar o'zaro bir biri bilan bog'liq chunki, ikkinchi talabni qanoatlantirish masalasi bitim haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabning qanday hal etilishiga bog'liq. Birlashtirish bir biriga bog'liq talablar yuzasidan bir biriga zid bo'lgan qarorlar chiqarilishini oldini olish, nizoni yanada tez va to'g'ri hal etish, ish bo'yicha sud xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Quyidagi talablar ham o'zaro birlashtirilishi mumkin:

- olingan kredit oldingi kreditni qoplash uchun berilgan bo'lsa, kredit shartnomalari bo'yicha qarzborlikni undirish haqidagi talablar;
- bitta dalolatnomasi bilan asmiylashtirilgan kamchiligi mavjud va sifatsiz mahsulotlarning qlymatini undirish haqida;
- ijara shartnomasi bo'yicha ijara haqi, kommunal to'lovlari, xarajallarni qoplash haqidagi talablar.

Birinchi instansiya sudi ayni bir shaxslar ishtirok etuvchi bir turdag'i bir nechta ishni bitta ish yuritishga birlashtirishga haqli bo'lib, ishlarni birlashtirishga sudning ishni ko'rish yakuni bo'yicha hujjati qabul qilinguniga qadar yo'l qo'yiladi.

Sudalar ishlar birlashtirilganda ular bo'yicha ishni ko'rish muddati keyinroq tayinlangan ish bo'yicha belgilanishiga ahamiyat qaratishlari lozim.

Agar sud talablarni ajratib ko'rishni maqsadga muvofiq deb topsa, u bir yoki bir nechta birlashtiriigan talabni alohida ish yuritishga ajratishga haqli.

Talablarning bir qismini alohida ish yuritishga ajratishga ishni ko'rish yakuni bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar yoki uni qabul qilish bilan bir vaqtda yo'l qo'yiladi.

Talablarning qismini alohida ish yuritishga ajratish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Ajratilgan talab bo'yicha ishni ko'rish muddati ajrim chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

IPKning 153-moddasi birinchi qismida belgilanganidek, sudya IPKda nazarda tutilgan talablarga rioya etgan holda berilgan da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishi va ish qo'zg'atishi shart. Mazkur moddaning ikkinchi va uechinchi qismlariga ko'ra, sudya IPKning 151-moddasi birinchi qismining 1 va 4-bandlarida nazarda tutilgan talablarni buzgan holda berilgan da'vo arizasini, agar da'vo arizasiga davlat bojini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risidagi yoki də'vogarda mavjud bo'limgan dalillarni talab qilib olish haqidagi tegishli iltimosnomalar ilova qilingan hamda bu iltimosnomalar qanoatlantirilgan bo'lsa, ish yuritishga qabul qilishga va ish qo'zg'atishga haqli.

7.1. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash

Sud muhokamasiga tegishli tartibda tayyorlanishi zarur, chunki bu nizoni to'g'ri va o'z vaqtida hal qilishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ishni sud muhokamasiga tayyorlashda suda tomonidan bajariladigan harakatlar sud muhokamasini mukammal va tez o'tkazish uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

IPK 163-moddasining birinchi qismida qayd etilgan harakatlarning barchasini bajarish talab etilmaydi. U yoki bu harakatlar bajarilishining zaruriyati har bir holatda sudyaning ixtiyorida bo'lib, nizoning holatlariga ko'ra aniqlanadi. IPK 163-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha harakatlarning ro'yxati tugal hisoblanmaydi hamda suda nizoni to'g'ri va o'z vaqtida hal etishga qaratilgan boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalari



Ishni sudda ko'rishga tayyorlashda, agar sud nizoni mavjud dalillar asosida ko'rishning imkoniyati yo'q deb hisoblasa (IPK 163-moddasi birinchi qismining 4-bandi), ishda ishtirok etuvchi

shaxslarga qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlar taqdim qilishni taklif etishga haqli.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha harakatlar da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risidagi ajrimda bayon etilishi mumkin. Chunki, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish masalasi hal qilingan davrning o'zidayoq ishni sud muhokamasiga tayyorlash masalasi vujudga keladi va sudyaning bir vaqtning o'zida ikkita ajrimni chiqarishiga ehtiyoj sezilmaydi.

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida ishda ishtirok etish uchun boshqa javobgarni yoki uchinchi shaxsnini jaib etish, manfaatdor shaxslarni ishni yuritish to'g'risida xabardor qilish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ularning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishga bo'lgan huquqlari haqida xabardor qilish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan nizoni hal qilish uchun ahamiyatli hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etishni taklif etish, guvohlarni chaqirtirish, ekspertiza tayinlash, taraflarga zarur dalillarni olishga ko'maklashish, taraflarning iltimosnomasi bo'yicha ularni talab qilib olish, tarallarni kelishtirish choralarini ko'rish, da'voni va dalillarni ta'minlash to'g'risidagi masalalarni taraflarning iltimosnomasi bo'yicha hal etish, boshqa shaxslarning ishga kirishishi, ishlarni bitta ish yuritishga birlashtirish yoki da'vo talablarini alohida ish yuritishga ajratish, sayyor sud majlisini o'tkazish to'g'risidagi masalalarni hal etadi.

Da'vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarni to'liq o'rganib chiqqan holda ish yuritishga qabul qilish, ish qo'zg'atish va sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrimda yuqorida keltirilgan harakatlarning amalga oshirilishi, ishni silatli va o'z vaqtida ko'rinishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, sudya ishning to'g'ri va o'z vaqtida hal etilishini ta'minlashga qaratilgan boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yodda tuting!

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida sudyga faqat fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan va ish qo'zg'atilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida IPKda belgilangan tartibda sudgacha majlis o'tkazishi mumkin.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rildigan ishlar bo'yicha sudgacha majlis o'tkazilmaydi.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida sudyga fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan va ish qo'zg'atilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida IPKda belgilangan tartibda sudgacha majlis o'tkazishi mumkin.

Bunda inobatga olish lozimki, ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqida alohida ajrim chiqarish muddati da'vo arizasi kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan oshmasligi, sudgacha majlis o'tkazilgan hollarda esa da'vo arizasi sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kundan oshmasligi kerak.

Sudy fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha, bundan soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rildigan ishlar mustasno, ishni sud muhokamasiga tayyorlash masalasi, sudgacha o'tkaziladigan majlis orqali yoki uni o'tkazmasdan hal etilishi mumkinligiga e'tibor qaratishi lozim.

Agar fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha ishni sud muhokamasiga tayyorlash masalasi sudgacha majlis o'tkazilmasdan hal etilgan bo'lsa, sudyha ishni sud muhokamasiga tayyorlashi kerak.

Agar sud fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha ishni sud muhokamasiga tayyorlash masalasi sudgacha majlis o'tkazish yo'li bilan hal etilishi lozimligi haqida xulosaga kelgan bo'lsa, shuni inobatga olishi lozimki, aynan qaysi ish bo'yicha sudgacha majlis o'tkazish masalasini sudyha ishning holati, ayniqsa uning murakkabligidan kelib chiqib, o'zi hal etadi.

Xususan, da'vo arizasida bir nechta talablar birlashtirilgan bo'lsa, shartnomalarni o'zgartirish va bekor qilish, bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlar, qurilish pudrati,

lizing, sug'urta shartnomalari, intellektual mulk bilan bog'liq, shuningdek, korporativ nizolarni murakkab toifadagi ishlar jumlasiga kiritish mumkin. Shu bilan birga inobatga olish lozimki, har qanday fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha sudgacha majlis o'tkazilishi mumkin.

Oliy sud Plenumining 2019-yil 24-maydag'i «Birinchi instansiya sudi tomonidan iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 13-son qarorining 33.2-bandiga ko'ra, sudgacha majlisning vaqt va joyi to'g'risidagi ma'lumotlar da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Sudgacha majlis videokonferensaloqa rejimida ham o'tkazilishi mumkin. Agar sudgacha majlisni videokonferensaloqa rejimida o'tkazish belgilansa, sudyu IPK 166-moddasining ikkinchi qismida, videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisini o'tkazishga ko'maklashadigan sud esa ushbu moddarating uchinchi qismida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Sudgacha majlisning vaqt va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelmaganligi, majlisga kelgan boshqa shaxslar bilan sudgacha majlis o'tkazishga to'sqinlik qilmaydi. Bunday holatda sudgacha majlisdida ishtirok etmagan shaxsning ushbu majlis haqida qanday aloqa vositasi orqali xabardor qilinganligi sudgacha majlis o'tkazilganligi to'g'risidagi bayonnoma ko'rsatiladi.

Sudgacha majlis o'tkazish paytida IPK 101, 103, 107 va 110-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjudligi aniqlansa, sudyu ishni sud muhokamasiga tayinlamasdan, sudgacha majlis o'tkazilgan kunda IPK 163¹-moddasining beshinchi qismiga muvofiq ish yuritishni to'xtatib turishi yoki ish yuritishni tugatishi yoxud da'vo arizasini ko'rmasdan goldirishi mumkin.

7.2. Sud muhokamasi

Sud iqtisodiy ishlarni iqtisodiy sud ishlarini yuritish prinsiplariga muvofiq ravishda ko'rib chiqadi va hal qiladi. Sud muhokamasi iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishning alohida bosqichi bo'lib hisoblanadi.

Sud muhokamasi buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarni himoya qilishga erishish, huquq to'g'risidagi nizoni ochiq sudda adolatli va xolis hal qilish, sudlov ishlarini tarafalarning tortishuvchanlik tamoyili asosida hal qilish hamda manfaatdor shaxslarning o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, dalillar taqdim etish uchun sharoit yaratish imkoniyatining ta'minlanishida ifodalanadi.

Yodda tuting!

Sud muhokamasining tartibi bu sudning, ishda ishtirok etayotgan shaxslar va sud muhokamasi boshqa ishtirokchilarining nizoni mazmunan hal qilishga qaratilgan qonunda belgilangan harakatlar ketma-ketligi, shuningdek, sud muhokamasida qonun bilan o'rnatilgan intizomdir.

Qonun talablari va iqtisodiy sudlov ishlarini yuritish tamoyillariga qat'iy rivoja qilgan holdagina ishni to'g'ri va o'z vaqtida hal etish mumkin.

Sud muhokamasi ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda tugallanishi kerak, bu muddat ajrim chiqarilgan sanadan hisoblanadi. Masalan, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, ish qo'zg'atish va sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrim oyning birinchi kunida chiqarilgan bo'lsa, bir oylik muddat keyingi oyning birinchi kunida tugaydi. IPKning 164-moddasiga ko'ra, alohida hollarda, sud muhokamasining muddati sud raisi tomonidan bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin. Bir tarkibli sndlarda esa ushbu masala mazkur sudyda (ayni paytda sud raisi) tomonidan hal etiladi.

7.3. Sud majlisi

Yodda tuting!

Sud muhokamasining protsessual ko'rinishi – **sud majlisidir**

IPKning 165-moddasiga ko'ra, ish muhokamasi sud majlisida amalga oshiriladi.

Sudning majlisi videokonferens-aloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.

Sud majlisining maqsadi quyidagilardan iborat:

- huquq normalarini to'g'ri qo'llash va adolatli hal qiluv qarori qabul qilish uchun ish holatlarini to'liq aniqlashning kafolatlaridan biri bo'lib hisoblanadi;
- manfaatdor shaxslarning sud majlisida faol ishtirokini ta'minlaydi;
- protsess ishtirokchilarining protsessual huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi;
- turli xil talablarni muhokama qilishda bir xil protsessual harakatlarni belgilaydi.

IPKnинг 16-moddasiga ko'ra, birinchi instansiya bo'yicha ishlar barcha sudsda sudya tomonidan yakka tartibda ko'rildi.

Sudyaning obro'si va uning tarbiyaviy ta'siri raislik qiluvchining xatti-harakatiga bog'liq. Sudyaning sud va qonunga hurmat bilan munosabati quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

sudya tomonidan qo'llaniladigan yuridik atamalarning aniqligi;

sudyaning odilona, xolisona ohangi;

tomonlarga teng munosabatda bo'lishi;

protsess ishtirokchilariga murojaat qilishda ehtiyojkorlik, xushmuomalalik va to'g'rilik;

kiyim va tashqi ko'rinishdagagi jiddiylik va poklik.

Raislik qiluvchi sud majlisiga rahbarlik qilishdagagi huquqini suiiste'mol qilishga haqli emas.

Raislik qiluvchi sud majlisida quyidagilarni ta'minlashga majbur:

- ishning barcha holatlarini har tomonlama, to'liq va xolis ko'rib chiqish;
- protsessual harakatlarni amalga oshirish tartibi va ketma-ketligiga rioya etish;
- protsess ishtirokchilarining protsessual huquqlarini amalga oshirishini va majburiyatlarini bajarishini ta'minlash;
- protsessga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.

IPKning 166-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etish huquqi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, ish qo'zg'atish va sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrimda shaxslarning sud majlisida videokonferensaloqa rejimida ishtirok etish huquqi ko'rsatiladi. Mazkur ajrim ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarga hamda ularning bunday majlisda ishtirok etishiga ko'maklashadigan tegishli sudga yuboriladi. O'z o'rniда videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisini o'tkazishga ko'maklashadigan sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning vakillari vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnomalar, shuningdek, sud majlisida taqdim etiladigan dalillarni ishni ko'rayotgan sudga yuborilishini ta'minlashi lozim.

Nizo bo'yicha birinchi sud majlisi da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, ish qo'zg'atish va sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kundan kechiktirmay o'tkaziladi.

Sudyalar majlis zaliga kirib kelganida va undan chiqib ketayotganida sud zalida hozir bo'lganlarning barchasi o'rinalidan turishi shart.

O'z navbatida, raislik qiluvchi sud zaliga kirib, raislik qiluvchi uchun ajratilgan joyga o'tib, sud zalida hozir bo'lganlar bilan salomlashib, so'ngra barchani o'tirishiga taklif qiladi va hamma bilan birga o'tiradi.

Sud majlisida ishtirokchilar sudyaga «Hurmatli sudi!» degan so'zlar bilan murojaat qilishi, shuningdek, o'z tushuntirishlari va ko'rsatuvarlari, savollarga javoblarini tik turib berishi kerak. Ba'zi bir hollarda sudyalar ishtirokchilar tomonidan savol berilganda ulardan savolni tik turgan holda berishlarini so'rashadi. Biroq, ishtirokchilar savolni sudga emas, balki boshqa ishtirokchiga bergani bois, tik turgan holda bo'lishi talab etilmaydi.

Sud jarayoni ishtirokchilaridan birontasi sudyaga o'tirgan holda murojaat qilgan taqdirda, suda unga xushmuomalalik

bilan o'z tushuntirishlari va ko'rsatuylarini, savollarga javoblarini tik turib berishi lozimligi haqida eslatishi lozim bo'ladi.

Masalan, «Hurmatli sud majlisi qatnashchilar, sud majlisida sudyaga tik turgan holda murojaat qilinishi lozimligini yana bir bor takrorlayman».

Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarga «Siz» deb murojaat qiladi, shu o'rinda shaxslarni ismi va otasining ismini aytish shart emas, familiyasini aytish kifoya, savollar berayotganda yoki ma'lum narsalar haqida fikri so'ralganda, «marhamat qilib» so'zini ishlatmaslik kerak. So'roq qilish va savol berish jarayonida aql o'rgatish, nasihat qilish, haqoratlash ohangini chetlab o'tish lozim. Raislik qiluvchi o'z tajribasidan misollar keltirmasligi va nizo mazmunidan chetga chiqib ketmasligi kerak.

IPK 167-moddasining uchinchi qismiga ko'ra sud majlisi sudning normal ishlashini va sud jarayoni ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlaydigan sharoitlarda o'tkaziladi. Sud majlisi zalida hozir bo'lgan hamda sudning ruxsati bilan sud majlisining fototasvirini, videoyozuvini, radio va televideniye orqali translyatsiyasini amalgalash oshirayotgan shaxslarning harakatlari sud majlisidagi tartibga xalaqit beremasligi kerak. Bu harakatlar sud tomonidan vaqt bo'yicha cheklanishi mumkin.

Sud majlisida belgilangan qoidalardan faqat raislik qiluvchining ruxsati bilan chetga chiqilishi mumkin. Majlis vaqtida tartib buzilgan taqdirda, raislik qiluvchi tartibni buzgan shaxsni sud nomidan ogohlantiradi. Tartib takroran buzilgan taqdirda, mazkur shaxs raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Sud majlisidagi tartibni buzgan shaxslarning harakatlariga nisbatan sudyaning harakatlari sud majlisi bayonnomasida aks ettirilishi lozim. Raislik qiluvchining farmoyishiga bo'ysunmaslik Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning (MJtK) 180-moddasiga ko'ra, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

MJtKning 180-moddasiga ko'ra, guvoh, jabylanuvchi, da'vogar, javobgar, ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan

qasddan bo'yin tovlashida yoki mazkur shaxslarning va boshqa fuqarolarning raislik qiluvchi farmoyishiga bo'ysunmasligida yoxud sud majlisi paytida tartibni buzishda o'z ifodasini topgan sudga hurmatsizlik – eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 28-dekabrdagi 172-sonli «Iqtisodiy sudning xususiy ajrimi to'g'risida»gi qarorining 8.4-bandiga ko'ra, MJtKning 180 va 181-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklardir.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo'yin tovlashida, ko'rsatilgan shaxslarning raislik qiluvchi farmoyishiga bo'ysunmasligida yoxud sud majlisi paytida tartibni buzishda, shuningdek, sudning xususiy ajrimi bo'yicha choralar ko'rmaslikda o'z ifodasini topgan sudga hurmatsizlikning har bir holati bevosita ta'sir qiluvchi hujjat shaklidagi sudning o'z munosabatini bildirish predmeti bo'lishi kerak.

Bunda shaxs tomonidan MJtKning 180-moddasida nazarda tutilgan shakllarda sudga hurmatsizlik qilingan holda, ushbu holat sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi va aybdorni ma'muriy javobgarlikka tortish haqidagi qaror huquqbuzarlik sodir etilgan sud jarayoni bosqichida chiqariladi. Xo'jalik ishining keyingi ko'rlishi umumiy tartibda davom etadi.

Sud majlisi jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Sud
majlisini
boslash

Sud
muzokalar

Sud hujjatlarini
qabel qilish va
e'lon qilishi

Sud majlisini boslash bosqichida sudya quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- sud majlisini ochadi;
- qanday ish ko'rlishini e'lon qiladi;
- iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilari majlisga kelgan-kelmaganligini, ularning vakolatlarini, majlisga kelmagan shaxslar tegishli ravishda xabardor qilingan-qilinmaganligini

hamda ularning kelmaganligi sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini tekshiradi;

► sud tarkibini e'lon qiladi, prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisi kotibi, tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotganligini ma'lum qiladi hamda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilish huquqini tushuntiradi;

► kelgan guvohlarni majlis zalidan so'roq qilish boshlanguniga qadar chiqarib yuboradi;

► sud protsessi ishtirokchilariga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;

► tarjimonni bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun, ekspertni bila turib noto'g'ri xulosa bergenlik uchun, guvohni bila turib yolg'on ko'rsatuv bergenlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi;

► dalillarni tekshirish tartibini belgilaydi;

► ishni sud majlisdida ko'rish mumkin bo'limgan taqdirda sud muhokamasini keyinga qoldirish masalasini hal etadi.

IPKning 171-moddasiga ko'ra sudya quyidagi hollarda sud muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin:

- tarafning iltimosnomasi bo'yicha, u nizoni kelishuv yo'li bilan hal qilish maqsadida suddan ko'maklashishni so'rab murojaat qilgan taqdirda;

- agar sud majlisining vaqtি va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxs sud majlisiga kela olmasligi sabablarini asoslagan holda sud muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risida iltimosnomasi bilan murojaat qilgan bo'lsa va basharti ushbu shaxsning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin bo'lmasa;

- ishda ishtirok etuvchi shaxsning o'z vakili sud majlisiga uzrli sababga ko'ra kela olmaganligi munosabati bilan qilgan iltimosnomasi bo'yicha;

- sud protsessi ishtirokchilaridan birortasi, agar sud ishni ushbu shaxsning ishtirokisiz ko'rish mumkin emas deb hisoblasa, kelmagan taqdirda;

- tarafning qo'shimcha dalillar taqdim etish yoki uchinchi shaxslardan talab qilib olish zarurati bilan bog'liq holda sud

muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risidagi iltimosnomasi bo'yicha;

- sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilayotganda videokonferensaloqa o'rnatish imkonini bo'limgan taqdirda;
- sud protsessi ishtirokchilaridan birortasi kelmagan va ko'rsatilgan shaxsning sud muhokamasining vaqtini va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinganligi to'g'risida dalillar mavjud bo'limgan taqdirda;
- ishga daxldor bo'limgan javobgarni ishga daxldor bo'lgan javobgar bilan almashtirish zarur bo'lgan taqdirda;
- nizoli huquqiy munosabatdan chiqib ketgan tarafni uning huquqiy vorisi bilan almashtirish zarur bo'lgan taqdirda;
- ikkinchi javobgarni yoki uchinchi tarafni ishda ishtirok etish uchun jalb etish zarur bo'lgan taqdirda sud muhokamasini keyinga qoldirishga haqli.

Sud majlisini ochish.

Raislik etuvchi sud majlisini ochadi va qanday ish ko'rinishini e'lon qiladi.

Bunda raislik etuvchi so'zi: Assalomu alaykum, marhamat, o'tiringlar. Sud majlisini ochiq deb e'lon qilaman. Bugungi sud majlisida da'vogar – «J» mas'uliyati cheklangan jamiyatining javobgar – «A» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga nisbatan lizing shartnomasini bekor qilish, lizing obyektini qaytarish va zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi ko'rib chiqiladi.

Sudya bu harakatlarni taraflar va boshqa ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishtirokchi kelgan-kelmaganliklaridan qat'i nazar amalga oshiradi.

Iqtisodiy sud ishlarni yuritish ishtirokchilari majlisga kelgan-kelmaganligini, ularning vakolatlarini, majlisga kelmagan shaxslar tegishli ravishda xabardor qilingan-qilinmaganligini hamda ularning kelmaganligi sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini tekshirish.

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig'i bo'yicha ishlarni sud muhokamasiga tayyorlash uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud muhokamasining vaqtini va joyi haqida

xabardor qiladi hamda ularning sudga kelgan-kelmaganligini tekshiradi, kelmaganlik sabablarini aniqlashtiradi va bu haqda sudyaga ma'lum qiladi (IPKning 52-moddasi).

Sud majlisida raislik qiluvchi sud majlisi kotibiga murojaat qilib, sud ishlarini yuritish ishtirokchilari majlisga kelgan-kelmaganligi yuzasidan ma'lumot berishini so'raydi. Sud majlisi kotibi, ishda ishtirok etuvchi shaxslardan kimlar kelganini, sud majlisiga kelmaganlarning sud muhokamasining vaqtini va joyi haqida xabardor qilinganligi hamda ularning kelmaganlik sabablarini ma'lum qiladi.

Masalan, sud majlisi kotibi so'zi: Sud majlisiga taraflar va ularning vakillari yetib kelishgan. Uchinchi shaxslar sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida tegishli ravishda xabardor bo'lishiga qaramasdan yetib kelishmadi yoki uchinchi shaxslarning sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida tegishli ravishda xabardor ekanligini tasdiqlovchi pochta xabarnomasi bugungi kunga qadar yetib kelmadidi.

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilari majlisga kelgan-kelmaganligini aniqlab bo'lganidan so'ng, raislik qiluvchi ularning vakolatlarini tekshiradi. IPKning 64-moddasi birinchi qismida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va ular vakillarining vakolatlarini tekshirishi shartligi nazarda tutilgan.

To'la muormala layoqatiga ega bo'limgan yoxud vasiylik yoki homiylik ostidagi shaxslar sudda vakil bo'la olmasligiga e'tibor qaratish lozim.

Raislik qiluvchi taraflarning vakolatlarini tekshirish jarayonida sudda vakil sisatida ishlarni yuritish bo'yicha professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkinligiga ahamiyat qaratishi lozim.

Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan o'zlarini yoki vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan o'zi ishtirok etganligi ushbu ishda uning vakili ishtirok etish huquqini istisno etmaydi.

Bundan tashqari, sudda yuridik shaxslarning ishlarini ularning qonun hujjatlarida yoki ta'sis hujjatlarida berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladigan organlari va (yoki)

vakillari yuritadi. Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiy-lar) himoya qiladi. Qonuniy vakillar sudda ish yuritishni o'zları tanlagan vakilga topshirishi mumkin. Sudyalar shuni nazarda tutishlari joizki, agar qonunda bu bevosita nazarda tutilmagan bo'lsa, advokatlar, birqalikdagi protsessual ishtirokchilardan biri boshqa birqalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha, shuningdek, qonunda boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari, shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari, shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha yuridik shaxslarning xodimlari shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'lishlari mumkin.

IPKning 62-moddasida belgilanganidek, vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma uning rahbari yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan imzolangan va agarda yuridik shaxsning muhri mavjud bo'lsa, muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi, bundan tashqari shartnoma bo'yicha vakil siyatida harakat qiluvchi shaxs ishonchnomadan tashqari sudga shartnoma bo'yicha vakil maqomini tasdiqlaychi hujjatni taqdim etishi lozim bo'ladi. Advokatning vakolatlari esa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi, ya'ni advokat sud majlisida order bilan ishtirok etishi lozim.

Huquqiy maslahatxona yoki advokatlik hay'ati (byurosi, firmasi) tomonidan berilgan order advokatga huquqiy yordam so'rab murojaat qilgan shaxsning manfaatlarini himoya qilish huquqini beradi, biroq u ishonchnomaning o'rnini bosmaydi hamda advokatga IPKning 63-moddasida maxsus nazarda utilgan protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqini bermaydi.

Ishonchnomada quyidagi vakolatlar maxsus ko'rsatilgan bo'lishi shart

Sudyalar vakilga berilgan ishonchnomada IPKning 63-moddasida belgilangan vakolatlarning har birini amalga oshirishga bo'lган vakolatlari maxsus nazarda tutilgan bo'lishi kerakligini tekshirishlari lozim.

- da'vo arizasini imzolash;
- nizoni ko'rish uchun hakamlik sudiga topshirish;
- da'vo talablaridan to'liq yoki qisman voz kechish;
- da'voni tan olish;
- da'veoning asosi yoki predmetini o'zgartirish;
- kelishuv bitimini tuzish;
- vakolatini boshqa shaxsga o'tkazish;
- sud hujjati ustidan shikoyat qilish;
- sud hujjatini majburiy ijro etilishini talab qilish;
- chet elliik shaxslarning ishonchnomalari apostillanganligi yoki legalizatsiya qilinganligi.

Sudlar taraflar tomonidan taqdim etilgan ishonchnomaning nusxasini asli bilan solishtirishlari lozim, aks holda sud hujjati ustidan shikoyat qilinganda ishonchnomaning asli mavjud bo'lмаганлиги yoki da'vo taqdim etilgan paytda da'vogar tugatilganligi yoki da'vo taqdim etish kuniga ishonchnomani imzolagan shaxsning vafot etganligi holatlari aniqlanishi va sud qarorining sifatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu o'rinda, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog'ida ayni shu nizo bilan bog'liq holda mediator sifatida ishtirot etgan shaxslar (bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va mediatorning ishtiroti yuzasidan o'zaro rozilik bo'lган hollar mustasno), sudyalar, tergovchilar, surishtiruvechilar, prokurorlar va sud devoni xodimlari (tegishli sudsining, prokuratura organlarining vakili sifatida yoki qonuniy vakil sifatida ishtirot etayotgan hollar mustasno), to'la muomala layoqatiga ega bo'lмаган yoxud vasylilik yoki horniylik ostidagi shaxslar sudda vakil bo'la olmasligini yodda tutish lozim.

Sudya ishda ishtirot etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshirib ko'rib, vakillarning vakolatlarini

tan olish va ularning sud majlisida ishtirok etishiga ruxsat berish, vakolatlarini tasdiqlash uchun tegishli hujjatlar taqdim etilmaganda yoki qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'limgan hujjatlar taqdim etilganda esa, tegishli shaxsning ishda ishtirok etishga oid vakolatlarini tan olmasdan rad etish masalasini hal etishi va buni sud majlisi bayonnomasida ko'rsatishi lozim.

Sud tarkibini e'lon qilish va rad qilish huquqlarini tushuntirish. (IPKning 165-moddasi 4-qismi 3-bandı).

Ishtirokchilarning vakolatlari tekshirilganidan so'ng raislik qiluvchi suda, sud tarkibini e'lon qiladi, prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisi kotibi, tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotganligini ma'lum qiladi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilish huquqini tushuntiradi. Sud tarkibi e'lon qilinayotganda raislik qiluvchi o'z ism, sharifini aytadi. Masalan: «Ish raislik qiluvchi suda Jamshid Rasulov tarkibida ko'rilmoxda». So'ngra raislik qiluvchi prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisi kotibi, tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotgani to'g'risida ma'lumot beradi va shundan keyin ishda ishtirok etayotgan shaxslarga sud tarkibi va qolgan ishtirokchilarni rad qilish huquqini tushuntiradi.

Ishda ishtirok etayotgan shaxslarga rad qilish huquqining tushuntirilishi sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

IPKning 20-moddasida sudyaning qaysi hollarda ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emasligi va u rad qilinishi lozimligi belgilangan. Xususan, suda mazkur ish ilgari ko'rilmaga suda sifatida ishtirok etgan bo'lsa va ishni ko'rishda uning takroriy ishtirok etishiga IPKning 19-moddasida belgilangan talablarga muvofiq yo'l qo'yilmasa, mazkur ish ilgari ko'rilmaga unda hakamlik sudi sudyasi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi, vakil yoki guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yoki ular vakillarining qarindoshi bo'lsa, ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, ishni ko'rayotgan hay'at tarkibidagi sudyaning qarindoshi bo'lsa, mazkur ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

Prokurorni, ekspertni, mutaxassisni, sud majlisi kotibini va tarjimonni rad qilish asoslari IPKnning 21-moddasi bиринчи qismida nazarda tutilgan bo'lib, унга ко'ра ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yoki ular vakillarining qarindoshi bo'lsa, shuningdek, ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mayjud bo'lsa, prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisi kotibi yoki tarjimon ishni ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim.

Bundan tashqari, mazkur moddaning ikkinchi qismida ekspertni va mutaxassisni rad qilish uchun uning ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yoki ularning vakillariga ishning muhokamasi paytida yoki o'tmishda xizmat vazifasi yuzasidan yoxud boshqa jihatdan tobe bo'lganligi, u o'tkazgan taftish materiallari sudga murojaat qilish uchun asos yoki sabab bo'lib xizmat qilganligi yoxud ishni ko'rishda ulardan foydalaniyatganligi asos bo'lishi mumkin.

O'zini o'zi rad qilish va rad qilish haqidagi ariza asoslantirilan bo'lishi va nizo mazmunan ko'rilihsidan oldin berilishi lozim. Ishni ko'rish davomida o'zini o'zi rad qilish yoki rad qilish haqida ariza berishga o'zini o'zi rad qilish yoki rad qilish uchun asos o'zini o'zi rad qilish yoxud rad qilish haqida ariza bergan shaxsga ishni mazmunan ko'rish boshlanganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Ishni yakka tartibda ko'rayotgan sudyani rad qilish to'g'risidagi masala sudning raisi, bir tarkibli sudda esa shu sudyu tomonidan hal qilinadi.

Ish hay'at tarkibida ko'riliayotganda sudyani rad qilish to'g'risidagi masala rad qilinishi talab etilayotgan sudyaning ishtirokisiz sud tarkibining ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi. Rad qilishni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolsa, sudyu rad qilingan hisoblanadi.

Bir nechta sudyani yoki ishni ko'rayotgan sudning butun tarkibini rad qilish to'g'risidagi masala shu sud tarkibi tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi. Sudyaning o'zini o'zi rad qilishi to'g'risidagi masala ushbu moddada nazarda tutilgan

tartibda sud tomonidan hal etiladi. Rad qilish to'g'risidagi masalani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi va mazkur ajrim ustidan shikoyat (protest keltirilishi) berilishi mumkin emas.

Prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisi kotibining va tarjimonning o'zini o'zi rad qilishi yoki ularni rad qilish to'g'risidagi masala ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

IPKning 24-moddasiga ko'ra o'zini o'zi rad qilish to'g'risidagi yoki sudyani yoxud bir necha sudyani yoinki butun sud tarkibini rad qilish haqidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda ish o'sha sudda, biroq sudyalarning boshqa tarkibida ko'rildi.

Agar o'zini o'zi rad qilishni va rad qilishni qanoatlantirish natijasida ishni ayni o'sha sudda ko'rish uchun sudning yangi tarkibini shakllantirish imkonи bo'lmasa, ish boshqa sudga o'tkazilishi kerak.

Kelgan guvohlarni majlis zalidan so'roq qilish boshlanguniga qadar chiqarib yuborish.

Raislik qiluvchi iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini majlisga kelgan-kelmaganligini, ularning vakolatlarini, majlisga kelmagan shaxslar tegishli ravishda xabardor qilingan-qilinmaganligini hamda ularning kelmaganligi sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini tekshirib, sud tarkibini e'lon qilib, prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisi kotibi, tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotganligini ma'lum qiladi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilish huquqini tushuntirib bo'lganidan so'ng kelgan guvohlarni majlis zalidan so'roq qilish boshlanguniga qadar chiqarib yuboradi.

Guvohlarni sud zalidan chiqarishdan oldin guvoh sifatida ko'rsatuv berish uchun sud zaliga birma bir chaqirtirilishlari tushuntiriladi. Guvohlarning sud zalidan chiqarilishi ko'rsatuvlarning «daxlsizligi»ni ta'minlash, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning tushuntirishlari va ish bo'yicha boshqa ma'lumotlar ta'siri tufayli ularning ko'rsatuvlarining mazmuni «buzilishi»ning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Raislik qiluvchi so'roq qilingan guvohlar so'roq qilinmagan guvohlar bilan muomalada bo'lmasligi uchun choralar ko'radi.

Sud protsessi ishtirokchilariga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish.

Sudya sud protsessi ishtirokchilariga ularning protsessual huquqlarini, ya'ni ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, ko'chirma nusxa olish, rad qilish to'g'risida ariza berish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish, arz qilish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni ko'rish davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) hamda IPKda o'zlariga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi.

Shuningdek, raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual majburiyatlarini ham tushuntirib berishi kerak.

Ishda ishtirok etayotgan shaxs va ularning vakillariga protsessual huquq va majburiyatlarni tushuntirishda raislik qiluvchi ishning o'ziga xos holatini hisobga olishi kerak. Raislik qiluvchi protsess ishtirokchilarining huquqlarini to'liq tushuntirishi kerak, masalan, qarshi da'vo arizasi berish huquqini ham tushuntirib berishi lozim.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs, ya'ni javobgar da'vo arizasi yuzasidan da'voga qarshi e'tirozlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan yozma fikrini va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga yozma fikrining hamda ularda mavjud bo'limgan hujjatlarning ko'chirma nusxalari yuborilganligini tasdiqlovchi dalillarni ish ko'rildigani kungacha yetib borishini ta'minlaydigan muddatda, ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kundan kechiktirmay sudga yuborishi mumkin. Bundan tashqari, javobgarning IPKning 160-moddasi birinchi qismiga asosan ish bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar dastlabki da'vo bilan birga ko'rib chiqish uchun qarshi da'vo taqdim etish huquqi mavjud.

Misol uchun, kredit shartnomasi qo'pol ravishda buzilgani ligi sababli muddatidan oldin kredit bo'yicha qarzdorlik vaunga hisoblangan foizlarni undirish yuzasidan da'vo arizasi ko'rib chiqilayotganda javobgar kredit shartnomasi bo'yicha to'lov larning muddatidan oldin undirilishi oqibatida korxonaga yetkaziladigan zararni undirish yuzasidan qarshi da'vo arizasi bilan murojaat qilsa, qarshi da'vo ish yurituviga qabul qilinmasdan qaytarilishi lozim. Chunki, qarshi da'vo arizasidagi talab bilan dastlabki da'vo o'rtaida o'zaro bog'liqlik mayjud emas, ularni birgalikda ko'rib chiqish nizoni o'z vaqtida va to'g'ri hal etishga olib kelmaydi.

Qarshi da'vo da'vo arizalarini taqdim etish va ish yuritishga qabul qilish uchun IPKda belgilangan qoidalar bo'yicha taqdim etiladi va ish yuritishga qabul qilinadi. Qarshi da'voni ko'rib chiqishga qabul qilishda sudya sudga murojaat qilish huquqining barcha shart sharoitlarini hisobga olishi kerak.

Qarshi da'voda da'vo arizasi IPKning 160-moddasi talablariga javob berishi kerak va davlat boji to'lanadi.

IPKning 160-moddasi ikkinchi qismi talablariga muvosiq bo'limgan qarshi da'vo arizasi IPKning 155-moddasi ikkinchi qismiga asosan qaytariladi.

Tarjimonga uning majburiyatlarini tushuntirish.

IPKning 10-moddasiga ko'ra, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan sud protsessi ishtirokchilarining tarjimon orqali ish materiallari bilan tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish hamda sudda o'z ona tilida yoki erkin tanlangan muloqot tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilar, garchi tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tillarni bilsalar ham, tarjimonlik vazifalarini o'z zimmalariga olishga haqli emaslar.

«Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 11-moddasiga ko'ra, sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydag'i ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishg'a oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'ttasidagi iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Iqtisodiy nizolar taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Ushbu tamoyilga rioya qilmaslik kelgusida sudning qarori bekor bo'lishiga olib keladi. IPKning 279, 302-moddalarida belgilanganidek, sud ishi yuritilayotgan til to'g'risidagi qoidalar isjni ko'rish chog'ida buzilganligi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini har qanday holda bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Tarjimon:

sud chaqiruvi bo'yicha kelishi;

tarjimani aniq, to'liq va to'g'ri amalgalashish;

sud majlisi vaqtida tartibga ryoja etishi shart.

Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun jinoiy javobgar bo'ladi, sud tomonidan bu haqda ogohlantirilib, undan tilxat olinadi.

Tarjimon xulq-atvorining qonuniyligi bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun jinoiy javobgarlikning mavjudligi bilan uyg'unlashadi.

Sudya dalillarni tekshirish tartibini belgilaydi.

IPK va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan tartibda olingan faktlar haqidagi ma'lumotlar ishi bo'yicha dalillar bo'lib, sud ular asosida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi holatlar, shuningdek, nizoni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlaydi. Bunday ma'lumotlar yozma va ashyoviy dalillar, ekspertiarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari), guvohlarning ko'rsatuvlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari bilan aniqlanadi. Agar ushbu dalillar qonunni buzgan holda olingan bo'lsa, sudning ulardan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Raislik etuvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning vakillaridan isjni ko'rishi bilan bog'liq ariza va iltimosnomalari yoki mavjud emasligini so'raydi.

Ariza va iltimosnomalar turli xil bo'lishi mumkin:

- boshqa javobgarning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin bo'limgan taqdirda, birinchi instansiya sudi hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogarning (da'vogarlarning) roziligi bilan o'sha javobgarni (javobgarlarni) ishda ishtirok etish uchun jalg qilish haqida;
- nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni jalg qilish haqida;
- ishda ishtirok etuvchi shaxs ishda ishtirok etuvchi yoki ishtirok etmaydigan shaxsdagi zarur dalilni mustaqil olish imkoniga ega bo'lmasa, o'sha dalilni talab qilib olish haqida;
- ashyoviy dalillarni qaytarish haqida;
- ekspertiza tayinlash haqida;
- da'veni ta'minlash to'g'risida;
- da'vening asosini yoki predmetini, da'vo talablari miqdorini o'zgartirish, da'vodan voz kechish to'g'risida;
- zatur dalillarni taqdim etish mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyinlashadi deb hisoblash uchun asosi bo'lgan shaxslar ishni o'z yurituviga qabul qilgan suddan ushbu dalillarni ta'minlash to'g'risida;
- da'veni ta'minlash haqidagi ajrimni bekor qilish to'g'risida;
- ish yuritishni to'xtatib turish haqida;
- sud majlisini keyinga qoldirish yoki tanaffus e'lon qilish haqida va h.k.

Ariza va iltimosnomalar yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. IPK 201-moddasi ikkinchi qismining 7-bandiga asosan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning og'zaki arzlari va iltimosnomalari sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi, yozmalari esa ishga tikiladi. Iltimosnomalar va arizalar bo'yicha qolgan taraflarning fikrlari tinglanadi.

IPK 169-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq arizalar va iltimosnomalarni ko'rish natijalari bo'yicha sud ajrim chiqaradi. Ajrimning shakli iltimosnomaning mazmuni va uni ko'rib chiqish natijalariga bog'liq. Masalan, agar iltimosnomalar muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risida berilgan bo'lsa, u qanoatlantirilganda alohida hujjat tariqasida ajrim chiqariladi,

qanoatlantirish rad etilganda bu haqda hal qiluv qarorida yoki sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi. Agar taraf ish hujjatlariga qo'shimcha dalillarni qo'shish to'g'risida iltimosnama bilan murojaat qilsa, u qanoatlantirilganda yoki qanoatlantirish rad etilganda ajrim chiqariladi va sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi.

Arizalar va iltimosnomalarni qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad qilish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat (protest keltirilmaydi) qilinmaydi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning da'vo arizasi yuzasidan bergen yozma fikrida uning nizo bo'yicha ariza va (yoki) iltimosnomalari nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu ariza va iltimosnomalar IPKning 169-moddasida belgilangan tartibda hal etiladi.

Iltimosnomani qanoatlantirish natijasida nizoni mazmunan ko'rish imkoniyati bo'lmasa, raislik etuvchi tomonidan sud muhokamasi keyinga qoldiriladi yoki ish yuritish to'xtatib turiladi bu haqda ajrim chiqariladi yohud tanaffus e'lon qilinib, bu holat sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

Ajrim chiqarilishiga asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan so'ng sud majlisi davom ettiriladi yoki ish yuritish tiklanadi. Ariza va iltimosnomalar kiritilmagan hollarda yoxud kiritilgan ariza va iltimosnomalar sud jarayonining borishiga ta'sir qilmasa, sud majlisi davom ettiriladi.

Sudyalar sud muhokamasida ish bo'yicha barcha dalillarni tekshirishi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko'rsatuvarlarini, ekspertlarning xulosalarini, mutaxassislarning maslahatlarini (tushuntirishlarini) eshitishi, yozma dalillar bilan tanishishi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishi, shuningdek, yozma shaklda taqdim etilgan tushuntirishlar, ko'rsatuvarlar va xulosalarini o'qib eshittirishi lozim.

IPKning 169-moddasida belgilanganidek, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yangi dalillarni talab qilib olish to'g'risidagi hamda ish muhokamasi bilan bog'liq boshqa barcha masalalar bo'yicha arizalari va iltimosnomalari ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning fikrlari sud tomonidan eshitib bo'linganidan keyin hal qilinishi kerak.

Sud muhokamasi davrida taqdim etilgan ariza va iltimosnomalarini ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.

Masalan, taraf nizoni kelishuv yo'li bilan hal etish uchun vaqt so'rab sud majlisini qoldirib turish haqida iltimosnomasi kiritgan bo'lsa, taraf yoki uning vakili uzrli sabablarga ko'ra sud majlisida ishtirok eta olmasa hamda sud majlisida ishtirok eta olmaslik sabablarini ko'rsatgan holda sud majlisini qoldirib turishni so'ragan bo'lsa, ish bo'yicha qo'shimcha dalillar taqdim etish uchun sud majlisini boshqa kunga qoldirish haqida iltimosnomasi bilan murojaat qilsa va sud tomonidan iltimosnomalar qanoatlantirilgan hollarda sud majlisini qoldirish haqida ajrim chiqariladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari va iltimosnomalarini qanoatlantirish to'g'risidagi yoki qanoatlantirishni rad etish haqidagi xulosalari ishni ko'rish natijalari bo'yicha chiqarilgan sud hujjati, ya'ni da'vo arizasini ko'rnasdan qoldirish, ish yuritishni tugatish haqidagi ajrimlar yoki hal qiluv qarorida bayon qilinishi mumkin.

Masalan, sud muhokamasida taraf sud majlisini qoldirib turish haqida iltimosnomasi kiritgan, biroq u sud tomonidan qanoatlantirilmagan bo'lsa, hal qiluv qarorining asoslantruvchi qismida nima uchun iltimosnomasi qanoatlantirilmaganligini asoslovchi holatlarni bayon qilib, xulosa qismida iltimosnomani rad qilinishi ko'rsatilishi mumkin.

Agar sud majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxs sud majlisiga kelmasa, ushbu shaxsning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkinligi masalasini hal etish.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud muhokamasining vaqt va joyi to'g'risida sud ajrimi orqali xabardor qilinadi, ajrim topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuboriladi yoki ushbu shaxslarga tilxat olib topshiriladi yoxud xabardor qilinganligi fakti qayd etilishini ta'minlaydigan aloqa vositalaridan foydalangan holda xabardor qilinadi. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari ajrim orqali, zarur hollarda esa sud chaqiruv qog'ozlari, telegrammalar, fakslar,

teletayplar hamda boshqa aloqa vositalari orqali xabardor qilinadi va sudga chaqiriladi (IPKning 127-moddasi).

Sud protsessi ishtirokchilaridan birortasi kelmagan va ko'rsatilgan shaxsning sud muhokamasining vaqtini va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinganligi to'g'risida dalillar mavjud bo'limgan taqdirda sud muhokamasi keyinga qoldirilishi lozim (IPKning 171-moddasi).

Sud muhokamasi qaysi hollarda keyinga qoldirilishi IPKning 171-moddasida belgilab berilgan bo'lib, sud kutilmagan va favqulodda holatlarda ishni sud majlisida ko'rish mumkin bo'limgan taqdirda, shu jumladan:

- tarafning iltimosnomasi bo'yicha, u nizoni kelishuv yo'li bilan hal qilish maqsadida suddan ko'maklashishni so'rab murojaat qilgan taqdirda;

- agar sud majlisining vaqtini va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxs sud majlisiga kela olmasligi sabablarini asoslagan holda sud muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilgan bo'lsa va basharti ushbu shaxsning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin bo'lmasa;

- ishda ishtirok etuvchi shaxsning o'z vakili sud majlisiga uzrli sababga ko'ra kela olmaganligi munosabati bilan qilgan iltimosnomasi bo'yicha;

- sud protsessi ishtirokchilaridan birortasi, agar sud ishni ushbu shaxsning ishtirokisiz ko'rish mumkin emas deb hisoblasa, kelmagan taqdirda;

- tarafning qo'shimcha dalillar taqdim etish yoki uchinchi shaxslardan talab qilib olish zarurati bilan bog'liq holda sud muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risidagi iltimosnomasi bo'yicha;

- sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilayotganda videokonferensaloqa o'rnatish imkonini bo'limgan taqdirda;

- sud protsessi ishtirokchilaridan birortasi kelmagan va ko'rsatilgan shaxsning sud muhokamasining vaqtini va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinganligi to'g'risida dalillar mavjud bo'limgan taqdirda;

- ishga daxldor bo'limgan javobgarni ishga daxldor bo'lgan javobgar bilan almashtirish zarur bo'lgan taqdirda;
- nizoli huquqiy munosabatdan chiqib ketgan tarafni uning huquqiy vorisi bilan almashtirish zarur bo'lgan taqdirda;
- ikkinchi javobgarni yoki uchinchi tarafni ishda ishtirok etish uchun jalb etish zarur bo'lgan taqdirda sud muhokamasini keyinga qoldirishga haqli.

Sud quyidagi holatlarda ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rishi mumkin:

- javobgar sud majlisining vaqtি va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan bo'lsa;
- sud majlisining vaqtি va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kela olmasligi sabablari haqida sudga ma'lum qilmagan bo'lsa;
- javobgardan ishni uning ishtirokisiz ko'rish haqida iltimosnama kelib tushmagan bo'lsa;
- da'vogar ishni sud majlisining vaqtি va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgarning ishtirokisiz ko'rishga e'tiroz bildirmasa.

Sud videokonferensaloqa o'rnatish yoki ishni shu sud majlisida ko'rish imkonи bo'limganda ishni ko'rishni boshqa kunga qoldirishi mumkin. Biroq, IPKning 170-moddasi birinchi qismiga ko'ra ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan da'vo arizasi yuzasidan yozma fikr, qo'shimcha dalillar taqdim etilmasligi ishni mavjud materiallar bo'yicha ko'rishga to'sqinlik qilmaydi. Shuningdek, da'vogar bo'lib o'tadigan sud majlisi haqida belgilangan tartibda ogohlantirilgan bo'lib, ishni da'vogar ishtirokisiz ko'rib chiqilishi haqida ariza kelib tushgan bo'lsa, nizo da'vogarning ishtirokisiz hal etilishi mumkin. Shuningdek, ish bo'yicha boshqa ishtirokchilar javobgar, uchinchi shaxslar ham IPKda belgilangan tartibda sud majlisi o'tkazilishi vaqtি va joyi haqida ogohlantirilgan holda sud majlisida ishtirok etmasalar, ish ularning ishtirokisiz ko'rib chiqilib hal qilinishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi, ammo sud majlisiga kelmagan shaxslar IPKning 127-moddasida nazarda tutilgan tartibda yangi sud majlisining vaqtি va joyi to'g'risida xabardor qilinadi. Sud

majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallariga qo'shib qo'yiladigan tilxat orqali xabardor qilinadi.

Sud muhokamasi keyinga qoldirilganidan so'ng navbatdagi sud majlisida uni ko'rish davom ettiriladi. Zarur bo'lgan taqdirda ishning muhokamasi u qoldirilganidan keyin boshidan boshlanadi.

Sudya sud muhokamasi uni keyinga qoldirishga asos bo'lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan muddatga IPKda sud muhokamasi uchun nazarda tutilgan muddat doirasida, biroq ko'pi bilan o'n kunga qoldirish mumkin va qoldirishlar soni uch martadan oshmasligi kerak.

Guvohlarni so'roq qilish.

Agar sud majlisida taraflar hozir bo'lsa, sud kelgan guvohlarni sud muhokamasi keyinga qoldirilgungiga qadar so'roq qilishga haqli. Bu guvohlarning ko'rsatuvlari yangi sud majlisida o'qib eshittiriladi. Ushbu guvohlarni yangi sud majlisiga takroran chaqirish faqat zarur hollarda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, sudya tomonidan IPKning 172-moddasiga ko'ra sud majlisida tanaffus e'lon qilinishi mumkin. Tanaffus uch kundan oshmag'an muddatga e'lon qilinishi va bu haqida sud majlis bayonnomasida ko'rsatilishi lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, tanaffusdan keyingi sud majlisida vakillar almashgan holatda ham dalillar qayta tekshirilmaydi. Bunda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tanaffus e'lon qilinguniga qadar sud majlisida qatnashganligi yoki qatnashmaganligidan qat'i nazar, sud majlisining vaqtি va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan hisoblanadi hamda ularning tanaffus tugaganidan keyin sud majlisiga kelmaganligi sud majlisini davom ettirishga to'sqinlik qilmaydi.

Ishda prokurorning ishtiroki.

Ishda da'vogarning ishtiroki prokurorning u qo'zg'atgan da'vo bo'yicha ishda ishtirok etish majburiyatidan ozod qilmaydi. Prokurorning sudga da'vo taqdim etish vakolati ishonchnoma asosida boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas.

Prokuror ishda xizmat guvohnomasi asosida, boshqa prokuratura xodimlari esa xizmat guvohnomasi va prokuror

tomonidan imzolangan ishonchnomaga bilan ishtirok etishlari lozim.

«Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 33-moddasiga ko'ra, fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudsida ishlar ko'rilib turayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Ishlar sudsida ko'rilib turayotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanganadi.

Prokuror sud protsessining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalaniib, sudyalarning mustaqilligi hamda protsessual qonun hujjatlari normalariga qat'iy rioya etish prinsipiiga amal qilishi shart.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning 56-moddasiga ko'ra, mazkur qonunning 33-moddasidagi «prokuror» degan atama zamirida o'z vakolatlari doirasida ish olib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, quyi turuvchi barcha prokurorlar, ularning o'rinnbosarlari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinnbosarlari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlarning katta yordamchilari, yordamchilari, katta prokurorlari va prokurorlarini tushunish kerakligi yuzasidan tushuntirish berilgan.

7.4. Sudning ish yuritishni to'xtatib turish majburiyati

Sud quyidagi hollarda ish yuritishni to'xtatib turishi shart:

1) mazkur ishni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha sud, jinoyat ishlari bo'yicha sud, ma'muriy sud yoki iqtisodiy sud tomonidan ko'rilib turayotgan boshqa ish yoki masala yuzasidan, shuningdek, tergov harakatlari olib borayotgan ish yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ko'rish mumkin bo'limganda;

2) javobgar fuqaro O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismida bo'lganda yoki O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismidagi da'vogar-fuqaro tegishli iltimosnomaga bilan murojaat qilganda;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan fuqaro vafot etganda, agar nizoli huquqiy munosabatlar huquqiy vorislikka yo'l qo'sha;

4) ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan fuqaro muomala layoqatini yo'qtganda;

5) taraf sud tomonidan tan olinishi va ijroga qaratilishi to'g'risida ko'rileyotgan chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini bekor qilish yoki uning ijrosini to'xtatib turish haqida vakolatli organga iltimosnomasi berganda.

6) mediatshiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda.

Sudning ish yuritishni to'xtatib turish huquqi

Sud quyidagi hollarda ish yuritishni to'xtatib turishga haqli:

1) sud tomonidan ekspertiza tayinlanganda;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxs bo'lgan fuqaro davlat majburiyatini bajarish uchun jalg qilinganda;

4) chet davlatlar sudlariga nizoni mazmunan hal etish uchun alohida protsessual harakatlarni amalga oshirish haqidagi sud topshiriqlari belgilangan tartibda yuborilganda.

Ish yuritishni to'xtatib turishning huquqiy oqibatlari

Ish yuritish to'xtatilgan taqdirda, iqtisodiy protsessual qonunchilik yoki boshqa qonunchilik hujjalari nazarda tutilgan yoxud sud tomonidan belgilangan muddatlarning o'tishi to'xtatib turiladi.

Ish yuritish tiklanguniga qadar sud biror-bir protsessual harakatni amalga oshirishga haqli emas, bundan da'veni va dalillarni ta'minlashga qaratilgan harakatlar mustasno. Ish yuritishni to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar bartaraf qilinganidan keyin ish yuritish tiklanadi.

7.5. Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish

Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish nizoning mazmuni bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilmasdan turib sud muhokamasini tamomlash shakllaridan biri hisoblanadi. IPKning 107-moddasida ko'rsatilgan da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish asoslarining

ro'yxati tugal hisoblanadi va kengaytirilgan tarzda talqin qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi va u IPKning 108-moddasi talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Da'vo arizasi ko'rmasdan qoldirilganda ajrim chiqariladi.

Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

1) fuqarolik ishlari bo'yicha sud, iqtisodiy sud, hakamlik sudi ish yurituvida ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa.

Bu asosni ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet va ayni bir asoslar yuzasidan nizo bo'yicha ko'rsatib o'tilgan organlarning qarori bo'lsa, ish yuritishni tugatish asoslaridan farqlash kerak bo'ladi, chunki, nizoni hal qiluvchi boshqa organ qarori allaqachon chiqqan bo'lsa, ish yuritish tugatiladi. Da'vonи ko'rmasdan qoldirish uchun esa nizoni hal qilayotgan boshqa sud tomonidan ish qo'zg'atilganligi yetarli bo'ladi.

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishuvi mavjud bo'lib, hakamlik sudiga murojaat qilish imkoniyati boy berilmagan bo'lsa va agar ishning iqtisodiy sudda ko'riliishi qarshi bo'lgan javobgar nizoning mazmuni bo'yicha o'zining birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlik sudining hal qiluviga o'tkazish to'g'risida iltimosnomasi bersa.

O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sndlari to'g'risida»gi Qonuning 3-moddasiga ko'ra hakamlik bitimi – taraflarning nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqidagi kelishuvi bo'lib, hakamlik bitimi tuzgan yuridik va jismoniy shaxslar hakamlik bitimi taraflari hisoblanadi.

Qonunning 11-moddasiga ko'ra hakamlik bitimi mavjud bo'lgan taqdirda, nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin. Vakolatli sudning hal qiluvida bo'lgan nizoga oid hakamlik bitimi vakolatli sud nizo yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilguniga qadar tuzilishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirish haqidagi kelishuvi mavjud bo'lib, hakamlik sudiga murojaat qilish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa, ishning iqtisodiy sudda ko'rlishiga qarshi bo'lgan javobgar o'zining birinchi arizasidayoq nizoni mazmunan hal etishni hakamlar sudiga topshirish to'g'risida iltimosnomasi bilan murojaat qilsa, da'vo arizasi ko'rmasdan qoldiriladi. Nizoni hakamlik sudiga topshirish haqidagi tomonlarning kelishuvi da'vogarni iqtisodiy sudga murojaat qilish huquqidani mahrum qilmaydi, agar javobgar qarshilik bildirmasa, nizo iqtisodiy sudda ko'rlishi kerak.

3) da'vo arizasi imzolanmagan bo'lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan yoxud mansab mavqeい yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa.

Da'vo arizasida da'vogar yoki uning vakilining imzosi bo'limasa bunday ariza berilmagan deb hisoblanadi, shu bois da'vo arizasi ko'rmasdan qoldiriladi. Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirilishiga murojaat etuvchining mansab mavqeい ko'rsatilmasligi ham asos bo'ladi. Shuni nazarda tutish kerakki, IPKda da'vo arizasiga da'vogar vakilining ham imzo chekish vakolati belgilangan. Bunday maxsus vakolat ishonchnoma bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Da'vo arizasida uni imzolagan shaxsning familiyasi to'liq, ismi yoki ismi va otasining ismini bosh harflari ko'rsatilganligi da'vo arizasini IPK 107-moddasi birinchi qismining 3-bandiga asosan ko'rmasdan qoldirishga asos bo'lmaydi.

4) qonun hujjatlari yoki shartnomaga ko'ra qarz bank yoki boshqa kredit tashkiloti orqali undirib olinishi kerak bo'lishiga qaramay, da'vogar javobgardan qarzini undirib olish uchun bankka yoxud boshqa kredit tashkilotiga murojaat etmagan bo'lsa.

Agar qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq qarz bank yoki boshqa kredit muassasasi orqali undirib olinishi shart bo'lishiga qaramay da'vogar javobgardan qarzni undirib olish

uchun bank yoki kredit muassasasiga murojaat etmagan bo'lsa, iqtisodiy sud da'veni ko'rmasdan qoldirishi lozim. Xususan, ishda qarzdorga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan qabul qilinganligi belgisi bilan undiruvchining to'lov topshiriqnomasi hamda qarzdorning ushbu talabnomasi aktseptini butunlay yoki qisman rad etganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud ernesligi da'veni ko'rmasdan qoldirishga asos bo'ladi.

Davlat soliq xizmati organining soliq qarzini soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish choralarini ko'rmasdan, undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish haqida berilgan da'vo arizasi IPK 155-moddasini birinchi qismining 9-bandiga muvofiq qaytariladi, ushbu holat da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilinganidan keyin aniqlansa, IPK 107-moddasining 4-bandiga muvofiq da'vo ko'rmasdan qoldiriladi, soliq to'lovchining bank hisobvaraqlari bo'limgan yoki soliq to'lovchi soliq qarzini to'lash uchun o'zining bank hisobvarag'iga to'lov topshiriqnomasini qo'ygan hollar bundan mustasno.

5) da'vegar nizoni sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibiga rioxanasi etmagan bo'lsa, basharti bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki taraflar shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa.

Agar qonunda muayyan toifadagi nizolar uchun sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibi belgilangan yoxud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioxanasi qilingandan keyingina iqtisodiy sudga murojaat qilingan bo'lishi kerak, bu tartibga rioxanasi qilinmasdan topshirilgan da'vo arizalari ko'rmasdan qoldiriladi.

Jumladan, bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'limganida esa, o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Da'vo arizasida qayd etilishicha, «U» fermer xo'jaligi o'ziga ijara va ajratib berilgan yer maydonlariga hech qanday

asos va sababsiz rejaga nisbatan kam maydonga g'alla ekib, g'alla yetkazib berish bo'yicha kontraktatsiya shartnomasini bajarmagan. Fermer xo'jaligi yer maydoniga rejalashtirilmagan sabzavot ekinlari va terak ekib, terakzor barpo qilgan hamda fuqarolarga qonunga xilof ravishda sabzavot-poliz ekinlarini ekib olish uchun ijaraga bergen va fuqaro fermer xo'jaligiga ijara huquqi asosida berilgan yer maydonini egallab olib, uy-joy qurib olganligiga hech qanday e'tiroz bildirmagan.

Tuman hokimligi nizoni sudgacha hal qilinishini ta'minlash maqsadida talabnomani rasmiylashtirganligi, uni fermer xo'jaligining boshlig'iغا shaxsan topshirish natija bermagani, fermer xo'jaligi boshlig'i talabnomani olishdan bosh tortganligi dalolatnomada qayd etilgan.

Tuman hokimligi fermer xo'jaligi yer ijarasi shartnomasi shartlarini qo'pol ravishda buzganligiga asosan, sudga murojaat qilib, fermer xo'jaligi bilan tuzilgan yer ijarasi shartnomasini sud tartibida bekor qilishni so'ragan.

Vazirlar Mahkkamasining 2013-yil 31-yanvardagi 22-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligining yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risida»gi Nizomning 14 va 16-bandlariga ko'ra, fermer xo'jaligi tomonidan yer maydonini ijaraga olish shartnomasi shartlarining qo'pol ravishda buzilganligi, eng avvalo, fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalaniqlanligi, fermer xo'jaligini shakllantirish chog'ida fermer xo'jaligi ixtisoslashuvining buzilganligi, ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan oqilona foydalanmaslik, muntazam (ketma-ket uch yil mobaynida) normativ kadastr bahosidan past hosil olinganligi, fermer xo'jaligi bilan tayyorlov tashkilotlari o'rtasida, eng avvalo, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari shartlarining muntazam (ketma-ket uch yil mobaynida) bajarilmaganligi (fors-major holatlarining vujudga kelishi holatlari bundan mustasno), xo'jalik faoliyatining samarasiz va past rentabellik bilan yuritilishi aniqlanganda – qishloq va suv xo'jaligi organlari, yer resurslari va davlat

kadastri organlari, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, shuningdek, tayyorlov tashkilotlari tomonidan aniqlangan holatlar yuzasidan dalolatnoma tuzilishi, dalolatnoma ko'rsatib o'tilgan organlar (tashkilotlar) vakillari va fermer xo'jaligi rahbari tomonidan imzolanishi, fermer xo'jaligi rahbari dalolatnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, dalolatnomada bu to'g'rida yozuv qayd qilinishi, u tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi hamda ikki nafar jismoniy shaxs tomonidan tasdiqlanishi, dalolatnoma ikki nusxada tuzilishi, ulardan biri fermer xo'jaligi rahbariga topshirilishi belgilangan.

Shuningdek, Nizomda dalolatnoma asosida ushbu Nizomning 14-bandida ko'rsatilgan organlar (tashkilotlar) bir kun mobaynida tegishli taqdimnomani dalolatnoma, shuningdek, zarur hujjatlar va materiallar bilan birga tuman (shahar) hokimiga yuborishi, tuman (shahar) hokimi uch kun muddatda barcha hujjatlar va materiallarni tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga yuborishi, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ikki kun mobaynida hujjatlar va materiallarni ko'rib chiqishi va ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xulosa chiqarishi, ushbu xulosa hujjatlar va materiallar bilan birgalikda tegishli xulosani olish uchun Komissiyaga yuborilishi, dalolatnomada ko'rsatilgan holatlar tasdig'ini topgan taqdirda, Komissiya bir hafta muddatda taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish asosida yer uchastkasini ijara berish shartnomasini bekor qilish to'g'risida yoxud uning maydonini maqbullashtirish to'g'risida xulosa tayyorlashi, ushbu xulosa barcha hujjatlar bilan birgalikda ko'rib chiqish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga yuborilishi, xalq deputatlari tuman Kengashi eng yaqindagi sessiyada Komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishi va tegishli qaror qabul qilishi, ushbu qaror Komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bilan birgalikda tuman (shahar) hokimiga yuborilishi, tuman (shahar) hokimi xalq deputatlari tuman Kengashining yer uchastkasini ijara berish shartnomasini bekor qilish yoxud yer maydonini

maqbullashtirish to'g'risidagi qarori asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, xalq deputatlari tuman Kengashining qarorini, Komissiyaning xulosasini, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining xulosasini, dalolatnomani va boshqa zarur hujjatlar hamda materiallarni ilova qilgan holda fermer xo'jaligi rahbari bilan yer uchastkasini ijara berish shartnomasini bekor qilish yoxud uning yer uchastkasi maydonini maqbullashtirish to'g'risida fermer xo'jaligi rahbariga taklif kiritishi belgilangan.

Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi taklif fermer xo'jaligi rahbari tomonidan rad etilganda yoki FKning 384-moddasida belgilangan muddatda javob olinmaganda tuman (shahar) hokimi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, xalq deputatlari tuman Kengashining qarorini, Komissiyaning xulosasini, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining xulosasini dalolatnomani va boshqa zarur hujjatlar va materiallarni ilova qilgan holda fermer xo'jaligi bilan yer uchastkasini ijara berish shartnomasini bekor qilish yuzasidan iqtisodiy sudga da'vo arizasini yuborishi ko'rsatilgan.

Biroq, aniqlangan holatlар bo'yicha belgilangan tartibda hujjatlar rasmiylashtirilmagan, xalq deputatlari tuman Kengashining qarori olinmagan, tuman hokimligi tomonidan fermer xo'jaligi rahbari bilan yer uchastkasini ijara berish shartnomasini bekor qilish yoxud uning yer uchastkasi maydonini maqbullashtirish to'g'risida fermer xo'jaligi rahbariga taklif kiritilmagan.

Tuman hokimligi tomonidan sudga taqdim etilgan fermer xo'jaligiga oid xalq deputatlari tuman Kengashining qarori tuman ma'muriy sudining hal qiluv qarori bilan haqiqiy emas deb topilgan. Ushbu hal qiluv qarori apellyatsiya instantsiyasi sudining qarori bilan o'zgarishsiz qoldirilgan.

Bu esa, xalq deputatlari tuman Kengashining qarori qabul qilingan paytdan boshlab haqiqiy emasligini bildiradi. Bu hol tuman hokimligi tomonidan sudga da'vo taqdim etishda Nizomda belgilangan, amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni amalga oshirmaganligidan dalolat beradi.

FKning 384-moddasiga muvoliq shartnama qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi, basharti qonun hujjatlaridan, shartnama yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa.

Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'limganida esa, o'ttiz kunlik muddatda javob oimaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Taraflar o'rtasidagi shartnomaning 18-bandida tomonlardan biri shartnomalarini bajarmaganda yoki qonun hujjatlarini muntazam ravishda buzganda ikkinchi tomon ushbu shartnomaning belgilangan tartibda bekor qilinishini talab qilishga haqliligi, 20-bandida esa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish mo'ljali to'g'risida ikkinchi tomonni shartnomaga bekor qilinishi sabablarini asoslagan holda mo'ljalananayotgan bekor qilish sanasidan uch oy oldin yozma ravishda xabardor qilishi ko'rsatilgan.

Tuman hokimligi vakillari va QFY vakillari tomonidan imzolangan dalolatnomada yer uchastkasini uzoq muddatli ijara olish to'g'risidagi shartnomani bekor qilish haqidagi talabnomani fermer xo'jaligi rahbari olishdan bosh tortganligi aks ettirilgan bo'lsa-da, ushbu talabnomalarini fermerni xo'jaligiga pochta yoki boshqa aloqa vositalari orqali yuborilmagan. Qolaversa, ushbu talabnomalarini fermerni xo'jaligi talabnomani olishdan bosh tortganligi haqidagi dalolatnomalarini Nizom talablariga javob bermaydi.

Bundan tashqari ushbu talabnomalarini xalq deputatlari tuman Kengashining qarori qabul qilinganidan keyin yuborilishi lozim bo'lgan, biroq, fermer xo'jaligi boshlig'inining talabnomani olishdan bosh tortganligi haqidagi dalolatnomalarini ma'muriy sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan xalq deputatlari tuman Kengashining qaroridan oldin tuzilgan.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning muassisalarga (ishtirokchilarga) korxonani ixtiyoriy tugatish to'g'risida yozma taklif yuborganligini tasdiqlovchi dalillar va muassislarning (ishtirokchilarning) korxonani ixtiyoriy tugatishni amalgamoshirishni rad etganligi (mavjud bo'lganda) yoxud muassislarni (ishtirokchilarini) aniqlash mumkin bo'lmasaganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinmasa, ariza IPK 155-moddasi birinchi qismining 7-bandiga muvofiq qaytariladi, agar ariza ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, ariza IPK 107-moddasining 5-bandiga muvofiq ko'rmasdan qoldiriladi.

IPK 151-moddasining birinchi, ikkinchi qismlarida (birinchi qismining 1-bandi bundan mustasno) nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari, korxonani tugatish to'g'risidagi arizaga, (moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalgamoshiraganlik bilan bog'liq) ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan muassisalarga (ishtirokchilarga) korxonani ixtiyoriy tugatish to'g'risida yozma taklif yuborilganligini tasdiqlovchi dalil; muassislarning (ishtirokchilarning) korxonani ixtiyoriy tugatishni amalgamoshirishni rad etganligi (mavjud bo'lganda) yoxud muassislarni (ishtirokchilarini) aniqlash mumkin bo'lmasaganligini tasdiqlovchi dalillar; ustav fondi shakllantirilmaganligi munosabati bilan berilgan bo'lsa;

ya'ni ro'yxatdan o'tkazuvchi organning muassisalarga (ishtirokchilarga) korxonani ixtiyoriy tugatish to'g'risida yozma taklif yuborganligini tasdiqlovchi dalillar va muassislarning (ishtirokchilarning) korxonani ixtiyoriy tugatishni amalgamoshirishni rad etganligi (mavjud bo'lganda) yoxud muassislarni (ishtirokchilarini) aniqlash mumkin bo'lmasaganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinmasa, ariza IPK 155-moddasi birinchi qismining 7-bandiga muvofiq qaytariladi, agar ariza ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, ariza IPK 107-moddasining 5-bandiga muvofiq ko'rmasdan qoldiriladi.

Nizomning 5.2-bandiga ko'ra, agar muassisalar (ishtirokchilari) bedarak bo'lgan korxonani tugatish jarayonining boshlanishi to'g'risida matbuotda e'lon berilgan kundan boshlab uch oydan so'ng muassisalar (ishtirokchilar) kelmasa yoki topilmasa,

ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bir hafta muddatda korxonani tugatish to'g'risida iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qiladi. Ushbu bandning uchinchi xatboshisida belgilangan tartibga riosa qilinmaganda, ariza IPK 155-moddasi birinchi qismining 7-bandiga muvofiq qaytariladi, agar ushbu holat ishni ko'rish jarayonida aniqlansa, ariza IPK 107-moddasining 5-bandiga muvofiq ko'rmasdan qoldiriladi.

Agar muassislar (ishtirokchilar) bedarak bo'lgan korxonani tugatish jarayonining boshlanishi to'g'risida matbuotda e'lon berilgan kundan boshlab uch oydan so'ng muassislar (ishtirokchilar) kelmasa yoki topilmasa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bir hafta muddatda korxonani tugatish to'g'risida iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qiladi. Ushbu belgilangan tartibga riosa qilinmaganda, ariza IPK 155-moddasi birinchi qismining 7-bandiga muvofiq qaytariladi, agar ushbu holat ishni ko'rish jarayonida aniqlansa, ariza IPK 107-moddasining 5-bandiga muvofiq ko'rmasdan qoldiriladi (Oliy xo'jalik sudi Plenumining «Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav fondlarini shakllantirmagan korxonalarini tugatishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida»gi 2010-yil 19-noyabrdagi 221-sonli qarori).

5') da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga riosa etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonuni (keyingi o'riniarda «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonun deb yuritiladi)ning 18-moddasiga asosan davlat organi ishtirokida nizo kelib chiqqan taqdirda, davlat organi mediatsiyani qo'llash bo'yicha choralar ko'rishi kerak.

Fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizoni sud orqali hal etishdan oldin davlat organi mediatsiyani qo'llash bo'yicha choralarini ko'rishi kerak, aks holda nizoni hal etish bo'yicha sudga kiritilgan da'vo arizasi ko'rmasdan qoldiriladi;

5²) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish haqida iltimosnomasi bilan arz qilgan taraflar uni amalga oshirish muddati tugaganidan so'ng sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasa.

«Mediatsiya to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasiga asosan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuvda belgilanadi. Bunda mediator va taraflar mediatsiya tartib-taomili o'ttiz kundan ortiq bo'limgan muddatda tugallanishi uchun barcha mumkin bo'lgan choralarни ko'rishi kerak. Zarur bo'lgan taqdirda, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati taraflarning o'zaro roziligi bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin.

IPKning 101-moddasi 6-bandiga muvofiq sud mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda ish yuritishni to'xtatib turishi shart. Bunday holatda, sud ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risidagi ajrimni qabul qilib, unda keyingi sud majlis kunini belgilaydi. Shu bilan birga, tomonlarning sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasligi da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirilishiga asos bo'ladi;

5³) taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa.

Mediativ kelishuv «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonunning 29-moddasi tartibida taraflar o'rtasida tuziladi va sudga taqdim etiladi. Shu bilan birga, taraflar o'rtasida tuzilgan mediativ kelishuvga asosan sud da'vo arizani ko'rmasdan qoldiradi;

6) da'vegar birinchi sud majlisiga kelmagan va ishni o'zining ishtirokisiz ko'rishi to'g'risida arz qilmagan bo'lsa;

Ishni sud muhokamasiga tayyorlashda sud manfaatdor shaxslarni ish bo'yicha ish yuritish haqida IPK 127-moddasida nazarda tutilgan tartibda xabardor qiladi.

Sud muhokamasining vaqtি va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sudga kelmagan holda, agar sud basharti uning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin emas deb hisoblamasa, ish uning ishtirokisiz qo'rib chiqilishi mumkin.

Agar da'vogar birinchi sud majlisiga kelmagan va ishni o'zining ishtirokisiz ko'riliishi to'g'risida arz qilmagan bo'lsa, u holda IPK 107-moddasining 6-bandiga muvofiq da'vo ko'rmasdan qoldiriladi. Prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar yuridik shaxslar va fuqarolarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida kiritgan arizalari asosida qo'zg'atilgan ish bo'yicha ushbu shaxslarning kelmaganligi IPK 107-moddasining 6-bandiga muvofiq da'voni ko'rmasdan qoldirishga asos bo'lmaydi, agar sud majlisida ishtirok etayotgan manfaati ko'zlangan shaxs da'voni qo'llab-quvvatlayotgan bo'lsa. Bunday ishlar bo'yicha da'vo arizasi bilan murojaat qilgan shaxslar va mansaati ko'zlangan shaxs sud majlisiga kelmagan va ishni o'zining ishtirokisiz ko'riliishi to'g'risida arz qilmagan bo'lsa, bu holda IPK 107-moddasining 6-bandiga muvofiq da'vo arizasi ko'rmasdan qoldiriladi. Bunda shuni inobatga olish lozimki, tegishli tartibda sud muhokamasining vaqt va joyi haqida xabardor qilinmagan shaxsning ishtirokisiz ishning ko'rillishiga yo'l qo'yilmaydi va bu har qanday holda sudning hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo'ladi (IPKnning 279 va 302-moddalari).

7) Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ariza ko'rilib qilayotganda huquq to'g'risida nizo kelib chiqqanligi aniqlansa.

Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi «Birinchi instantsiya sudi tornonidan iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 13-sonli qarorining 12-bandiga ko'ra, IPK 25-moddasi birinchi qismining 2-bandiga muvofiq sudga yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Sudlar inobatga olishlari lozimki, IPK 205-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarning ro'yxati tugal hisoblanmaydi. Shuning uchun bunday faktning ushbu ro'yxatda ko'rsatilmaganligini asos qilib, arizani qabul qilishni rad etishga yoki ish yuritishni tugatishga yo'l qo'yilmaydi.

Sud quyidagi shartlarning yig'indisi mavjud bo'lganda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalarni o'z ish yurituviga qabul qiladi va ko'radi, agar:

qonunga ko'ra fakt huquqiy oqibatlarni, ya'ni tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat sohasida huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishini keltirib chiqarsa;

faktning aniqlanishi keyinchalik iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan huquq to'g'risidagi nizoni hal etish bilan bog'liq bo'lmasa;

arizachi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni olish yoki tiklashning boshqa imkoniyatiga ega bo'lmasa;

amaldagi qonun hujjatlarida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlashning boshqa (suddan tashqari) tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa.

Agar yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlash to'g'risidagi ishni ko'rishda manfaatdor shaxs tomonidan sudga taalluqli huquq to'g'risida nizo borligi ma'lum qilinsa yoki sudning o'zi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktning aniqlanishi huquq to'g'risidagi nizoni hal qilish bilan bog'liqligi to'g'risida xulosaga kelsa, ariza IPK 107-moddasining 7-bandiga asosan ko'rmasdan qoldiriladi.

8) da'vegarning manfaatlarini ko'zlab prokuror, davlat organi va boshqa shaxs tomonidan taqdim etilgan da'vordan da'vegar voz kechgan bo'lsa.

IPKnинг 49-moddasasi sakkizinchи qismida prokuror tomonidan da'vegarning huquqini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan da'vordan, shuningdek, IPKnинг 50-moddasasi uchinchi qismida davlat organi va boshqa shaxs tomonidan da'vegarning huquqlarini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan da'vo arizasidan (arizasidan) da'vegarning (arizachining) voz kechishi da'vo arizasini (arizani) ko'rmasdan qoldirishga olib kelishi nazarda tutilgan.

9) javobgarga nisbatan bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan bo'lsa va javobgarga nisbatan taqdim etilgan talab qonunga ko'ra bankrotlik to'g'risidagi ish doirasida ko'riliishi lozim bo'lsa.

«Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 10-moddasiga ko'ra, iqtisodiy sud qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ish yuritish uchun qabul qilib olgan paytdan e'tiboran kreditorlar qarzdorga o'z talablarini qondirish maqsadida yakka tartibda murojaat etishga haqli emas.

Agar bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilgandan keyin qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza berilgunga qadar paydo bo'lган qarzni undirish haqida kreditordan iqtisodiy sudga da'vo arizasi kelib tushgan bo'lsa, da'vo arizasini qabul qilish IPK 154-moddasi birinchi qismining 1-bandiga muvofiq rad etiladi.

Agar ko'rsatilgan holatlar da'vo arizasi (ariza) ish yurituvga qabul qilingandan keyin aniqlansa, u holda da'vo arizasi IPK 107-moddasining 9-bandiga asosan ko'rmasdan qoldiriladi. Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilganidan keyin da'vogar sudga da'vo arizasi bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

7.6. Ish yuritishni tugatish asoslari

IPKnинг 110-moddasida belgilangan ish yuritishni tugatish uchun asoslar quyidagilardan iborat:

1) ish sudga taalluqli bo'lmasa.

Agar o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari iqtisodiy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lган bir nechta talab birlashtirilib berilgan da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, bundan tashqari, yuridik shaxsnинг alohida bo'linmasi (filiali, vakolatxonasi) O'zbekiston SSP yoxud uning hududiy boshqarmasi a'zosi bo'lган bo'lsa, alohida bo'linma emas, balki uning yuridik shaxsi palata a'zosi hisoblanishidan kelib chiqqan holda SSP yoki uning hududiy boshqarmasi tomonidan kiritiladigan da'vo arizasida da'vogar sifatida yuridik shaxs ko'rsatilishi lozimligi sababli, ushbu talabga rioya qilmasdan berilgan da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, IPK 110-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan ish yuritish tugatiladi (Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydag'i «Birinchi instantsiya sudi tomonidan iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 13-sonli qarori).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-yanvardagi 70-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi to'g'risidagi nizomning 9-bandiga muvoziq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazlari yuridik shaxs hisoblanmaydi.

Tuman (shahar) hokimligi huzuridagi moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav fondlarini shakllantirmagan korxonalarни tugatish bo'yicha maxsus komissiya (bundan buyon matnda maxsus komissiya deb yuritiladi) hokimlikning doimiy ish olib boruvchi, jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatuvchi organi hisoblanadi va u yuridik shaxs maqomiga ega emas. Shu munosabat bilan, sudga korxonani tugatish to'g'risidagi ariza bilan tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazi yoki maxsus komissiya murojaat qilsa, bunday arizani qabul qilish IPK 154-moddasi birinchi qismining 1-bandiga mos holda rad etiladi, agar ariza ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, ish yuritish IPK 110-moddasining 1-bandiga mos holda tugatiladi (Oliy xo'jalik sudi Plenumining «Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav fondlarini shakllantirmagan korxonalarни tugatishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida»gi qarori).

2) fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki chet davlat vakolatli sudining ayni bir shaxstar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa, bundan iqtisodiy sud tomonidan chet davlat sudining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish rad etilgan hollar mustasno.

Ayni bir kreditor va qarzdor hisoblangan shaxslar o'rtasida, ayni shu talab bo'yicha berilgan qonuniy kuchga kirgan sud buyrug'i mavjud bo'lganda ham IPK 110-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan ish yuritishni tugatish uchun asos bo'ladi. (Oliy

sudi Plenumining 2019-yil 24-maydag'i «Birinchi instantsiya sudi tomonidan iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 13-sonli qarori).

3) hakamlik sudining ayni bir shaxslar o'ttasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa, bundan iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy tarzda ijroga qaratish yuzasidan ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mustasno.

O'zbekiston Respublikasi «Hakamlik to'g'risida»gi Qonuning 38-moddasi 2-qismiga asosan hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Qonuniy kuchga kirgan hakamlik sudi hal qiluv qarorining mavjudligi iqtisodiy sudda ayni bir shaxslar o'ttasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizoni ko'rib chiqishni istisno etuvchi holat deb hisoblanadi.

4) ishda taraf hisoblangan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa.

Yuridik shaxsning tugatilish tartibi FKning 55-moddasida keltirib o'tilgan bo'lib, yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritib qo'yilganidan so'ng yuridik shaxsni tugatish tamomlangan, yuridik shaxsning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

5) ishda taraf hisoblangan fuqaroning o'limidan so'ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Yuridik shaxslar qo'shib yuborilganida ulardan har birining huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

Umumiyligida mulk ishtirokchisining o'limi umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqdagi uning ulushini aniqlash va FKning 226-moddasida belgilangan tartibda umumiy mol-mulkni taqsimlash yoxud undan vafot etgan ishtirokchining ulushini ajratish uchun asos bo'ladi. Bu holda meros vafot etgan ishtirokchining ulushiga to'g'ri keladigan umumiy mol-mulkka nisbatan ochiladi, mol-

mulkni natura holida taqsimlashning imkonini bo'limaganida esa – bunday ulushning qiymatiga nisbatan ochiladi.

Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisi umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqdagi o'z ulushini vasiyat qilishga haqlidir, bu ulush uning vazifidan keyin ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

6) da'vegar da'vesida voz kechgan va sud uni qabul qilgan bo'lsa.

IPKning 157-moddasi ikkinchi qismida belgilanganidek, da'vegar ishni har qanday instantsiya sudida ko'rishda tegishli sud instantsiyasida ishni ko'rish yakuni bo'yicha chiqariladigan sud hujjati qabul qilinguniga qadar da'vedan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli.

Sud qonun hujjatlariga zid bo'lgan yoki boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan da'vedan voz kechish haqidagi arizani qabul qilmaydi va bunday hollarda ishni mazmunan ko'radi.

7) kelishuv bitimi tuzilib, u sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa.

IPKning 131-moddasiga ko'ra kelishuv bitimi iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida va sud hujjatini ijro etish jarayonida, mediativ kelishuv esa birinchi instantsiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar taraflar tomonidan tuzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 18-dekabrdagi «Iqtisodiy sudlar tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashda protsessual qonun normalarining qo'llanilishiga oid ayrim masalalar to'g'risida»gi 204-sonli qarorining 15-bandiga asosan sud tomonidan kelishuv bitimining tasdiqlanishi ish yuritishni tugatishga asos bo'ladi.

Shuni inobatga olish lozimki, apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat instantsiyasi sudining kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi qarorining xulosa qismida ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari, ish bo'yicha avval qabul qilingan barcha sud hujjatlarini bekor qilish haqida ko'rsatma bo'lishi kerak.

Sudning ijro bosqichida tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrimining xulosa qismida kelishuv bitimining shartlari va kelishuv bitimini tasdiqlash haqida xulosa bo'lishi kerak.

«Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 61-moddasining uchinchi qismiga ko'ra, sudgacha sanatsiya o'tkazilishiga kreditorlarning roziligi bo'lgan taqdirda, bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritish tugatiladi.

8) da'vegar javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnama yuborish) tartibiga rioxan etmagan bo'lsa, bunda shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki tarafilar shartnomasida nazarda tutilgan va bunday tartibni qo'llash imkoniyati boy berilgan bo'lsa.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 23-oktabrdagi 232-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi temir yo'llari» ustavining 152-bandiga ko'ra temir yo'llarga nisbatan talablar olti oy muddat ichida, jarimalarni to'lash haqidagi talab esa 45 kun ichida berilishi mumkin.

Mazkur Ustavning 153-bandiga ko'ra temir yo'l temir yo'l transportida harakatlanishdan kelib chiqadigan talablar bo'yicha – 3 oy ichida, jarimalarni to'lash haqidagi talablar bo'yicha 45 kun ichida talabni ko'rib chiqish va shikoyat berilgan kundan e'tiboran uni qondirish yoki rad etish to'g'risida da'vegarga ma'lum qilishi shart.

Sudyalar ushbu ustavdan kelib chiqadigan talablar bo'yicha da've arizasi temir yo'llarga nisbatan faqatgina ustavning 153-bandida belgilangan muddatlarda javob olmagan yoki talab qisman qanoatlantirilgan yohud qanoatlantirish rad qilingan hollarda kiritilishi mumkinligini bilishlari lozim.

Da'vegar tomonidan bu tartibni qo'llash imkoniyati boy berilganligi, ya'ni talablar bildirish muddati o'tib ketganligi nizo bo'yicha ish yuritishni tugatishga olib keladi.

9) To'plangan materiallar yo'qotilgan sud ishini yoki ijro ishini yuritishni tiklash uchun yetarli bo'limasa.

IPKning 234-moddasida belgilanganidek, yo'qolgan sud ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi ariza ishni ko'rjan sudga, yo'qolgan ijro ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi ariza esa ijro etish joyidagi sudga beriladi va tegishli sud tomonidan ko'rib chiqiladi, arizada ish to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

Arizachida saqlanib qolgan va ishga daxldor bo'lgan hujjatlar yoki ularning ko'chirma nusxalari, garchi ular belgilangan tartibda tasdiqlanmagan bo'lsa ham, arizaga ilova qilinishi lozim.

Sud yo'qolgan sud ishini yoki ijro ishini yuritishni tiklash to'g'risidagi ishni ko'rishda ishning saqlanib qolgan qismidan, ish yo'qolguniga qadar undan yuridik shaxslar va fuqarolarga olib berilgan hujjatlardan, bu hujjatlarning ko'chirma nusxalaridan, shuningdek, ishga daxldor bo'lgan boshqa hujjatlardan foydalanadi.

To'plangan materiallar yo'qolgan sud ishini yoki ijro ishini yuritishni tiklash uchun yetarli bo'lmasa, sud ish yuritishni ajrim bilan tugatadi.

Bunday holatda arizachi umumiyl tartibda da'vo taqdim etishga haqli.

Yo'qolgan sud ishi bo'yicha sud hujjatini tiklash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uni saqlash muddati bilan chegaralanmaydi. Biroq, yo'qolgan sud ishini ijro etish maqsadida uni tiklash to'g'risida ariza bilan murojaat qilingan taqdirda, ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddati o'tgan bo'lib, ushbu muddat sud tomonidan tiklanmagan holda sud ishni yuritishni tugatishi kerak.

Ish yuritish tugatilgan taqdirda ayni bir shaxslar o'rtaqidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan sudga takroran murojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

7.7. Ishni mazmunan ko'rish

Raislik qiluvchi IPKning 165-moddasida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni ketma-ketlikda amalga oshirib bo'lganidan so'ng dalillarni va ish bo'yicha faktlarni va boshqa holatlarni sud ishi asosida tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniqlashga kirishadi.

Dastlab raislik qiluvchi da'vogar o'z da'vosini qo'llab-quvvatlashini, javobgar da'voni tan olishini yoki taraflarning nizo bo'yicha kelishuv bitimi tuzishi hoxishlari mavjudligini aniqlashi shart.

Raislik qiluvchi da'vogarning da'vodan voz kechishini, javobgarning da'voni tan olishini qabul qilish yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin taraflarga ushbu protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntirishi lozim.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash paytidayoq sudya taraflarni murosaga keltirish choralarini ko'radi, ya'ni taraflarning protsessni kelishuv bitimi bilan tugatish maqsadlari bor yoki yo'qligini aniqlaydi.

Kelishuv bitimi – taraflarning nizoni o'zaro yon bosish asosida tugatish haqidagi kelishuvidir. Uning ahamiyatli tomoni sud jarayoni nizoning ixtiyoriy kelishuv asosida tartibga solinishidadir, ya'ni bu taraflar huquqiy munosabatlarda o'zaro aniqlikka erishganligini bildiradi.

Sud murosaga keltirish choralarini sud majlisining tayyorlov bosqichida ko'radi. Nizoni kelishuv yo'li bilan tartibga solishni tashkil qilib, sud uni davlat majburlovisiz taraflarni o'zaro to'g'ri keladigan shartlar asosida hal etilishini ta'minlaydi.

Kelishuv bitimining shartlari aniq bayon etilishi, uning shartlari, mazmuni yuzasidan keyinchalik tushunmovchiliklar, nizolar kelib chiqmasligi lozim.

IPK kelishuv bitimini yozma ravishda rasmiylashtirishni talab qiladi. Kelishuv bitimi yozma shaklda tuziladi va kelishuv bitimini tuzgan shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi.

Kelishuv bitimida taraflar tomonidan kelishilgan majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatları haqidagi qoidalar ko'rsatilishi kerak.

Taraflar tomonidan kelishuv bitimi shartlari bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishi taraflarni bir-biriga yoki boshqa voqealarga (harakatlarga) bog'liq qilib qo'yishi mumkin emas.

Kelishuv bitimida javobgar tomonidan majburiyatlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib ijro etish to'g'risidagi, talab qilish

huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish haqidagi, qarzdan to'liq yoki qisman voz kechish yoxud qarzni tan olish to'g'risidagi, sud xarajatlarini taqsimlash haqidagi shartlar va qonunga zid bo'lmasan boshqa shartlar ko'rsatilishi mumkin.

Agar kelishuv bitimida sud xarajatlarini taqsimlash haqidagi shart mavjud bo'lmasa, sud bu masalani kelishuv bitimini tasdiqlash chog'ida, IPKda belgilangan umumiy tartibda hal etadi.

Kelishuv bitimi uni tuzgan shaxslar sonidan bitta ortiq nusxada tuziladi va imzolanadi. Ushbu nusxalardan biri ish materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Da'vogarning da'vo arizasidan voz kechish haqidagi og'zaki arizasi javobgar tomonidan da'veoning tan olinishi yoki kelishuv bitimi talablariga roziligi sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi, yozma arizalar esa ish hujjalariiga tikib qo'yiladi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ma'lum qilinadi.

Sud da'vogarning da'vo talabidan voz kechish yoki kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi arizasini ish yurituviga qabul qilib, ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim chiqaradi, mazkur ajrim ustidan shikoyat (protest) keltirilishi mumkin.

Bunday ajrim mavjud bo'lganda da'vogar qayta da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin emas.

Agar da'vadan voz kechish, da'voni tan olish yoki kelishuv bitimi shartlari qonun hujjalariiga zid bo'lsa, uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariiga daxildor bo'lsa, sud da'vogarning da'vadan voz kechish, javobgar tomonidan da'voni tan olinishini qabul qilmaydi va tomonlarning kelishuv bitimini tasdiqlamaydi, sud bu haqda ajrim chiqaradi va ishni mazmunan ko'rish davom etadi.

Sud muhokamasi da'vogar o'z talablarini qo'llab-quvvatlagan, javobgar esa da'vo talablarini tan olmagan, shuningdek, tomonlar nizo bo'yicha kelishuvga erishmagan hollarda davom etadi hamda sud taraflarning tushuntirishlarini tinglashni davom ettiradi.

Sud muhokamasi davomida sud ish bo'yicha dalillarni tekshiradi: ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko'rsatuvlarini, ekspertlarning xulosa-

larini, mutaxassislarning maslahatlarini (tushuntirishlarini) eshitadi, yozma dalillar bilan tanishadi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechiradi, shuningdek, yozma shakida taqdim etilgan tushuntirishlar, ko'rsatuvalar va xulosalarni o'qib eshittiradi.

Raislik qiluvchi majlisni o'tkazish va dalillarni tahlil qilish tartibini belgilab olishi zarur. Qoidagi ko'ra, sud oldin da'vogarning va u tomondagi uchinchi shaxsning, keyin esa javobgarning va u tomondagi uchinchi shaxsning tushuntirishini eshitadi. Ayrim hollarda ishning xususiyati va da'vogarning talabidan kelib chiqib, nizoning holatlari javobgar tomonidan tushuntirilishi mumkin. Har qanday holatda ham taraflarga nizoni hal etish bo'yicha dalillarni taqdim etish uchun teng imkoniyat berilishi kerak. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bir-birlariga savol bilan murojaat qilishga haqlidirlar.

Iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishning oshkoraliq prinsipi sezilarli darajada kengaytirilib, sud ishlarini yuritish ishtirokchilari va sud majlisi zalida hozir bo'lganlarga yozma qaydlar qilish, stenogramma yuritish va ovoz yozib olish huquqi berildi. Sud majlisining fototasviriga, videoyozuvigiga, shuningdek, radio va televideeniye orqali translyatsiya qilinishiga esa ishni ko'rayotgan sudning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan dalillarni ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar oldida, agar IPKda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, sud majlisi boshlanguniga qadar yoki sud belgilagan muddat doirasida ochib berishi lozim.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar faqat ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar oldindan tanishtirilgan dalillarga asoslanishga haqli.

Agar taraf sud tomonidan talab etilayotgan dalilni o'zida ushlab turgan va sud so'rovi bilan belgilangan muddatda uni taqdim etmayotgan bo'lsa, undagi ma'lumotlar shu taraf manfaatlariga qarshi qaratilgan deb taxmin qilinadi va u tomonidan tan olingan deb hisoblanadi.

Sud ishni muhokama qilishda ish bo'yicha barcha dalillarni bevosita tekshirishi shart.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish uchun ahamiyatli bo'lgan o'zlariga ma'lum holatlar to'g'risidagi tushuntirishlari tekshirilishi va boshqa dalillar bilan birga baholanishi lozim. Ishda ishtirok etuvchi shaxs suđning takliliغا ko'ra o'z tushuntirishlarini yozma shakida bayon qilishi mumkin (IPK 89-modda).

Boshqa shaxs o'z talablarini yoki e'tirozlarini asoslayotgan faktlarning ishda ishtirok etuvchi shaxs tomonidan tan olinishi sud uchun majburiy emas.

Agar faktni tan olish ishning holatlariga muvofiq ekanligiga va aldash, zo'rlik ishlatalish, qo'rqtish, chalg'itish ta'sirida yoki haqiqatni yashirish maqsadida qilinmaganligiga sudda shubha tug'ilmasa, u tan olingan faktni aniqlangan deb hisoblashi mumkin.

Raislik qiluvchi taraflar va uchinchi shaxslar tushuntirishlarining haqiqiyligini tekshirishi jarayonida bu tushuntirishlar ishdagi mavjud dalillar bilan tasdiqlanishini, zarur hollarda esa o'z tashabbusiga ko'ra dalillarni yig'ish borasida faoliik ko'rsatishi kerak.

Taraflar tushuntirishlarining turlaridan biri tan olish hisoblanadi. Tan olish – bu boshqa taraf isbotlashi lozim bo'lgan fakt mavjudligini tasdiqlovchi bayonotdir.

Tan olish sud majlisida ishni ko'rish vaqtida yoki sudga yozma ravishda yuborilgan ariza orqali qilinishi mumkin. Ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan dalillarni ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar oldida, agar IPKda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, sud majlisiga boshlanguniga qadar yoki sud belgilagan muddat doirasida ochib berishi lozim. Taraflar tomonidan suddan tashqarida faktlarni tan olish dalil hisoblanmaydi. Bir taraf tomonidan bir yoki bir necha faktlar yig'indisi tan olinishi agar sud tomonidan qabul qilinsa, bu ikkinchi tarafni mazkur faktlarni haqiqiyligini isbotlash majburiyatidan ozod qiladi. Tan olish sud uchun majburiy emas. Zarur hollarda ishning tan olingan holatlarini haqiqiyligini sud tekshirishi mumkin. Masalan, javobgarni mol-mulkni xatlashdan chiqarish to'g'risidagi da'veni tan olish hollarini sud sinchiklab

tekshirishi zarur. Qonun bo'yicha nizoni guvohlar ko'rsatuviga bilan aniqlash mumkin bo'lмаган hollarda, taraflar tomonidan faktlarni tan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy yozma shaklda tuziladigan shartnomaning tuzilganlik faktini bir taraf tomonidan tan olinishi ikkinchi tarafni bu faktlarni tasdiqlash uchun yozma dalillarni taqdim etishdan ozod qiladi. Bunday hollarda shartnomani tuzilganligi fakti, agar uni tan olishning to'g'riliği sudda gumonsirash uchun shubha tug'dirmasa nizosiz bo'lib qoladi, ya'ni bu bir taraf bayonotini ikkinchi taraf tan olganligini bildiradi.

Sud dalillarga ishning barcha holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda har tomonlama, to'liq va xolis ko'trib chiqishga asoslangan o'z ichki ishonchi bo'yicha baho beradi.

Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan, dalillarning yig'indisi esa, yetarliliqi nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

Agar tekshirish natijasida dalilning haqiqatga to'g'ri kelishi aniqlansa, u ishonchli deb tan olinadi.

Hech qanday dalil sud uchun oldindan belgilab qo'yilgan kuchga ega emas.

Sud hujjatning yoki boshqa yozma dalilning faqat ko'chirma nusxasi bilan tasdiqlanadigan holatlarni, agar hujjatning asl nusxasi yo'qotilgan va sudga topshirilmagan bo'lsa, va ushbu hujjatning nizolashayotgan taraflarning har biri tomonidan taqdim etilgan ko'chirma nusxalarini o'zaro bir xil bo'limasa, va hujjatning asl mazmunini boshqa dalillar yordamida aniqlab bo'limasa, isbot qilingan deb hisoblashi mumkin emas.

Ishlarga aloqador har bir shaxsning tushuntirishlarini eshitgandan keyin savollar beriladi.

Savollar berish tartibi va ularning mazmuni raislik qiluvchi tomonidan nazorat qilinadi.

Raislik qiluvchi ko'rib chiqilayotgan nizodan tashqari va yo'naltiruvchi xarakterdagi savollarni olib tashlashi lozim.

Raislik etuvchi tomonidan olib tashlangan savollar, savol bergen shaxsning iltimosiga ko'ra sud majlisi bayonnomasiga kiritirilishi kerak.

Ishda ishtirok etayotgan shaxslarning tushuntirishlari eshitib bo'linganidan so'ng, sud ishning holati va dalillarni tekshirishni davom ettiradi.

Ishda mavjud bo'lgan boshqa dalillar (guvohlarning ko'rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillar, ekspert xulosalari), shuningdek, ishning boshqa holatlarini tekshirish tartibi sud tomonidan ishda ishtirok etayotgan shaxslarning ushbu masalada fikrlarini inobatga olgan holda belgilanadi.

Ishni mazmunan ko'rish, ya'nii sud muhokamasining ish holatlarini tekshirishi kechadigan vaqtida jarayonning borishiga kerakli yo'nalish beradigan alohida tartib IPK 168-moddasida iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishining bevositalik prinsipi orqali mustahkamlangan.

Ushbu moddaning birinchi qismida bevositalik prinsipining mazmuni ochib beriladi. U sudya tomonidan daliliy axborotlarni qabul qilinishi ish uchun ahamiyatlari bo'lgan faktlar mavjudligi (yo'qligi) to'g'risida haqiqatga mos keladigan xulosalar chiqarishning ishonchli kafolati bo'lib, nizo bo'yicha qonuniy va asosli qaror chiqarilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy sud dalillarni tekshirish va baho berishni ishda ishtirok etuvchi taraflar va boshqa shaxslarning faol ishtirokida amalga oshiradi.

Dalillar turidan kelib chiqqan holda har xil usullar orqali tekshiriladi. Ularni tekshirish tartibi iqtisodiy sud tomonidan belgilanadi. Iqtisodiy sud qonunga asoslangan holda ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolis tekshirib, ichki ishonchiga ko'ra barcha dalillarga baho beradi. Iqtisodiy sud uchun hech bir dalil oldindan o'rnatilgan kuchga ega bo'la olmaydi.

Iqtisodiy sudda har bir ish protsess normal tarzda o'tganda, qoidaga asosan ishdagi barcha hujjatlar ko'rilmaganidan so'ng tezda hal qiluv qarori qabul qilish bilan nihoyasiga yetadi. Hal qiluv qarori ishning barcha holatlari aniqlashtirilgan va ko'rilib yechimini topgan deb tan olingandan so'ng qabul qilinadi.

Sudya guvohni ishda ishtirok etuvchi shaxsning iltimosnomasi bo'yicha sud majlisida ko'rsatuvlar berish uchun chaqirtirishi mumkin.

Guvohni chaqirish haqida iltimos qiluvchi shaxs ish uchun ahamiyatga molik qaysi holatlarni guvoh tasdiqlashi mumkinligini ko'rsatishi va uning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyini sudga ma'lum qilishi shart. Guvoh ish bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar va holatlarni sudga og'zaki xabar qiladi. Guvoh sudning taklifiga ko'ra o'z ko'rsatuvarlarini yozma shaklda bayon qilishi mumkin.

Sudya, agar guvoh o'zi bilgan ma'lumotlarning manbaini ko'rsatib bera olmasa, u xabar qilgan ma'lumotlar dalil hisoblanmasligini bilishi zarur.

Har bir guvoh alohida-alohida so'roq qilinadi, hali ko'rsatma bermagan guvoh sud muhokamasi paytida zalda o'tirishi mumkin emas.

O'z ko'rsatuvarlarini bergen va savollarga javob berib bo'lgan guvoh sud zalida muhokama jarayonida o'tirishi mumkin.

So'roq boshlanishidan oldin, raislik qiluvchi guvohning ishda ishtirok etayotgan shaxslarga nisbatan bo'lgan munosabatini aniqlaydi va guvohga holat bo'yicha shaxsan o'zi biladigan hamma narsani sudga ma'lum qilishni taklif qiladi. Guvoh ishning holati haqida erkin hikoya shaklida ma'lumot beradi, undan keyin unga savollar berilishi mumkin.

Guvoh birinchi uni chaqirtirgan shaxs va uning vakili, keyin ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar va ularning vakillari savollariga javob beradi. Sudya har qanday so'roq paytida guvohga savollar berishi, lozim bo'lgan hollarda sudyu guvohni ikkinchi marotaba sudga chaqirib savol berishi mumkin.

Faqat harflar yordamida qog'ozdagina bajarilgan hujjatlarga emas, umuman ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi harflar bilan yozma shaklda yozilgan ma'lumotlarni o'zida ifoda etgan predmetlar ham yozma dalil bo'lib hisoblanadi.

Yozma dalillar faktlarni ma'naviy mazmunini tasdiqlaydi. Yozma dalillar shu tomonlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zining tashqi ko'rinishi, ichki xossalari va mazmuni, turgan joyi yoki boshqa belgilari bilan ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash vositasi bo'lib xizmat qila oladigan ashyoviy dalillardan farq qiladi.

Yozma dalillarga ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlар to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan hujjatlar, xizmatga daxldor yoki shaxsiy xarakterdagi va boshqa xildagi turli hujjatlar, guvohnoma, attestat, diplomlar, ma'lumotnomalar, shartnoma matnlari, tilxatlar, chizmalar, kartalar va boshqalar kiradi.

Yozma dalillar fuqarolik sud ishlarini yuritishda muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan iqtisodiy ish bo'yicha sud ishlarini yuritishda ham FKda bir qator bitimlar uchun ular yozma shaklda rasmiylashtirishini majburiyligi belgilab qo'yilgan.

Qonun bo'yicha ma'lum faktlarni tasdiqlaydigan hujjatlar talab qilinadigan bo'lsa, u holda bunday faktlarni guvohlarning ko'rsatuvlari bilan tasdiqlashga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar moddiy-huquqiy munosabatlarini qat'iyligini ta'minlash va shartnoma shartlarini aniq qayd qilish maqsadida uni ko'pincha majburiy tartibda yozma ravishda rasmiylashtiradilar. Bunday hujjatlarni mavjudligi va ulardan dalil sifatida foydalanish nizolarni to'g'ri hal qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Hujjatlar o'zining asli va ko'chirma nusxalari bilan ham farqlanadi. Iqtisodiy ishni ko'rib hal qilishda, qoida bo'yicha, hujjatni aslini taqdim etish talab qilinadi, agar uni olish imkoniyati bo'lmasa, hujjatni nusxasi bilan kifoyalanadi. Hujjatni nusxasi sud majlisida tekshirilayotganda nusxa olish qoidalariiga rioya qilinganligi va asli bilan nusxasini shakli va mazmunini bir xildaligini tekshirish lozim.

Yozma dalillarga baho berishda hujjatni faktik ma'lumotlarning manbasi sifatida uning qanchalik sifatlari ekanligi tekshiriladi va hujjatni mazmuni baholanadi, ya'ni ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni tasdiqlashda ulardan qaysi birlarida ifodalangan ma'lumotlar va bu ma'lumotlarning qanchalik haqiqiyligi to'g'risida xulosa chiqariladi.

IPKning 75-moddasi yozma dalillarni taqdim etuvchiga yoki uni jalb qilib olishni tavsiya qilgan shaxsga, ushbu dalil bilan ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlardan qaysi birlari belgilanishi mumkinligini isbotlab berish majburiyatini yuklaydi. Ushbu talabni amalga oshirish sud tomonidan dalillarning daxldorligi va

uni ishga qo'shib qo'yishni qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi masalasini to'g'ri hal qilish uchun imkoniyat yaratadi.

IPKnинг 80-moddasiga asosan ishni ko'rish vaqtida yuzaga keladigan, fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarni tushuntirib berish uchun sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra yoki roziligi bilan ekspertiza tayinlaydi.

Yodda tuting!

Huquqqa oid bo'lgan masalalardan tashqari har qanday fan, texnika, hunar va san'at sohalariga tegishli bo'lgan masalalarni tushuntirib berish uchun ekspert tayinlanishi mumkin. Huquqqa oid masalalar bo'yicha ekspertiza tayinlanmaydi, chunki bu vakolat faqat sudga berilgan.

Agar ekspertizani tayinlash qonunda belgilab qo'yilgan yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud taqdim etilgan dalilning qalbakilashtirilganligi to'g'risidagi arizani tekshirish yoxud qo'shimcha ekspertiza tayinlash zarur bo'lsa, sud ekspertizani o'z tashabbusi bilan tayinlashi mumkin.

Ekspertiza o'tkazilishi zarur bo'lgan masalalar doirasi va mazmuni sud tomonidan belgilanadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudga ekspertiza o'tkazish vaqtida tushuntirib berilishi lozim bo'lgan masalalarni taqdim etishga haqli. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar taqdim etgan masalalar rad qilinganligini asoslab berishi shart.

Agar sudni qiziqtirgan savollarni ekspertning hal qila olmasligi oldindan ma'lum bo'lsa, ekspertiza tayinlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Qachonki ish holatlari boshqa dalillar yordamida aniqlanishi mumkin bo'lsa, «har ehtimolga qarshi» tariqasida ekspertiza tayinlash uchun zaruriyat yo'q.

Maxsus bilimlar orqali tushuntirilishi lozim bo'lgan savollarni tushuntirish uchun sud tarkibida ushbu bilimga ega shaxs bo'lgan taqdirda ham, sud ekspertiza tayinlaydi. Bu shaxslar bevosita tekshirish ishlarini amalga oshirishga haqli emaslar, chunki ekspert va sudyaning vakolati har xil, bularni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

IPKning 87-moddasida belgilanganidek, mutaxassis maslahatni (tushuntirishni) sudga og'zaki yoki yozma shaklda beradi. Mutaxassisning yozma shaklda berilgan maslahati sud majlisida o'qib eshittiriladi, tekshiriladi va ishga qo'shib qo'yiladi. Og'zaki maslahat bevosita sud majlisining (protsessual harakating) bayonnomasiga kiritiladi. Mutaxassisning maslahatini oydinlashtirish va to'ldirish maqsadida savollar berilishi mumkin.

Shuningdek, IPKda qanday ashyolar ashyoviy dalillar bo'lishi mumkinligi haqida tushuntirish berilgan, ya'ni o'zining tashqi ko'rinishi, ichki xossalari va mazmuni, turgan joyi yoki boshqa belgilari bilan ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash vositasi bo'lib xizmat qila oladigan ashyolar ashyoviy dalillardir.

IPKning 78-modda qoidasi shunday tartibni o'rnataladi, bunga riosa qilishlik, ashyoviy dalillar bo'lgan predmetlarni o'zgartirilmaydigan holatda saqlash va ularni sud majlisida tekshirish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunday predmetlarni saqlash tartibi masalasini ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda sud hal qiladi. Ashyoviy dalil ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlar ishda saqlanadi.

Turli xildagi mayda narsalar ish bilan birga paket yoki konvertlarda saqlanishi mumkin. Kattaroq bo'lgan ashyolar, tuzilgan ro'yxat bo'yicha sudning ashyoviy dalillarni saqlash xonasiga topshiriladi.

Nizoli ashyoning o'zi ashyoviy dalil bo'lib qolsa, bunday holda uni saqlash mulkka arest solish (ro'yxatga olish) chorasi qo'llash yo'li bilan da'veni ta'minlash uchun imkoniyat yaratadi.

Sudga olib kelish mumkin bo'lmagan predmetlar, ular qayerda joylashgan bo'lsa o'sha joyda saqlanadi. Bu ashyolar batafsil tavsiflanib yozilib olingan bo'lishi, zarur bo'lib qolgan holatda esa, fotosuratga olinishi, muhrlanib saqlash uchun topshirilishi kerak. Dalil hisoblanadigan ish uchun ahamiyatli bo'lgan ashyoning belgisi yoki xususiyati joyni ko'zdan kechirish to'g'risidagi bayonnomada qayd etiladi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ashyoviy dalillar kirndan olingan bo'lsa, o'sha shaxslarga qaytarib

beriladi yoki sud shu ashyolarga kimning huquqi bor deb topgan bo'lsa, o'sha shaxslarga beriladi yoxud sud belgilaydigan boshqa tartibda realizatsiya qilinadi.

Ayrim hollarda sud ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirib va tekshirib chiqqanidan keyin, agar ashyoviy dalillarni taqdim etgan shaxslar ularni qaytarib berishni iltimos qilgan bo'lsa va bunday iltimosnomaning qanoatlantirilishi nizoning to'g'ri hal etilishiga zarar keltirmasa, ular kimdan olingan bo'lsa, o'sha shaxslarga ishni yuritish jarayonida qaytarib berilishi mumkin.

Sud ashyoviy dalillarni qaytarish masalalarini ajrim chiqarib hal etadi.

Ekspert yoki ekspertlar komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishinchcha ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

Xulosada: ekspertiza o'tkazilgan sana va joy; ekspertizani o'tkazish asosi; ekspertizani tayinlagan suda to'g'risidagi ma'lumotlar; ekspert to'g'risidagi (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va ekspertizani o'tkazish topshirilgan tashkilot haqidagi ma'lumotlar; ekspertning bila turib noto'g'ri xulosa bergenlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi; ekspertning oldiga qo'yilgan masalalar; ekspertga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari; ekspertiza o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar; tekshirishlarning qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holdagi mazmuni va natijalari, shuningdek, bu tekshirishlar, agar ekspertlar komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi; tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar; ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va ekspertning tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Ekspertning xulosasida olib borilgan tekshirishni barcha jarayonlari va qo'yilgan savollarga ilmiy jihatdan asoslatirilgan javoblar batafsil bayon qilinadi. Ekspertning maxsus bilimi yordamida aniqlangan faktik ma'lumotlar ish bo'yicha dalil bo'lib

xizmat qiladi. IPKning 86-moddasida belgilangan qoida xulosa tuzishga tegishli bo'lgan umumiyl talablarni aniqlab beradi, ya'ni tekshirish jarayonini keng qamrovli qilib ifodalab berish, ekspertning xulosalarining asoslantirilgan bo'lishi, savollarda ko'rsatilmagan holatlar bo'yicha xulosalarga yo'l qo'yilishi va boshqalar.

Ekspert xulosasi bo'yicha tushuntirish va qo'shimcha qilish maqsadida sud majlisiga ekspert chaqirtirilishi va savollar bergan holda xulosalarga aniqlik kiritish mumkin bo'ladi.

IPKning 82-moddasida nazarda tutilgan hollarda qo'shimcha va takroriy ekspertizalar tayinlanishi mumkin.

Qo'shimcha ekspertiza ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasidagi bo'shlqlarni to'ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa ekspert (ekspertlar komissiyasi) tomonidan o'tkaziladi.

Ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasi asoslanmagan bo'lsa yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki ekspertizani o'tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda takroriy ekspertiza tayinlanadi.

Takroriy ekspertizani tayinlash to'g'risidagi ajrimda takroriy ekspertizani tayinlangan sudning birinchi (oldingi) ekspertiza xulosasiga rozi emasligi sabablari ko'rsatilishi lozim.

Shuningdek, takroriy ekspertiza tayinlanganda ekspert (ekspertlar komissiyasi) oldiga ilgari qo'llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risidagi masala qo'yilishi mumkin.

Takroriy ekspertizani o'tkazish boshqa ekspertga (ekspertlar komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) ekspertizani o'tkazgan ekspert (ekspertlar komissiyasi) takroriy ekspertizani o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirishda va xulosa tuzishda ištirok etmaydi.

Zarur dalillarni taqdim etish mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyinlashadi deb hisoblash uchun assosi bo'lgan shaxslar ishni o'z yuritishiga qabul qilgan suddan ushbu dalillarni ta'minlash to'g'risida iltimosnomasi bilan murojaat qilishi mumkin.

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi arizada ta'minlanishi zarur bo'lgan dalillar, tasdiqlanishi uchun ushbu dalillar zarur bo'lgan holatlar, dalillarni ta'minlash to'g'risida arizachini iltimosnomasi bilan murojaat qilishga undagan sabablar ko'rsatilishi kerak.

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi masala IPKning 96-mod-dasida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

Nizo mazmunan ko'rib bo'lingandan keyin (barcha dalillar va boshqa holatlar tekshirilgandan so'ng) raislik qiluvchi ishda ishtirok etayotgan shaxslarga va vakillarga ish materiallarini to'ldirish mumkinligi, ariza va iltimosnomalar bor yo'qligi haqida murojaat qiladi. Ariza va iltimosnomalar bo'lmasa, tekshirish tugaganligini e'lon qiladi.

Muzokara. Ish bo'yicha taraflar tomonidan taqdim etilgan barcha dalillar tekshirilganidan so'ng, raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslardan ularda ish bo'yicha qo'shimcha materiallar bor yoki yo'qligini aniqlaydi. Bunday materiallar mavjud bo'lмаган taqdirda, sud muzokaralariga o'tiladi.

Sud muzokaralarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning og'zaki chiqishlaridan iborat bo'ladi. Muzokaralarda ular ish bo'yicha o'z nuqtai nazarini asoslaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishni qaysi holatlari aniqlangani va qanday dalillarga asoslanganligi, qanday dalillar ishonchli ekanligi, qanday holatlar dalil bilan tasdiqlanmasligi, qaysi qonun qo'llanilishi kerakligi, bahsli munosabatlarning mazmuni va ishni qanday hal qilish kerakligi haqida o'z fikrlarini bildiradilar.

Agar taraf manfaatida prokuror, davlat organi yoki boshqa shaxslar murojaat qilgan bo'lsa, suda muzokaradagi dastlabki so'zni ish bo'yicha da'vogarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan prokuror yoki davlat organining vakiliga beradi. Da'vo arizasi da'vogar tomonidan kiritilgan taqdirda dastlab so'zga da'vogar, mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs (agar ishtirok etayotgan bo'lsa), so'ngra javobgar sud muzokarasida fikrlarini bayon etadi. Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs ishda qaysi da'vogarning yoki javobgarning tarafida ishtirok

etayotgan bo'lsa, shu da vogardan yoki javobgardan keyin so'zga chiqadi.

Sud muzokarasida ishtirokchilar sud tomonidan aniqlanmagan holatlarga va sud majlisida tekshirilmagan yoki sud tomonidan yo'l qo'yib bo'lmaydigan deb tan olingan dalillarga tayanishi mumkin emas.

Sud muhokamasining barcha ishtirokchilari o'z nutqlarini yakunlaganidan so'ng, boshqa shaxslarning chiqishlaridan keyin yana bir marotaba ular tomonidan aytilgan so'zlar bilan bog'liq chiqishlar qilishlari mumkin.

Sud majlisida prokuror fikri muzokarada barcha taraflar eshitib bo'linganidan keyin tinglanadi (boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan prokuror bundan mustasno).

Sudyalar tomonidan muzokarada fikrlar tinglab bo'linganidan keyin vujudga kelgan qo'shimcha holat va dalillarni tekshirish kerak deb hisoblansa, sud muhokamasida dalillarni tekshirish tiklanishi hamda bu holat bayonnomada aks ettirilishi lozim. Qo'shimcha dalillar tekshirilganidan so'ng yana muzokaralar o'tkaziladi.

Sudya dalillarni tekshirib bo'lganidan va muzokaralar tugaganidan keyin alohida xonaga, ya'ni maslahatxonaga kiradi. Sud maslahatdan chiqib qabul qilingan sud hujjatini e'lon qiladi.

Sudning hal qiluv qarorini majlis zalida hozir bo'lganlarning barchasi tik turib eshitishi lozim.

Sudning hal qiluv qarori (hal etiladigan masalalar va mazmuni)

Birinchi instansiya sudida ishni mazmunan ko'rish natijalari bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilinadi.

Sud hujjatlari

- Hal qiluv qarori,**
- ajrim,**
- qaror,**



— **sud buyrug'i** shaklida bo'lib, ajrimning hal qiluv qaroridan farqi ish mazmunan hal etilmasdan qabul qilinadigan sud hujjatlari — ajrimlar shaklida chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi «Iqtisodiy sudning hal qiluv qarori to'g'risida»gi 161-sonli qarori (keyingi o'rinnlarda 161-sonli Plenum qarori deb yuritiladi)ning 2-bandida belgilanganidek, qaror protsessual huquq normalariga aniq rivoja etilgan va nizoli huquqiy munosabatga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan moddiy huquq normalariga to'liq mos holda qabul qilingan taqdirda qonuniy hisoblanadi. Agar qonunosti normativ hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan ayrim qoidalarning qonunga zidligi aniqlansa, sud qaror chiqarishda qonunga asoslanadi.

Nizoli munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari bo'lмаган тақдирда, суд IPK 13-моддасининг учинчи қисмига мувоғиқ шунга о'xhash муносабатларни тартига соладиган huquq normalarini tatbiq etadi, bordi-yu, bunday normalar ham bo'lmasa, nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmuniga tayanib hal etadi.

Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi.

Sudning hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

161-sonli Plenum qarorining 5-bandida belgilanganidek, sud qarorni bayon etishda IPKning 179-moddasida ko'rsatilgan ketma-ketlikka (kirish, bayon qilish, asoslantiruvchi va xulosa qismlarining mavjudligiga, ularning mazmuniga) rivoja qilishi kerak.

Keyinchalik qarorni ijro etishda noaniqliklar va nizolar bo'lmasligi uchun sud qarorida uning kirish, bayon qilish, asoslantiruvchi va xulosa qismlarini aniq ifodalashi lozim.

Qarorning kirish qismida qarorni qabul qilgan sudning nomi, sud tarkibi, ishning tartib raqami, sud muhokamasi sanasi va joyi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi, nizo predmeti, sud majlisida qatnashayotgan shaxslarning vakolatlari ko'rsatilgan holda familiyalari, shuningdek ishning yopiq yoki

ochiq, sayyor sud majlisida ko'rib chiqilganligi ko'rsatiladi. Nizo yuridik shaxslar ishtirokida ko'rulganda, ularning nomlanishi qisqartirilmasdan, to'liq ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qilish qismi da'vo arizaning (arizaning) qisqa mazmuni, da'vogar tomonidan qo'yilgan talab va bunday talabni qo'yish uchun asos bo'lgan holat, da'vo talabini asoslash maqsadida keltirilgan qonun hujjatlari, javobgar yoki uchinchi shaxslarning da'vo talabi bo'yicha e'tirozlar, asoslovchi hujjatlar, tarallarning ariza va iltimos-nomalari, nizo yuzasidan tushuntirishlari, sud tomonidan o'tkazilgan harakatlar tavsifini o'z ichiga olishi lozim. Da'voni bayon qilishda kim va nima talab qilgani aniq bo'lishi kerak. Shuning uchun, avval qisqacha da'vo predmeti va asosi bayon qilinadi. Agarda, da'vogar sud majlisi jarayonida da'vo asosi va predmeti miqdorini ko'paytirgan yoki kamaytirgan bo'lsa, bu haqda qarorning bayon qismida qayd etilishi lozim. Shundan so'ng sud javobgar holati ya'ni, u da'voni tan olganligi yoki uni rad etganligi bayon etiladi. Tarallar tomonidan keltirilgan ularning talab yoki vajlarini tasdiqlovchi holatlar javobgar va da'vogar tomonidan qay holatda bayon etilgan bo'lsa, shu holatda aks etgiriladi.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvechi qismida esa, ishning sud tomonidan aniqlangan haqiqiy holatlari, sudning ish holatlari to'g'risidagi xulosalariga asos bo'lgan dalillar, sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligining, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vajlarini qabul qilganligining yoki rad etganligining asoslari, hal qiluv qarorini qabul qilishda sud amal qilgan qonun hujjatlari hamda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar asos qilib keltirgan qonun hujjatlarini qo'llamaganligining asoslari, shuningdek sud hal qiluv qarorini qabul qilishda tayangan qonun hujjatlari ko'rsatilishi lozim.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvechi qismida iqtisodiy sud ish bo'yicha o'zining xulosasini aniq va asoslantirilgan holda ko'rsatishi lozim. Sud tomonidan qarorni aniq asoslab berilishi da'vo asosining faktlari to'g'risidagi mulohazalari bilan aniqланади, шу билан бирга қарши да'во ва низо predmetiga

o'zining mustaqil talablari bo'lgan uchinchi taraflning da'vosi, shuningdek, da'voga bildirilgan e'tirozlar asosidagi faktlar yuzasidan mulohazalar hamda shu ish bo'yicha iqtisodiy sud tomonidan ahamiyatli deb topilgan faktlar bilan aniqlanadi. Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida sud, ish uchun ahamiyatli holatidan qaysi biri isbotlanganligini va qaysi biri isbotlanmaganligini ko'rsatishi shart. Sud ishning har bir fakti yuzasidan o'z munosabatini bildirishi lozim. Ushbu nizodagi faktlarga moddiy huquq normalarini qo'llash lozim. Agarda barcha yuridik faktlar yuzasidan qo'llaniladigan moddiy huquq normalari haqida mulohaza yuritilgan bo'lsa, faktik jihatdan hal qiluv qarori to'liq asoslangan hisoblanadi. Shunga erishish uchun taraflar tomonidan bayon etilgan ish holatlari da'voni qanoatlantirish (rad etish) uchun qo'llaniladigan moddiy huquq normalarini faktik tarkibi bilan solishtirib ko'rish lozim. Solishtirish natijasida iqtisodiy sud, bir tomonidan, ishga taalluqli bo'lmagan holatlarni isbotlash predmetidan chiqarib tashlasa; boshqa tomonidan, agar taraflar ishni to'g'ri hal qilish uchun hamma faktlarni inobatga olmagan bo'lsa, sud o'z tashabbusi bilan isbotlash predmetini yetishmaydigan faktlar bilan to'ldirish va ularning mavjud yoki mavjud emasligi haqida mulohazalar yuritishi lozim.

Sud hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida ham ish holatlarini tahlil qilib baho berishga majbur. Sud ularning qaysi biri ishonchli va qaysi biri ishonchsizligini ko'rsatishi hamda o'zining mulohazalarini tasdiqlash uchun ishonarli vaj keltirishi lozim. Mazkur qismda sud qarorni shu holatda qo'llagan moddiy huquq normalari bilan, shuningdek u amal qilgan protsessual huquq normalari bilan asoslantirishi lozim. Shu bilan bir qatorda, hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga havolalar ko'rsatilishi mumkin.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida bildirilgan talablardan har birini to'liq yoki qisman qanoatlantirish haqidagi yoki qanoatlantirishni rad etish to'g'risidagi, da'voni bir qismini qanoatlantirish va bir qismini rad etish, da'vo talablarini bir

qismini qanoatlantirish va boshqa qismi bo'yicha ish yuritishni tugatish yoki ishni q'rimasdan qoldirish haqida xulosalar qilinadi.

Agar ishda bir nechta da'vogar va javobgar ishtirok etsa, nizo ularning har biriga nisbatan qanday hal etilganligi bayon etiladi. Birinchi va qarshi da'vo to'la yoki qisman qanoatlantirilganda qarorni xulosa qismida ayirishdan so'ng qolgan summa yoziladi. Sud qarorining xuddi shu qismida ishda ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida sud xaratjatlarini taqsimlaydi.

Agar hal qiluv qarorini ijob etish tartibini sud belgilagan yoki uning ijrosini ta'minlash choralarini ko'rigan bo'lsa, bu haqda hal qiluv qarorining xulosa qismida ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida sud xaratjatlarini ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasida taqsimlash, hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) muddati va tartibi ko'rsatiladi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy va asoslantirilgan bo'lishi kerak. U sud majlisida tekshirilgan dalillargagina asoslangan bo'lishi mumkin. Muqobil, shuningdek, shart bilan qaror qabul qilishga, qarorni taraflar tomonidan kelgusida qandaydir harakatlarni bajarish, qandaydir holatning yuz berishi yoki yuz bermasligiga bog'liq holda qabul qilishga IPKda nazarda tutilgan holatlardan tashqari yo'l qo'yilmaydi.

Bir necha javobgarlarga nisbatan qaror qabul qilishda qarorning xulosa qismida ularning har birining javobgarlik darajasi ko'rsatilgan yoxud ularning solidar javobgarligiga ko'rsatma aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Dastlabki da'voni va qarshi da'voni to'liq yoki qisman qanoatlantirgan qarorning xulosa qismida da'volarni o'zaro hisobga olish natijasida undirilishi lozim bo'lgan summa ko'rsatiladi.

Masalan: Da'vogar dastlabki da'vo arizasida javobgardan 15 000 000 so'm asosiy qarzni undirishni so'rangan, javobgar qarshi da'vo arizasida da'vogardan 3 000 000 so'm zarar undirishni so'rangan. Hal qiluv qarorida dastlabki da'vo arizasi qisman 10 000 000 so'mga, qarshi da'vo arizasi qisman 1 500 000 so'mga qanoatlantirilgan, shu o'rinda sud o'zaro hisob-kitob

qilish natajasida javobgardan da'vogar foydasiga 8 500 000 so'm undirilsin deb ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birlgilikda sud ishga jalg qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatları haqidagi masalani hal etishga haqli emas.

Pul mablag'larini undirish haqidagi qarorning xulosa qismi va uning asosida berilgan ijro varaqasi asosiy qarz, zararlar va neustoyka (jarima, penya) ajratilib aniqlangan holda undirilishi lozim bo'lgan mablag'ning umumiy miqdori va valyuta turini o'z ichiga olishi kerak.

Mulkni talab qilib olish, mulkka nisbatan mulkiy huquqni tan olish to'g'risidagi qarorlarning xulosa qismida sud mulkning nomini, uning bahosini, joylashgan joyini, zarur hollarda esa nizoning xarakteridan kelib chiqqan holda boshqa ajratuvchi belgilarini ko'rsatishi kerak.

Ijro hujjatini yoki undirish so'zsiz tartibda amalgalashiriladigan boshqa hujjatni ijro etilishi mumkin emas deb topish to'g'risidagi qarorning xulosa qismida IPKning 182-moddasida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari, ushbu hujjatni bergen organ ham ko'rsatilishi kerak.

Bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror qabul qilinganda sud o'z tashiabbusi bilan uning haqiqiy emasligi oqibatlarini, bu haqda qarorda ko'rsatgan holda, qo'llashga haqli.

161-sonli Plenum qarorining 11-bandida bayon etilganidek, sud tomonidan qabul qilingan qaror suda tomonidan yozma ravishda bayon qillinishi hamda qo'lda yozilishi yoki mashinkada, kompyuterda yoxud boshqa elektron uskunada terilgan bo'lishi mumkinligi inobatga olinishi lozim. Qaror suda tomonidan imzolanadi va mazkur majlisda ishtirok etuvchi shaxslarga e'lon qilinadi. Ushbu tartibga rioya qilish qarorning faqat xulosa qismi e'lon qilingan holatda ham majburiydir. Ayni vaqtida raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslar asoslantirilgan qaror bilan qachon tanishishlari mumkinligini e'lon qiladi. Hal qiluv qarori qonun hujjatlarida yozma shaklda tuzilishi belgilangan bo'lib, og'zaki e'lon qilingan xulosa yoki yozma shaklda tuzilgan bo'lib, sudyaning imzosi mavjud bo'lмаган xulosa qaror hisoblanmaydi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va iqtisodiy sudlov ish yurituvchi boshqa ishtirokchilarining tushuntirishlari qarorda uchinchi shaxs nomidan keltiriladi.

Qarorning qabul qilingan sanasi u sud majlisida e'lon qilingan kun hisoblanadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar dalillar taqdim etgan biror-bir talab bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilinmagan yoki sud huquq to'g'risidagi masalani hal qilib, undiriladigan summa miqdorini, topshirilishi lozim bo'lgan mol-mulkni yoki javobgar amalgam oshirishi shart bo'lgan harakatlarni ko'rsatmagan, shuningdek, sud xarajatlari to'g'risidagi masala hal etilmagan hollarda sudyu tomonidan qo'shimcha hal qiluv qarori qabul qilinishi mumkin.

Yodda tuting!

Qo'shimcha hal qiluv qarori faqatgina hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga yoki sudning tashabbusiga ko'ra qabul qilinishi mumkin.

Qo'shimcha hal qiluv qarorini qabul qilish masalasi IPKda belgilangan qoidalar bo'yicha sud majlisida hal qilinadi. IPKnинг 127-moddasida belgilangan tartibda xabardor qilingan tarafalarning sud majlisida ishtirok etmasligi qo'shimcha hal qiluv qarorini qabul qilish masalasini ko'rishga to'sqinlik qilmasligi lozim. Qo'shimcha hal qiluv qarori asosiy hal qiluv qarori bilan birga qonuniy kuchga kiradi va uning ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Biroq, qo'shimcha hal qiluv qarorini qabul qilish rad etilgan taqdirda ajrim chiqariladi.

Qarorni tushuntirish yoki yozuvdag'i xatolik, harfiy xatolik va hisob-kitobdag'i xatolikni tuzatish haqidagi ajrim ishni ko'rgan sud tomonidan chiqariladi. Qarorni tushuntirishda sud uning mazmunini o'zgartirishga va sud muhokamasi predmeti bo'limgan masalalarga tegishga haqli emas. Qarorni tushuntirishga faqat nizoni hal etgan sud haqli.

Agar qaror ijro etilgan yoki uni majburiy ijroga qaratishga taqdim etish uchun qonunda nazarda tutilgan muddat o'tgan

va bu muddat tiklanmagan bo'lsa, qarorni tushuntirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yozuvdag'i xatolik, harsiy xatolik va hisob-kitobdag'i xatolikni ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi bo'yicha ham, sudning tashabbusi bilan ham tuzatish mumkin.

Undirilishi ko'rsatilgan pul mablag'i miqdori, sana, mulkni undirish choralariga tuzatish kiritishga faqat, agar bu noaniqlik hisoblashdag'i tasodifiy xatolik yoki harsiy xatolik, yozuvdag'i xatolik natijasi bo'lgan holda yo'l qo'yiladi.

Bundan tashqari, sud faqatgina iqtisodiy protsessual qonunchilikida nazarda tutilgan hollarda ajrim chiqaradi.

Agarda protsessual qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda, sudning ajrimi alohida sud hujjati tarzida chiqariladi.

Uncha murakkab bo'lmagan masalalarni hal qilishda sud joyida ajrim chiqarishi mumkin. Bunday ajrim sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi va unda u qaysi masala yuzasidan chiqarilgani, sud o'z xulosalarini chiqarishiga olib kelgan sabablar hamda ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha xulosa ko'rsatiladi.

Alohida sud hujjati tarzida chiqariladigan ajrimda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) sudning nomi, ishning raqami, ajrim chiqarilgan sana, sud tarkibi, sud majlisi kotibi, nizo predmeti;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikasiya raqami;
- 3) ajrim chiqilayotgan masala;
- 4) sud o'z xulosalarini chiqarishiga olib kelgan sabablar, bunda tayanilgan qonunchilik hujjatlari;
- 5) ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha xulosa;
- 6) agar qonunda nazarda tutilgan bo'lsa, ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) tartibi va muddati.

Sud majlisida ajrim chiqarilganidan keyin raislik qiluvchi tomonidan shu sud majlisining o'zida darhol o'qib eshittiriladi.

Sud alohida sud hujjati tarzida ajrim chiqargan taqdirda, ajrim chiqarilganidan keyin besh kunlik muddatda uning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va ajrim daxldor bo'lgan boshqa shaxslarga topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuboriladi yoki tilxat olib topshiriladi, ularning elektron manzillari mavjud bo'lgan taqdirda esa ajrim elektron tarzida yuborilishi mumkin.

Agar qonunda yoki sud tomonidan boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, sudning ajrimi darhol ijro etiladi.

Yodda tuting!

Ishni korish vaqtida davlat organining yoki boshqa organning, yuridik shaxsning, mansabdon shaxsning yoki fuqaroning qonunchilik hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, ularning ishda ishtirokidan qat'i nazar, sud xususiy ajrim chiqarishga haqlidir

Xususiy ajrim bilan sud tegishli organdan yoki mansabdon shaxsdan qonunchilik hujjatlarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani o'zlarining vakolatiga muvofiq ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

Xususiy ajrim tegishli davlat organlariga va boshqa organlarga, yuridik shaxslarga, mansabdon shaxslarga, fuqarolarga yuboriladi, uiar ko'rilgan choralar to'g'risida bir oylik muddatda sudga xabar qilishi shart.

Xususiy ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Agar sud nizoni ko'rayotganida shaxslarning xatti-harakatlarida jinoyat alomatlarini aniqlasa, u jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal etish uchun bu haqda prokurorga tegishli materiallarni ilova qilgan holda xabar qiladi.

Ishni ko'rishda mansabdon shaxsning yoki fuqaroning xatti-harakatlarida, ularning ishda ishtirokidan qat'i nazar, ma'muriy huquqbazarlik alomatlari aniqlansa, agar ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish qonunda sudning

vakolatiga berilgan bo'lsa, sud ularni ma'muriy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqadi.

Ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida sud qaror qabul qiladi. Qaror ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Da'vo arizasini rad etish asoslarini misollar asosida tushuntiring.

2. Da'vo arizasini rad etish va qaytarish asoslarining farqli jihatlarini tahlil eting.

3. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudyu tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar doirasini aniqlang.

4. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risidagi ajrim va uni rasmiylashtirishning protsessual tartibini tushuntiring.

5. Ish yuritishni tugatish asoslarini misollar asosida tahlil qiling.

6. Ish yuritishni to'xtatish va tiklash asoslarining o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.

7. Da'veni ko'rmasdan qoldirish asoslarini misollar asosida tahlil qiling.

8. Iqtisodiy sud ajrimi va hal qiluv qarori bir-biridan qanday farqlanadi?

9. Qo'shimcha hal qiluv qarorini qabul qilish asoslarini misollar asosida tahlil qiling.

10. Sudning ajrimi va uni rasmiylashtirishga qo'yilgan talablarni aytib bering.

11. Xususiy ajrim chiqarish asoslarini bayon eting.

KAZUSLAR

1-kazus

«O'zstandart» agentligi Toshkent shahar sinov va sertifikatlashtirish markazi davlat korxonasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat

qo'mitasi Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga nisbatan da'vo arizasi bilan iqtisodiy sudga murojaat qilib, hududiy boshqarmaning 2015-yil 9-iyundagi 02-2/6-son qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Da'vogar da'vo arizasida markazga mijozlar, tadbirkorlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan murojaat xathari taqdim etilganligini, ularning murojaatlari va moliyaviy ahvoli o'rganib chiqilganligini va mijozlarga sharoit yaratish maqsadida litsenzion ajratmalar kamaytirilganligini ko'rsatib o'tgan. Biroj da'vo arizasiga da'vo talablariga asos bo'lgan mazkur holatlarni tasdiqlovchi dalillar ilova qilinmaganligi sababli sud tomonidan da'vo arizasi qaytarilgan.

Sud tomonidan da'vo arizasi to'g'ri qaytarilganmi?

Ushbu holatda da'vogar o'z dalillarini sud majlisiga taqdim etishi mumkinligi holatiga o'z fikringizni bildiring.

2-kazus

Iqtisodiy sudga «Sunbul» aksiyadorlik jamiyatni da'vo arizasi bilan murojaat qilib, da'vo talablarini asoslovchi hujjatlarni ilova qilgan holda ijara shartnomasini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Shuningdek, da'vogar talabnama bilan asl hujjatlar javobiga «Ta'mir» mas'uliyati cheklangan jamiyatida ekanligini ham bayon qilgan.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida qanday protsessual harakatlar amalga oshirilishi lozim?

8-bob. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISH. SODDALASHTIRILGAN TARTIBDA ISH YURITISH

8.1. Sud buyrug'i berish bo'yicha talablar. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni hamda unga ilova qilinadigan hujjatlar

Har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqli. Iqtisodiy sudlar hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug'i shaklidagi sud hujjatlarini qabul qilishi IPKda mustahkamlab qo'yilgan. Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'riladigan hamda keng tarqalgan ishlarning yana bir turi – buyruq tartibida ko'riladigan ishlardir. Iqtisodiy sudga murojaat qilish: fuqarolik huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha – da'vo arizasi shaklida; buyruq tartibida ish yuritish, alohida toifadagi ishlar bo'yicha hamda IPKda nazarda tutilgan boshqa hollarda – ariza shaklida amalga oshiriladi. Bu toifadagi ishlarning tarasflari kreditor va qarzdor bo'lib, sudga ariza bilan murojaat qilgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor kreditor, ya'ni haq talab qiluvchi, ariza qaratilgan shaxs esa qarzdor hisoblanadi. Sud buyrug'i kreditorning nizosiz talablarini qanoatlantirish to'g'risidagi sudyaning hujjatidir.

Sud buyrug'i ijro hujjati kuchiga ega bo'lib, u bo'yicha undiruv buyruq berilgandan so'ng o'n kunlik muddat o'tgach sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sud buyrug'ini berishga asos bo'lувчи талаблар:

- soliq qarzini undirishni yuridik shaxslarning va fuqarolarning mol-mulkiga qaratish to'g'risida talab bildirilgan bo'lsa;
- kommunal xizmatlar va aloqa xizmatlari to'lovi bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan talab bildirilgan bo'lsa;

- hujjatlar asosida tan olingen debitorlik qarzini undirish to'g'risida talab bildirilgan bo'lsa;
- talab to'lannagan, akseptlanmagan va akseptga sana qo'yilmagan veksel notarius tomonidan protest qilinishiga asoslangan bo'lsa;
- yozma bitim mavjud bo'lgan taqdirda, undiruvni qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti bo'lgan mol-mulkka qaratish to'g'risida talab bildirilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2013-yil 5-dekabrdagi «Sud buyrug'i berish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda iqtisodiy sudlar tomonidan protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida» 254-sod qarorining 2-bandida qayd etilishicha, IPKning 135-moddasida nazarda tutilgan sud buyrug'i berish bo'yicha talablarning ro'yxati fugal hisoblanadi va u kengaytirilgan tarzda talqin qilinmaydi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza sudga yozma shaklda, sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalari bo'yicha beriladi. U kreditor yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Ariza axborot tizimi orqali elektron shaklda berilganda arizani yozma shaklda berish haqidagi talabga rivoja etilgan hisoblanadi.

Muhim jihatni, sud buyrug'ini berish to'g'risidagi talab soliq qarzini undirishni yuridik shaxslarning va fuqarolarning mol-mulkiga qaratish to'g'risida talabga asosan qo'yilgan bo'lsa, qarzdan tomonidan soliq qarzining tan olinishi talab etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi 133-moddasining birinchi qismiga muvofiq kommunal xizmatlar uchun majburiy to'lovlar sovuq va issiq suv ta'minoti, suvni chiqarib yuborish (kanalizatsiya), elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, isitish (issiqlik ta'minoti), qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqish uchun to'lanadigan to'lovlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining «Aloqa to'g'risida»gi Qonuni 2-moddasining birinchi qismiga ko'ra aloqa sohasidagi munosabatlarning obyektlari pochta jo'natmalarini qabul qilib olish, tashish va ko'rsatilgan joyga yetkazib berish vositalarining

yig'indisi bo'lgan pochta aloqasi tarmoqlaridan hamda bir yoki bir nechta uzatish turlarini: telefon, telegraf, faksimil uzatishlarni, hujjatli xabarlarning boshqa turlari ma'lumotlarini uzatishni, televide niye va radioeshittirish dasturlarini translyatsiya qilishni ta'minlovchi telekommunikatsiyalar vositalari yig'indisi bo'lgan telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan iborat.

Aloqa xizmatlari to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni undirish haqidagi ariza qarzdorlik summasi hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bilan aniqlangan holdagini sud buyrug'i tartibida ko'rib chiqilishi mumkin.

Yodda tuting!

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi talab IPK 135-moddasining 2-bandiga asosan bildirilganda, qarzdor tomonidan qarzdorlikning tan olinishi talab etilmaydi.

Hujjatlar asosida tan olingen debitorlik qarzini undirish to'g'risida talab asosida taqdim etilgan sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizada debitorlik qarzini qarzdorning mol-mulkidan undirish to'g'risida talab qo'yilishi mumkin emas. Bunday talab bildirilganda, arizani qabul qilish IPK 140-moddasining birinchi qismiga asosan rad etiladi. Shuningdek, mazkur talab asosida qarzdorlikni undirish to'g'risida talab qo'yilganda, debitorlik qarzini qarzdor tomonidan hujjatlar asosida tan olingen bo'lishi lozim.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza IPKga asosan sudlovga taalluqlilik va tegishlilikning umumiy qoidalari ga amal qilgan holda beriladi.

Shuningdek, sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган creditor tomonidan yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган qarzdorga nisbatan berilganda, arizani qabul qilish IPK 140-moddasi birinchi qismiga asosan rad etiladi.

Ariza bilan yuridik shaxsning alohida bo'linmasi (filiali, vakolatxonasi) yuridik shaxs nomidan ishonchnoma asosida murojaat etsa, sud arizani qabul qilishni rad elishga haqli emas.

Bunda talab qilinayotgan summa (talab qilib olinayotgan mol-mulk) alohida bo'linma (filial, vakolatxona) foydasiga emas, balki manfaatlari ko'zlanib harakat qilinayotgan yuridik shaxs foydasiga undiriladi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza bilan kreditor yoki uning vakili murojaat qilishi mumkin. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrdagi «Elektr energiyasidan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish mexanizmini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 511-sorli qaroriga asosan yuridik shaxslar tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni undirishni mol-mulkka qaratish to'g'risidagi arizalar bilan sudga murojaat qilish vakolati davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan. Bunday hollarda davlat soliq xizmati organlari kreditor hisoblanmasligini inobatga olib, sud buyrug'ida kreditor sifatida tegishli energiya ta'minoti korxonasi ko'rsatiladi hamda qarzdorlik energiya ta'minoti korxonasi foydasiga undiriladi.

Shuningdek, arizada kreditorning yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Yodda tuting!

Kreditor sud buyrug'ini berish to'g'risida ariza bergenida qarzdorga shu arizaning ko'chirma nusxasini topshirishi shart.

Ya'ni, IPKning 137-moddasiga muvofiq arizachi (kreditor) sud buyrug'ini berish to'g'risida ariza bergenida qarzdorga arizaning ko'chirma nusxasini topshirishi shart. Qarzdor – yuridik shaxsga sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning ko'chirma nusxasi topshirilganligining dalili bo'lib, uning rahbari yoki xodimining muhr (muhr mavjud bo'lган taqdirda) yoki shtamp bilan tasdiqlangan imzosi, qarzdor – fuqaroga esa uning shaxsiy imzosi hisoblanadi. Ushbu tartibga rivoja qilinmagan taqdirda, sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza IPK 141-moddasi birinchi qismining 3-bandiga asosan arizachi (kreditor)ga qaytariladi.

Sud buyrug'i berish to'g'risidagi arizada ko'rsatiladigan ma'lumotlar:

- ariza berilayotgan sudning nomi;
- kreditorning, qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- kreditorning qonunchilikka asoslangan talabi;
- talabga asos bo'lgan holatlar va ularni tasdiqlovchi dalillar;
- undiriladigan summaning hisob-kitobi, undiruv qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida turgan ko'char mol-mulkka qaratilgan taqdirda esa, undirilayotgan ko'char mol-mulkning tavsifi va to'lanmagan to'lovlar summasining hisob-kitobi;
- undirilayotgan qarzdorlik vujudga kelgan davr;
- ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Sud buyrug'i berish to'g'risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar:

- davlat boji hamda pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini;
- sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning ko'chirma nusxasi qarzdorga topshirilganligini;
- talabga asos bo'lgan holatlarni.

Kommunal xizmatlar uchun haq to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida talablar bildirilganida sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga:

- 1) iste'molchi bilan tuzilgan shartnomaning;
- 2) qarzdor tan olgan qarz yuzaga kelgan davr ko'rsatilgan qarz hisob-kitobining;
- 3) penya hisoblanishi to'g'risidagi va iste'molchini tegishli kommunikatsiya tarmoqlaridan uzish haqida ogohlantirish ko'rsatilgan, qarzni uzish to'g'risidagi talabning;
- 4) iste'molchini tegishli kommunikatsiya tarmoqlaridan uzish haqidagi yoxud yetkazib berishni texnologik yoki avariya

zaxirasi darajasigacha cheklash to'g'risidagi dalolatnomaning ko'chirma nusxalari ilova qilinadi.

Yodda tuting!

Agar sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza kreditorning vakili tomonidan imzolangan bo'lsa, arizaga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma ilova qilinadi.

8.2. Davlat boji. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish va qaytarish

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza uchun sudga da'vo bilan umumiy tartibda murojaat qilinganda, nizolashilayotgan summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan stavkaning ellik foizi miqdorida **davlat boji** to'lanadi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda, undiruvchi to'lagan davlat boji undiruvchi tomonidan qarzdorga umumiy tartibda da'vo taqdim etilganda to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji hisobiga o'tkaziladi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza bo'yicha to'lanadigan (undiriladigan) davlat boji miqdori eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilgan holda esa to'lanadigan davlat bojining miqdori eng kam ish haqining 25 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Shuningdek, sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar qo'shimcha tarzda ham ilova qilinadi:

Soliqlar bo'yicha qarzdorlikni undirishni yuridik shaxslar va fuqarolarning mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- soliq qarzi borligi to'g'risida soliq to'lovechining shaxsiy kartochkasidan ko'chirma;
- to'lov topshiri qnomalari, to'lov talabnomalari va inkasso topshiriqnomalari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

<p>Hujjatlar asosida tan olingen debitorlik qarzni undirish uchun sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> - qarzdor bilan tuzilgan shartnomaning asli yoki nusxasi; - tovarlar yetkazilganligi, ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlar; - qarzdorlik tan olingenligini tasdiqlovchi hujjatlar (solishtirish dalolatnomasi, yozishmalar va h.k.) ning asli.
--	--

Misol uchun, 100 000 000 so'm qarzni undirish yuzasidan sudga da'vo arizasi kiritilsa, 2 000 000 so'm davlat boji to'lash lozim. Agar shu summa bo'yicha sud buyrug'i berish to'g'risida ariza taqdim qilinsa, 1 000 000 so'm davlat boji to'lash kerak bo'ladi. Kreditor kichik biznes va xususiy tadabirkorlik subyekti ekanligini vakolatli organ tomonidan berilgan ma'lumotnoma bilan tasdiqlasa, 500 000 so'm davlat boji to'lashi sud buyrug'i berish uchun yetarli bo'ladi.

Ba'zi hollarda sud buyrug'i berish to'g'risida iqtisodiy sudga murojaat qilgan arizachining arizasi sud tomonidan arizani qabul qilishni rad etish hollari uchrab turadi. Bu hollarda arizachi o'z vajlarini ko'rsatib yuqori instansiyalarga shikoyat berishi yoki prokuratura organlari tomonidan protest keltirilishi holatlari uchrab turadi. O'zi qaysi holatlarda sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etiladi va unda sudyaning protsessual harakatlari qanday bo'lishi lozim?

Sudya IPKning 154-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, shuningdek, agar bildirilgan talab IPKning 135-moddasida nazarda tutilmagan bo'lsa, sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etadi.

Sudya arizani qabul qilishni rad etish haqida ushbu ariza kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay ajrim chiqaradi.

Bilingki, arizani qabul qilishni rad etish haqidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Shuningdek, arizani qabul qilish bildirilgan talab IPKning 135-moddasida nazarda tutilmaganligi asosida rad etilganligi kreditorning ushbu talab bo'yicha umumiy tartibda da'vo taqdim etish imkoniyatiga to'sqinlik qilmaydi.

Shuningdek, IPKning 141-moddasida arizani qaytarish uchun asos bo'ladijan holatlar ko'rsatilgan.

Sud buyrug'i berish to'g'risidagi ariza quyidagi hollarda qaytariladi:

- ariza IPKning 136-moddasida belgilangan talablarga rivoja qilmagan holda berilgan bo'lsa;
- ariza imzolanmagan bo'lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lмаган shaxs yoxud mansab mavqeい yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;
- bildirilgan talabni tasdiqlovchi, shuningdek IPKning 138-moddasida sanab o'tilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa;
- qarzdorga arizaning ko'chirma nussasi topshirilganligiga doir dalillar taqdim etilmagan bo'lsa;
- belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa, davlat boji to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash mumkinligi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnomasi mavjud bo'lmasa yoxud iltimosnomasi rad etilgan bo'lsa;
- mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomasi yuborish) tartibiga rivoja etganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa;
- sud buyrug'i berilguniga qadar kreditordan arizani qaytarib olish to'g'risida ariza tushgan bo'lsa.

Sudya arizani qaytarish haqida ariza kelib tushgandan besh kundan kechiktirmay – sud buyrug'i berilgunga qadar uni qaytarib olish to'g'risida kreditordan ariza tushganda esa – sud

buyrug'ini berish haqidagi arizani qaytarib olish to'g'risida ariza kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmay ajrim chiqaradi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qaytarish haqidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Arizachi tomonidan sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin ushbu ariza bilan sudga umumiy tartibda ikkinchi marta murojaat etishga to'sqinlik qilmaydi.

8.3. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga e'tiroz.

**Sud buyrug'ini berish tartibi va muddati hamda
uning mazmuni. Sud buyrug'ini**

bekor qilish asoslari

Ba'zi hollarda qarzdor tomonidan ham sudga sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga o'z e'tirozini taqdim etish holatlari uchrab turadi. Ya'ni, qarzdor unga sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza nusxasi topshirilgan paytdan boshlab o'n kunlik muddatda sudga kreditor talablariga qarshi e'tirozini, uni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishga haqli, qarzdorning e'tirozni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi, shuningdek, uning bildirilgan talabga roziligi sud buyrug'ini berish uchun asos bo'ladi.

Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga e'tiroz qarzdor yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan imzolangan e'tirozga ishonchnoma ilova qilinadi.

Yodda tuting!

Sud buyrug'i sudya tomonidan sud muhokamasisiz, kreditor va qarzdorni chaqirtirmsandan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan yakka tartibda beriladi.

Sud buyrug'i sudya tomonidan ikki nusxada imzolanadi, ulardan biri ishda qoladi, ikkinchisi – sudning gerbli *muhri* bilan tasdiqlanadi va kreditorga beriladi. Qarzdorga sud buyrug'ining tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi yuboriladi. Sud buyrug'i berish to'g'risidagi ariza bilan sudga elektron tarzda murojaat qilish mumkin bo'lib, bunda sud buyrug'ining yozma shakliga

rioya qilingan hisoblanadi. Bunday tarzda taqdim qilingan ariza asosida sud buyrug'i berilganda, u kreditorga elektron hujjat shaklda yuborilishi mumkin. Agar qarzdor bildirilgan talabga qarshi e'tiroz taqdim qilsa yoki huquq to'g'risida nizo mavjudligi ko'rinsa va uni taqdim etilgan hujjatlar asosida hal etib bo'lmasa, sudya sud buyrug'ini berishni rad etadi.

Shuningdek, sudya tomonidan huquq to'g'risidagi mavjud nizo taqdim etilgan hujjatlar asosida hal etib bo'lmaydi deb hisoblansa ham sud buyrug'ini berishni rad etadi.

Sud buyrug'ini berishni rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi. Sudlar sud buyrug'ini berishni rad etish to'g'risidagi ajrimda kreditorning o'sha talab bo'yicha umumiy tartibda da'vo taqdim etish huquqi mavjudligi tushuntirilishi lozim. Sud buyrug'ini berishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat berish mumkin.

Sud buyrug'ida ko'rsatilishi shart bo'lgan ma'lumotlar:

- sudning nomi, joylashgan yeri va buyruq berilgan sana;
- ishning raqami, sudyaning familiyasi, ism-sharifining bosh harflari, talab nima haqdaligi;
- kreditorning, qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- undirilishi lozim bo'lgan pul summalarining miqdori yoki undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida turgan ko'char mol-mulk, uning tavsiisi va bahosi;
- undirilayotgan qarz hosil bo'lgan davri;
- neustoyka, agar u to'lanishi lozim bo'lsa va qarzdor tomonidan tan olingan bo'lsa;
- undirilishi lozim bo'lgan davlat bojining va pochta xarajatlarining summasi.

Sud buyrug'i u berilganidan so'ng o'n kunlik muddat o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

Sud buyrug'i ijro hujjati kuchiga ega va u sud hujjatlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda ijro etilishi lozim.

Agar qarzdor uzrli sabab bilan o'z vaqtida kreditorning talabiga qarshi e'tiroz bildirish imkoniyatiga ega bo'limgan bo'lsa, sud buyrug'ining ko'chirma nusxasi olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda o'sha sudga sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risida ariza berishga haqli. Sud bunday holda buyruqni bekor qilishga haqli, shundan keyin kreditorning talabi da'vo ishini yuritish tartibida ko'riliishi mumkin.

Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuniga nisbatan IPKda muayyan talablar belgilanmagan. Shundan kelib chiqib, ariza erkin shaklda bayon etilishi mumkin, ammo unda sud buyrug'ini bekor qilish sabablari ko'rsatilgan, shuningdek, unga ushbu sabablarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan bo'lishi kerak.

Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ariza sudga elektron hujjat tarzida ham yuborilishi mumkin.

Agar ariza belgilangan muddat o'tganidan keyin taqdim etilgan bo'lib, muddatni tiklash to'g'risida iltimosnomaga berilmagan bo'lsa, bu holat uni qanoatlantirishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Agar ariza IPK 147-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan muddat o'tkazib yuborilgan holda berilgan bo'lsa va muddat o'tkazilishining sabablari iltimosnomaga asosida uzrli deb topilsa, suda muddatni tiklab, sud buyrug'ini bekor qilishga haqli.

IPKda o'tkazilgan muddatni tiklashning uzrli sabablari ro'yxati ko'rsatilmaganligi bois, sudlar muddatni tiklash masalasini hal etishda iltimosnomada keltirilgan sabablarni o'rganib, ularga o'z ichki ishonchlari asosida baho berishi lozim.

Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risida yoki bekor qilishni rad etish haqidagi ajrim chiqariladi.

Sud buyrug'ini bekor qilish haqidagi yoki bekor qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay sud muhokamasisiz, kreditor va qarzdor

chaqirtirilmasdan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan chiqariladi.

Sud buyrug'ini bekor qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda kreditorga da'vo ishini yuritish tartibida sudga murojaat qilish huquqi tushuntiriladi.

Sud buyrug'ini bekor qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Yodda tuting!

Sud buyrug'i apellyatsiya, cassatsiya instansiyalarda va yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rilmaydi. Shu bois sud buyrug'i ustidan berilgan apellyatsiya yoki cassatsiya shikoyati, yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etiladi. Agar shikoyat yoki ariza ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, u bo'yicha ish yuritish tugatiladi.

Sud buyrug'i ijro hujjati kuchiga ega bo'lganligi sababli uni ijroga taqdim etishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash va dublikatini berish, uning ijrosini kechiktirish yoki uni bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usulini va tartibini o'zgartirish, shuningdek qaytarma ijrosi to'g'risidagi masalalar IPKning 340–344-moddalariga asosan hal qilinadi.

8.4. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan hamda yuridik shaxs tashkil etgan holda olib borayotgan subyektlarning soni yilda-yilga oshib, ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hissasi ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida mamlakatning investitsion jozibadorligi oshirib, xorijiy investitsiyalarini davlatga kirib kelishini yanada oshiradi.

Bu borada, mamlakatimizda biznes yuritish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari kafolatlarini mustahkamlash, korporativ boshqaruvni rivojlantirish, chet el investitsiyalarini faol jalb etish va

investorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlarning ko'lami va samaradorligi nafaqat mammakatimizdagi investitsion faoliyning ortishi bilan, balki nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlar va reyting agentliklari tomonidan berileyotgan munosib baho bilan ham o'z isbotini topmoqda.

Mazkur qarorning yo'l xaritasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagи «Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni bilan iqtisodiy sud ishlarini yuritishda soddalashtirilgan tartib joriy etildi.

Ushbu qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi alohida «Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish» deb nomlangan 23¹-bob bilan to'ldirildi. Kiritilgan o'zgartirishga ko'ta, ya'ni kodeksining 203²-moddasida (Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar) da'vening bahosi yuridik shaxslarga nisbatan – bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan esa – 5 baravaridan oshmasa, ushbu da'vo arizalari bo'yicha ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishi belgilandi. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibi qanday ko'rib chiqiladi?

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ish sud muhokamasi o'tkazilmasdan, taraflar chaqirilmasdan va ularning tushuntirishlari eshitilmasdan ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, mazkur moddada korporativ nizolar bo'yicha ishlar, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilmasligi belgilangan. Yana bir ahamiyatlari jihatni, soddalashtirilgan ish yuritishga uchinchi shaxs kirishsa yoki soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin bo'limgan qarshi da'vo kelib tushsa, sud ishni da'vo ishini yuritishning umumiyligi qoidalari bo'yicha

ko'rish haqida ajrim chiqaradi. Quyidagi hollarda ham xuddi shunday yo'l tutiladi:

1) ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqish davlat sirining, tijorat sirining yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning oshkor qilinishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;

2) qo'shimcha holatlarni aniqlash yoki qo'shimcha dalillarni tekshirish, shuningdek, dalillarni ular turgan joyda ko'zdan kechirish va tekshirish, ekspertiza tayinlash yoki guyohlarning ko'rsatuvlarini eshitish zarur bo'lsa;

3) bildirilgan talab boshqa talablar bilan bog'liq bo'lsa, shu jumladan, uchinchi shaxslarga taalluqli bo'lsa yoki mazkur ish bo'yicha qabul qilingan sud hujjati bilan uchinchi shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilishi mumkin bo'lsa.

O'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta talab bildirilgan bo'lib, ulardan biri soddalashtirilgan tartibda ko'riliishi mumkin, boshqalari esa bunday tartibda ko'riliishi mumkin bo'lmasa, barcha talablar umumiy tartibda ko'rildi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ish bo'yicha da'vo arizasi IPKning 149-moddasida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ish bo'yicha da'vo arizasiga IPKning 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar, shuningdek da'vo arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalari javobgarga topshirilganligi haqidagi dalillar ilova qilinadi. Bunda, da'vogarning bunday da'vo arizasi javobgarga (uning vakiliga) topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuborilishi yoki tilxat olib topshirilishi mumkin. Agarda'vo arizasiga javobgarga topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuborilgan bo'lsa, da'vo arizasiga javobgar uni qabul qilib olganligini tasdiqlovchi pochta xabarnomasi ilova qilinishi shart.

Shuningdek, bunday da'vo arizasining nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar da'vogar tomonidan o'ziga ma'lum bo'lgan javobgarning oxirgi manziliga buyurtma xat bilan yuborilgan, biroq javobgar buyurtma xatni olishni rad etgan va mazkur

rad etish qayd etilgan bo'lsa yoki javobgarning ko'rsatilgan manzilda yo'qligi sababli buyurtma xat qaytarilgan va unda aloqa xizmatining tegishli qaydi (yozuvi) bo'lsa, ushbu buyurtma xat yetkazib berilgan hisoblanadi. Bunda da'vo arizasiga ushbu qaytarilgan buyurtma xat (konvert) ilova qilingan bo'lishi lozim.

8.5. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni ko'rib chiqish xususiyatlari

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni ko'rib chiqish xususiyatlari shundan iboratki, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risida sud ajrim chiqaradi, ajrimda ish soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rinishini hamda ish ko'rib chiqiladigan sanani ko'rsatadi.

Javobgar da'vo arizasi yuzasidan yozma fikrini da'vo arizasining ko'chirma nusxasi o'ziga topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kunlik muddatda sudga o'zi asoslanayotgan hujjatlar va dalillarni ilova qilgan holda taqdim etishga haqli. Yozma fikrga uning ko'chirma nusxasi da'vogarga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Da'vo arizasi yuzasidan yozma fikr javobgar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan imzolangan yozma fikrga ishonchnoma ilova qilinadi.

Da'vo arizasining sudga yuborilishi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar tomonidan da'vo arizasi yuzasidan yozma fikr taqdim etilmaganligi da'vo arizasini soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Belgilangan muddat o'tganidan keyin sudga kelib tushgan da'vo arizasi yuzasidan yozma fikr, dalillar va boshqa hujjatlar, agar ularni belgilangan muddatda taqdim etishning imkonini bo'lmanaganligi taraf tomonidan asoslantirilgan va ular sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar kelib tushgan bo'lsa, qabul qilinadi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ish da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish haqida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kundan oshmagan muddatda da'vo arizasi yuzasidan yozma fikrni, dalillarni hamda boshqa

hujjatlarni taqdim etish uchun belgilangan muddat o'tganidan keyin suda tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Yodda tuting!

Ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqish muddati uzaytirilmaydi.

Muhim jihat: Sud soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni sud muhokamasini o'tkazmasdan, tarallarni chaqirtirmasdan va ularning tushuntirishlarini eshitmasdan ko'rib chiqadi.

Sud taraflar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda bayon qilingan tushuntirishiarni, e'tirozlarni va (yoki) vajlarni tekshiradi, dalillar bilan tanishadi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechiradi va hal qiluv qarorini qabul qiladi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori IPKning 21-bobida nazarda tutilgan umumiyoq qoidalarga ko'ra, sud tomonidan qabul qilinadi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori ixtiyoriy tartibda ijro etiladi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, qabul qilinganidan keyin **o'n kun o'tgach** qonuniy kuchga kiradi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha qaysi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar ixtiyoriy tartibda ijro etilmagan bo'lsa, o'sha hal qiluv qarori taraflarning iltimosnomasi bo'yicha sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida, sud xarajatlarini undirishga taalluqli qismi esa sudning tashabbusi bilan majburiy ijro etilishi lozim.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sudning qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qoruniy kuchga kiradi.

Ushbu tartibda ish yuritishning yana bir qator farqlanuvchi jihatlari quyidagi jadvalda aniq ko'rsatilgan:

Mezon	Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ish	Da'vo ishini yuritishning umumiyl qoidalari bo'yicha ko'rib chiqiladigan ish
Da'vo ariza-siga va unga ilova qilingan hujjatlarga doir talablar	Da'vo arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalari javobgarga topshiriladi	Da'vo arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalari javobgarga va uchinchi shaxslarga yuboriladi
Da'vo arizasi yuzasidan yozma fikr	<p>Da'vo arizasining ko'chirma nusxasi javobgarga topshirilgan paytdan e'tiboran 15 kunlik muddatda sudga yuboriladi.</p> <p>Keyin, sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilguniga qadar kelib tushgan va o'z vaqtida taqdim etishning imkonni bo'l-maganligi asoslan-tirilgan bo'lsa, qabul qilinadi</p>	Ish ko'rildigan kungacha yetib borishini ta'minlaydigan muddatda sudga yuboriladi.
Ishni ko'rib chiqish muddati	Da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish haqidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran 20 kundan oshmagan muddatda da'vo arizasi yuzasidan yozma fikri, dalillarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etish uchun belgilangan muddat o'tgandan keyin	Ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'grisida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran 1 oydan oshmagan muddatda

Ishni ko'rib chiqish muddati	Muddat uzaytirilmaydi	Istisnoli hollarda sud raisi tomonidan 1 oydan ko'p bo'limgan muddatga uzaytiriladi
Ishni ko'rib chiqish tartibi	Sud muhokamasini o'tkazmasdan, taraflarni chaqirtirmasdan va ularning tushuntirishlarini eshitmasdan. Sud taraflar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda bayon qilingan tushuntirishlarni, e'tirozlarni va (yoki) vajlarni tekshiradi, dalillar bilan tanishadi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechiradi va hal qiluv qarorini qabul qiladi	Ish muhokamasi sud majlisida, sh.j. video-konferensaloqa rejimida, maniaatdor shaxslarni ishni yuritish to'g'risida xabardor qilib, guvohlarni chaqirtirib va h.k. o'tkaziladi
Sudning hal qiluv qarori kuchga kiradigan muddat	Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, qabul qilinganidan keyin 10 kun o'tgach	Apellyatsiya tartibida shikoyat qilingan (protest keltirilmagan) bo'lsa, qabul qilinganidan keyin bir oy o'tgach
Sudning hal qiluv qarorini ijro etish	Darhol ijro etilishi lozim; kuchga kirgu-niga qadar – ixtiyoriy, keyin – ijro varaqasi asosida majburiy tartibda	Sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish umumiy qoidalariga ko'ra qonuniy kuchga kirganidan keyin ijroga qaratiladi
Sudning hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berish (protest keltirish) muddati	Qabul qilingan kundan e'tiboran 10 kun	Qabul qilingan kundan e'tiboran 1 oy

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibining joriy etilishi bu, albatta, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalarning ijrosini ta'minlash, bunday ishlarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish, eng muhimmi, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» hisobotida O'zbekiston ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sud buyrug'i berish bo'yicha talablarni tushuntirib bering.
2. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablarni yoritib bering.
3. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etishni tushuntirib bering.
4. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qaytarish tartibini tushuntiring.
5. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizaga e'tirozning qay tartibda berilishi va uning huquqiy oqibatlarini tushuntirib bering.
6. Sud buyrug'ini bekor qilish tartib va asoslarini tushuntiring.
7. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar mazmunini yoritib bering.
8. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ish bo'yicha da'vo arizasiga doir talablarni tushuntirib bering.
9. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni ko'rib chiqish xususiyatlarini yoritib bering.

KAZUSLAR

1-kazus

Kreditor «Medical» iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilib, qarzdor «SAU» xususiy korxonasidan qarzdorlikni undirish uchun sud buyrug'i berishni so'ragan.

2021-yil 1-dekabrda tan olingan 56.000 AQSh dollarini qiymatidagi pul mablag'larni undirish uchun sud tomonidan sud buyrug'i berilgan.

Sudning mazkur hujjatidan norozi bo'lib, qarzdor 2021-yil 28-martda sud buyrug'ini bekor qilishni so'rab, iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilgan. Arizada sudga sud buyrug'ini undirish uchun berilgan ariza sudga berilishidan tegishli ravishda xabardor bo'limganligini vaj qilib keltirgan. Biroq sud arizachining ushbu talabini inobatga olmasdan, ariza uch oy o'tgandan so'ng berilganligini asos qilib keltirib, arizachining sud buyrug'ini bekor qilish haqidagi arizasini qanoatlantirishni rad etgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2-kazus

Kreditor iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilib, qarzdor «MOON» kompaniyasi (Germaniya) hisobidan 156.789 AQSh dollari qiymatidagi debitor qarzdorlikni undirish uchun sud buyrug'i berishni so'ragan. Bundan tashqari, «MOON» kompaniyasi esa sudga yozma fikr yuborib, unda ushbu qarzdorlik summasining yarmini to'laganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib yuborgan. Sud tomonidan qarzdorlikni undirish uchun sud buyrug'i berilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

9-bob. ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISH

9.1. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar tushunchasi va ariza bilan murojaat qilish huquqi

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar alohida toifadagi ishlar tarkibiga kiradi. Biroq, ushbu ishlarni yuritishga oid qoidalar Iqtisodiy protsessual kodeksining 24-bobida keltirilgan va birinchi instansiyada ish yuritish deb nomlangan II bo'lmiga kiritilgan. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarga nisbatan «alohida toifadagi ishlar» atamasi qo'llaniladi. Xususan, IPKning iqtisodiy sud ishlarni yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlariga oid 1-modda 2-qismida, IPKning sudga murojaat qilish shakliga oid 3-moddasining 4-qismi, IPKning ishda ishtirok etuvchi shaxslarga bag'ishlangan 41-moddasida, IPKning taraflar tushunchasiga bag'ishlangan 43-moddasida «alohida toifadagi ishlar» atamasi keltirib o'tilgan.

Iqtisodiy protsessual kodeksi alohida toifadagi ishlarni yuritish to'g'risidagi ishlarga faqat yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar bilan cheklanadi. Ayrim olimlar bankrotlik to'g'risidagi ishlarni alohida toifadagi ishlarga kiritish lozim degan fikrga kelishgan. Ta'kidlash lozimki, bankrotlikka oid ishlarning o'ziga xos xususiyatlari, birinchidan, ushbu ishlarni ko'rib chiqish Iqtisodiy protsessual kodeksi bilan emas, balki maxsus qonun bilan tartibga solinadi va maxsus protsessual jihatlari ham belgilangan. Shu sababli, ushbu ishlarni alohida toifadagi ishlar emas, balki maxsus ishlar deb hisoblash lozim, chunki maxsus protsessual qoidalari bilan boshqa ishlardan farq qiladi. Ikkinchidan, bankrotlik ishlarni ko'rish jarayonida iqtisodiy sudga hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab huquqiy nizolarni hal qiladi (masalan, qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish, talablarni kreditorlar reyestriga kiritish va boshq.).

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, alohida toifadagi ishlarning asosiy xususiyati – huquq to'g'risidagi nizoning mavjud emasligidir. Agar yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlash to'g'risidagi ish bo'yicha sud muhokamasida huquq to'g'risida nizo kelib chiqqanligi aniqlansa, sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlash to'g'risidagi arizani ko'rmasdan qoldiradi va bu haqda ajrim chiqaradi (IPKning 208-moddaning 4-qismi).

Alohida toifadagi ishlarda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish vositasi da'vo emas, balki ariza shaklidir. Ushbu toifadagi ishlarda arizachilar va boshqa manfaatdor shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb e'tirof etiladi. Arizachilar – yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlash to'g'risida sudga murojaat qilgan shaxs hisoblanadi. Iqtisodiy protsessining tashabbuskori sifatida arizachining holati da'vogar bilan tenglashtiriladi, biroq, albatta, protsessual jihatdan alohida protsessual ishtirokchi hisoblanadi. Manfaatdor shaxslar – iqtisodiy protsessida sudning tashabbusi yoki o'zining xohishiga ko'ra jalb qilingan huquqlari va majbutiyatlariiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Alohida toifadagi ishlarda ishtirok etayotgan shaxslarning protsessual huquqlari umumiy tartibda ishtirok etayotgan shaxslardan farq qilinadi. Masalan, agar ariza beruvchiga o'zining talablaridan voz kechish huquqi berilgan bo'lса, ularning predmeti yoki asoslarini o'zgartirish huquqi cheklangan.

Shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ushbu toifadagi ishlar talablarni tan olish, qarshi ariza taqdim etish, kelishuv bitimini tuzish, ishni hakamlik sudiga o'tkazishga haqli emas.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risida ariza bilan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagи tadbirkor o'zida ushbu faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjalarni olish yoki tiklash imkonи bo'lмаган taqdirda va qonun hujjalarda tegishli faktlarni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lса, iqtisodiy sudga murojaat qilishi mumkin. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash

to'g'risidagi ishlar ko'chmas mulk joylashgan yerdagi iqtisodiy sudga taqdim etiladi.

Sud iqtisodiyot sohasidagi huquqlarining yuzaga kelishi, o'zgartirilishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlaydi.

Iqtisodiy sud yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi bo'yicha quyidagi faktlarni aniqlashi mumkin;

- yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ko'chmas mulkka o'z xususiy mulki sifatida egalik qilishi va undan foydalanishi faktini;

- yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ma'lum vaqtida va ma'lum joyda davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi faktini;

- agar yuridik shaxsning hujjatda ko'rsatilgan nomi, yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi, otasining ismi yuridik shaxsning ta'sis hujjatida ko'rsatilgan nomiga, yakka tartibdagi tadbirkorning pasportida yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasida ko'rsatilgan familiyasiga, ismiga, otasining ismiga to'g'ri kelmasa, iqtisodiyot sohasida amalda bo'lgan huquqni belgilaydigan hujjatning yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga tegishliligi faktini aniqlash to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

Sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni ham, agar qonun hujjatlarida ularni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, aniqlashi mumkin.

Shuningdek, sud O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha yuridik ahamiyatga ega bo'Imagan fakti boshqa mammalakatning qonunchiligi bo'yicha ushbu fakt huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarsa va bu borada o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro bitim mavjud bo'lsa, aniqlashga haqli.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar Iqtisodiy protsessual kodeksida belgilangan da'vo ishini yuritishning umumiyligini qoidalari asosida, biroq IPKning 24-bobida belgilangan qoidalarni inobatga olgan holda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Yuridik shaxs yoki yakka tartibdag'i tadbirkorning yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizasi IPKning 149-moddasi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi va quyidagilar ham ko'rsatilgan bo'lishi lozim: aniqlanish talab qilinayotgan fakt; mazkur fakt iqtisodiyot sohasida yuridik oqibatlar keltirib chiqarishi nazarda tutilgan qonun hujjati normalari; ushbu faktni aniqlash zarurligining asosi; arizachi tomonidan tegishli hujjatlarni olish yoki yo'qotilgan hujjatlarni tiklash imkon yo'qligini tasdiqlovchi dalillar.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizaga IPKning 151-moddasida keltirilgan hujjatlar, xususan, belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini; arizaning ko'chirma nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar boshqa ishtirokchilarga yuborilganligini; ariza talablariga asos bo'lgan holatlarni; arizachining yuridik shaxs yoki yakka tartibdag'i tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini; agar u vakil tomonidan imzolangan bo'lsa, arizani imzolash vakolati berilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash jarayonida sudya:

- ushbu fakt qanday maqsadda aniqlanishi lozimligini;
- qaysi fuqarolar va tashkilotlar bu ishni hal qilinishidan manfaatdor bo'lishlari mumkinligi va sud majlisiga qatnashishga jalb qilinishi lozimligini;
- ushbu fakt qaysi dalillar bilan tasdiqlanishini aniqlashi shart.

Shuningdek, sudya yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlash to'g'risidagi hal qiluv qarori o'z huquqlariga daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan manfaatdor shaxslar doirasini aniqlaydi, ish yuritish to'g'risida ushbu shaxslarni xabardor qiladi, ularni ishda ishtirok etish uchun jalb qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi, sud majlisining vaqtি va joyi to'g'risida xabar qiladi (IPKning 208-moddasi).

Sudya, shuningdek, arizachidan faktni tasdiqlovchi hujjatlarni olish yoki tiklashni imkoniyati yo'qligini isbotlovchi qo'shimcha dalillarni taqdim etishni talab qilishga haqli.

9.2. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasining xususiyatlari

Iqtisodiy sud tomonidan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar arizachi va boshqa manfaatdor shaxslar ishtirokida ko'rildi.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlash to'g'risidagi ishni ko'rishda sud:

- qonun hujjatlarda ushbu faktni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan-tutilmaganligini;
- arizachida zarur hujjatlarni olish yoki tiklash uchun boshqa imkoniyat bo'lgan-bo'lmasiganligini tekshiradi;
- arizachi iqtisodiyot sohasida faoliyatni amalga oshirishi munosabati bilan ushbu fakt uning uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan oqibatlarni keltirib chiqarishini yoki chiqarmasligini belgilaydi;
- talab etilayotgan faktning aniqlanishi boshqa shaxslarning huquqlariga ta'sir etishi yoki etmasligini;
- huquq to'g'risida nizo kelib chiqqan-chiqmaganligini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2010-yil 19-noyabrdagi «Mulk huquqini tan olishga oid ishlarni ko'rishda iqtisodiy sudlar tomonidan qonun hujjatlari qo'llanilishining ayrim masalalari to'g'risida»gi 220-son qarorining 6-bandida iqtisodiy sudlarning e'tibori mulk huquqini tan olish va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar bir-biridan protsessual jihatdan farq qilishiga qaratilishi lozimligi, mulk huquqini tan olish to'g'risidagi ishlarda nizo mavjud bo'lib, ular da'vo tartibida ko'riliishi va ularda taraflar (da'vogar va javobgar), shuningdek, lozim bo'lganda uchinchi shaxslar ham ishtirok etishi tushuntirilgan. Shuningdek, ushbu qarorda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar iqtisodiyot sohasida tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash

haqidagi arizalar asosida qo'zg'atilishi, ushbu ishlardan bo'yicha nizo mavjud bo'lmasligiga to'xtalib o'tilgan.

Ushbu qarorning 7-bandida, agar da'vo arizasida mulk huquqini tan olish so'ralsan bo'lsa-da, ammo uning mazmunidan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash talabi anglashilsa, sud da'vo talabini qanoatlantirishni rad qilishi, sudsarning e'tibori yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash bilan bog'liq ishlarni ko'rishda arizachida mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatning ilgari mavjud bo'lganligi, biroq u yo'qolgan va tiklash imumkin bo'lmasligi tegishli dalillar bilan isbotlangan taqdirda mulkka egalik huquqini emas, balki mulkni arizachiga egalik huquqi asosida tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lganlik fakti tasdiqlanishiga qaratilishi lozimligi tushuntirilgan.

Ta'kidlash lozimki, agar yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash to'g'risidagi ish bo'yicha sud muhokamasida huquq to'g'risida nizo kelib chiqqanligi aniqlansa, sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash to'g'risidagi arizani ko'rmasdan qoldiradi va bu haqda ajrim chiqaradi. Ajrinda arizachiga va ish bo'yicha boshqa manfaatdor shaxslarga ularning sudga da'vo tartibida murojaat qilish huquqi tushuntiriladi.

Iqtisodiy sud tomonidan sud muhokamasi yakunlangandan keyin yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori IPKning 21-bobida belgilangan qoidalarga ko'ra qabul qilinadi.

Iqtisodiy sud tomonidan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash to'g'risidagi ariza qanoatlantirilganda, hal qiluv qarorining xulosa qismida aniqlangan fakt bayon etiladi.

Sudning yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash to'g'risidagi hal qiluv qarori tegishli organlar tomonidan shunday faktini qayd etish uchun yoki aniqlangan fakt munosabati bilan yuzaga keladigan huquqlarni rasmiylashtirish uchun asos bo'ladi va ushbu organlar tomonidan beriladigan hujjatlarning o'rniiga o'tmaydi.

9.3. Yuridik shaxslar va fuqarolarning bankrotligi tushunchasi

Yuridik shaxslarni va fuqarolarni bankrot deb topish masalalari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi «Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4146-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-iyulgi «Korxonalarining bankrotligi to'g'risidagi qonunchilikni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida»gi 362-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-sentabrdagi 765-son qarori bilan tasdiqlangan Sud boshqaruvchilari, ularni attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o'tkazish va malaka attestatini berish tartibi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek, matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklida ish olib borayotgan yuridik shaxsning (davlat korxonasidan tashqari) kreditorlar talablarini qondirishga qurbi yetmasa (57-modda), yakka tartibdag'i tadbirkor kreditorlarning o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan talablarini qanoatlantirishga qodir bo'lmasa, shuningdek, yakka tartibdag'i tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxs kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga qodir bo'lmasa, agar tegishli talablar uning ilgarigi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo'lsa, sudning qaroriga muvofiq bankrot deb hisoblanishi mumkin (26-modda).

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) deganda, iqtisodiy sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatları bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va

(yoki) majburiy to'lovlар bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi tushuniladi.

Qarzdorning yuridik shaxsga nisbatan jami talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida uch yuz baravarini tashkil etsa va bu majburiyatlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa; qarzdor shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonaga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh ming baravarini tashkil etsa va bu majburiyatlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran olti oy ichida bajarilmagan bo'lsa; qarzdor yakka tartibdagi tadbirdorga yoki yakka tartibdagi tadbirdor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsga nisbatan tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy ichida bajarilmagan bo'lsa va qarzdorlik miqdori bazaviy hisoblash miqdorining kamida yigirma baravarini tashkil etsa bankrotlik alomati deb hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, qarzdorning majburiy to'lovlari oldidagi qarzdorlik deganda davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, pul majburiyati deganda qarzdorning fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'yicha hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra kreditorga muayyan pul summasini to'lash majburiyati tushuniladi. Bunga mehnat munosabatidan kelib chiqqan qarzdorlik, ya'ni ishchi va xodimlarga to'lanadigan ish haqi bo'yicha qarzdorlik bankrotlik alomati hisoblanmaydi.

Iqtisodiy sudga pul majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan qarzdor, kreditor va prokuror murojaat etish huquqiga ega. Majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi sababli qarzdor, prokuror, davlat soliq xizmati organlari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi bo'lgan va pul majburiyatları bo'yicha O'zbekiston Respublikasi oldida qarzi bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi va uning hududiy organlari qarzdorning bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishga ega.

Bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar quyidagilar hisoblanadi: qarzdor; sud boshqaruvchisi; kreditorlar (ular tomonidan qarzdorga belgilangan tartibda talablar taqdim etilgan paytdan e'tiboran); bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi; prokuror (bankrotlik to'g'risidagi ish prokurorning arizasi asosida ko'rilibayotgan hollarda). Shuningdek, ayrim hollarda bankrotlik to'g'risidagi ishda qarzdorning xodimlari vakili, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) vakili yoki qarzdorning mol-mulki egasi, qarzdor yakka tartibdagи tadbirkorning yoki yakka tartibdagи tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning vakili, kreditorlar yig'ilishi (kreditorlar qo'mitasi) vakili hamda boshqa shaxslar ishtirok etishlari mumkin (Qonunning 36-moddasi).

Qarzdor va kreditorning iqtisodiy sudga murojaat qilish tartibi bir-biridan farq qiladi. Qarzdor tomonidan qarzdor yuridik shaxs qarzdor muassislarning (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining qarori yoxud qarzdor mol-mulkining egasi tomonidan vakil qilingan organning qarori asosida bankrotlik haqida ish qo'zg'atish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilinishi mumkin.

Qarzdorning arizasi. Qarzdorning o'zini bankrot deb topish to'g'risidagi arizasi iqtisodiy sudga yozma shaklda beriladi va tegishincha qarzdor yuridik shaxsning rahbari yoki qarzdor yakka tartibdagи tadbirkor yoxud yakka tartibdagи tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxs yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi.

Qarzdorning o'zini bankrot deb topish to'g'risidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatilishi kerak: pul majburiyatlar bo'yicha kreditorlar talablarining qarzdor tomonidan e'tiroz bildirilmayotgan miqdordagi summasi; qarzdorning xodimlar hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, ularga mehnat haqini va to'lanishi kerak bo'lgan ishdan bo'shatish nafaqasini to'lash borasidagi qarz summasi; mualliflik shartnomalari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan haq summasi; majburiy to'lovlari bo'yicha qarz summasi; kreditorlarning talablarini to'la hajmda qondirishga qodir emaslikning asosi;

qarzdorga taalluqli, sudlarning ish yuritishiga qabul qilingan da'vo arizalari to'g'risidagi, shuningdek, so'zsiz (akseptsiz) hisobdan chiqarish uchun taqdim etilgan ijro hujjatlari va boshqa hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar; qarzdordagi bor mol-mulk, shu jumladan pul mablag'lari, debitorlik qarzi to'g'risidagi ma'lumotlar; qarzdorning bankdagi hisobvaraqlari raqamlari, bankning pochta manzili; ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

Qarzdorning o'zini bankrot deb topish haqidagi arizasida bankrotlik to'g'risidagi ishni to'g'ri hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar, shuningdek, qarzdorda iltimosnomalar bo'lsa, ular ham ko'rsatiladi. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning o'zini bankrot deb topish haqidagi arizasida uning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ham ko'rsatiladi. Kreditorlarga hamda bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga qarzdor o'z arizasidan nusxa yuborishi shart. Agar qarzdor ariza bergunga qadar qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili, qarzdorning xodimlari vakili saylangan (tayinlangan) bo'lsa, mazkur shaxslarga ham qarzdor arizasining nusxasi yuboriladi.

Qarzdorning o'zini bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksining 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlari, xususan belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini; arizaning ko'chirma nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar ishda ishtirok etuvechi shaxslarga yuborilganligini; ariza talablariga asos bo'lgan holatlarni; arizachi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini; arizasini imzolash vakolatini, agar u vakil tomonidan imzolangan bo'lsa tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Shuningdek, kreditorlarning talabini qarzdor to'la hajmda qondirishga qodir emasligini, qarzdorning arizasiga asos bo'lgan boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Qarzdorning o'zini bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga quyidagilar ham ilova qilinadi:

- qarzdor yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari, shuningdek, yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qtgan jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar;
- qarzdorning kreditorlari va debitorlari ro'yxati, uning kreditorlik va debitorlik qarzini izohlagan hamda kreditorlari va qarzdorlarining pochta manzillarini ko'rsatgan holda;
- so'nggi hisobot kunidagi holatga ko'ra buxgalteriya balansi yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlar;
- qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qtgan jismoniy shaxsning mol-mulki tarkibi va qiymati to'g'risidagi hujjatlar;
- qarzdor muassisalarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining qarzdor o'zini bankrot deb topish to'g'risida ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishi haqidagi qarori;
- agar qarzdorni bankrot deb topish haqidagi ariza berilgunga qadar qarzdor xodimlari yig'ilishi o'tkazilib, unda bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rishda ishtirok etish uchun qarzdorning xodimlari vakili saylangan bo'lsa, ana shu yig'ilish bayonnomasi.

Kreditorning arizasi. Kreditorning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizasi iqtisodiy sudga yozma shaklda beriladi. Kreditor yuridik shaxsning arizasi uning rahbari yoki vakili tomonidan, kreditor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qtgan jismoniy shaxsning arizasi esa shu jismoniy shaxsning o'zi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Kreditorning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak: ariza berilayotgan iqtisodiy sudning nomi; arizachining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning pochta manzili; qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning pochta manzili; qarzdorning kreditor oldidagi talab kelib chiqishiga sabab bo'lgan pul majburiyati miqdori, shuningdek, uni bajarish muddati; kreditor talablarining asosliligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur

talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati; ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

Kreditorning qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizasida bankrotlik to'g'risidagi ishni to'g'ri hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar, shuningdek, kreditorda iltimosnomalar bo'lsa, ular ham ko'rsatilishi mumkin. Kreditor qarzdorga o'z arizasidan nusxa yuborishi shart.

Kreditorning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari qarzdorning kreditor oldidagi pul majburiyatlarini, shuningdek, bu majburiyatlar bo'yicha qarzi borligini va uning miqdorini, kreditorning arizasiga asos bo'lgan boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Kreditorning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga, agar bor bo'lsa, quyidagilar ham ilova qilinadi:

kreditorning qarzdorga bo'lgan talablarini ko'rib chiqqan sud qarori;

ijro hujjati (ijro varaqasi, qarzdor tomonidan akseptlangan to'lov talablari, notariusning ijro xati va boshqalar) yoki kreditor talablari qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Pleumining 2006-yil 27-yanvardagi «Bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi 142-sonli qaroriga ko'ra bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi, shuningdek, davlat soliq xizmati organi va prokuorning qarzdorning bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizalari iqtisodiy sudlar tomonidan davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilinadi. Iqtisodiy sud tomonidan ariza qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji qarzdordan undiriladi. Davlat boji to'lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan kreditorning manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan arizani qanoatlantirish rad etilgan taqdirda, davlat boji ariza qaysi shaxsning manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan bo'lsa, shu shaxsdan undiriladi.

Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining ustav fondida davlat ulushi bo'lgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatlari bo'yicha qarzi bor korxonani bankrot deb topish to'g'risidagi arizasi iqtisodiy sudga yozma shaklda, qarzdorning iqtisodiy nochorligini tasdiqlovchi zarur hujjatlar ilova etilgan holda beriladi. Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining arizasi iqtisodiy sudga kreditor tomonidan rasmiy lashtirishi lozim bo'lgan qoidalar va ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilinadi.

Davlat soliq xizmati organining va boshqa vakolatli organning qarzdorni majburiy to'lovlari bo'yicha bankrot deb topish to'g'risida iqtisodiy sudga beradigan arizasi kreditor arizasi uchun nazarda tutilgan talablarga javob berishi kerak.

Davlat soliq xizmati organi va boshqa vakolatli organ (O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning undirilishi ustidan nazorat olib boruvchi vakolatli organ)ning qarzdorning bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizasiga qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to'lovlari bo'yicha qarzni olishga doir choralar ko'riganligi haqida dalillar ilova qilinishi kerak. Arizaga kreditorning qarzni undirish to'g'risidagi sud qarori, ijro hujjati (ijro varaqasi, qarzdor tomonidan akseptlangan to'lov talablari, notariusning ijro xati va boshqalar) yoki kreditor talablari qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lsa, ilova qilinadi.

Hisob raqamiga qo'yilgan va qarzdorning pul mablag'lari yo'qligi uchun bank bajarmagan inkasso topshiriqnomalarining arizaga ilova qilinishi davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan qarzni olishga doir choralar ko'riganligining dalili bo'lishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organi qarzdorning mol-mulki mavjud bo'lganda soliq qarzini undirishni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi iqtisodiy sudning qarorini va undirishni mol-mulkka qaratish natijasida soliq qarzi to'lanmaganligini tasdiqlovchi dalillarni arizaga ilova qilishi shart.

Prokuror qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga quyidagi hollarda murojaat etishga haqli:

- bankrotlikning yashirilgan alomatlarini aniqlaganida;
- kreditor manfaatlarini ko'zlab.

Prokurorning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizasi iqtisodiy sudga kreditor arizasiga qo'yilgan talablarga rioya etilgan holda beriladi.

Qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani qabul qilish va bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish yoki arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to'g'risidagi masalani sudyar ariza tushgan paytdan e'tiboran besh kundan kechiktirmay hal etadi (Qonunning 45-moddasi).

«Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq qarzdor rahbari, tugatish komissiyasi a'zolari yoki tugatuvchi tornonidan iqtisodiy sudga qarzdorning arizasi taqdim etilmaganligi Qonunning 8-moddasida ko'rsatilgan muddat, ya'ni bir oylik muddat tugaganidan keyin yuzaga kelgan qarzdorning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdor rahbarining, tugatish komissiyasi a'zolarining yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligiga sabab bo'ladi. Qayd etilgan shaxslarning subsidiar javobgarligi fuqarolik ishlari bo'yicha sndlarda ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuning 10-moddasiga ko'ra iqtisodiy sud qarzdorning bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizani ish yuritish uchun qabul qilib olgan paytdan e'tiboran kreditorlar qarzdorga o'z talablarini qondirish maqsadida yakka tartibda murojaat etishga haqli emas.

9.4. Bankrotlik to'g'risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash

Sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «Bankrotlik

to'g'risida»gi Qonuning talablariga rioya etilgan holda berilgan arizani o'z ish yuritishiga qabul qiladi.

Sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ish yuritishiga qabul qilar ekan, kuzatuvni joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani qabul qilish va bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi ajrimi iqtisodiy sud tomonidan davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga, qarzdor joylashgan yerdagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi. Qarzdor yuridik shaxsnинг o'ziga nisbatan bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ajrimning nusxasini o'zining vakolatxonaları va filiallari joylashgan yerdagi shunday shaxslarga (organlarga) yuborish majburiyati uning o'ziga yuklatiladi.

Agar «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan shart buzilgan bo'lsa, ya'ni bankrotlik alomatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etadi. Iqtisodiy protsessual kodeksining 154-moddasiga ko'ra, agar ariza sudga taalluqli bo'lmasa, shuningdek, ayni shu shaxs sudning qarori bilan ilgari bankrot deb e'tirof etilgan bo'lsa, sud tomonidan arizani qabul qilish rad etilishi mumkin.

Agar qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 37–41-moddalarida nazarda tutilgan talablarga javob bermasa, ya'ni ariza shakli va mazmuni, shuningdek, ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar muvofiq bo'lmasa, sudya arizani qaytaradi. Shuningdek, Iqtisodiy protsessual kodeksining 155-moddasiga ko'ra, agar: ariza imzolanmagan va uni imzolash huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan imzolagan bo'lsa; ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo'lmasa; davlat boji va pochta xaraflatları belgilangan tartibda to'lanmagan bo'lsa; arizani qaytarib olish to'g'risida ariza kelib tushgan bo'lsa ariza qaytariladi.

Iqtisodiy sudga mol-mulki mavjud bo'lgan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atish haqidagi ariza bilan murojaat qilinganda, unda muvaqqat boshqaruvchi-

ning nomzodi ko'rsatilishi lozim. Arizada muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda iqtisodiy sud arizachidan yoki bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organidan yoxud sud boshqaruvchilarining professional birlashmasidan tegishli nomzodni taqdim etishni talab qilishga haqli bo'ladi. Bunday holatda kuzatuv taomilini joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash masalasi bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atish haqidagi ariza tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay hal qilinadi.

Kuzatuv taomili qarzdor – yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o'tkazish maqsadida qarzdorning bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladi. Ushbu vazifalarning bajarilishi muvaqqat boshqaruvchi zimmasiga yuklanadi.

Qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etish qarzdorga tegishli mol-mulk sud xarajatlarini, sud boshqaruvchilariga haq to'lash xarajatlarini qoplash uchun yetarliligini, shuningdek, qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini, shu jumladan qarzdorning mol-mulki bo'lsa, shu mol-mulkni inventarizatsiya qilish natijalarini moliyaviy tahlil qilish, mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tahlil qilish asosida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi takliflarni, bankrotlikning keyingi taomillarini joriy etish maqsadga muvosiqligi asoslarini tayyorlaydi.

Agar qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish natijasida qarzdorga tegishli mol-mulk sud xarajatlarini qoplash uchun yetarli emasligi aniqlansa, kreditorlar faqat sud xarajatlarini qoplash manbalari aniqlangan taqdirda tashqi boshqaruvni joriy etish haqida iqtisodiy sudga iltimosnoma bilan murojaat etish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Kuzatuv joriy etilgan paytdan e'tiboran:

– mulkiy undiruvlar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish to'xtatib turiladi, ish haqj bo'yicha, mualliflik shartnomalari bo'yicha haqlarni, alimentlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirish haqidagi, shuningdek, hayot yoki sog'liqqa yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish haqidagi, iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilingan paytg'a qadar qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari asosida berilgan ijro hujjatlarini ijro etish bundan mustasno. Iqtisodiy sudning arizani ish yuritishga qabul qilish va bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ajrimi ijro hujjatlarini ijro etishni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi;

– qarzdor yuridik shaxs muassislarning (ishtirokchilarining) uning tarkibidan muassislari (ishtirokchilari) chiqib ketishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkidan ulushni (payni) ajratish haqidagi talablarini qondirish taqiqlanadi;

– emissiya qilingan qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va boshqa to'lovlarini to'lash taqiqlanadi;

– muqobil bir xildagi talabni hisobga olish yo'li bilan qarzdorning pul majburiyatlarini tugatishga, basharti bunda «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 134 va 169-moddalarida nazarda tutilgan kreditorlarning talablarini qondirish navbatи buzilsa, yo'1 qo'yilmaydi.

Kuzatuv taomili hamda bu qoidalar yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jisrnoniy shaxsning va soddalashtirilgan taomil bo'yicha qarzdorning bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ishlarga tatbiq etilmaydi.

Bankrotlik to'g'risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlashda suda Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda va «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunda belgilangan o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsning arizasiga binoan kreditorlar talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni ko'radi (Qonunning 46-moddasi);
- ekspertiza tayinlash to'g'risidagi masalani hal etadi (Qonunning 48-moddasi);
- bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxs-larning arizalari va shikoyatlarini ko'rib chiqadi (Qonunning 59-moddasi);
- qarzdorning e'tirozlari (muvaqqat boshqaruvchining iltimosnomasi) mavjudligida arizachining qarzdorga nisbatan talablarining asosliliginini tekshirish maqsadida sud majlisini o'tkazadi (Qonunning 70-moddasi).

Iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayot-gan shaxsning arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga muvofiq kreditorlar talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar ko'rishga haqli.

Kreditorlarning talablarini ta'minlashga doir, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan chora-tadbirlardan tashqari iqtisodiy sud bitimlarni sud boshqaruvchisi roziligidiz tuzishni taqiqlab qo'yishga, qarzdorga qimmatli qog'ozlarni, valyuta qimmatliklarini va boshqa mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirishni yuklashga hamda qarzdorning mol-mulki saqlanishini ta'minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ko'rishga haqli.

Kreditorlarning talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar tegishincha iqtisodiy sud tomonidan bankrotlik taomillaridan birini joriy etish to'g'risida yoki iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilingunga qadar yoxud iqtisodiy sud tomonidan kelishuv bitimi tasdiqlangunga qadar amal qiladi.

Ishni ko'rishga tayyorgarlik ko'rish paytida sudya kredi-torlarning talablari yuzasidan qarzdorda e'tirozlar bo'lsa, sudya qarzdorning e'tirozlari asosliliginini tekshiradi.

Sudyaning qarzdor e'tirozları (muvaqqat boshqaruvchi iltimosnomalari) asosliligi tekshirishi bankrotlik to'g'risidagi

ishni ko'rib chiqishning belgilangan muddatiga kamida bir oy muhlat qolganda o'tkaziladi.

Iqtisodiy sud qarzdorning e'tirozlari asosliligini ko'rib chiqish natijalari asosida mazkur talablarni kreditorlarning talablari reyestriga kiritish yoki mazkur reyestrga kiritishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi. Ajrimda kreditorlarning, agar ularga nisbatan qarzdorning e'tirozlari asossiz deb topilgan bo'lsa, talablari miqdori va ularni qondirish navbati ko'rsatiladi.

Kreditorlarning talablari yuzasidan qarzdorning e'tirozlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha iqtisodiy sud chiqargan ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning amal qilishini to'xtatib qo'ymaydi.

Sud majlisida ishni ko'rish uchun tayyorgartlik ko'rish.

Bankrotlik to'g'risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlashda suda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 163-moddasini qo'llaydi.

9.5. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarni iqtisodiy sudda ko'rish

Yuridik shaxslar va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlar iqtisodiy sud tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq ko'rib chiqladi (O'zR IPKning 210-moddasi).

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsnинг arizasiga binoan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda kreditorlarning talablarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga muvofiq amalga oshirishga haqlidir.

Kreditorlarning talablarini ta'minlash choralarini tegishli ravishda iqtisodiy sud tomonidan bankrotlik tartib-taomillaridan birini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilgunga qadar yoki

Iqtisodiy sud qarzdorni bankrot deb e'lon qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilgunga qadar yoki iqtisodiy sud tomonidan kelishuv bitimi tasdiqlanmaguncha amal qiladi.

Barcha iqtisodiy nizolar kabi bankrotlik ishlarini iqtisodiy sud tomonidan ko'rishda ishni keyinga qoldirish, ish yuritishni to'xtatib turish, ishni ko'rmasdan qoldirish va ish yuritish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Bankrotlik to'g'risidagi ishni to'xtatib turish.

Qonunda faqat bankrotlik institutiga xos bo'lgan maxsus, o'ziga xos, ish yuritishni to'xtatib turish uchun asoslar belgilanmagan. Bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risida ajrim chiqarilayotganda sud O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 101–102-moddalari qoidalarini hisobga oladi.

Bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni to'xtatib turish mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslarga mehnat haqi to'lash va ishdan bo'shatish nafaqasi to'lash bo'yicha talablarning miqdori va tarkibi xususida sud boshqaruvchisi va qarz dor xodimlarining vakili o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar, kreditorlar, qarz dor muassisalarining yoki qarz dor mol-mulki egasining vakillari tomonidan ularning huquq va qonuniy manfaatlarni buzayotgan sud boshqaruvchisi harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlarni, shuningdek, kreditorlarning talablari miqdori, tarkibi va ularni qondirish navbatiga doir kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishga monelik qilmaydi.

«Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunga asosan IPKda begilangan qoidalaridan farqli jihat yana shundaki, odatda, iqtisodiy ishlari IPKning 101, 102-moddalariga asosan to'xtatib turilganda, toki ish tiklangunga qadar iqtisodiy sud hech qanday protsessual harakatlarni amalga oshirmaydi. Bankrotlik ishlari qayta tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan asoslarga ko'ra to'xtatilganda, iqtisodiy sud ishni ko'rishdan chetlatilmaydi, balki qayta tashkil etish chorasingning borishini nazorat qiladi, chunki Qonun bilan sudga maxsus vakolatlar berilgan, xususan sud boshqaruvlarni tayinlash, tashqi boshqaruvni tugatish, tashqi boshqaruvni uzaytirish, sud sanatsiyasini tugatish va boshq.

Korxonaning rahbariga yoki muassislariga (ishtirokchilariga) yoxud mulkdoriga nisbatan korxonani bankrotlikka olib kelgan harakatlari (harakatsizligi) uchun jinoyat ishi qo'zg'atilgan taqdirda bankrotlik to'g'risidagi ishni yuritish jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha qaror qabul qilingutiga qadar to'xtatib turiladi.

Bankrotlik to'g'risidagi ishni tugatish. O'zbekiston Respublikasining «Bakrotlik to'g'risida»gi Qonuning 56-moddasiga ko'ra iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni quyidagi hollarda tugatadi:

- sud sanatsiyasi jarayonida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganda;
- tashqi boshqaruva jarayonida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganda;
- kelishuv bitimi tuzilganda;
- bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi barcha kreditorlar bildirilgan talablardan voz kechganda;
- kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari har qanday bankrotlik taomili jarayonida qondirilganda.

Iqtisodiy sud qonunga muvofiq boshqa hollarda ham bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatishi mumkin.

Bankrotlik ishlarida kelishuv bitimini tuzish shartlari. «Bankrolik to'g'risida»gi Qonunga muvofiq tuzilgan kelishuv bitimining shartlari faqat kelishuv bitimini tuzish haqida qaror qabul qilgan kreditorlar yig'ilishi o'tkazilgan sanaga kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talablarga nisbatan tatbiq etiladi. Kreditorlarning talablari reyestriga talablari kiritilmagan kreditorlar, kelishuv bitimi tasdiqlangan va bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritish tugatilgandan so'ng, kelishuv bitimi shartlarini hisobga olmagan holda, o'z talablarini umumiy tartibda taqdim etishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2006-yil 27-yanvardagi «Bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi 142-sonli qaroridagi tushuntirishlarga ko'ra, kelishuv

bitimini tuzish masalasi ko'rileyotgan kreditorlar yig'ilishida birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh kreditorlari ovozga ega va qaror, basharti kreditorlar yig'ilishida ishtirok etayotgan ushbu guruuhlar kreditorlarining ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi.

Kelishuv bitimini tasdiqlash haqida iqtisodiy sud ajrim chiqaradi va unda bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritish tugatilishi ko'rsatiladi.

Agar kuzatish taomilida qarzdor yuridik shaxs boshqaruv organining vakolatlari iqtisodiy sudning ajrimi bilan tugatilgan va muvaqqat boshqaruvchining zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, u holda qarzdor nomidan kelishuv bitimi muvaqqat boshqaruvchi tomonidan imzolanadi.

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida kelishuv bitimi tuzilganida, iqtisodiy sudning ajrimida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi hal qiluv qarori ijro etilmasligi ko'rsatiladi.

Ish haqi bo'yicha qarzning mavjudligi iqtisodiy sud tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etish uchun asos bo'ladi.

Qarzdor tomonidan kelishuv bitimining shartlari bajarilmagan holda, kreditorlar taalluqligiga ko'ra umumiy yurisdiksiya sudiga yoki iqtisodiy sudga da'vo arizasi berishga haqli. Bunda kreditorlarning talablari miqdori kelishuv bitimi shartlari asosida aniqlanadi.

Bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rish muddati va ishni ko'rish natijasida qabul qilinadigan sud hujjatlari. Bankrotlik to'g'risidagi ish iqtisodiy sudining majlisida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran ikki oydan oshmagan muddat ichida ko'rib chiqishi kerak. Istisno hollarda, bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish ikki oydan ko'p bo'limgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha iqtisodiy sud quyidagi sud hujjatlardan birini qabul qiladi:

– qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qaror;

- qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi qaror;
- sud sanatsiyasini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to'g'risidagi ajrim;
- tashqi boshqaruvni joriy etish va uning muddatini uzaytirish to'g'risidagi ajrim;
- bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish haqidagi ajrim;
 - qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ko'rmasdan qoldirish haqidagi ajrim;
 - kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrim.

Bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha sud hujjatlari darhol ijro etilishi lozim. Bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha sud hujjatining ko'chirma nusxasi sud tomonidan darhol qarzdorning turgan joyidagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi.

Sud sanatsiyasini, tashqi boshqaruvni joriy etish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoki bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish uchun asoslar bo'limganda, iqtisodiy sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qarori «**Bankrotlik** to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida nazarda tutilgan bankrotlik alomatlari aniqlangan hollarda qabul qilinadi.

Iqtisodiy sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qarorida qarzdorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash, tugatish boshqaruvchisini tayinlash va unga haq to'lash haqidagi ko'rsatma aks ettirilishi lozim.

Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qarori ustidan **bankrotlik** to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shu jumladan har qanday kreditorlardan biri tomonidan, shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb etilmagan, huquqlari va majburiyatları haqida sud qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan shikoyat berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Iqtisodiy sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'g'risidagi qarorida qarzdorning yakka

tartibdag'i tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi o'z kuchini yo'qotganligi ko'rsatiladi.

Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinadi:

- bankrotlik alomatlari aniqlanmaganda;

- iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror qabul qilgunga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qondirilganda;

- soxta bankrotlik aniqlanganda.

Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi qarori «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qabul qilinishi mumkin.

Qarzdorda yetarli miqdorda likvid mol-mulk borligidan shohidlik beruvchi dalillar bo'lgan taqdirda iqtisodiy sud qarzdorning iltimosnomasiga binoan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rishni keyinga qoldirishga, qarzdorga kreditorlarning talablarini iqtisodiy sud tomonidan belgilangan muddatda qondirishni taklif etishga haqli, bu muddat o'ttiz kundan oshmasligi kerak.

Iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinishi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilinganligi va (yoki) kuzatuv joriy etilganligi oqibati bo'lgan barcha cheklovlarining amal qilishi tugatilishi uchun asos bo'ladi.

«Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 56-moddasiga binoan sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruva jarayonida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganda, kelishuv bitimi tuzilganda va u iqtisodiy sud tomonidan tasdiqlanganda, bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi barcha kreditorlar bildirilgan talablaridan voz kechganda, kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari har qanday bankrotlik taomili jarayonida qondirilganda bankrotlik to'g'risidagi ish yuritish iqtisodiy sudning ajrimi bilan tugatiladi.

Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan qarzdorning bankrotligi. Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonaga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi

tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi o'z kuchini yo'qotganligi ko'rsatiladi.

Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinadi:

– bankrotlik alomatlari aniqlanmaganda;

– iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror qabul qilgunga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qondirilganda;

– soxta bankrotlik aniqlanganda.

Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi qarori «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qabul qilinishi mumkin.

Qarzdorda yetarli miqdorda likvid mol-mulk borligidan shohidlik beruvchi dalillar bo'lgan taqdirda iqtisodiy sud qarzdorning iltimosnomasiga binoan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rishni keyinga qoldirishga, qarzdorga kreditorlarning talablarini iqtisodiy sud tomonidan belgilangan muddatda qondirishni taklif etishga haqli, bu muddat o'ttiz kundan oshmasligi kerak.

Iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinishi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilinganligi va (yoki) kuzatuv joriy etilganligi oqibati bo'lgan barcha cheklovlarning amal qilishi tugatilishi uchun asos bo'ladi.

«Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 56-moddasiga binoan sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruva jarayonida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganda, kelishuv bitimi tuzilganda va u iqtisodiy sud tomonidan tasdiqlanganda, bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etuvchi barcha kreditorlar bildirilgan talablardan voz kechganda, kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari har qanday bankrotlik taomili jarayonida qondirilganda bankrotlik to'g'risidagi ish yuritish iqtisodiy sudning ajrimi bilan tugatiladi.

Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan qarzdorning bankrotligi. Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonaga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi

sudgacha sanatsiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi haqida qaror qabul qilganda va kreditorlar sudgacha sanatsiya qilish o'tkazilishiga rozi bo'lgan taqdirda, iqtisodiy sud «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 61-moddasi, uchinchi qismiga muvofiq bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritishni tugatish haqida ajrim chiqaradi.

Agar iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risida hal qiluv qarori bo'lsa yoki qarzdar korxona tugatilgan va davlat reyestridan chiqarilgan bo'lsa, bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritish IPK 110-moddasining 2 va 4-bandlariga ko'ra tugatiladi.

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida kreditorlarning talabiari reyestriga kiritilgan barcha talablar qondirilganda va qarzdorning o'z xo'jalik faoliyatini davom ettirishga imkoniyati mavjud bo'lгanda, tugatish boshqaruvchisi taqdim etgan hisobotni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritishni tugatish haqida ajrim chiqaradi va unda qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarori ijro etilmasligi ko'rsatiladi.

Agar korxonaning ustav fondida davlat ulushi bo'lsa, iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganligi haqida bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organini xabardor qiladi.

Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganligi haqidagi xabarni olgan kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida iqtisodiy sudga sudgacha sanatsiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvosiq emasligi xususidagi o'z qarorini ma'lum qiladi.

Kreditorlar sudgacha sanatsiya qilish o'tkazilishiga rozi bo'lgan taqdirda bankrotlik to'g'risidagi ish tugatiladi.

Kreditorlar sudgacha sanatsiya qilish o'tkazilishiga rozi bo'lмаган taqdirda bankrotlik to'g'risidagi ish muhokamasi «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Iqtisodiy sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish. Iqtisodiy sud tomonidan kuzatuvni, sud sanatsiyasini, tashqi boshqaruvni

yo'qligini ham tushunish lozim. Bu hol qarzdor – yuridik shaxs turgan joyi (pochta manzili) bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, uy-joy mulkdorlarining shirkati, turarjoy yoki odam yashamaydigan joyning mulkdori vakillari va (yoki) sud boshqaruvchisi ishtirokida tuzilgan dalolatnomalar yoxud qarzdorning mol-mulki mavjud emasligi sababli ijro hujjatini ijrosiz qaytarish to'g'risidagi davlat ijrochisining qarori bilan tasdiqlanishi mumkin.

Tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish haqidagi arizada tugatish boshqaruvchisining nomzodi arizachi tomonidan ko'rsatiladi.

«Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 185-moddasiga binoan agar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi va (yoki) o'zining ustav jamg'armasini shakllantirmaganligi munosabati bilan tugafilishi to'g'risida qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, bunday yuridik shaxs Qonunda nazarda tutilgan tartibda tugatiladi. Ushbu hollar aniqlanganda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli choralarни ko'rish uchun davlat soliq xizmati organiga murojaat etishi shart.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning bankrotligi. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxs kreditorlarining barcha talablari to'liq qanoatlantirilgandan va hisob-kitoblar tugagandan keyin iqtisodiy sud tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning barcha kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun mol-mulki yetarli bo'limgan hollarda, davlat ijrochisi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 37 va 39-moddalarida belgilangan

qoidalarga muvosiq undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish haqidagi ijro varaqasini iqtisodiy sudga qaytaradi. Iqtisodiy sud ijro varaqasini qaytarish haqidagi hujjatlarni ko'rib chiqqandan keyin tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi to'g'risida ajrim chiqaradi.

Agar «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 181-moddasi, ikkinchi qismiga muvosiq tugatish boshqaruvchisi tayinlangan bo'lса, u holda tugatishga doir ish yuritish «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 142 va 144-moddalarida belgilangan qoidalar bo'yicha tarmoqlanadi.

Yuridik shaxslarning ayrim toifalari, yakka tartibdagи tadbirkor, yakka tartibdagи tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsnинг, tugatilayotgan yuridik shaxs va hozir bo'lмаган qarzdorning bankrotlik to'g'risidagi ishi ko'rila-yotganda, qonun hujjatlariда boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning umumiy qoidalari qo'llaniladi.

Iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilingan paytdan e'tiboran «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 125-moddasiga binoan ijro hujjatlарини ijro etish tugatiladi, ijro hujjatlari qonun hujjatlарida belgilangan tartibda sud ijrochilar tomonidan tugatish boshqaruvchisiga o'tkaziladi. Sud xarajatlarini undirish haqidagi ijro hujjatlari iqtisodiy sud tomonidan tugatish boshqaruvchisiga yuboriladi.

Tugatishga doir ish yuritish taomilini o'tkazish natijalari to'g'risida tugatish boshqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan hisobot «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 144-moddasiga asosan iqtisodiy sud tomonidan, zarur hollarda, sud majlisida IPK 168-moddasining birinchi qismi talablariga rioya qilgan holda ko'rildi. Tugatish boshqaruvchisining hisoboti asosli deb topilganda, iqtisodiy sud tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi, hisobot asossiz deb topilganda esa – sud tugatishga doir ish yuritishni tamomlashni rad etish haqida ajrim chiqaradi. Ushbu holatda tugatishga doir ish yuritishni tamomlash masalasi kamchiliklar bartaraf

etilganidan va yangi hisobot taqdim etilgandan so'ng ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarori bekor qilingan va ish yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborilgan taqdirda, qarzdor boshqaruv organining vakolatlari tiklanadi. Bu holda tugatish boshqaruvchisi qarzdor boshqaruv organining vakolatlari tiklangan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida buxgalteriya va boshqa hujjatlar, muhr va shtamplar, moddiy va boshqa qimmatliklarning topshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2006-yil 27-yanvardagi «Bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjalarni iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi 142-sonli qarorida muayyan ish holatlaridan kelib chiqib, bankrotlik to'g'risidagi ishlarni sayyor sud majlislarida ko'rib, hal etishlari lozimligi, bunda bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi, davlat soliq xizmati, prokuratura, huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan birqalikda korxonalarini iqtisodiy nochor ahvolga olib keluvchi debitorkreditorklik qarzlarining yuqoriligi hamda zarar ko'rib faoliyat ko'rsatish sabablarini aniqlash, xo'jasizlik, pul mablag'larini behuda sarflash, ulardan maqsadsiz foydalanish holatlariga yo'l qo'ygan aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalalariga alohida e'tibor berish kerakligi belgilangan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik faktini aniqlash to'g'risidagi arizada nimalar ko'rsatilishi kerak?
2. Iqtisodiy sud tomonidan qanday huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash mungkin?
3. Iqtisodiy sudning yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktini aniqlash to'g'risidagi hal qiluv qarorida nimalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim?
4. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatini tushuntirib bering.

5. Yuridik shaxs va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
6. Qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan kimlar murojaat qilishi mumkin?
7. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarni tugatish va iqtisodiy ishlarni tugatish asoslaridagi farqni ajrating.
8. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarda qanday sud hujjatlari qabul qilinishi mumkin?

KAZUSLAR

1-kazus

Iqtisodiy sudga fuqaro A.Tursunov murojaat qilib, Toshkent viloyati Zangi ota tumani Yakkasaroy mahallasida joylashgan 58-binoga nisbatan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlashni so'ragan.

Arizada mazkur fakt iqtisodiyot sohasida yuridik oqibatlar keltirib chiqarishi nazarda tutilgan qonun hujjati normalari keltirilmagan.

Iqtisodiy sud tomonidan ariza IPKning 155-moddasiga asosan qaytarilgan.

Bunday vaziyatda iqtisodiy sud qaysi protsessual hujjatni qabul qilishi lozim edi?

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktni aniqlash to'g'risidagi arizani qaytarish va qabul qilishni rad etish asoslaridagi farqini ko'rsating.

2-kazus

«Nurzod» MCHJning budjet oldida va boshqa kreditorlar oldida 500 million so'mlik qarzlar bo'lgan.

Kreditorlik qarzlarini to'lamaslik uchun «Nurzod» MCHJ 600 million so'm miqdoridagi mablag'ni boshqa tashkilotga 10 yil muddatga qarz shaklida o'tkazishga qaror qilgan.

Shundan so'ng, «Nurzod» MCHJ o'zini-o'zi bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan Iqtisodiy sudga murojaat qildi.

Iqtisodiy sud «Nurzod» MCHJ «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida ko'rsatilgan bankrotlik talablariga rioya qilganligi sababli «Nurzod» MCHJni bankrot deb topgan va tugatishga doir ish yuritish tugatish boshlangan.

Mazkur holatda iqtisodiy sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatini qonuniy va to'g'ri deb hisoblash mumkinmi?

10-bo'b. KORPARATIV NIZOLAR BO'YICHA ISH YURITISH

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni moliya-xo'jalik strategiyasi va faoliyati puxta ishlab chiqilgan, moliyaviy siyosati va uni amalga oshirish mexanizmlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh, eksport salohiyatiga ega iqtisodiy jihatdan barqaror korxonalarsiz (hozirda bunday korxonalarning aksariyati sherikchilik, aksiyadorlik, ulushlar, paylar hisobiga tashkil etilayotganligini inobatga olsak, korporativ boshqaruvga ega bo'lgan subyektlarsiz) tasavvur qilish qiyin.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida korporativ boshqaruvning zamонави standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish, alohida milliy korxonalar aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylashtirilishiga erishiш (IPO), ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta'minlash, aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, aksiyadorlik jamiyati shaklidagi tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar ko'rish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, bo'lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta'minlash, zamонави korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilishni belgilovchi qator tadbirlar orqali mazkur sohani tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli vazifalar belgilab berilgan.

Bu borada davlat iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor subyekt sifatida uning o'zi tadbirkorlik bilan bevosita shug'ullanmaydi, balki, sohaga oid umumiy jarayonlarning asosiy siyosiy tashkilotchisi bo'lib, ishlab chiqarishni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi, tadbirkorlikning taraqqiy etishiga huquqiy, iqtisodiy shart-sharoit yaratib beradi. Ushbu funksiyalarni u qonunlar va qonun osti hujjatlarini chiqarish (qonunchilik hokimiyati funksiyasi), qonunlarning lozim darajada ijro etilishini tashkil etish (ijro hokimiyati funksiyasi) va ijtimoiy nizolarni hal etish, tadbirkorlik subyektlarini turli noqonuniy xatti-

harakat yoki harakatsizliklardan himoya qilish (sud hokimiyati funksiyasi) usullari orqali amalga oshiradi. Ayniqsa, xususiy mulkning va xususiy mulk huquqiga asoslangan korxonalar tomonidan olinadigan daromadlarning daxlsizligini kafolatlash, raqobat muhitini shakllantirish, mulkdorlarning manfaatdorlik huquqlarini kafolatlash va shunga o'xshash choralarни ko'rish o'zining ijobji natijasini beradi.

Mulkdor huquqlarini, shu jumladan korporativ boshqaruva jarayonida ularning qonuniy manfaatlarini kafolatlanishida sudlarning o'rni benihoya yuqori. Chunki, huquqlarining kafolati ta'minlanganligiga «ko'zi yetmagan» mulkdor bunday ishga qo'l urmaydi. Shu o'rinda korporativ nizolarning sudlarda hal etilishi, jumladan qaysi sud tomonidan va qanday tartibda hal etilishi, mazkur toifadagi ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Avvalambor, korporativ nizo tushunchasi nima? Ta'kidlash kerakki, qonun hujjatlarida korporativ nizolar tushunchasi, ularning mazmuni bo'yicha aniq tushuntirishlar mavjud emas. Xorijiy mamlakatlarning qonun hujjatlarida, shuningdek, ayrim huquqshunos olimlarning tadqiqot hamda ilmiy ishlarida bunday nizolarga tushuncha berishda turlicha yondashilgan. Barcha yondashuvlarning asosi mazkur toifadagi nizolarning negizida korporativ munosabatlar turishi ko'rsatilgan.

Korporativ munosabatlar deganda, korporatsiya ishtirokchilar (aksionerlari) bilan korporatsiya rahbariyati (direktorlar kengashi, rayosat) o'rtasida, ishtirokchilar (aksionerlar) bilan ishtirokchilar (aksionerlar) o'rtasida, korporatsiya ishchilar bilan korporatsiya rahbariyati (direktorlar kengashi, rayosat) o'rtasida, korporatsiya bilan davlat, davlat organlari, kreditorlar, hamkorlar, boshqa tashkilotlar, fuqarolar o'rtasida bo'ladigan korporatsiya faoliyatiga bog'liq munosabatlar tushuniladi.

Mazkur toifadagi nizolarni ko'rib chiqish uchun avvalo korporativ nizo subyektlarini aniqlash lozim buladi. Inobatga olish lozimki, korporativ nizolar bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida ham yuridik, ham jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Korporativ subyektlar qatoriga to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha masuliyatlari jamiyat, aksiyadorlik jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlarini kiritish mumkin. Bularning hammasi yuridik shaxs hisoblanib, o'z xo'jalik yurituvidan mol-mulkiga ega bo'ladi va o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradi.

Shuningdek, dividendlarni undirish, ulush ajratish, ishtirokchini jamiyat tarkibidan chiqarish, xo'jalik jamiyatini boshqaruva organlarining qarorlarini haqiqiy emas deb topish haqidagi nizolar bo'yicha esa bir taraf jismoniy shaxs ham bo'lishi mumkin.

Korporativ nizolarning sudlarga taalluqliligi, ya'ni ularning qaysi sud tomonidan hal etilishi protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Korporativ nizolarning sudlarda hal etilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mazkur toifadagi nizolar, dastavval, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda hal etilgan.

Mazkur nizolarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday nizolarda aksariyat hollarda bir taraf jismoniy shaxs bo'lishiga qaramasdan, nizo yuridik shaxsning iqtisodiy faoliyati bo'yicha, ya'ni iqtisodiyot sohasida vujudga keladi. Amaliyotda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda bunday nizolarni aynan shu sabab bo'yicha ko'rib chiqish rad etilgan (ish bo'yicha ish yuritish tugatilgan) holatlar ko'plab uchraydi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2017-yil 6-aprelga qadar amalda bo'lgan 111-moddasi tahririda mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtaсидagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtaсидagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshirilishi qayd etilgan.

Xo'jalik sudlari esa O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi (matnda XPK deb yuritiladi)ning shu vaqtida amalda bo'lgan tahririga asosan subyektiv tarkib bo'yicha, ya'ni jismoniy shaxs xo'jalik sudida taraf sifatida ishtirok eta olmasligidan kelib chiqib, bunday nizolarni ko'rib chiqishga haqli bo'lmasligi. Shu bois, korporativ nizolarning

o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning iqtisodiyot sohasida vujudga kelishini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan XPKga qo'shimchalar kiritilib, korporativ nizolarning asosi qismi, aniqrog'i ishtirokchilar o'rtasida, ishtirokchilar bilan xo'jalik shirkatlari va jamiyatları o'rtasida, aksiyadorlar o'rtasida, aksiyador bilan aksiyadorlik jamiyati o'rtasida xo'jalik shirkatlari va jamiyatları faoliyatidan kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqish taalluqliligi bo'yicha xo'jalik sudlariga o'tkazildi.

XPKda 2013-yildan boshlab mazkur toifadagi ishlar bo'yicha nizo vujudga kelgan taqdirda huquqiy munosabatlar ishtirokchisi yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lishidan qat'i nazar, xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqilishining belgilanishi, xo'jalik protsessida taraf sifatida fuqaroning ishtirok etishi huquqini ta'minlab bergen yangilik bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, korporativ nizolarning ayrimlari xo'jalik, boshqalari esa umumiy yurisdiksiya sudiga taalluqliligi mazkur sohada vujudga kelayotgan nizolarning sudlar tomonidan hal etilishi bo'yicha yagona sud amaliyotining shakllantirilishi va takomillashtirilishida muayyan qiyinchiklarni keltirib chiqarish bilan bir qatorda, korporativ boshqaruв subyektlari o'rtasidagi nizolarni hal etilishi bilan bog'liq ovvoragarchiliklariga sabab bo'ldi.

Keyinchalik, ya'ni 2015-yil 20-avgustda «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'llidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan XPK 23-moddasining ishtirokchilar o'rtasida, ishtirokchilar bilan xo'jalik shirkatlari va jamiyatları o'rtasida, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtasida, aksiyador bilan aksiyadorlik jamiyati o'rtasida xo'jalik shirkatlari va jamiyatları faoliyatidan kelib

chiqadigan nizolarga doir ishlar (bundan mehnatga oid nizolar mustasno) to'g'risidagi 4-bandiga o'zgartirish kiritilib, mehnat nizolaridan tashqari barcha korporativ nizolar xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqilishi belgilandi. Shuningdek, XPKga «Korporativ nizolar bo'yicha ish yuritish» deb nomlangan yangi bob kiritilib, korporativ nizolarni xo'jalik sudlari tomonidan ko'rishning protsessual jihatlari belgib berildi. Mazkur qonun bilan «korporativ nizo» atamasi ilk marotaba xo'jalik protsessual qonunchiligidagi aks ettirildi.

Natijada korporativ nizo taraflarining huquq va qonuniy manfaatlarini yanada samarali himoya qilinishining huquqiy asosi yaratilib, korporativ nizolarni umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudlari tomonidan hal etish amaliyotida mavjud bo'lgan taalluqlilik borasidagi muammolar bartaraf etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4966сонли Farmoniga asosan sud tizimiga o'zgartirish kiritilganidan keyin, ya'ni 2017-yilning 1-iyunidan boshlab korporativ nizolar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tomonidan hal etilib kelinmoqda va bu borada nizolarni ko'rib chiqish 2018-yil 24-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida (matnda IPK deb yuritiladi) belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda.

IPK 25-moddasi birinchi qismining 5-bandida korporativ nizolar bo'yicha ishlarning iqtisodiy sudga taalluqliliqi belgilanganligi sababli bunday nizolarni hal etish to'g'risidagi murojaatlar iqtisodiy sudlarga beriladi.

Korporativ nizolar bo'yicha ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- | |
|---|
| ➤ yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bilan bog'liq nizolar; |
|---|

- xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning, ulushlarning, kooperativlar a'zolari paylarining mansubligi, ularga yuklamalar belgilash va ulardan kelib chiqadigan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq nizolar, bundan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni, ulushlarni, kooperativlar a'zolarining paylarini o'z ichiga oluvchi meros mol-mulkni yoki er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lisl bilan bog'liq holda yuzaga keladigan nizolar mustasno;
- yuridik shaxs ishtirokchilarining (muassisalarining, a'zolarining) yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish va (yoki) bunday bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash haqidagi da'volari bo'yicha nizolar;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan, shu jumladan emitentning boshqaruv organlari qarorlari yuzasidan nizolashish bilan, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish jarayonida tuzilgan bitimlar, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish (qo'shimcha ravishda chiqarish) natijalari bo'yicha hisobotlar (xabarnomalar) yuzasidan nizolashish bilan bog'liq nizolar;
- qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchilarning aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, qonunda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va (yoki) ularning muomalasi munosabati bilan qimmatli qog'ozlarning nominal saqlovchilari tomonidan amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar;
- yuridik shaxs ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi nizolar;
- yuridik shaxs boshqaruv organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi nizolar.

Yodda tuting!

IPKda keltirilgan korporativ nizolar ro'yxati tugal emas. Qonunga muvofiq korporativ nizolar bo'yicha ishlar jumlasiga boshqa nizolar ham kiritilishi mumkin.

10.2. Korporativ nizolar bo'yicha da'vo arisasining shakli va mazmuni, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va sud muhokamasiga tayyorlash

Ma'lumki hap qanday nizoli ish bo'yicha uni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichi muhim hisoblanadi. Chunki sud muhokamasiga puxta tayyorgarlik ko'rish, birinchidan, nizoni qonunda belgilangan protsessual muddatlarda ko'rib hal etilishiga xizmat qiladi, shuningdek, qonuniy va asoslantirilgan sud hujjatini qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Korporativ nizolarning sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi va hal etilishi, ya'nii bunday nizolarning taalluqliligi iqtisodiy sudlar vakolatiga kiradi.

Korporativ nizolar bo'yicha ishlar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (matnda IPK deb yuritiladi)da nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha mazkur o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, korporativ nizolar bo'yicha da'vo talablari bir vaqtning o'zida ham mulkiy (masalan: divident undirish, aksiyalar qiymatini undirish) va ham nomulkiy (masalan: ta'sis shartnomasini haqiqiy emas deb topish) xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Korporativ nizolarning yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xos xususiyatlari protsessual qonunchilikda alohida toifadagi ishlar sirasiga kiritilganligiga sabab bo'lgan.

Korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasi IPKning 149–151-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim.

Korporativ nizo bo'yicha da'vo arisasining shakli va mazmuni

- ❖ Da'vo arizasi berilayotgan sudning nomi;
- ❖ ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- ❖ agar da'vo baholanishi lozim bo'lsa, da'veoning bahosi;
- ❖ da'vo talablariga asos bo'lgan holatlar;
- ❖ da'vo talablarining asoslarini tasdiqlovchi dalillar;

- ❖ da'vogarning qonunchilikka asoslab keltirgan talablari, da'vo bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda esa ularning har biriga nisbatan talablar;
- ❖ javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
- ❖ ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Yodda tuting!

Da'vo arizasida da'vogarning yoki vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Da'vo arizasida, agar nizoni to'g'ri hal qilish uchun zarur bo'lsa, boshqa ma'lumotlar, shuningdek, da'vogardagi mavjud iltimosnomalar ko'rsatiladi.

Korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasiga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilinadi:

- ❖ belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini;
- ❖ da'vo arizasining ko'chirma nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlarni javobgarga va uchinchi shaxslarga yuborilganligini;
- ❖ javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibiga rioya etilganligini, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
- ❖ da'vo talablariga asos bo'lgan holatlarni;
- ❖ da'vogarning yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini;
- ❖ da'vo arizasini imzolash vakolatini, agar u vakil tomonidan imzolangan bo'lsa.
- ❖ Shartnoma tuzishga majbur etish to'g'risidagi da'vo arizasiga shartnoma loyihasi ham ilova qilinadi.

Korporativ nizolar bo'yicha da'vo arizasi (ariza)ni ish yuritishga qabul qilish, qaytarish va qabul qilishni rad etish masalasi IPKda umumiy tartibda belgilangan qoidalarga muvofiq hal etiladi.

Ya'ni da'vo arizasi IPKning 149-moddasida nazarda tutilgan da'vo arizasining shakli va mazmuniga muvofiq bo'lishi lozim. Jumladan, aksiyadorlik jamiyatni, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning boshqaruv organlarining (umumiy yig'ilish, kuzatuv kengashi, ijroiya organi) qarorlarini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish haqidagi da'volar bo'yicha javobgar bo'lib ushbu boshqaruv organlari emas, balki jamiyatning o'zi hisoblanadi.

Shu bois, da'vo arizasida javobgar sifatida muayyan boshqaruv organi ko'rsatilganligi, da'vo arizasini qabul qilishni rad etish yoxud IPKning 45-moddasida belgilangan tartibga rioya qilgan holda javobgarni almashtirish uchun asos bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi investorlarning, qimmatli qog'ozlar egalarining, davlatning manfaatlarini ko'zlab sudda da'vo qo'zg'atishga haqli. Amaliyotda vakolatli davlat organining da'vo arizasida da'vogar ko'rsatilmasdan sudga taqdim etilgan va sud tomonidan bunday da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilinganligi holatlari mavjud.

Vaholanki, IPK talablariga muvofiq da'vo arizasida da'vo kimning manfaatida kirtilganligi, kimning manfaati ko'zlanayotganligi, ya'ni da'vogar, uning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi ko'rsatilishi shart. Da'vo arizasida u kimning mansaatini ko'zlab berilayotganligi ko'rsatilgan bo'lmasa, da'vo arizasi IPK 155-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan qaytariladi. Agar da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, u ko'rmasdan qoldirilishi lozim. Bundan tashqari, mazkur toifadagi nizolarni ish yuritishga qabul qilishda IPKning 213-moddasi talablariga e'tibor qaratish zarur. Ushbu norma talablariga asosan korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasi IPKning 149-moddasida nazarda tutilgan talablarga, ya'ni da'vo arizasining shakli va mazmuniga muvofiq bo'lishi kerakligi, da'vo arizasiga IPKning 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi va uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjat ilova qilinishi lozim. Mazkur talablarga rioya qilinmagan holda

ish yuritishga qabul qilingan da'vo arizasi (ariza) protsessual qonunbuzilishi hisoblanadi. Amaliyotda ushbu qoidaga rioya qilinmagan holda ish yuritishga qabul qilingan da'vo arizasi ishni ko'rish jarayonida sudning tashabbusi, javobgar yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga asosan ish sudlovga tegishlilik qoidalarini buzgan holda qabul qilinganligi sababli IPKning 39-moddasiga asosan ajrim chiqarish orqali tegishli vakolatli sudga o'tkaziladi.

Bir qarashda ushbu harakat orqali protsessual qonunbuzilishi barataraf etilgandek tuyulsa-da, ammo bu holat o'z navbatida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ovoragarchiligiga sabab bo'lishi mumkin.

Korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish masalasini hal qilishda, da'vo arizasi sudga sudlovga tegishlilik qoidasiga riox qilingan holda taqdim etilganligi holatini o'rghanish zarur. Chunki, sudlovga tegishlilikning umumiy qoidasidan farqli ravishda korporativ nizolar bo'yicha da'vo arizasi javobgar davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga emas, balki yuridik shaxs joylashgan joydagi sudga taqdim etiladi. FK 46-moddasining mazmuniga ko'ra yuridik shaxsnинг joylashgan joyi va uning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyi bir-biridan farq qilishi mumkin. Zero, yuridik shaxs qonunga muvofiq, ta'sis hujjatlarida joylashgan joyini mustaqil belgilaydi. Yuridik shaxsnинг joylashgan yeri (pochta manzili) uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Sudlovga tegishlilik qoidasiga riox qilinmagan holda sudga taqdim etilgan korporativ xarakterdagи da'vo arizasi (ariza) IPK 155-moddasi birinchi qismining 3-bandiga asosan qaytariladi.

Korporativ nizolar bo'yicha da'volarning sudlovga tegishliligini aniqlashda IPKning 32-moddasiga ham e'tibor berish zarur. Chunki, taraflardan biri (korporativ nizolar bo'yicha odatda aksiyador, ulush egasi, ta'sischi, ishtirokchi) O'zbekiston Respublikasi norezidenti – chet el shaxsi bo'lган ishlар Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar iqtisodiy sndlari tomonidan ko'rib chiqiladigan nizolar toifasiga kiritilganligi sababli bunday ishlarni tumanlararo,

tuman (shahar) iqtisodiy sudsari tomonidan ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi. Qoida tariqasida boshqa da'volar singari korporativ da'volar bo'yicha ham suddarga murojaat qilinganda, davlat boji oldindan to'lanadi. Albatta, «Davlat boji to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (matnda Qonun deb yuritiladi) da nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatlari davlat organi – o'z zimmasiga yuklatilgan vakolatlariga muvofiq sudsar ko'rib chiqishi uchun kiritiladigan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod etilgan bo'lsa, aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi da'vo bilan iqtisodiy sudga murojaat qiladigan taqdirda aksiyadorlarga davlat bojini to'lash muddati kechiktirilib, bu boj keyinchalik aybdor tarafdan undirib olinishi belgilangan.

Qonunning 4-moddasida belgilangan talablardan kelib chiqib, shuni inobatga olishlari lozimki, agar davlat boji da'vogar (arizachi) o'rniiga boshqa shaxs tomonidan to'langan bo'lsa (korxona uchun uning rahbari yoki ta'sischisi tomonidan davlat boji to'langan hollar bundan mustasno), davlat boji haqiqatda to'lanmaganligidan kelib chiqqan holda, da'vo arizasi (ariza) IPK 155-moddasi birinchi qismining 6-bandiga asosan qaytarilishi lozim. Ya'ni korporativ nizo bo'yicha korxona tomonidan kiritilgan da'vo arizasi (ariza) uchun davlat boji to'lovini ta'sischi tomonidan amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi, ammo ta'sischi tomonidan kiritilgan da'vo bo'yicha da'vo arizasi (ariza) uchun davlat bojini korxona tomonidan to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi.

10.3. Sudlarda korporativ nizolarni ko'rb chiqishning o'ziga xos xususiyatlari

Korporativ nizolarni hal etishda mazkur toifadagi nizolarning bir qismi iqtisodiy sudsar bilan bir qatorda nizolarni hal etishning alternativ usuliga muvofiq, hakamlik sudsarida ko'rib chiqilishi mumkin.

Korporativ nizolarni hal qilishda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (matnda FK deb yuritiladi), O'zbekiston

Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (matnda IPK deb yuritiladi), «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi, «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa qonun hujjatlari qo'llaniladi.

Jumladan, ta'sis shartnomasida taraflar o'rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan ma'lum bir nizolar hakamlik sudida ko'rib chiqishi kerakligi haqidagi qarorida ko'rsatilgan bo'lsa, bunday nizolarni ko'rib chiqish hakamlik sudiga taalluqli bo'ladi.

Ammo, shuni inobatga olish kerakki, «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdar shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy xattiharakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek, hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo'lish huquqiga egadir. IPKning 3-moddasida sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emasligi belgilangan. Shu bois, taraflar o'rtasidagi nizoni hal etish bo'yicha hakamlik sudiga topshirish to'g'risidagi kelishuvning mavjudligi, da'vo arizasini qaytarish yoki qabul qilishni rad etish uchun asos bo'lib hisoblanmaydi.

Bunday holda, agar ishda ishtirok etuvechi shaxslarning korporativ nizoni hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishivi mavjud bo'lib, hakamlik sudiga murojaat qilish imkoniyati boy berilmagan bo'lsa va agar ishning iqtisodiy sudda ko'rilibshiga qarshi bo'lgan javobgar nizoning mazmuni bo'yicha o'zining birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlik sudining hal qiluviga o'tkazish to'g'risida iltimosnama bersa, da'vo arizasi IPK 107-moddasining 2-bandiga muvofiq ko'rmasdan qoldirilishi lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, korporativ nizolar bo'yicha da'vo arizasida odatda bir nechta talablar birlashtirilgan bo'ladi va ularning ayrimlari iqtisodiy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga yoki ma'muriy sudga taalluqli bo'ladi. Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni, ulushlarni, kooperativlar a'zolarining paylarini o'z ichiga oluvchi meros mol-mulkni yoki er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan nizolar, mehnatga oid nizolar, davlat ro'yxatiga olish bilan bog'liq bo'lgan yoki davlat organining hujjatini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablar shular jumlasidandir.

O'zaro bog'liq bir nechta talab birlashtirilgan bo'lib, ularning boshqalari esa iqtisodiy sudga taalluqli bo'lsa, xususan, iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan talab bilan birga davlat ro'yxatiga olish bilan bog'liq, bo'lgan yoki davlat organining hujjatini haqiqiy emas deb topish kabi talablar ham qo'yilgan bo'lsa, da'vo arizasi (ariza) IPK 155-moddasi birinchi qismining 4-bandiga asosan qaytariladi.

Bunda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat shundaki, korporativ nizo bilan birga iqtisodiy sudga taalluqli bo'lмаган (fuqarolik ishlari bo'yicha sudga yoki ma'muriy sudga taalluqli) talab birlashtirib berilgan taqdirda, da'vo arizasini qabul qilishni rad etilishiga yo'l qo'yilmasligidadir. Qoida tariqasida (IPK 25-moddasi) o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari iqtisodiy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talab birlashtirilgan taqdirda, barcha talablar fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ko'riliishi lozim.

Agar o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari iqtisodiy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talab birlashtirilib berilgan da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, IPK 110-moddasingin 1-bandiga asosan ish yuritish tugatiladi.

Agar o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilari iqtisodiy sudga, boshqalari esa ma'muriy sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talab birlashtirilib berilgan da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, sud iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan talabni mazmunan

ko'rib chiqishi, ma'muriy sudga taalluqli talab bo'yicha esa IPK 110-moddasining 1-bandiga asosan ish yuritishni tugatishi lozim.

Sudga korporativ nizolar bo'yicha mulkiy xususiyatdag'i (masalan: ulushning haqiqiy qiyomatini undirish, mol-mulkni talab qilib olish) da'vo arizalari (arizalar) bilan murojaat qilin-ganda davlat boji miqdori undiriladigan summadan, nomulkiy xususiyatdag'i (masalan: yuridik shaxs ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish, emissiyavli qimmatli qog'ozlarni joylashtirish jarayonida tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish) da'vo arizalaridan (arizalari) bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarida to'lanadi. Da'vo arizasida bir vaqtning o'zida bir nechta nomulkiy talab qo'yilgan bo'lса (masalan: yuridik shaxs boshqaruв organining ikkita qarorini haqiqiy emas deb topish), har bir talab bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 10 ba-ravaridan davlat boji to'lanishi lozim.

Bir vaqtning o'zida mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'Igan korporativ da'vo arizalari (arizalar) uchun mulkiy xususiyatdag'i da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha va nomulkiy xususiyatdag'i da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalarga ko'ra har bir talab bo'yicha alohida-alohida davlat boji to'lanadi.

Da'vo birlgilikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda (bu kabi da'volar korporativ nizolarda ko'p uchraydi), davlat boji da'veoning umumiy summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'yan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi. Shuni inobatga olish lozimki, Qonunda mulkiy tusdag'i da'volar bo'yicha davlat boji to'lovi da'veoning bahosidan kelib chiqib to'lanishi (hisoblanishi) belgilanganligi sababli birlgilikda bir nechta da'vogar tomonidan sudga taqdim etilgan da'vo arizasi bo'yicha davlat boji belgilangan stavkalarga teng miqdorda da'vogarlardan biri tomonidan to'langanligi haqidagi vaj bilan da'vo arizasini qaytarilishiga yul qo'yilmaydi. Ushbu qoida bir nechta da'vogar tomonidan sudga taqdim etilgan nomulkiy tusdag'i da'vo arizasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'Igan davlat boji to'loviga ham tatbiq etiladi.

Jamiyat direktori, jamiyat boshqaruvi a'zolari, ishonchli boshqaruvchi hamda jamiyat o'ttasida «Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 79-moddasining sakkizinch qismiga asosan tuzilgan shartnoma bo'yicha yuzaga keladigan nizo jamiyat faoliyatidan kelib chiqsa-da, iqtisodiy sudga taalluqli emas. Chunki ushbu nizo mehnat munosabatlaridan kelib chiqadi. Xuddi shu qoida mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor) hamda jamiyat o'ttasida «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 39-moddasining ikkinchi qismiga asosan tuzilgan shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan nizolarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Agar aksiyador ayni vaqtda jamiyatning xodimi bo'lib, mehnatga oid nizo yuzasidan iqtisodiy sudga murojaat qilgan bo'lsa, bunday da'vo arizasini qabul qilish IPK 154-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan rad etilishi, agar ushbu holat ishni ko'rish jarayonida aniqlansa, IPK 110-moddasining 1-bandiga asosan ish yuritish tugatilishi lozim.

Xo'jalik jamiyati va shirkati zimmasiga uning boshqaruva organlari vakolatiga kiradigan majburiyat (masalan, ustav fondi (ustav kapitali)ni ko'paytirish yoki kamaytirish)ni yuklash haqidagi da'vo talabi, ushbu majburiyat qonun hujjatlari bilan jamiyat yoki shirkat boshqaruv organining vakolatiga kiritilganligi sababli rad etilishi lozim.

«Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 19-moddasining beshinchi qismiga ko'ra shirkat ishlarini yuritish bo'yicha bir yoki bir necha ishtirokchiga berilgan vakolatlar, asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, xususan, vakolatli shaxs (shaxslar) o'z vakolatlarini qo'pol ravishda buzgan hollarda yoki uning (ularning) shirkat ishlarini yuritishga qobiliyatsizligi aniqlanganda, shirkatning bir yoki bir necha boshqa ishtirokchilarining talabiga binoan sud tomonidan tugatilishi mumkin. Sudning hujjati asosida shirkatning ta'sis shartnomasiga zarur o'zgartishlar kiritiladi.

Ishtirokchining vakolatini tugatish haqidagi da'vo arizasi bilan har qanday ishtirokchi (ishtirokchilar) u(lar)ning jamiyat ustav fondidagi ulushi hamda aynan ushbu masala bo'yicha umumiy yig'ilishi qarori mavjudligidan qat'i nazar murojaat qilish huquqiga ega.

«Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 22-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq shirkat ishtirokchilari biror-bir ishtirokchini qolgan ishtirokchilarning bir ovozdan qabul qilgan qaroriga ko'ra va bunga asoslar mavjud bo'lган taqdirda, xususan, ana shu ishtirokchi o'z majburiyatlarini qo'pol ravishda buzgan hollarda yoki uning shirkat ishlarini yuritishga qobiliyatsizligi aniqlanganda, shirkatdan sud tartibida chiqarib yuborishni talab qilishga haqlidirlar.

Ishtirokchilarning vakolatlarini tugatish, ishtirokchini shirkatdan chiqarish haqidagi nizolarini ko'rish jarayonida mazkur ishtirokchining vakolatlarini shirkatning ta'sis hujjatlarini o'tgangan holda aniqlanishi lozim. Bunda javobgar (javobgarlar) ning o'z vakolatlarini qo'pol ravishda buzganligi yoki uning (ularning) shirkat ishlarini yuritishga qibiliyatsizligini isbotlash da'vogarlar (da'vogarlar)ning majburiyati hisoblanadi.

Aksiyalarning hammasini yoki muayyan qismini aksiyadorlik jamiyatni tomonidan qaytarib sotib olish majburiyatini yuklash haqidagi da'vo arizasi bilan faqat «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 40-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan ovoz beruvchi aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar murojaat qilishga haqli.

Jamiyatni qayta tashkil etish, joylashtirilgan aksiyalarini yiriklashtirish, yirik bitim tuzish, jamiyat ustaviga ovoz beruvchi aksiya egasi bo'lgan aksiyadorning huquqlarini cheklaydigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavnii tasdiqlash haqida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilishda, basharti aksiyador qayd etilgan masalalar bo'yicha yoqlab ovoz bergen bo'lsa yoxud bu masalalar bo'yicha ovoz berishda uzsiz sabablarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, aksiyadorning o'ziga qarashli aksiyalarini qaytarib sotib olish

majburiyatini jamiyatga yuklash haqidagi talabini qanoatlanishirish rad etiladi.

Da'vogarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashma-ganligining sabablarini aniqlashda, sudlar u yig'ilishni o'tkazish vaqt va joyi haqida qonunda belgilangan tartibda xabardor qilinganligini tekshirishlari lozim.

Aksiyadorning o'ziga qarashli aksiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risidagi talabini aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tegishli qarori qabul qilingan kundan e'tiboran kechi bilan o'ttiz kun ichida jamiyatga taqdim qilishlari kerak. Ushbu talab yozma shaklda berilishi va unda aksiyadorning yashash manzili (joylashgan manzili) hamda u qaytarib sotib olinishini talab qilayotgan aksiyalar soni ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bunda qayd etilgan o'ttiz kunlik muddat nizoni sudgacha hal etish muddati hisoblanishini nazarda tutish lozim. Bunday da'volarni ko'rish jarayonida aksiyador tomonidan talabnomma jamiyatga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida yuborilgan bo'lishi lozim.

Agar talabnomma ushbu muddat ichida yuborilgan bo'limasa, da'vo bo'yicha ish yuritish IPK 110-moddasining 8-bandiga asosan tugatilishi lozim.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 41-moddasining to'rtinchi qismiga ko'ra o'ttiz kunlik muddat tugaganidan so'ng jamiyat qaytarib sotib olish talabini qo'ygan aksiyadordan aksiyalarni o'n kun ichida sotib olishi shart.

O'n kunlik muddatni hisoblash aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tegishli qarori qabul qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun o'tganidan so'ng boshlanadi.

Agar hal qiluv qarorini qabul qilish paytida ko'rsatilgan muddatlar o'tmagan bo'lsa, aksiyalarni qaytarib sotib olish haqidagi majburiyatni yuklash to'g'risidagi da'vo talabi, jamiyat tomonidan majburiyatni bajarish muddati kelmaganligi sababli rad etilishi lozim. Ushbu asos bilan da'vo talabining rad etilganligi, majburiyatni bajarish muddati kelgach, da'vogarning ayni da'vo talabi bilan sudga qaytadan murojaat qilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Aksiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risidagi da'voni qanoatlantirishda sotib olishga ajratiladigan mablag'larning umumiy summasi aksiyadorlarda o'zlariga qarashli aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi vujudga kelishiga sabab bo'lgan qaror qabul qilingan kundagi jamiyat sof aktivlari qiymatining o'n foizidan oshib ketishi mumkin emas, bundan jamiyatning o'zgartirilishi holatlari mustasno. Shu munosabat bilan aksiyalarni qaytarib sotib olish haqidagi majburiyatni yuklash to'g'risidagi talabni ko'rishda bunday da'vo talabi faqat jamiyat sof aktivlari qiymatining o'n foizidan oshmagan miqdorda qanoatlantirilishi mumkin, bundan jamiyatning o'zgartirilishi holatlari mustasno.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 60-moddasining to'qqizinchi qismiga ko'ra, agar aksiyador uzrli sabablarga ko'ra aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergen bo'lsa, u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan aksiyador tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorini haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo arizasi berilganda, da'vogar mazkur yig'ilishda ishtirok yetmaganligining sababini aniqlashlari, yig'ilishda ishtirok etilmaganligining sababi uzrli deb topilganda esa umumiy yig'ilish qarorining qonuniyligini tekshirishlari, bunday sabablar uzrli deb topilmaganda esa da'voni qanoatlantirish rad etiladi.

Yig'ilishda ishtirok etib, nizoli masala yuzasidan qabul qilingan qarorni yoqlab ovoz bergen shaxs ushbu qarorni haqiqiy emas deb topish haqida sudga murojaat qilganda, uning talabini qanoatlantirish rad etilishi lozim, aksiyadorning aldashi, zo'rlik, qu'rqtish ta'sirida ovoz bergenligi holatlari bundan mustasno.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori **u** qonun hujjatlariga zid bo'lgan va (yoki) umumiy yig'ilish qonun hujjatlari va jamiyat ustavida belgilangan tartibni buzgan holda o'tkazilgan hollardagina, haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni 59-moddasida nazarda tutilgan talablardan tashqari boshqa talablar bo'yicha umumiy da'vo muddati (uch yil) hisoblanadi.

O'tkazib yuborilgan da'vo muddatini tiklash masalasi FKning 159-moddasida ko'rsatilgan tartibda hal etiladi.

«Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonun 51-moddasi birinchi qismining mazmuniga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi investorlarning, qimmatli qog'ozlar egalarining, davlat manfaatlarini ko'zlab sudda da'vo qo'zg'atishga haqli. Shu munosabat bilan vakolatli davlat organining da'vo arizasida kimning manfaati ko'zlanayotganligi ko'rsatilishi shart. Da'vo arizasida u kimning manfaatini ko'zlab berilayotganligi ko'rsatilgan bo'lmasa, da'vo arizasi IPK 154-moddasiga asosan qaytariladi. Agar da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, u ko'rmasdan qoldirilishi lozim.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi organlari (umumiy yig'ilish, kuzatuv kengashi, ijroiya organi) qarorlarini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish haqidagi da'volar bo'yicha javobgar bo'lib ushbu boshqaruvi organlari emas, balki jamiyatning o'zi hisoblanadi. Da'vo arizasida javobgar sifatida muayyan boshqaruvi organi ko'rsatilganligi, da'vo arizasini qabul qilishni rad etish yoxud IPKning 45-moddasida belgilangan tartibga rioya qilgan holda javobgarni almashtirish uchun asos bo'ladi.

Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatning boshqaruvi organlari qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida berilgan da'vo arizalarini ish yuritishga qabul qilish masalasi ham xuddi shu tartibda hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni 32-moddasining sakkizinch qismiga ko'ra jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish yoki jamiyatni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinmagan taqdirda uning aksiyadorlari, kreditorlari, shuningdek, vakolatli davlat organlari jamiyatni sud

tartibida tugatishni talab qilishga haqli. Bunda IPK 25-moddasiga muvofiq jamiyatni tugatish haqidagi aksiyadorlarning talablari iqtisodiy sudga taalluqlidir.

Jamiyatning kreditorlari, shuningdek, davlat tomonidan vakolat berilgan organlarning bunday talablarining taalluqliligi masalasi esa umumiy asoslar bo'yicha hal etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 8-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ishtirokchini jamiyatdan chiqarish talabi bilan sudga faqat jami ulushlari jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari murojaat qilishlari mumkin. Bunda jami ulushlari jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning kamida o'n foizini tashkil etadigan bitta ishtirokchi ham, jami ulushlari jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning kamida o'n foizini tashkil etadigan bir nechta ishtirokchi ham bunday talab bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Bir nechta ishtirokchi sudga murojaat qilganda da'vo arizasi ushbu ishtirokchilarning barchasi yoki ularning vakili (vakillari) tomonidan imzolangan bo'lishi kerak. Bunda da'vogar (da'vogarlar) ulushining miqdori belgilangan tartiba tasdiqlangan ta'sis hujjatlari asosida aniqlanadi.

Agar da'vogar ishtirokchining ulushi yoki bir nechta ishtirokchilarning jami ulushlari jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning o'n foizidan kam bo'lsa yoxud da'vo arizasi jamiyatning o'zi tomonidan berilgan bo'lsa, da'vo arizasini qanoatlantirish rad etilishi lozim. Ushbu toifadagi ishlarni ko'rishda javobgar o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotganligi, harakatlari (harakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotganligi yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotganligi holatlari mavjudligi aniqlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 41-moddasiga asosan jamiyat boshqaruvi organining qarori ushbu qarorni qabul qilish bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bahsli qarorga qarshi ovoz bergen jamiyat ishtirokchisining da'vosи bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yig'ilishda ishtirok etib, nizoli masala yuzasidan qabul qilingan qarorni yoqlab ovoz bergan shaxs ushbu qarorni haqiqiy emas deb topish haqida sudga murojaat qilganda, uning talabini qanoatlantirish rad etilishi lozim, ishtirokchining aldash, zo'rlik, qo'rqtish ta'sirida ovoz bergenligi hollari bundan mustasno.

Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishi qarori u qonun hujjatlariga zid bo'lgan va (yoki) umumiy yig'ilish qonun hujjatlari va jamiyat ustavida belgilangan tartibga rioya etilmagan holda o'tkazilgan hollardagina, haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 41-moddasining birinchi qismiga ko'ra jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari, jamiyatning ustavi talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bahsli qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat ishtirokchisining arizasiga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday ariza jamiyat ishtirokchisi qabul qilingan qaror to'g'risida bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran ikki oy ichida berilishi mumkin. Bunda ikki oylik muddat yig'ilishda ishtirok etgan ishtirokchi uchun qaror qabul qilingan kundan, yig'ilishda ishtirok etmagan ishtirokchi uchun esa u qaror to'g'risida bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

«Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonunning 41-moddasida belgilangan ikki oylik muddat maxsus da'vo muddati hisoblanadi va u sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sudning hal qiluv qarori qabul qilungunga qadar bergen arizasiga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu muddatning o'tkazib yuborilganligi sababları da'vogarning iltimosnomasiga asosan sud tomonidan uzrli deb topilib, FKning 159-moddasiga muvofiq tiklanishi mumkin.

Qayd etilgan da'vo muddati mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat kuzatuv kengashining, jamiyat yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organining, jamiyat kollejial ijro etuvchi organining qarorini haqiqiy emas deb topish

to'g'risidagi da'volar bo'yicha qo'llanilmaydi. Bunday da'volarga nisbatan sud tomonidan umumiy da'vo muddati qo'llanilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilar umumiy yig'ilishining qarorini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda ishning barcha holatlarini to'liq o'rganishlari, da'yogarning ovozi ovoz berish natijalariga qay darajada ta'sir ko'rsata olishi mumkinligini aniqlashlari lozim. Agar ariza bergen jamiyat ishtirokchisining ovozi ovoz berish natijalariga ta'sir ko'rsata olishi mumkin bo'lmasa va (yoki) yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik jiddiy bo'lmasa va (yoki) qaror jamiyatning ana shu ishtirokchisiga zarar yetkazmagan bo'lsa, sud ishning barcha holatlarini hisobga olib, da'veoni qanoatlantirishni rad etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 8-moddasi birinchi qismining oltinchi xatboshisiga ko'ra jamiyat ishtirokchisi «...jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar ushbu Qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtida jamiyatdan chiqishga... haqli». Shu munosabat bilan e'tiborga olish kerakki, ishtirokchi tomonidan jamiyatga nisbatan berilgan o'zini jamiyatdan chiqarish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilinganda, bunday talabni qanoatlantirish rad qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 22-moddasining beshinchi qismiga muvosiq jamiyatdan chiqarilgan yoki undan chiqib ketgan jamiyat ishtirokchisining ulushi jamiyatga o'tadi. Bunda jamiyat undan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchiga ulushining chiqarilish yoki chiqib ketish sanasidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadigan haqiqiy qiymatini to'lashi yoki jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchisining roziligi bilan unga xuddi shunday qiymatdagi mol-mulkni asli holida berishi shart.

Jamiyatdan chiqarilgan yoki undan chiqib ketgan ishtirok-chining o'z ulushini mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatdan undirish to'g'risidagi talablar bo'yicha ishlarni ko'rishda jamiyat kiritilgan mol-mulkni natura shaklida berishga rozi bo'limgan holda, ishtirokchi jamiyat ustav fondiga ulush sifatida aynan o'zi kiritgan mol-mulkini talab qilishga haqli emas, shu sababli bunday talabni qanoatlantirish rad etiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasining beshinchi qismiga ko'ra jamiyatdan chiqarilgan yoki undan chiqib ketgan ishtirokchi tomonidan jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali)ga hissa tariqasida foydalanish uchun berilgan mol-mulk, agar ta'sis hujjatida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, u qancha muddatga berilgan bo'lsa, shuncha muddat davomida jamiyat foydalanishida qolaveradi.

Ishtirokchining u tomonidan jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali)ga hissa sifatida foydalanish uchun kiritilgan mol-mulkni talab qilib olish haqidagi da'vo talabi, agar mulkdan foydalanish muddati tugagan bo'lsa, qanoatlantirilishi lozim, agar ta'sis hujjatida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa.

«Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 22-moddasining to'qqizinchchi qismiga ko'ra ulush (ulushning bir qismi) jamiyatga o'tgan paytdan e'tiboran bir yil ichida, agar jamiyatning ustavida kamroq muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, jamiyat ulush (ulushning bir qismi)ning haqiqiy qiymatini to'lashi yoki xuddi shunday qiymatdagi mol-mulkni asli holida berishi shart.

Agar jamiyat ustavida ulushning haqiqiy qiymatini to'lash yoki xuddi shunday qiymatdagi mol-mulkni asli holida berish uchun bir yildan kamroq muddat belgilangan bo'lsa, bu holda ustavda ko'rsatilgan muddat qo'llaniladi.

Agar jamiyat ustavida bir yildan ko'proq muddat ko'rsatilgan bo'lsa, bu holda «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 22-moddasining to'qqizinchchi qismida belgilangan muddat qo'llaniladi.

Jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchida o'z ulushi qiymatini sud tartibida undirish huquqi qonunda yoki jamiyat ustavida belgilangan muddat o'tganidan so'ng vujudga keladi. Agar jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchi ushbu muddatlar o'tmasdan sudga murojaat etsa, da'vo arizasini qanoatlantirish rad etilishi lozim.

Ushbu asos bilan da'vo talabining rad etilganligi, majburiyatni bajarish muddati kelgach, da'vogarning ayni da'vo talabi bilan sudga qaytadan murojaat qilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Jamiyatdan chiqarilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchining ulushi chiqarilish yoki chiqib ketish sanasidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha aniqlanishini inobatga olib, ishdagi hujjatlardan ulush qiymatini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda yoki ushbu masala yuzasidan nizo vujudga kelganda taraflarning iltimosiga asosan ulush qiymati ekspertiza tayinlash yo'li bilan aniqlanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuning mazmuniga ko'ra ulush qiymati ekspertizani tayinlash yo'li bilan aniqlanganda, ekspert oldiga ishtirokchi ulushining bozor bahosidagi qiymati emas, balki ulushning jamiyat buxgalteriya hisobotlaridagi ma'lumotlar bo'yicha qiymatini aniqlash to'g'risida savol qo'yilishi lozim, chunki qonun hujjatlarida ishtirokchining ulushi bozor bahosida to'lanishi nazarda tutilmagan, bundan chet ellik investor bo'lgan ishtirokchi mustasno.

O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'-risida»gi Qonuni 18-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq chet ellik investor chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonadan chiqib ketgan yoki bu korxona tugatilgan taqdirda, korxona mol-mulkidagi o'z ulushi pul yoki bozor bahosiga muvofiq ravishda tovar shaklida qaytarilishi huquqini oladi.

Chet ellik investor ulushi qiymatining bozor bahosini ishdagi hujjatlardan aniqlash imkoniyati bo'lmaganda yoki ushbu masala yuzasidan nizo vujudga kelganda taraflarning iltimosnomasiga

asosan ulush qiymatining bozor bahosi ekspertiza tayinlash yo'lli bilan aniqlanishi kerak.

IPKning kelishuv bitimi institutini tartibga soluvchi normalari ushbu kodeks 30-moddasida nazarda tutilgan nizolar bo'yicha ishlarga ham tatbiq etiladi. Kelishuv bitimi qonun hujjatlariga xilof bo'lmasa, shuningdek, boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasa, u sud tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Shuni inobatga olishlari kerakki, mazkur toifadagi ishlar bo'yicha IPKning 94-moddasida ko'rsatilgan da'voni ta'minlash choralari qo'llaniladi. Bunda da'voni ta'minlash choralari arz qilingan talablarga mos kelishi, ya'ni bevosita nizo predmetiga bog'liq da'vo talablariga mutanosib, sud hujjati ijrosini ta'minlash uchun kerakli va yetarli bo'lishi lozim.

IPKning 93-moddasida da'voni ta'minlashga, agar shunday choralarni ko'rmaslik sud hujjatining ijrosini qiyinlashtirishi yoxud bajarib bo'lmaydigan qilib qo'yishi mumkin bo'lsa, iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida yo'l qo'yilishi to'g'risida tushuntirish berilgan. Nizo predmetiga bog'liq bo'limgan da'voni ta'minlash chorasi qo'llashga yo'l qo'yilmasligi lozim.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Korporativ nizolar bo'yicha ishlar jumlasiga kira digan nizolarni sanang.
2. Korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasining shakli va maz-muniga qo'yiladigan talablarni yoritib bering. Mazkur toifadagi da'vo arizalarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
3. Korporativ nizo bo'yicha da'vo arizasiga ilova qilinadigan hujjatlarni tahlil qiling.
4. Sudlarda korporativ nizolarni ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Korporativ nizo subyektlarini tahlil qiling.
6. Korporativ nizolarni hal qilishda qo'llaniladigan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida tushuncha bering.

KAZUSLAR

1-kazus

«Neftegazservis» MChJ (Rossiya) 51% ulushda hamda «Qaldirg'och» MChJ (O'zbekiston) 49% ulushda birgalikda faoliyat yuritish maqsadida «Neftgaz» MChJ shaklidagi qo'shma korxonasini tashkil etib, Toshkent shahar Adliya boshqarmasida 2010-yil 15-oktabr sanasida ro'yxatdan o'tkazib faoliyat boshladi. «Qaldirg'och» MChJ o'zining 49% ulushini «Neftgaz» MChJ shaklida QK ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar shakllantirdi, ammo «Neftegazservis» MChJ 51% ulushini to'liq 2011-yil noyabr oyida shakllantirdi. Ushbu holat yuzasidan hech qanday e'tiroz bildirilmadi. «Neftgaz» MChJ ustavida ta'sischi jamiyatdan chiqish istagini bildirgan vaqt dan boshlab u jamiyatdan chiqqan hisoblanishi haqida norma biriktirilgan bo'lib, 2015-yil 25-avgust kuni «Neftegazservis» MChJ (Rossiya) «Neftgaz» MChJ ta'sischilar ro'yxatidan chiqishini ma'lum qilib, ulushini faqatgina mol-mulk ko'rinishida ajratib berishni so'ragan. Jamiyat ijro organi ta'sischilar navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirib, «Neftegazservis» MChJning arizasini muhokama qilib, ulushini mulk ko'rinishida ajratib berishni rad etgan. Shundan so'ng ijro organi «Neftgaz» MChJ shaklidagi QK ustaviga o'zgartirish kiritib, «Neftegazservis» MChJni ta'sischilar safidan chiqarib, jamiyatni MChJ shaklidagi QKdan MChJ shaklida qayta davlat ro'yxatidan o'tkazgan. «Neftegazservis» MChJ (Rossiya) 51% ulush egasi ekanini, uni noqonuniy tartibda ta'sischilar safidan chiqarilganini, uning arizasi muhokamasida vakillarining ishtiroki ta'minlangan bo'lsa-da, ovoz berish jarayonida ularning ovozlari inobatga olinmaganini bildirib ushbu nizo yuzasidan sudga murojaat qilishini ma'lum qilgan.

Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering, javobingizni asoslantiring. «Neftegazservis» MChJ huquqlari tiklanish asoslarini hamda tartibini tahlil qiling.

2-kazus

Da'vogar «NORT» MChJ javobgar «SORSh» MChJdan debitorlik qarzdorlikni undirish haqida Toshkent shahar iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilgan.

Toshkent shahar iqtisodiy sudining hal qiluv qaroriga ko'ra da'vogar «NORT» MChJ javobgar «SORSh» MChJdan debitorlik qarzdorligi undirish haqidagi da'vo arizasi qisman qanoatlan tilrilgan. Da'voning qolgan qismi rad qilingan.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, da'vogar «NORT» MChJ javobgar «SORSh» MChJga qisqa muddatli moliyaviy yordam ajratgan bo'lib, shartnoma shartlariga ko'ra da'vogar «NORT» MChJ javobgar «SORSh» MChJga 90 kun muddatga 198000000 so'm moliyaviy yordam ko'rsatgan. Ushbu moliyaviy yordam ko'rsatilgan vaqtida da'vogar «NORT» MChJ va javobgar «SORSh» MChJ o'rta sida xizmat ko'rsatish shartnomasi ham amalda bo'lgan. Ko'rsatilgan xizmat uchun da'vogar «NORT» MChJ javobgar «SORSh» MChJga 47.598.000 so'm to'lov amalga oshirishi shart bo'lgan bo'lsa-da, to'lov kechiktirib yuborilgan va to'liq amalga oshirilmagan.

To'lov to'liq amalga oshirilmaganligi bois «NORT» MChJning qarzdorligini javobgar «SORSh» MChJ ko'rsatilgan moliyaviy yordam hisobidan ushlab qolganligi sababli to'lovni o'z vaqtida o'tkazmasdan moliyaviy yordam uchun to'langan puldan hisob-kitob qilib olingan.

Vaziyatga amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq huquqiy baho bering.

11-bob. HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI QO'LLASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH

11.1. Huquqiy ta'sir choralari

Iqtisodiy sudlarda sud ishlarini yuritishning asosiy vazifalaridan biri bu iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi.

Aksariyat iqtisodiy nizolar da'vo tartibida hal etiladi. Ammo ayrim toifagi ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar mavjudki, ular faqat arizachilar va javobgarlar ishtirok etib, ish da'vo tartibida qo'zg'atilmaydi, balki ariza asosida qo'zg'atiladi.

Bunday toifadagi ishlar qonunchiligidan alohida toifadagi ishlar deb yuritiladi.

Bunday toifadagi ishlarga:

- tashkilot va fuqarolarning bankrot (iqtisodiy nochor)ligi to'g'risidagi ishlar;
- yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar;
- hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish va uni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlar;
- huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyunda qabul qilingan «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini faqat sud orgali qo'llanilishi tartibi joriy etilgan. Mazkur me'yor 2011-yil 22-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun bilan avvalgi Xo'jalik protsessual kodeksida o'z ifodasini topgan edi.

IPKning 215-moddasiga ko'ra, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi arizalar bilan sudsiga nazorat qiluvchi organlar murojaat etishga haqli. Mazkur normaga muvofiq ushbu toifadagi ishlar bo'yicha sudsiga faqatgina nazorat qiluvchi organlar ularning faoliyati vazifalaridan kelib chiqib murojaat qilishi mumkin.

IPKning 216-moddasiga ko'ra, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar IPKda nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha, IPKning 27-bobida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda ko'rildi.

11.2. Huquqiy ta'sir choralari turlari

IPKning 217-moddasiga ko'ra, huquqiy ta'sir choralari quyidagilardan iborat:

- faoliyatni tugatish;
- atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish;
- faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash, bundan favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda faoliyatni o'n ish kunidan ko'p bo'limgan muddatga cheklash, to'xtatib turish hollari mustasno;
- banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- moliyaviy sanksiyalarni qo'llash, bundan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lash muddatini o'tkazib yuborganlik uchun penyalar hisoblash, shuningdek, yuridik shaxsning yoki fuqaroning sodir etilgan huquqbazarlikdagi aybini tan olganligi va moliyaviy sanksiyalar summalarini ixtiyoriy ravishda to'laganligi hollari mustasno;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor

qilish, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziyalar (ruxsatnomalar) mustasno.

Sud qonun hujjatlariga muvosiq boshqa huquqiy ta'sir choralarini ham qo'llashi mumkin.

Huquqiy ta'sir choralarini:

Faoliyatini tugatish

atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish;

faoliyatni cheklash; to'xtatib turish va taqiqlash, bundan favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda abolinig hayoli va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda faoliyatni o'n ish kunidan ko'p bo'limgan muddatga cheklash, to'xtatib turish hollari mustasno;

banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

moliyaviy sanksiyalarini qo'llash, bundan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lash muddatini o'lkazib yuborganlik uchun penyalar hisoblash, shuringdek, yuridik shaxsnинг yoki fuqaroning sodir etilgan huquqbazarlikdagi aynini tan olganligi va moliyaviy sanksiyalar summalarini ixtiyoriy ravishda to'laganligi hollari mustasno;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziyalar (ruxsatnomalar) mustasno.

11.3. Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni va unga ilova qilinadigan hujjatlar

IPKning 218-moddasiga ko'ra, huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ariza sudga yozma shaklda beriladi va arizachi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etayotgan shaxslarning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) hamda ularning joylashgan yeri (pochta manzili) va yashash joyi;
- 3) huquqbazarlik faktini aniqlagan nazorat qiluvchi organning nomi;
- 4) bildirilgan talabga asos bo'lgan holatlar;
- 5) bildirilgan talabning asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
- 6) yuridik shaxsning yoki fuqaroning sudga murojaat qilishga asos bo'lgan harakatlari (harakatsizligi) uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar;
- 7) arizachining talabi;
- 8) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda nazarda tutilgan bo'lsa;
- 9) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arizada arizachining yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Qonun hujjatlariga muvofiq huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arizada boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu moddada, shuningdek, ushbu Kodeksning 219-moddasida nazarda tutilgan talablarni buzgan holda berilgan huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ariza ushbu Kodeksning 155-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha arizachiga qaytariladi.

IPKning 219-moddasiga asosan, huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi arizaga ushbu Kodeks 151-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hujjalardan tashqari quyidagilar ilova qilinadi:

1) faoliyatni tugatish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish to'g'risidagi arizaga – ta'sis hujjalarning tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxalari; yuridik shaxs yoki fuqaro tomonidan normativ-huquqiy hujjalarni talablari buzilganligini tasdiqlovchi, faoliyatni tugatish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish uchun asos bo'ladigan dalillar;

2) faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash to'g'risidagi arizaga – ta'sis hujjalarning tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxalari; yuridik shaxs yoki fuqaro tomonidan normativ-huquqiy hujjalarni talablari buzilganligini tasdiqlovchi, faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash uchun asos bo'ladigan dalillar;

3) banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi arizaga – soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilinganligini yoki soliq to'lovchi daromadlar olish uchun foydalanayotgan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog'liq hududlarni, binolarni, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslarini kiritish rad etilganligini tasdiqlovchi dalil;

4) moliyaviy sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi arizaga – tekshirish o'tkazilishiga asos bo'lgan hujjalarni (nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatlari organning qarori, bundan shunday qarorni olish qonun hujjalarda nazarda tutilmagan hollar mustasno; agar tekshirish jinoyat ishi doirasida o'tkazilsa, tergov organining (surishtiruv organining) qarori; tekshirish o'tkazish to'g'risidagi buyruq; tekshirish o'tkazish rejasи va hokazo); tekshirish natijalari bo'yicha tuzilgan dalolatnomasi yoki boshqa hujjat va unga ilova

qilinadigan hujjatlar; tekshirish materiallarini ko'rib chiqish bayonnomasi va qaror, agar ularni tuzish yoki qabul qilish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa; qarorning ko'chirma nusxasi javobgarga topshirilganligi yoki yuborilganligi dalili;

5) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish to'g'risidagi arizaga – litsenziyaning (ruxsatnomaning) va litsenziya shartnomasining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxalari; normativ-huquqiy hujjatlar talablari va litsenziya shartnomasi shartlari litsenziyaning (ruxsatnomaning) amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va (yoki) litsenziyani (ruxsatnomanini) bekor qilish uchun asos bo'ladigan tarzda yuridik shaxs yoki fuqaro tomonidan buzilganligini tasdiqlovchi dalil.

IPKning 68-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak.

Shu bilan birga, yuridik shaxslar va fuqarolarga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda huquqiy ta'sir choralarini qo'llash uchun asos bo'lgan holatlarni isbotlash majburiyati nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatiladi.

Faoliyatni tugatish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish

Faoliyatni tugatish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatish to'g'risidagi ishlar javobgar tomonidan tadbirkorlik faoliyatida qonun hujjatlari normalari buzilganligi sababli uning faoliyatini tugatmasdan turib qonunbuzilishlarni bartaraif etish mumkin bo'limgan taqdirda tegishli davlat organlarining arizalari asosida ko'rib chiqiladi.

11.4. Faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash

Faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash to'g'-risidagi ishlar javobgar tomonidan tadbirkorlik faoliyatida

qonun hujjatlari normalari buzilganligi sababli qonunbuzilshlarni bartaraf etish maqsadida tegishli davlat organlarining arizalari asosida ko'rib chiqiladi.

11.5. Banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 111-moddasiga ko'ra, soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o'rinnbosari) tomonidan o'n kundan ko'p bo'limgan muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'n kundan ko'p muddatga to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining iltimosnomasiga asosan sud tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bunda soliq to'lovchining (soliq agentining) bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to'xtatib turiladi.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risida qaror elektron shaklda soliq organi tomonidan bankka yuboriladi. Bir vaqtning o'zida soliq organi tomonidan soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilishi to'g'risida xabarnoma buning sabablarini ko'rsatgan holda yuboriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish soliq organi tomonidan mazkur soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

1) ushbu soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organiga moliyaviy va (yoki) soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o'n kun ichida taqdim etilmaganda;

2) soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha talabnomasiga tushuntirishlar va (yoki) tuzatishlar belgilangan muddatda

taqdim etilmaganda, shuningdek, soliq to'lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar taqdim etilmaganda;

3) soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdon shaxslarini ko'rsatilgan hududga yoki binoga (bundan turar joylar mustasno) kirishiga to'sqinlik qilishda. Soliq organi mansabdon shaxsining kirishiga to'sqinlik qilinishi uning o'zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Bunday dalolatnomada asosida soliq organi bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turadi;

4) soliq to'lovchining (soliq agentining) o'zi ko'rsatgan manzilda yo'qligida.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatib turilishi banklar tomonidan soliq to'lovchining (soliq agentining) barcha hisobvaraqlari bo'yicha barcha chiqim operatsiyalari to'xtatib turilishini anglatadi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati o'tgach o'n kun ichida taqdim etilmagan taqdirda, bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror mas'ul ishtirokchining yoki ushbu konsolidatsiyalashgan guruh barcha ishtirokchilarining operatsiyalariga nisbatan soliq organi rahbari (uning o'rinnbosari) tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatib turilishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda ko'rsatilgan to'lov larga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq undiruvga yo'l qo'yilmaydigan banklardagi hisobvaraqlarga tatbiq etilmaydi.

11.6. Moliyaviy sanksiyalarini qo'llash

Sud amaliyotida moliyaviy sanksiyalar asosan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga asosan qo'llanadi.

SKning 218-moddasiga ko'ra, moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasiadir.

Moliyaviy sanksiyalar SKning 28 va 29-boblarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo'llaniladi.

Javobgarlikni yengillashiiruvchi hech bo'limganda bitta holat mavjud bo'lgan taqdirda, jarima miqdori ushbu Kodeksning tegishli moddasida belgilangan miqdorga nisbatan ikki marta kamaytiriladi.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbazarliklardagi aybga iqror bo'linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori olingen kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to'langanda jarima miqdori ushbu Kodeksning tegishli moddalarida belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi.

SKning 216-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbazarlik uchun alohida tarzda undiriladi.

Yangi tahrirdagi SKning 26-moddasiga asosan, soliqqa oid huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va moliyaviy sanksiyalar qo'llash soliq organlarining vakolatlariga kiritilgan.

SKning 168-moddasiga ko'ra, soliq organlarining yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishini nazarda tutuvechi qarorlari bo'yicha moliyaviy sanksiyalar summalarini undirish soliq organlari tomonidan ushbu Kodeksning 120–124-moddalarida nazarda tutilgan tartibda mustaqil tarzda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining arizasiga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkor bo'limgan jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar undirish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Sudlarning moliyaviy sanksiyalarni undirish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarorlarini ijro etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

SKning 216-moddasiga asosan, soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og'ir kechishi oqibatida soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;
- 2) tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;
- 3) sud yoki ishni ko'rayotgan soliq organi tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi. Agar soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun o'ziga nisbatan javobgarlik choralar qo'llanilgan shaxs bu choralar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida bunday huquqbuzarlikni qayta sodir etmagan bo'lsa, u javobgarlikka tortilmagan deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar sud yoki ishni ko'rayotgan soliq organi tomonidan belgilanadi va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilganda inobatga olinadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydag'i 283-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to'g'risida Nizom»ning 27-bandiga asosan, chet eldan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo'l qo'ygan eksport qiluvchilar, shuningdek, «erkin muomalaga chiqarish (import)» bojxona rejimida tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirishni, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishni 30 bank kunidan ortiq ta'minlamagan import qiluvchilar (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun – 60 bank kuni) belgilangan muddatlar tamom bo'lgandan keyin:

180 kungacha kechikkanda – tushmagan valyuta mablag'lari yoki «erkin muomalaga chiqarish (import)» bojxona rejimida rasmiylashtirilmagan tovarlar, shuningdek, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar summasining 10 foiziga teng miqdorda;

180 kundan 365 kungacha kechikkanda – tushmagan valyuta mablag'lari yoki «erkin muomalaga chiqarish (import)» bojxona rejimida rasmiylashtirilmagan tovarlar, shuningdek, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar summasining 20 foiziga teng miqdorda qo'shimcha;

365 kundan ortiq kechikkanda – tushmagan valyuta mablag'lari yoki «erkin muomalaga chiqarish (import)» bojxona rejimida rasmiylashtirilmagan tovarlar, shuningdek, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar summasining 70 foiziga teng miqdorda respublika budgeti daromadiga qo'shimcha jarima to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrda «Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3351-sonli qarorining 1-bandi «v» kichik bandiga ko'ra, import operatsiyalari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlik hosil bo'lganligi uchun import qiluvchilarga nisbatan eksport operatsiyalari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlikka yo'l qo'ygan eksport qiluvchilar uchun nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Ushbu toifadagi ishlar ham iqtisodiy sudlar tomonidan moliyaviy sanksiyalarini qo'llash to'g'risidagi ariza asosida ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 16-martdagи «Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-605-sonli Qarorida alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish qoidalari buziqanligi uchun yuridik shaxslarga alkogolli mahsulotlar bilan savdo qilish huquqidан marhum etilgan holda bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan

300 baravarigacha miqdorda jarima solinishi belgilangan bo'lib, mazkur moliyaviy jarimani qo'llash to'g'risidagi ishlar ham iqtisodiy sndlarda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2012-yil 14-sentabrdagi «Tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarini sud amaliyotida qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi qaroriga asosan, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan moliyaviy sanksiyalarini qo'llash bilan bog'liq nizolarni hal etishda, agar qonunda moliyaviy sanksiya miqdori belgilanmagan bo'lsa, sndlар sanksiyaning miqdorini javobgarning mulkiy ahvoli, ayni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda belgilashlari lozim.

11.7. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kundan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish

O'zbekiston Respublikasining «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi Qonuning 32-moddasiga ko'ra, litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

- litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan litsenziya va ruxsat berish talablari hamda shartlarining buzilganligi aniqlanganda;

- litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan vakolatli organning aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini uning zimmasiga yuklovchi qarori bajarilmaganda.

Litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini o'n kungacha muddatga to'xtatib turish vakolatli organ tomonidan, o'n kundan ortiq, lekin olti oydan ko'p bo'lmasagan muddatga esa – sud tomonidan amalga oshiriladi.

Vakolatli organning litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori litsenziyatga yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxsga litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish sabablari va qonunchilikning aniq normalari ko'rsatilgan holda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir ish kundan kechiktirmay, maxsus elektron tizim vositasida elektron shaklda yetkaziladi.

Sudning litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori litsenziyatga yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxsga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Vakolatli organlar yoki sud litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar litsenziyat yoxud ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan bartaraf etilishi muddatini belgilashi shart. Bunda ko'rsatilgan muddat litsenziyat yoki ruxsat beruvchi hujjatni olgan shaxs litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran besh ish kundan kam va olti oydan ko'p bo'lmasligi kerak.

Litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan vakolatli organ yoki sud ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risida tasdiqnomalar qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Sudning litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini qayta tiklash to'g'risida qarori u qabul qilingan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida tegishli vakolatli organga qonunda belgilangan tartibda yetkaziladi. Bunda

vakolatli organ esa litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi qayta tiklanganligi to'g'risidagi ma'lumotni maxsus elektron tizimga bir ish kunidan oshmagan muddatda joylashtiradi.

Agar vakolatli organ litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini qayta tiklash haqida yoki qayta tiklashni rad etish to'g'risida uch ish kuni ichida qaror qabul qilmasa, litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs mazkur muddat o'tgandan so'ng vakolatli organni maxsus elektron tizim vositasida xabardor qilgan holda o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin.

Litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni vakolatli organ yoki sud belgilagan muddatda bartaraf etmaganda, sud litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Vakolatli organning litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, vakolatli organlar litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs oldida ular ko'rjan zarar miqdorida javobgar bo'ladi. Bunda litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat amal qilishining to'xtatib turilishi sud tomonidan asossiz deb topish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi qayta tiklangan deb hisoblanadi.

Litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs o'z faoliyati vaqtincha to'xtatib turilgan taqdirda litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish haqida vakolatli organga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Agar

litsenziat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi to'xtatib turilganidan keyin olti oy ichida litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini qayta tiklash to'g'risida vakolatli organga ariza bilan murojaat etmagan bo'lsa, litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi tugatiladi.

Litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini to'xtatib turish va qayta tiklash to'g'risidagi axborot tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kuni ichida maxsus elektron tizimga joylashtirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi Qonunining 33-moddasiga asosan, litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- litsenziat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat etganda;
- yuridik shaxs tugatilganda – tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda – qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi, shuningdek, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsda faoliyatning ayni bir litsenziyalanadigan turini yoki harakatlarni (faoliyatni) amalgalashirish uchun litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat mayjud bo'lgan taqdirda qo'shib yuborilishi mustasno;
- yakka tartibdag'i tadbirdavlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganda;
- jismoniy shaxsning muomalaga layoqatligi belgilangan tartibda cheklanganda, u muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
- litsenziya berilganligi uchun davlat boji yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun yig'im belgilangan muddatda to'lanmaganda;
- litsenziat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega

hujjatning amal qilishini to'xtatib turishiga olib kelgan holatlarni vakolatli organ yoki sud belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;

- vakolatli organning litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to'g'risidagi qarorining qonunga xilolligi aniqlanganda;

- litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan litsenziya yoki ruxsat berish talablarini va shartlari muntazam ravishda (bir yil davomida ikki va undan ortiq marotaba) yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzilganda, agar mazkur qoidabuzarliklar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iiga ziyon, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamoat xavfsizligiga zarar hamda atrof-muhitga ziyon yetkazilishiga olib kelgan bo'lsa. Litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning bekor qilinishiga asos bo'ladigan qo'pol qoidabuzarliklarning ro'yxati faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarda, shuningdek, ularning pasportlarida belgilanadi;

- litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish ushbu modda birinchi qismining ikkinchi – o'ninchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollarda vakolatli organning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat ushbu modda birinchi qismining yettinchi – o'ninchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollarda sud tomonidan bekor qilinadi. Vakolatli organ litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish to'g'risida sudga ariza bilan murojaat qilingan kundan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay litsenziyatga yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxsga maxsus elektron tizim vositasida elektron shaklda, litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish haqida ariza bilan sudga murojaat qilish asoslarini, qonunchilikning aniq normalarini ko'rsatgan holda yetkazadi.

Litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat ushbu modda birinchi qismining o'ninchi xatboshisida ko'rsatilgan asosga ko'ra bekor qilingan taqdirda, litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat ular berilgan sanadan e'tiboran bekor qilingan deb hisoblanadi.

Sudning litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish to'g'risidagi qarori litsenziyatga yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxsga hamda vakolatli organga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Vakolatli organ litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay litsenziyatga yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxsga maxsus elektron tizim vositasida elektron shakida, litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish asoslarini, qonunchilikning aniq normalarini ko'rsatgan holda yetkazadi.

Vakolatli organ bekor qilingan litsenziyalar yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar to'g'risidagi axborotni bir ish kuni ichida maxsus elektron tizim vositasida tegishinchaligiga litsenziyalar reyestriga yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar reyestriga kiritadi.

«Litsenziyalash, ruxsat berish ya xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 34-moddasiga ko'ra, litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

- litsenziyalash tartibi yoki ruxsat berish tartib-taomili bekor qilinganda;
- litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati tugaganda;
- bajarilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilgan bir martalik harakat bajarilganda;
- litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatga ega bo'lgan jismoniy shaxs vafot etganda;
- litsenziyat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan vakolatli organga litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini olti

oygacha to'xtatib turish to'g'risida ariza bilan ilgari murojaat etilgan bo'lib, mazkur muddat ichida litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishini qayta tiklash to'g'risida vakolatli organga ariza bilan murojaat qilinmagan taqdirda.

Litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi tugatilgan hollarda vakolatli organ tomonidan litsenziyaning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilishi tugatilganligi to'g'risida qaror qabul qilish talab etilmaydi.

11.8. Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha xabarlar va chaqiruvlar hamda sud muhibokamasi

IPKning 220-moddasiga ko'ra, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida ushbu Kodeksda belgilangan tartibda xabardor qiladi. Bunda sud arizachining zimmasiga javobgarni sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida xabardor qilish majburiyatini yuklashga haqli. Sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi, agar sud ularning kelishini majburiy deb topmagan bo'lsa, ishni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sud protsessining boshqa ishtirokchilari ushbu Kodeksda belgilangan tartibda xabardor qilinadi va sudga chaqiriladi.

IPKning 221-moddasiga asosan, huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish ishni sud muhibokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan ortiq bo'limgan muddatda ko'rib chiqilishi kerak, bundan ariza sudga kelib tushganidan keyin kamida bir oydan so'ng ko'rildigan moliyaviy sanksiyalarini qo'llash to'g'risidagi ishlar mustasno.

Sud huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda sud majlisida: huquqbazarlik hodisasi bo'lgan-bo'limganligini va uning sodir etilganligi faktini; tekshirish uchun va tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma yoki boshqa hujjat tuzish uchun asoslar va nazorat qiluvchi organning vakolatlari bor-yo'qligini; mazkur huquqbazarlikni sodir etganlik uchun

qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan-tutilmaganligini va huquqiy ta'sir chorasi qo'llash uchun asoslar bor-yo'qligini aniqlaydi.

Moliyaviy sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda sud moliyaviy sanksiyalar summasining hisob-kitobi qanchalik to'g'riliгини ham tekshiradi.

Huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

IPKnинг 203²-moddasiga ko'ra, agar da'vening bahosi yuridik shaxslarga nisbatan – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan, yakka tartibdagi tadbirdorlarga nisbatan esa – besh baravaridan oshmasa, da'vo arizalari bo'yicha ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishi lozim.

Biroq, korporativ nizolar bo'yicha ishlar, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilmaydi.

11.9. Huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori

IPKnинг 222-moddasiga ko'ra, huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha sudning hal qiluv qarori ushbu Kodeksning 21-bobida belgilangan qoidalarga ko'ra sud tomonidan qabul qilinadi.

Ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risida yoki bildirilgan talabni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risida bildirilgan talab qanoatlantirilgan taqdirda, sud hal qiluv qarorining xulosa qismida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilgan shaxsning nomi;
- 2) huquqiy ta'sir chorasi qo'llash uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar;
- 3) qo'llanilgan huquqiy ta'sir chorasing turi, moliyaviy jazo chorasi qo'llanilgan taqdirda esa – uning miqdori; zimmasiga moliyaviy jazo chorasi summasini undirish yuklatilgan nazorat qiluvchi organning nomi;

4) faoliyat cheklanadigan, to'xtatib turiladigan va taqiqلانادиган муддат; лitsenziyaning (ruxsatnomaning) amal qilishi to'xtatib turiladigan muddat; amal qilishi to'xtatib turilgan yoki tugatilgan litsenziyaning (ruxsatnomaning), shuningdek, bekor qilingan litsenziyaning (ruxsatnomaning) nomi, raqami, berilgan sanasi va boshqa rekvizitlari haqidagi hamda litsenziyani (ruxsatnomani) bergen organ to'g'risidagi ma'lumotlar; faoliyat qanday shartlar bajarilguniga qadar cheklanayotganligi, to'xtatib turilayotganligi va taqiqlanayotganligi; banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar qanday shartlar bajarilguniga qadar to'xtatib qo'yilganligi.

Sudning huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, u qabul qilinganidan keyin o'n kun o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda sudning hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, apellyatsiya instansiysi sudining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasi hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin uch ish kuni ichida sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi yoki tilxat olib topshiriladi, ushbu shaxslarning elektron manzillari mavjud bo'lган taqdirda esa hal qiluv qarori elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Huquqiy ta'sir choralarini to'g'risidagi ishlarni bo'yicha arizachi va javobgar sudsarda davlat boji to'lashdan ozod etilgan.

11.10. Huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi ishlarni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari

IPKning 262-moddasiga ko'ra, agar qonun hujjalarda boshqacha muddat belgilanmagan bo'lsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiya sudi tomonidan shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishi mumkin.

Sudning huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n kun ichida beriladi.

IPKning 277-moddasiga ko'ra, apellyatsiya instansiysi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatini (protestini) apellyatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan ortiq bo'lмаган muddatda ko'rib chiqadi.

Sudning huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ko'rib chiqiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risida sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'лган subyektlar doirasini aniqlang.
2. Huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi arizaning shakli, mazmuni va unga ilova qilinadigan hujjatlarni tushuntiring.
3. Huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish tartibini tushuntiring.
4. Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi xo'jalik sudining hal qiluv qarori va uni rasmiylashtirish tartibini tushuntiring.

KAZUSLAR

1-kazus

Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi (keyingi o'rnlarda arizachi) iqtisodiy sudga murojaat qilib, AT «RAVNAQ-BANK» (keyingi o'rnlarda javobgar)ga nisbatan O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuning 55-moddasi birinchi qismi to'rtinchi bandiga muvofiq tekshiruvchi organlar va nazorat qiluvchi organlarni atayin noto'g'ri ma'lumotlar tarqatish (taqdim

etish) orqali chalg'itganligi uchun 22.300.000 so'm moliyaviy sanksiya qo'llashni va uni undirishni so'ragan.

Sudning qarori bilan arizachining ariza talablari qisman qanoatlantirilgan.

Da'vogarning javobgarga nisbatan moliyaviy jarima qo'llash to'g'risida 2020-yil 29-dekabrda qabul qilingan 08-78/09-11-sonli qarorida moliyaviy sanksiya bazaviy hisoblashning shu kundagi amalda bo'lgan 223000 so'm miqdoridan kelib chiqqan holda belgilangan. Holbuki, javobgar tomonidan huquqbazarlik sodir etilganligi aniqlangan kunda (tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma 2019-yil 3-sentabrda rasmiylashtirilgan) amalda bo'lgan eng kam oylik ish haqining miqdori 202730 so'mni tashkil etgan.

Sud huquqbazarlik aniqlangan kunda amalda bo'lgan ish haqi miqdori 202730 so'mdan kelib chiqib, javobgarga nisbatan iqtisodiy sanksiya qo'llashni va uni undirishni lozim deb topgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Sud tomonidan huquqiy ta'sir chorasi summasini hisoblashda nima uchun yuqorida gayd etilgan mezonlarga asoslanganligini tahlil eting.

2-kazus

Toshkent shahar prokuraturasi iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilib, «PARK» mas'uliyati cheklangan jamiyatining mansabdor shaxslariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, «Moliyaviy-xo'jalik faoliyati yuzasidan taftish tayinlash haqida»gi qaror qabul qilinganligi va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallasshtirishning oldini olish maqsadida banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha bank operatsiyalarini to'xtatishni so'ragan.

Sudning hal qiluv qarori bilan arizachining talablari qanoatlantirilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Prokuratura organlarining mazkur turdag'i huquqiy ta'sir choralarini qo'llash haqidagi ariza bilan sudlarga murojaat qilish huquqi mavjudligini qonun normalari asosida tahlil eling.

12-bob. HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORLARI BILAN BOG'LIQ ISHLARNI YURITISH

12.1. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni va uni ko'rib chiqish tartibi

Hakamlik muhokamasi taraflariga hakamlik sudi hal qiluv qarori ustidan nizolashish huquqi berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sndlari to'g'risida»gi Qonuni 46-moddasining birinchi qismiga ko'ra, hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining hal qiluv qarorini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida vakolatli sudga ushbu hal qiluv qarorini bekor qilishni so'rab ariza berish yo'li bilan hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashishi mumkin.

IPKning 223-moddasigi asosan hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining iqtisodiy sudga taalluqli nizoga doir hal qiluv qarori yuzasidan ushbu qarorni olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida iqtisodiy sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish haqida ariza berish yo'li bilan nizolashishi mumkinligi belgilangan.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan narsa shuki, hakamlik bitimi yuridik va jismoniy shaxslarning nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqidagi yozma kelishuvi hisoblanishiga va bunday bitim mavjud bo'lgan taqdirdagina nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin. Shuningdek, hakamlik bitimi shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shartnorma sharti yoki alohida bitim tarzida rasmiylashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sndlari to'g'risida»gi Qonuni 13-moddasining birinchi qismiga ko'ra hakamlik bitimida hakamlik bitimi taraflari o'rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha yoxud ayrim nizolar hakamlik sudida ko'rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida ko'rsatilishi lozim.

Shu bois, agar hakamlik bitimida tarallar o'rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha nizolar

hakamlik sudida ko'rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida ko'rsatilgan bo'lsa, hakamlik kelishuvining haqiqiy emasligi haqidagi nizo ham hakamlik sudida ko'rib chiqiladi.

Agar hakamlik bitimida hakamlik bitimi taraflari o'rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan ma'lum bir nizolar hakamlik sudida ko'rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida ko'rsatilgan bo'lib, ularda hakamlik bitimi ustidan nizolashish masalasi ko'rsatilgan bo'lmasa, hakamlik kelishuvini haqiqiy emasligi haqidagi nizo iqtisodiy sudda ko'rillishi lozim.

Hakamlik sudi ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquqlari va majburiyatları to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilgan bo'lsa, ushbu shaxslar bunday hal qiluv qarori ustidan IPKning 223-moddasiga mos holda hal qiluv qarorini bekor qilish haqida iqtisodiy sudga ariza berishlari mumkin. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan joydagи iqtisodiy sudga, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi ariza esa qarzdor joylashgan yerdagi yoki yashaydigan joydagи yoxud, agar qarzdor joylashgan yer yoki yashaydigan joy noma'lum bo'lsa, uning mol-mulki turgan joydagи iqtisodiy sudga beriladi.

Hakamlik sudlarining qarorlari fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sud tomonidan qayta ko'rib chiqilib, bekor qilinishi ham mumkin ekan, u holda hakamlik sudiga murojaat etgandan niima foyda?

Hakamlik sudi (doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi) – fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvechi nodavlat organ.

Hakamlik sndlari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etmaydi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarori mazkur hal qiluv qarorida belgilangan tartibda va muddatlarda ixtiyoriy ijro etiladi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorida ijro etish muddati belgilanmagan bo'lsa, u darhol ijro etilishi kerak.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik sudining hal qiluv qarorida belgilangan muddatda ixtiyoriy ijro etilmagan bo'lsa, u majburiy ijro etilishi kerak.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, vakolatli sud bergan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, asosiy jihatlaridan biri hakamlik sudsida yuqori instansiya (apellyatsiya, kassatsiya)lar mavjud emas.

Davlat sudsidi hakamlik sudsidi tomonidan qabul qilinadigan hal qiluv qarorlarini appelyatsiya, kassatsiya tarzida qayta ko'rib chiqishlarini amalga oshirishga haqli emas, ya'ni vakolatli davlat sudsidi hakamlik sudsida nisbatan yuqori sud hisoblanmaydi. Ular faqatgina hakamlik sudsidi faoliyatidagi qonunda belgilangan protsessual tartib-taomilga amal qilinganligini tekshirishadi xolos. O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudsidi to'g'risida»gi Qonuni 47-moddasi birinchi qismiga muvofiq, vakolatli sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emasligi belgilangan. Vakolatli sud hal qiluv qarorining qonuniyligi va asoslanganligi nuqtai nazaridan to'g'riligini tekshirishni amalga oshirmaydi.

Hakamlik muhokamasi bilan bog'liq bo'lgan ishlari jumlasiga qanday ishlar kiradi?

 da'veni ta'minlash yuzasidan choralar ko'rish
to'g'risidagi arizalar bo'yicha ishlari

 hakamlik sudsidining hal qiluv qarorlari yuzasidan
nizolashish haqidagi arizalar bo'yicha ishlari

 hakamlik sudsidining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish
uchun ijro varaqalari berish to'g'risidagi arizalar bo'yicha ishlari

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza yozma shaklda beriladi va hal qiluv qarori yuzasidan nizolashayotgan hakamlik muhokamasi tarifi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizada ko'rsatilishi shart bo'lgan ma'lumotlar:

- ariza berilayotgan iqtisodiy sudning nomi;
- nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi, joylashgan yeri;
- hakamlik muhokamasi tarafalarining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashashi joyi;
- hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan sana;
- mazkur hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat etgan taraf hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarorini olgan sana;
- hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi talab va mazkur qaror qanday asoslar bo'yicha nizolashilayotganligi.

Shuningdek, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizada telefonlar, fakslar raqamlari, elektron manzil va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar

- 1) hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan ko'chirma nusxasi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasi ushbu hakamlik sudining raisi tomonidan tasdiqlanadi, muvaqqat hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasidagi hakamlik sudyasining imzosi notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak;

- 2) hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;
- 3) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi talabni asoslash uchun taqdim etiladigan hujjatlar;
- 4) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji hamda pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- 5) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaning va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalari hakamlik muhokamasining boshqa tarafiga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Yodda tuting!

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza hakamlik muhokamasi tarafining vakili tomonidan berilgan bo'lsa, arizaga vakilning arizani imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi ishonchnoma ilova qilinishi lozim.

Agar IPKning 223-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilmagan taqdirda, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani qabul qilish IPKning 154-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha rad etilishi kerak.

E'tibor qaratadigan jihat shuki, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan hamda iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan iqtisodiy sud qaror chiqargunga qadar hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirilishi mumkin.

Bunda taraflarning kelishuvi deganda O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sndlari to'g'risida»gi Qonuning 12-moddasida nazarda tutilgan hakamlik bitimi tushuniladi.

Agar taraflarning nizoni hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishuvi mavjud bo'lib, hakamlik sudiga murojaat qilish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa va agar ishning iqtisodiy sudda ko'rlishiga qarshi bo'lgan javobgar birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni mazmunan hal etishni hakamlik sudiga topshirish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilsa, iqtisodiy sud da'veni ko'rmasdan qoldiradi.

Yodda tuting!

Bunda «**birinchi ariza**» deganda javobgarning hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar nizo mohiyati bo'yicha bayon qilgan yozma yoki og'zaki fikrini tushunish lozim.

IPKning 28 va 29-boblari hamda O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonumining 7 va 8-boblariga muvofiq sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza bilan faqat hakamlik muhokamasi taraflari, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijo etish uchun ijo varaqasini berish to'g'risidagi ariza bilan esa hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo'lsa, o'sha taraf murojaat qiladi.

E'tiborga olish lozim bo'lган jihatni, hakamlik sudi ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilgan bo'lsa, ushbu shaxslar bunday hal qiluv qarori ustidan IPK 223-moddasining ikkinchi qismiga asosan hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi iqtisodiy sudga ariza berishlari mumkin.

Agar arizani qaytarish yoki qabul qilishni rad etish uchun asoslar mavjud bo'lmasa, sudlar arizani ish yuritishga qabul qilishlari, unga tegishli raqam berishlari hamda ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risida ajrim chiqarishlari lozim.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish qay tartibda amalga oshiriladi?

Yodda tuting!

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish va hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijo etish uchun ijo varaqasini berish to'g'risidagi ishlar alohida toifadagi ishlar hisoblanadi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza IPKda nazarda tutilgan qoidalarga binoan suda tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Suda ishni hakamlik muhokamasi taraflining iltimosnomasiga binoan sud muhokamasiga tayyorlayotganda iqtisodiy

sudda nizolashilayotgan hal qiluv qaroriga oid ish materiallarini hakamlik sudidan dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha talab qilib olishi mumkin.

Iqtisodiy sud hakamlik muhokamasi tarafalrini sud majlisining vaqt va joyi to'g'risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun IPKning 226-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjudligi yoki mavjud emasligini bildirilgan talablar va e'tirozlarni asoslash uchun sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo'li bilan aniqlaydi.

12.2. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ish bo'yicha ajrimning mazmun-mohiyati

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo'lувчи holatlar:

- 1) hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra haqiqiy emasligi;
- 2) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligi. Agar hakamlik sudining hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalarini bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalaridan ajratib olish mumkin bo'lsa, hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalari bo'lgan qismi bekor qilinishi mumkin;

3) hakamlik sudi tarkibi yoki hakamlik muhokamasi O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudsari to'g'risida»gi Qonunining 14, 15, 16 va 25-moddalari qoidalariga muvofiq emasligi;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudsari to'g'risida»gi Qonuni 10-moddasining birinchi va uchinchi qismlari talablari buzilgan holda chiqarilganligi;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi tarafidan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to'g'risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligi.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo'lmasa yoki nizo hakamlik sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudsari to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi talablarini buzgan holda ko'rib chiqilgan bo'lsa yoxud hakamlik sudi ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatları to'g'risidagi hal qiluv qarorini qabul qilgan bo'lsa, hakamlik sudining hal qiluv qarori iqtisodiy sud tomonidan bekor qilinishi kerak.

Yodda tuting!

Iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha IPKda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi hakamlik muhokamasi tarafalarining, agar hakamlik sudiga murojaat etish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa, hakamlik bitimiga muvofiq hakamlik sudiga yangidan murojaat etishiga yoki IPKda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmaydi.

Iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish haqidagi ajrimida ko'rsatiladigan ma'lumotlar:

- hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarori va mazkur qaror qabul qilingan joy to'g'risidagi ma'lumotlar;
- nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- hakamlik sudining hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilish yoxud arizachining talabini to'liq yoki qisman qanoatlantirishni rad etish uchun ko'rsatma;
- hakamlik muhokamasi tarafalarining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi).

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik bitimi haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoxud uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligi yoki unda hakamlik bitimida qamrab olinmagan masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligi oqibatida iqtisodiy sud tomonidan to'liq yoxud qisman bekor qilingan bo'lsa, hakamlik muhokamasi tarafları bunday nizoni hal qilish uchun IPKda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishi mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ish bo'yicha iqtisodiy sudning ajrimi ustidan IPKda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Yodda tuting!

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish yuzasidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida davlat boji to'lanadi. Davlat bojini to'lash qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra kechiktirilishi mumkin.

12.3. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishning umumiy qoidalari va arizaning shakli

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi masala hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo'lsa, o'sha tarafning arizasiga binoan iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza yozma shaklda beriladi va hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizada ko'rsatiladigan ma'lumotlar;

- ariza berilayotgan iqtisodiy sudning nomi;
- hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi, joylashgan yeri;
- hakamlik muhokamasi taraflarining nomi (familiyasи, ismi, otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan sana;
- ariza bilan murojaat etgan hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining hal qiluv qarorini olgan sana;
- hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi talab.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizada telefonlar, fakslar raqamlari, elektron manzil va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

**Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy
ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi
arizaga ilova qilinadigan hujjatlar:**

- hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan ko'chirma nusxasi. Dotmiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining hal qiluv qarori ko'chirma nusxasi mazkur hakamlik sudining raisi tomonidan tasdiqlanadi, muvaqqat hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasidagi hakamlik sudyasining imzosi notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak;
- hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;
- belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji, agar arizachi uni to'lashdan ozod qilingan bo'lmasa, hamda pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizaning ko'chirma nusxasi hakamlik muhokamasining boshqa tarafiga topshirilganligi haqidagi xabarnoma yoki uning yuborilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjat.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza hakamlik muhokamasi tarasining vakili tomonidan berilgan bo'lsa, arizaga vakilning arizani imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi ishonchnoma ilova qilinadi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza hakamlik sudi hal qiluv qarorini ixtiyoriy ijro etish muddati tugagan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilishi mumkin. Mazkur muddat iqtisodiy sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, o'tkazib yuborilgan muddat tiklanishi mumkin.

IPK 228-moddasining ikkinchi qismi talablariga rivoja etilmaganda, shuningdek, ushbu moddaning oltinchi qismida

nazarda tutilgan o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash rad etilgan taqdirda, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani qabul qilish IPKning 154-moddasida nazarda tutilgan qoidalalar bo'yicha rad etiladi.

IPK 37-moddasining to'rtinchi qismida, ushbu moddaning birinchi, ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilmaganda, shuningdek, ariza olti oylik muddat o'tgach berilgan taqdirda va o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnomasi mavjud bo'lмаган taqdirda, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza IPKning 155-moddasida nazarda tutilgan qoidalalar bo'yicha arizachiga qaytariladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish tartibi qanday amalga oshiriladi?

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza IPKda nazarda tutilgan qoidalarga binoan suda tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Suda ishni hakamlik muhokamasi tarafining iltimosnomasiga binoan sud muhokamasiga tayyorlayotganda ijro varaqasi so'rалayotgan ish materiallarini hakamlik sudidan IPKda dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalalar bo'yicha talab qilib olishi mumkin.

Iqtisodiy sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqtini va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish uchun IPKning 231-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjudligini yoki mavjud emasligini bildirilgan talablar va e'tirozlarni asoslash uchun iqtisodiy sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo'li bilan aniqlaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud **hakamlik** sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza IPK 37-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan iqtisodiy sudning ish yurituvida bo'lsa, mazkur hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilayotgan iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishni qarzdorning iltimosnomasiga binoan keyinga qoldirishi mumkin.

12.4. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish asoslari va bu ish bo'yicha ajrim

Iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf quyidagilarni isbotlovchi dalillarni taqdim etgan hollardagina rad etadi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish asostari

1) hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra haqiqiy emasligi;

2) hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligi. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorida hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalarni bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalardan ajratib olish mumkin bo'lsa, iqtisodiy sud hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalar bo'lgan qismi uchun ijro varaqasi beradi;

3) hakamlik sudi tarkibi yoki hakamlik muhokamasi O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunining 14, 15, 16 va 25-moddalari qoidalariga muvofiq emasligi;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni 10-moddasining birinchi va uchinchi qismlari talablari buzilgan holda chiqarilganligi;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to'g'risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligi hamda shu sababli u hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligi;

6) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflari uchun hali majburiy bo'limganligi yoki bekor qilinganligi yoxud uning ijrosi iqtisodiy sud yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan to'xtatib turilganligi.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo'lnasa yoki nizo hakamlik sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi talablarini buzgan holda ko'rib chiqilgan bo'lsa yoxud hakamlik sudi ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatları to'g'risida hal qiluv qarorini qabul qilgan bo'lsa, iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun varaqasi berishni rad etadi.

Iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha IPKda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Sud tomonidan arizani ko'rib chiqish yakuniga ko'ra, eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida davlat boji undiriladi. Ariza qanoatlantirilsa, javobgardan, rad etilsa arizachining o'zidan sud xarajatlari undiriladi.

Yodda tuting!

Tadbirkorlik sub'ektlari – hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risida ariza berganda iqtisodiy sudda oldindan davlat boji to'lashdan ozod qilingan.

Sudning arizani qanoatlantirish yoki rad etish to'g'risidagi ajrimida ho'rsatiladigan ma'lumotlar:

- hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi;
- hakamlik muhokamasi taraflarining nomi (famillyasi, ismi, otasining ismi);
- hakamlik sudining hal qiluv qarori to'g'risidagi, arizachi majburiy ijro etilishini iltimos qilayotgan ijro varaqasi haqidagi ma'lumotlar;
- hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish yoki ijro varaqasi berishni rad etish uchun ko'rsatma.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish rad etilganligi hakamlik muhokamasi taraflarining, agar hakamlik sudiga murojaat etish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa, hakamlik bitimiga muvofiq hakamlik sudiga yangidan murojaat etishiga yoki IPKda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmaydi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish hakamlik bitimining haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimida qamrab olinmagan masalalar bo'yicha to'xtamlar mavjudligi yoki nizo hakamlik muhokamasining predmeti bo'lishi mumkin emasligi oqibatida iqtisodiy sud tomonidan to'liq yoki qisman rad etilgan

bo'lsa, hakamlik muhokamasi taraflari bunday nizoni hal qilish uchun IPKda nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat etishi mumkin.

Iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ajrimi darhol ijro etilishi kerak.

Iqtisodiy sudning ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq chiqarilgan ajrimi ustidan IPKda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Hakamlik sndlari tomonidan qanday nizolar hal qilinadi?
2. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni qo'yilgan talablarni sanab bering.
3. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslarini tahlil qiling.
4. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibini tushuntirib bering.

KAZUSLAR

1-kazus

Arizachi «SADAF» MChJ iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilib javobgar «PLAST» MChJga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Hakamlik sudining 2020-yil 29-dekabrda 2020/10-009-sonli hal qiluv qarorini bekor qilishni so'ragan va hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos sifatida uning hakamlik sudining majlisida ishtirok etmaganligi keltirilgan.

Hakamlik sudning 2020-yil 27-oktabrdagi ajrimi bilan da'vo arizasi ish yurituvga qabul qilingan va sud majlisini 2020-yil 1-noyabrga tayinlangan. Mazkur ajrim aloqa bo'limi tomonidan 2020-yil 27-oktabrda «SADAF» MChJning ishonchnoma

bo'yicha vakili Xoliqovga topshirilganligini tasdiqllovchi pochta xabarnomasi mavjud. Hakamlik sudining majlisi javobgar ishtirokini ta'minlash uchun 2020-yil 1-noyabrdan 2020-yil 29-dekabrga qoldirilgan va ishni ko'rishni qoldirish haqidagi ajrimlar o'z muddatlarida «SADAF» MChJ huquqshunosi tomonidan qabul qilib olingan.

IPKnинг 226-moddasi birinchi qismi 5-bandи talablariga ko'ra, hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudi majlisining vaqtি va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligi sababli u hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini isbotlovchi dalillarni taqdim etishi lozim.

Vaziyatga huquqiy baho bering? Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asoslar mavjudmi?

2-kazus

Taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra shartnomaga yuzasidan vujudga keladigan barcha nizolar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi hakamlik sndlari tomonidan hal etilishi belgilangan.

Biroq taraf iqtisodiy sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan. Ishni sudda ko'rish jarayonida javobgar mazkur nizoni hal etish hakamlik sudining sudloviga tegishliligini asos qilib keltirib, nizoni mazmunan hal etishni hakamlik sudiga topshirish to'g'risida iltimosnomasi bilan murojaat qilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering? Sud javobgarning iltimosnomasi bo'yicha qanday qaror qabul qilishi lozim?

13-bob. IQTISODIY PROTSESSDA CHET EL FUQAROLARI VA TASHKILOTLAR, FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING ISHTIROKI

13.1. Chet ellilik shaxslar tushunchasi, ularning huquqiy maqomi

Iqtisodiy sudlar o'z vakolati doirasidagi ishlarni O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va tashkilotlaridan tashqari chet el shaxslari ishtirokida ham ko'rib chiqadi.

O'zbekistonda chet el shaxslarining ishda ishtirok etishi jarayonlari milliy qonun hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan ko'p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda batafsil aks etgan bo'lib, O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddimmasida ta'kidlanganidek, respublikamizda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan ushbu qoidalarining ustunligi tan olinadi.

IPK 1-moddasining uchinchi qismida belgilanishicha, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Mazkur Kodeks 239-moddasining birinchi qismi mazmuniga ko'ra, Kodeksning III bo'limidagi chet ellilik shaxslar deganda quyidagilar tushuniladi:

1. Chet el tashkilotlari;
2. Xalqaro tashkilotlar;
3. Chet el fuqarolari;
4. Fuqaroligi bo'lмаган shaxslar.

Bu yerda fuqaro chet el fuqarosi bo'lishi yoki chet elda yashashi, yuridik shaxs esa, O'zbekiston hududidan tashqarida davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi va o'sha joyda joylashgan bo'lishi kerak.

Chet ellilik shaxslar ishtirok etgan nizolarda mulk huquqi obyekti chet elda joylashgan bo'lishi yoki huquqiy munosabatlar chet elda vujudga kelgan, o'zgargan va tugatilgan bo'lishi (yuridik faktlar) ham mumkin.

Iqtisodiy sudlar chet ellik shaxslar ishtirokida qo'shilishni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi milliy qonun hujjalari ni quyidagi 3 ta holatda qo'llaydi:

1. O'zbekiston Respublikasi milliy qonun hujjalarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar O'zbekiston Respublikasi ning xalqaro shartnomasida nazarda tutilmagan taqdirda;

2. Huquqiy munosabat taraflarining kelishuvi bo'lgan taqdirda;

3. Moddiy va protsessual huquq normalari (FKning 1158-1199-moddalar, IPKning 239-258-moddalarida)da bevosita nazarda tutilgan hollarda.

IPKning 239, 240-moddalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlari iqtisodiyot sohasida chet ellik shaxslar ishtirokida yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlarni quyidagi hollarda ko'rib chiqadi, agar:

1) javobgar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan yoki yashayotgan bo'lsa yoxud O'zbekiston Respublikasi hududida javobgarning mol-mulki bo'lsa;

2) chet ellik shaxsning filiali yoki vakolatxonasi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa;

3) nizo O'zbekiston Respublikasi hududida bajarilishi lozim bo'lgan yoki bajarilgan shartnomadan kelib chiqqan bo'lsa;

4) talab chet ellik shaxs tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lgan boshqa holat bilan mol-mulkka zarar yetkazilishi tufayli yuzaga kelgan yoxud zarar O'zbekiston Respublikasi hududida yuzaga kelgan bo'lsa;

5) nizo O'zbekiston Respublikasi hududida asossiz boylik orttirishdan yuzaga kelgan bo'lsa;

6) ishchanlik obro'sini himoya qilish to'g'risidagi ish bo'yicha da'vegar O'zbekiston Respublikasida turgan bo'lsa;

7) nizo O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning muomalasi bilan bog'liq munosabatlardan yuzaga kelgan bo'lsa;

8) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktin aniqlash to'g'risidagi ish bo'yicha arizachi ushbu faktning O'zbekiston Respublikasi hududida mayjudligini ko'rsatayotgan bo'lsa;

9) nizo O'zbekiston Respublikasi hududida nomlar va boshqa obyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda Internet jahon axborot tarmog'ida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlardan yuzaga kelgan bo'lsa;

10) bu haqda O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki fuqarosi bilan chet ellik shaxslar o'rtaida ushbu Kodeksning 241-moddasida belgilangan qoidalar bo'yicha tuzilgan bitim mavjud bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlari iqtisodiyot sohasida chet ellik shaxslar ishtirokida yuzaga kelgan nizolar bo'yicha ishlarni va nizoli huquqiy munosabatning O'zbekiston Respublikasi hududi bilan aloqasi mavjud bo'lgan boshqa hollardagi ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlari, shuningdek, iqtisodiyot sohasida chet ellik shaxslar ishtirokida yuzaga keldigan va ushbu Kodeksning 240-moddasiga muvofiq ularning mutlaq vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ham ko'radi.

Yodda tuting!

Iqtisodiy sud tomonidan belgilangan qoidalarga rioya etilgan holda ko'rib chiqish uchun qabul qilingan chet el shaxsi ishtirokidagi ish, garchi ish yuritish davomida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning joylashgan yeri yoki yashash joyi o'zgarishi yoxud boshqa holatlar munosabati bilan ish chet davlat sudining vakolatiga taalluqli bo'lib qolgan taqdир ham, u iqtisodiy sudda mazmunan ko'riliishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarining mutlaq vakolatlariga chet ellik shaxslar ishtirokidagi quyidagi nizolar bo'yicha ishlar kiradi:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat mulki bo'lgan mol-mulkka nişbatan nizolar bo'yicha, shu jumladan, mulkni davlat tasarrusidan chiqarish va davlat mulkini xususiylashtirish hamda davlat ehtiyojlari uchun mulkni majburiy tartibda olib qo'yish bilan bog'liq nizolar bo'yicha ishlar;

2) predmeti ko'chmas mol-mulk bo'lgan nizolar bo'yicha, agar bunday mol-mulk O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa, yoki bunday mol-mulkka bo'lgan huquqlar to'g'risidagi nizolar bo'yicha ishlar.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi chet ellik shaxslar ishtirokidagi boshqa ishlar ham iqtisodiy sudlarning mutlaq vakolatlariga kiritilishi mumkin.

Iqtisodiy sudlar chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni ko'rishda chet davlat huquqi normalarini quyidagi 2 ta holatda qo'llaydi:

1. Huquqiy munosabat tarafalarining kelishuvi bo'lgan taqdirda;

2. Moddiy va protsessual huquq normalari (FKning 1158–1199-moddalari, IPKning 239–258-moddalari)da bevosita nazarda tutilgan hollarda.

FKda «jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni» degan tushuncha ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, jismoniy shaxs qaysi mamlakatning fuqarosi bo'lsa, shu mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. Shaxs ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan taqdirda u qaysi mamlakat bilan eng ko'p uzviy bog'langan bo'lsa, uning uchun o'sha mamlakat huquqi shaxsiy qonun hisoblanadi. Fuqaroligi bo'limgan shaxs qaysi mamlakatda doimiy yashab turgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. Agar chet ellik jismoniy shaxslar iqtisodiy sud ishlarini ko'rishda ishtirok etishayotgan bo'lishsa, sudlar moddiy huquq normasini qo'llashda ushbu qoidalarga rioya qilishlari, ularning shaxsiy qonunlarini qo'llashlari kerak.

Bundan tashqari FKda «yuridik shaxsning shaxsiy qonuni» degan tushuncha ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, yuridik shaxs qaysi mamlakatda ta'sis etilgan bo'lsa, shu mamlakatning huquqi mazkur yuridik shaxsning qonuni hisoblanadi.

Yuridik shaxsning fuqarolik huquq layoqati yuridik shaxsning qonuni bilan belgilanadi. Chet el yuridik shaxsi o'z organi yoki vakilining bitim tuzish vakolatlaridagi chet el yuridik shaxsining organi yoki vakili bitim tuzgan mamlakatning huquqi uchun noma'lum bo'lgan cheklowlarni vaj qilib keltirishi mumkin emas.

FKning 39-moddasi mazmuniga ko'ra tashkilotlar sudda da'vogar yoki javobgar sifatida ishtirok etishlari uchun ular yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishlari kerak. Agar nizolashilayotgan shaxs yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasa, ya'ni filial,

vakolatxona yoki boshqa shu kabi yuridik shaxs tuzilmasi hisoblansa, u holda sudda uning manfaatini yuridik shaxsning o'zi himoya qilishi kerak. Mazkur qoida chet el tashkilotlariga ham tegishlidir.

Shuni inobatga olish kerakki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlariga tegishli iqtisodiy protsessual huquqlarning maxsus cheklanishiga yo'l qo'yilgan davlatlarning fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi ham qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob tariqasidagi cheklovlarni belgilashi mumkin.

Chet ellik shaxslar ishtirokidagi iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishga oid yana bir muhim masala – sudga taqdim etiladigan hujjatlarning qonuniyligidir. Odatta biror chet davlatning muayyan yuridik oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan rasmiy hujjatlari, shu jumladan, sudsiga beriladigan arizalar, ularga ilova qilinadigan daliliy hujjatlar va boshqa yozishmalar boshqa davlatda tan olinishi uchun ular legallashtirilishi lozim.

Ammo «Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi» 1961-yil 5-oktabrdagi Gaaga Konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan. Shu bois O'zbekiston Respublikasining vazirliklari, idoralari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari va boshqa tashkilotlari «Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi» mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan hollarda xorijiy davlatlarning rasmiy hujjatlarini legallashtirmasdan qabul qilishga majburdirlar va Konvensiya qatnashchilari bo'lgan mamlakatlardan chiqadigan, apostil qo'yilgan rasmiy hujjatlarni qabul qilishni va ularidan foydalanishni rad eta olmaydilar. Ya'ni bunday rasmiy hujjatlar legallashtirilmasdan, ularga apostil qo'yilgan bo'lsa, ular qonuniy hisoblanadi va O'zbekistonda tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-noyabrdagi 307-sonli qarori bilan «Apostil qo'yish tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomga ko'ra apostil deganda, hujjatni imzolagan sifatida ish ko'rgan shaxsning imzosi haqiqiyligini va hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiyligini tasdiqlaydigan Konvensiyaga muvosiq

rasmiy hujjatga chet elda foydalanish maqsadida qo'yiladigan maxsus shtamp, apostil qo'yish deganda esa, hujjatni imzolagan sifatida ish ko'rgan shaxs imzosining haqiqiyligini va hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiyligini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan rasmiy tartib-qoida tushuniladi.

Apostil chet elda O'zbekiston Respublikasining elchixonalari yoki konsullik muassasalarini tomonidan sodir etilgan hujjatlarga, tijorat yoki bojxona operatsiyalariga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lgan hujjatlarga va pasportga, harbiy biletga qo'yilmaydi.

«Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi» 1961-yil 5-oktabrdagi Gaaga Konvensiyasiga ko'ra rasmiy hujjatlar apostil qo'yish uchun asl nusxalarda yoki ariza beruvchining xohishiga ko'ra notarial tasdiqlangan nusxalarda taqdim qilinadi. Apostil shakli o'zbek yoki ingliz tilida to'ldiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2011-yil 5-iyuldaggi PQ-1566-son qarori bilan
quyidagilar O'zbekiston Respublikasida apostil
qo'yish vakolatiga ega bo'lgan organlar etib belgilandi**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari –	tegishli hududdagi adliya organlari va muassasalaridan hamda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlaridan chiqadigan rasmiy hujjatlarga
O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi –	sudlardan chiqadigan rasmiy hujjatlarga
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi –	prokuratura, tergov va surishtiruv hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlaridan chiqadigan rasmiy hujjatlarga
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasи huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiysi –	ta'lim tashkilotlari tomonidan berilgan rasmiy hujjatlarga
O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi –	boshqa barcha rasmiy hujjatlarga

Apostil qo'yish uchun:

1. Apostil qo'yish to'g'risida ariza;
2. Ariza beruvchining shaxsini tasdiqlaydigan hujjatning nusxasi;
3. Xorijiy davlat – Konvensiya qatnashchisi hududida foydalilaniladigan rasmiy hujjat;
4. Apostil qo'yilganligi uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etiladi.

Rasmiy hujjat ikki nusxada taqdim etiladi, ulardan biri ishga (nusxasi) tikiladi, boshqasi esa (asl nusxa) ariza beruvchiga beriladi.

Chet el shaxslari ishtirokidagi iqtisodiy ishlar ko'rيلayotganida da'vo muddatini qo'llash masalasi ham muhim hisoblanadi. FKning 1183-moddasiga ko'ra da'vo muddati mamlakatning tegishli munosabatni tartibga solish uchun qo'llanilayotgan huquqi bo'yicha belgilanadi. Ya'ni ish qaysi davlat hududidagi sudda ko'riliayotgan bo'lsa, da'vo muddati shu davlatning huquqi asosida qo'llaniladi.

Da'vo muddati tatbiq etilmaydigan talablar, agar tegishli munosabatning qatnashchilaridan loaqlal bittasi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi yoki O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining huquqi bo'yicha belgilanadi.

Chet el shaxslarining iqtisodiy sud ishlarida ishtirok etishi jarayonlarini tartibga soluvchi va O'zbekiston Respublikasi ishtirok etayotgan ko'p tomonlarna xalqaro shartnomalardan biri – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 30-avgustdagagi 294-l-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan va O'zbekiston uchun 1997-yil 1-dekabrdan kuchga kirgan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro tovarlar oldi-sotdisi shartnomalari to'g'risida» 1980-yil 11-apreldagi Vena Konvensiyasidir. Ushbu Konvensiyada uning tadbiq etilishi doirasi, xalqaro tovarlar oldi-sotdisi shartnomalarini tuzish tartibi, sotuvchi va sotib oluvchilarning majburiyatları, sotuvchi yoki sotib oluvchi tomonidan shartnoma shartlari buzilgan hollardagi huquqiy himoya vositalari, tavakkalchilik xavfining

o'tishi, zararlar, loizlar, javobgarlikdan ozod qilish asoslari, shartnomaning bekor qilinishi oqibatlari va boshqa shu kabi masalalarga oid qoidalar o'z aksini topgan.

Konvensiyaning 1-moddasi mazmuniga ko'ra,

1) Ushbu Konvensiya turli davlatlarda joylashgan tijorat korxonalari hisoblangan tomonlar o'rtasidagi oldi-sotdi shartnomalariga qo'llaniladi:

- a) qachonki, bu davlatlar Kelishilgan davlatlar bo'lsa;
- b) qachonki, xalqaro xususiy huquq normalariga ko'ra Kelishilgan davlatlarning huquqi qo'llanilsa.

Konvensiya bilan tartibga solinadigan predmetga aloqasi bo'lgan, ammo unda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan masalalar ular asos qilib olingan umumiyl prinsiplar asosida hal qilinadi, mabodo bunday prinsiplar mavjud bo'lmasa, xalqaro xususiy huquq normalari qo'llaniladigan huquq asosida hal qilinadi.

Konvensiya 11-moddasining mazmuniga ko'ra, oldi-sotdi shartnomasi yozma ravishda tuzilishi yoki tasdiqlanishi yoxud biror shakldagi talablarga mos kelishi shart emas. U har qanday vositalar yordamida, shu jumladan guvohning ko'rsatuvlari orqali ham isbotlanishi mumkin.

Mazkur Konvensiyada sudga da'vo arizasi berish tartibi, unga qanday hujjatlar ilova qilinishi kerakligi, sudga taalluqlilik yoki tegishlilik kabi protsessual tartib qoidalar ko'zda tutilmagan.

Yodda tuting!

Vena Konvensiyasi faqat tomonlar o'rtasidagi oldi-sotdi shartnomalariga qo'llaniladi, ya'ni ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish shartnomalariga, oldi-sotdi shartnomasining oqibati ta'sir qiladigan sotilgan tovarga nisbatan mulk huquqini belgilash hollariga nisbatan tadbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 6-maydag'i 825-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida»gi 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan ko'p tomonlama Konvensiya (ushbu Konvensiyaga doir 1997-yil 28-martdagi Moskva Bayonnomasi

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 13-dekabrdagi Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan)da unga a'zo bo'lgan, ya'ni bir qancha MDH davlatlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun ham majburiy bo'lgan fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha tekin huquqiy yordam berish, bojdan ozod qilish, hujjatlar taqdim etish, guvohlarni, jabrlanuvchilarni, fuqarolik da'vogarlarni va javobgarlarni, ularning vakillarini chaqirtirish, manzillarni va boshqa ma'lumotlarni aniqlash, sudlovga tegishlilikni aniqlash, sud jarayonlarida hamkorlik qilish, sud qarorlarini tan olish va ijro etish kabi protsessual tartib-qoidalar o'rinni o'ldigan.

Minsk konvensiyasi 1-moddasining 2-bandiga mazmuniga ko'ra, ahslashuvchi tomonlardan har birining fuqarolari, shuningdek, uning hududida yashovchi boshqa shaxslar boshqa ahslashuvchi tomonning fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlarni ko'tish vakolat doirasiga kiradigan sud, prokuratura, ichki ishlar va boshqa muassasalariga erkin va to'siglarsiz murojaat qilish huquqiga ega, ushbu ahslashuvchi tomon fuqarolari kabi ana shunday shartlarda ularda qatnashishlari, iltimosnomalar kiritishlari, da'vo arizasi bilan murojaat qilishlari va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Ushbu qoida va qolgan moddalardagi qoidalarda fuqarolarning ishtirok etishi ko'rsatilgan bo'lsa-da, konvensiya 1-moddasining 3-bandiga mazmuniga ko'ra, mazkur Konvensiya qoidalari kelishilgan tomonlarning qonunchiligiga mos holda tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham tadbiq etiladi. Shu ma'noda ushbu Konvensiyadagi xalqaro huquq normalari iqtisodiy sudlar tomonidan ham qo'llanilishi mumkin.

Ushbu Konvensiyaga MDH davlatlarining barchasi qo'shilmaganligi va unda fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi qoidalari nisbatan qisqaroq bayon etilganligi sababli «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida» 2002-yil 7-oktabrdagi Kishinyov konvensiyaga qo'shilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2019-yilning 26-avgustida qabul qilingan.

Kishinyov konvensiyasida fuqarolik, oilaviy, jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam berish hamda huquqiy munosabatlarda hamkorlik qilish masalalari bir munkha kengroq yoritilgan. Jumladan, unda iqtisodiy nizolarni hal etish, fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha eksperitza o'tkazish va tashkil etishda huquqiy yordam ko'rsatishga oid bir qancha qo'shimcha normalar kiritilgan, jinoiy ishlarni yuritishga bag'ishlangan to'rtinchi bo'llimda qator protsessual jarayonlar aniq bayon qilingan, jinoyatlarga xos ayrim holatlarni tavsiflash va ushbu holatlarga nisbatan ishlataladigan atamalarni belgilashda milliy qonunchilikdagi mavjud farqlar hisobga olingan va hokazo.

Kishinyov konvensiyasi, 2-modda

Ahslashuvchi tomonlar fuqarolar va uning hududida yashayotgan bochqa shaxslar sud va notarial idoralarida davlat bojlaridan va chiqimlardan ozod bo'ladilar, shuningdek, ahslashuvchi boshqa tomon hududida xuddi o'zlarining fuqarolaruga yaratilgan sharoitlarda bepul yuridik yordamdan foydalanishadi. Ushbu imtiyozlar fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha amalga oshiriladigan barcha protsessual harakatlarga, shu jumladan, hal qiluv qarorlari yoki hukmlarning ijro etilishiga ham tatbiq etiladi.

Iqtisodiy sudlar tomonidan temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish bilan bog'liq nizolar ko'rib chiqilayotgandagi xalqaro huquq normalarini qo'llashning ham o'ziga xos protsessual tartib-qoidalari mavjud.

O'zbekiston Respublikasining «Temir yo'l transporti to'g'risida»gi Qonuni 2-moddasining to'rtinchi qismida yozilishicha, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining temir yo'l transporti to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bolsa, xalqaro shartnomalar qoidalari q'llaniladi.

Ushbu Qonun 2-moddasining to'rtinchi qismi, Temir yo'l ustavining 6-bandı mazmunidan kelib chiqib, ta'kidlash kerakki, iqtisodiy sudlar xalqaro temir yo'l yo'nalishlarida yuklarni va bagajlarni tashish bilan bog'liq nizolarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 18-iyunda qo'shilgan 1951-yil 1-noyabrdagi «Xalqaro temir yo'l yuk yo'nalishlari to'g'risida»gi Bitim (ХYYB) ni qo'llashlari lozim.

Ushbu Bitim unga qo'shilgan davlatlar uchun majburiy xarakterda bo'lib, u xalqaro temir yo'l yuk yo'nalishlarida yuk tashish shartnomalarini tuzish, ularni bajarish, ularga o'zgartishlar kiritish, temir yo'llarning javobgarligi, talabnomalar va da'volarni berish tartibi, hisob-kitoblar tartibi kabi masalalarni tartibga soladi.

Bitimda qayd etilgan tashish shartlari, boshqa xil qoidalar imperativ xarakterga ega, ya'ni ular temir yo'llarning bitimlari bilan yoki yuk tashish shartnomasi taraflarining kelishuvlari bilan o'zgartirilishi, bekor qilinishi mumkin emas.

Iqtisodiy sudlar ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi ishtirok etayotgan, ya'ni ratifikatsiya qilingan ko'p tomonlama xalqaro shartnomalardan tashqari, tegishli ravishda ikki tomonlama xalqaro shartnomalardagi huquq normalarini ham qo'llashadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1994-yil 23-sentabrdagi 2026-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan «O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Jumhuriyatি o'ttasidagi fuqarolik, savdo va jinoiy ishlар bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida» 1994-yil 23-iyundagi, 1998-yil 1-maydagи 626-I-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan «O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'ttasida fuqarolik va jinoiy ishlар bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida» 1997-yil 11-dekabrdagi, 2002-yil 5-apreldagi 366-II-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan «O'zbekiston Respublikasi bilan Chexiya Respublikasi o'ttasida fuqarolik va jinoiy ishlар bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlар to'g'risida» 2002-yil 18-yanvardagi shartnomalar va boshqa qator shu kabi

ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda iqtisodiy ishlarni ko'rish bilan bog'liq o'ziga xos muhim qoidalar ko'zda tutilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 3-apreldagi Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan «O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtaida fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida» 2012-yil 20-sentabrdagi Shartnomaning 2-moddasida qayd etilishicha, mazkur Shartnoma qoidalariga muvofiq tomonlar fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha sud hujjatlarini topshirish, dalillar to'plash, huquqiy ma'lumotlar hamda sud ishlarini yuritish materiallarini almashish yuzasidan bir-birlariga huquqiy yordam ko'rsatadilar.

Yodda tuting!

«O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtaida fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida»gi Shartnomaga ko'ra, agar mazkur Shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, huquqiy yordam to'g'risidagi topshiriqlarni taqdim etish va bajarishda Tomontar bevosita o'zlarining tegishli tartibda tayinlangan Markaziy muassasalari orqali o'zaro aloqa qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi uchun iuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha Markaziy muassasa – Oliy sud, Koreya Respublikasi uchun Markaziy muassasa – Oliy sudning Milliy sudlar boshqarmasi hisoblansadi.

13.2. Chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni ko'rishda sudlovga tegishlilik masalalari. Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish tartibi

Chet ellik shaxslar ishtirok etayotgan nizolarni ko'rib chiqishda ishlarning sudlovga tegishliliqi masalasi muhim o'rinn tutadi.

Agar har qanday davlatning protsessual huquq nazariyasida xorijiy element ishtirok etmaydigan fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha «sudlovga taalluqlilik» va «sudlovga tegishlilik» atamalari odatiy hisoblansa, chet el shaxslari ishtirokidagi ishlarni ko'rishda nizoni ko'rishga vakolatli bo'lgan organ, shu jumladan, sudni aniqlash tartibi bir oz boshqacha bo'ladi.

Ko'pgina davatlarning protsessual huquqlarida «sudlovga taalluqlilik» atamasi umuman ishlatilmaydi. Protsessual masalalar bo'yicha xalqaro hujjatlarda ham ushbu atama ishlatilmaydi. Shuning uchun biz quyida iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlovga tegishlilik bilan bog'liq xalqaro huquq normalarini qo'llash tartib-qoidalari, ya'ni xalqaro sudlovga tegishlilik haqida so'z yuritamiz.

Huquqiy adabiyotlarda yozilishicha, milliy sud hokimiyati doirasida har bir davlat o'z sudlarining sudlov ish yuritishidagi vakolatlariga oid shartlar va chegaralarni erkin belgilaydi. Xalqaro sudlovga tegishlilik deganda, muayyan davlat sudlarining chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni hal qilish vakolati tushuniladi. Odatda biror davlat uchun majburiy xarakterda bo'lgan normalar tizimi va xalqaro sudlovga tegishlilik qoidalari oldindan mavjud bo'lmaydi. Ya'ni har bir davlat xalqaro sudlovga tegishlilikning o'z milliy qoidalardan kelib chiqqan holda qanchasini maqsadga muvofiq deb hisoblasa, shuncha huquqiy nizolarni o'ziga olishi mumkin.

IPKning 33-moddasida belgilangan sudlovga tegishlilik to'g'risidagi umumiy qoidaga ko'ra, yuridik shaxslarga nisbatan da'volar ular davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Yuridik shaxslarga nisbatan ularning alohida bo'linmalari faoliyatidan kelib chiqadigan da'volar alohida bo'linmalar davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Fuqarolarga nisbatan da'volar ular yakka tartibdagi tadbirdor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Mazkur Kodeks 244-moddasining birinchi qismida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudi tomonidan chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlar, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnormasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Kodeks qoidalari bo'yicha, mazkur bobda nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda ko'riladi.

Sudlouga tegishlilik qoidasi

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy protsessual kodeksining 32-moddasi mazmuniga ko'ra, taraflardan biri O'zbekiston Respublikasi norezidenti – clet el shaxsi bo'lgan ishlarni birinchi instantsiya tariqasida boshqa ishlar kabi tuman (shahar), tumanlararo iqtisodiy sudlar emas, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari ko'rib ciliqadi.

Shu bilan birga, xalqaro huquq normalarini qo'llashda iqtisodiy sudlar sudlouga tegishlilikning maxsus qoidalari tegishli xalqaro bitim va konventsionalarda ham nazarda tutilganligini inobatga olishlari lozim.

Ukrainaning Kiyev shahrida 1992-yil 20-martda imzolangan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 6-maydagi 826-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan «Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi to'g'risida»gi Bitimning 4-moddasi mazmuniga ko'ra:

1. Davlatning vakolatli sudi – Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ishtirokchisi mazkur Bitimning 1-moddasida qayd etilgan nizolarni ko'rishga haqli, agar Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ishtirokchisi bo'lgan ushbu davlatning hududida:

a) da'vo taqdim etilgan kunda javobgar doimiy yashash joyiga yoki joylashga joyiga ega bo'lsa;

Agar ishda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ishtirokchisi bo'lgan turli davlatlar hududida joylashgan bir nechta javobgarlar ishtirok etishgan bo'lsa, nizo da'vogarning xohishi bo'yicha har qanday javobgar joylashgan joy bo'yicha ko'rilib;

b) javobgar korxona (filial) savdo, sanoat yoki boshqa xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa;

v) nizo predmeti bo'lgan shartnomaviy majburiyat bajarilgan yoxud qisman yoki to'liq bajarilishi kerak bo'lganda;

g) zararni qoplash to'g'risidagi talab uchun asos bo'lib xizmat qiladigan harakat yoki boshqa holatlari mavjud bo'lsa;

d) ishchanlik qobiliyatini himoya qilish to'g'risidagi da'vo bergen da'vogar doimiy yashash joyiga yoki turar joyiga ega bo'lgan bo'lsa;

e) kontragent-mahsulot yetkazib beruvchi, pudratchi yoki xizmat ko'rsatuvchi (ish bajaruvchi) joylashgan bo'lsa va nizo shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va hekor qilishga oid bo'lsa.

2. Davlatning vakolatli suds - Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ishtirokchilari, agar taraflarning nizoni shu sudga berish to'g'risida yozma kelishuvi mavjud bo'lgan boshqa hollarda ham ishlarni ko'rib chiqadilar.

Bunday kelishuv mavjud bo'lgan taqdirda Hamdo'stlik ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlat sudi, agar ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar javobgar tomonidan ariza berilgan bo'lsa, ushbu ariza bo'yicha ish yuritishni tugatadi.

3. Xo'jalik subyektlarining ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqini tan olish to'g'risidagi da'volari istisno tariqasida mol-mulk joylashgan joydagi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ishtirokchisi bo'lgan davlatning sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

4. Davlat va boshqa organlarning normativ xarakterda bo'lmanan hujjatlarini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish, shuningdek, ushbu organlar tomonidan bunday hujjatlarni qabul qilish natijasida xo'jalik subyektlariga yetkazilgan yoki xo'jalik subyektlariga nisbatan o'z majburiyatlarini lozim darajada barjarmaganliklari natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplash to'g'risidagi ishlar sud tomonidan istisno tariqasida ushbu organlar joylashgan joy bo'yicha ko'rildi.

3 va 4-bandlarda ko'rsatilgan sudsarning vakolatlari tomonlarning kelishuvi asosida o'zgartirilishi mumkin emas.

5. Qarshi da'vo va asosiy da'vo bilan bog'liq huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan da'voni hisobga olish haqidagi talab asosiy da'voni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Deyarli shu mazmundagi protsessual qoidalar yuqorida ta'kidlangan Minsk Konvensiyasining 20, 21-moddalarida, Kishinev Konvensiyasining 22 va 23-moddalarida ham mavjud.

Chet eilik shaxslar ishtirokidagi iqtisodiy ishlarni ko'rishga oid sudlovga tegishlilik masalasini hal etishda xalqaro shartnomalarda belgilangan va unda ishtirok etayotgan davlatlar tomonidan tan olingan sud immuniteti bilan bog'liq qoidalarni ham inobatga olish zarur. Ya'ni ba'zi shaxslar sud immunitetiga ega bo'lishadi va ular bilan bog'liq nizoli ishlarni ko'rish, agar xalqaro shartnomalarda boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, boshqa davlatlar sudlarining vakolatiga kirmaydi. Bunday nizolar diplomatik yo'llar orgali hal qilinadi.

Yodda tuting!

Odatda davlatlar va ularning diplomatik vakolatxonalarini sud immunitetidan foydalanishiadi. Umumiyoq qoidalarga ko'ra ular boshqa davlatlar sudlarining sudloviga taalluqli bo'lishmaydi.

Bundan tashqari, IPKning 242-moddasida qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudida chet davlatga nisbatan da'vo taqdim etishga, uni uchinchi shaxs sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilishga, chet davlatga qarashli bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida turgan mol-mulkni xatlash hamda unga nisbatan da'voni ta'minlash bo'yicha boshqa choralarini qo'llashga, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish tartibida undiruvni shu mol-mulkka qaratishga, agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi yoki xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, faqat tegishli davlatning vakolatlari organlari roziliqi bilan yo'l qo'yiladi.

Xalqaro tashkilotlarning sud immuniteti O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

Sud immunitetidan voz kechish chet davlatning qonunida yoki xalqaro tashkilotning qoidalari nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi kerak. Bu holda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudi ishni ushbu Kodeksda belgilangan tartibda ko'rib chiqadi.

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakillari hamda ularga tenglashtirilgan

xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari faqat O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki xalqaro huquq normalari bilan belgilanadigan doiradagina O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudining yurisdiksiyasida bo'ladi.

Davlatlar, ularning diplomatik vakolatxonalarini va konsulliklarining sud immuniteti masalalariga oid muhim hujjatlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 6-maydagi 1078-XII-sonli qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan «Diplomatik aloqalar to'g'risida» 1961-yil 18-apreldagi Vena Konvensiyasini keltirsa bo'ladi. Ushbu Konvensiya 22-moddasining 1 va 3-bandlarida belgilanishicha, diplomatik vakolatxonalarining binosi daxlsizdir. Kirib kelgan davlat vakillari, vakolatxona boshlig'ining roziligi bo'lmasa, ushbu binoga kira olishmaydi.

Vakolatxona binolari, ularni jihozlash predmetlari va ularda joylashgan boshqa mol-mulklar, shuningdek, vakolatxonaga tegishli harakatlanish vositalari tintish, rekvizitsiya, xatlash va ijro harakatlaridan daxlsizlikdan foydalanadi.

Konsullik muassasalarining sud immuniteti bilan bog'liq shu kabi qoidalar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 6-maydagi 1079—XII-sonli qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan «Konsullik munosabatlari to'g'risida» 1963-yil 24-apreldagi Vena Konvensiyasida ham ko'zda tutilgan.

Chet el shaxslarining iqtisodiy sud ishlarida ishtirok etishi jarayonlari bilan bog'liq yana bir muhim yo'nalish – chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarining chet davlat sudlariga topshiriqlar bilan murojaat qilishi hisoblanadi. Chunki har qanday davlatda sudlar tomonidan ishlar ko'rinishida, nizolarning qonuniy vaadolatli hal etilishida ayrim protsessual harakatlarni, shu jumladan, biror ish uchun muhim hisoblangan va chet elda mavjud bo'lgan daliliy hujjatni yoki ashyoviy dalilni olish, muayyan hududni ko'zdan kechirish, guvohni so'roq qilish va boshqa shu kabi harakatlarni amalga oshirishga zarurat paydo bo'ladi. Mazkur harakatlar chet davlatlarda amalga oshirilishi bois bunday davlatlar bilan ushbu masalaning huquqiy yechimini

tegishli kelishuvlar, ya'ni ko'p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalar tuzish orqali hal etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlatlar o'tasida tuziladigan ko'p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda aks etgan huquqiy yordamlarning turlari bir nechta bo'lib, chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish ushbu yordamning bir ko'rinishi hisoblanadi.

IPKning 247-moddasida iqtisodiy ishlar bo'yicha ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi sud topshiriqlarini ijro etish bilan bog'liq qoida mustahkamlangan bo'lib, unda ko'rsatilishicha, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudi ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki qonunida belgilangan tartibda chet davlatlar sudlari tomonidan o'ziga berilgan topshiriqlarni (chaqiruv qog'ozlarini va boshqa hujjatlarni topshirish, yozma dalillar olish, ekspertiza o'tkazish, joyni ko'zdan kechirish va hokazo) bajaradi.

Ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi sud topshiriqlarini O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudi tomonidan ijro etish, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, IPKda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Chet davlat sudining topshirig'i quyidagi hollarda ijro etilmaydi:

1

O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga xiz bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasi xavfsizligiga taallid solsa



2

Sud topshirig'ini ijro etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudining vakolatiga kirmaydi



3

Ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi sud-topshirig'ini o'z ichiga olgan hujjalarning baiqliqligi aniqlanmasa



Chet davlat sudsalarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish bilan bog'liq muhim xalqaro shartnomalardan biri hisoblangan Minsk Konvensiyasining 5-moddasida ko'rsatilishicha, mazkur Konvensiya talablarini bajarishda Kelishilgan Tomonlarning vakolatli adliya muassasalari, agar faqat ushbu Konvensiyada munosabatga kirishishning boshqa tartibi o'matilgan bo'lmasa, o'zlarining markaziy, hududiy va boshqa organlari orqali o'zaro munosabatga kirishadilar.

Ushbu Konvensiyaning 6-moddasidagi qoidaga ko'ra Kelishilgan Tomonlar o'zaro huquqiy yordamlarni Kelishilgan Tomonlar so'rayotgan qonunchilikda ko'zda tutilgan protsessual va boshqa harakatlarni bajarish, shu jumladan, hujjatlarni tuzish va jo'natish, ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish, ashyoviy dalillarni olish va jo'natish, ekspertiza o'tkazish, taraflarni, uchinchi shaxslarni, gumonlanuvchilarni, ayblanuvchilarni, jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ekspertlarni so'roq qilish, jinoiy ta'qibni amalga oshirayotgan shaxslarni qidirish, shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish, fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlarini, jinoiy ishlarning fuqarolik da'vosi qismi bo'yicha hukmlarni, ijro yozuvlarini tan olish va ijro etish, hujjatlarni topshirish yo'li bilan bir-birlariga yordam berish orqali amalga oshiradilar.

Chet davlat sudsalarining ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi topshiriqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida ijro etiladi. Dalillarni ta'minlash, sud topshiriqlarini berish, da'veoni ta'minlash va ularni ijro etishga tartib-qoidalalar IPKning tegishli boblarida, xususan, 90–100-moddalarida berilgan.

Kiyev Bitimi 5, 6-moddalarining mazmunidan ma'lum bo'lishicha, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi a'zolarining vakolatli sudsulari va boshqa davlat organlari o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish majburiyatini olishadi.

O'zaro huquqiy yordam ko'rsatish hujjatlarni taqdim etish va jo'natish va protsessual harakatlarni bajarish, shu jumladan, ekspertizalar o'tkazish, Tomonlarni, guvohlarni, ekspertlarni va boshqa shaxslarni eshitishlarni o'z ichiga oladi.

O'zaro huquqiy yordam ko'rsatish haqidagi topshiriqni ijro etishda yordam so'ralayotgan vakolatli sudlar va boshqa organlar o'z davlatlarining qonunchiligini qo'llashadi. O'zaro huquqiy yordam ko'rsatish va hal qiluv qarorini ijro etish haqida murojaat qilinganda ilova qilinadigan hujjatlar so'ralayotgan davlatning tilida yoki rus tilida bayon etiladi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi a'zolari bo'lган davlatlardan birining hududidagi muassasa yoki maxsus vakolatli shaxs tomonidan berilgan va o'z vakolatlari doirasida belgilangan shaklda guvohlantirilgan va rasmiy muhr bilan tasdiqlangan hujjatlar Mustaqil davlatlar hamdo'stligi a'zolari bo'lган boshqa davlatlar hududida hech bir maxsus guvohlantirilmamasdan qabul qilinadi.

Yodda tuting!

Iqtisodiy protsessual huquq tizimi – iqtisodiy protsessual huquq sanining asosiy elementlaridan biri sifatida umumiyligi va maxsus qismlardan fborat tuzilishga ega bo'lib, mazkur normalarning uzviyi va ketma-ketlikda joylashuvi hamda mazmunan bir-birini to'ldirishiga aytildi.

Chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi topshiriqlari belgilangan tartibda bajarilgandan so'ng topshiriq bergan tomoniga barcha hujjatlar qaytariladi va agar huquqiy yordam ko'rsatishning iloji bo'lмаган taqdirda, ushbu hujjatlar topshiriq bergan muassasaga qaytarilishi bilan bir vaqtning o'zida unda topshiriqni bajarishga to'sqinlik qilingan holatlar haqida ma'lum qilinadi.

Chet davlat sudlarining topshiriqlarini ijro etish bilan bog'liq qoidalar O'zbekiston bilan boshqa davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonloma kelishuvlarda ham aks etgan. Bunday ikki tomonloma kelishuv imzolamagan yoxud Minsk yoki Kishinev kovensiyalariga a'zo bo'lмаган davlatlarning sudlari tomonidan berilgan topshiriqlar O'zbekistonda «Fuqarolik protsessi masalalariga doir» 1954-yil 1-martdagи Gaaga Konvensiyasi asosida bajariladi. Unga ko'ra topshiriq berayotgan davlat tomonidan sud topshiriqlari topshiriq olayotgan davlatning

konsuli orqali davlat hokimiyatiga beriladi. Topshiriqni berish yoki uni bajarish bilan bog'liq muammolar diplomatik yo'llar orqali hal etiladi.

Ushbu Konvensiyaning 4-moddasida qayd etilishicha, 1, 2, 3-moddalarda ko'zda tutilgan sud hujjatlarini taqdim etish, agar hududida taqdim etish amalga oshirilayotgan davlat o'zining suverenitetiga yoki xavfsizligiga zarar keltirilishi mumkin, deb hisoblasa, rad qilinishi mumkin.

Inobatga olish lozimki, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va ularni tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonunning 49-moddasi ikkinchi qismida yozilishicha, agar shartnomada boshqacha qolda nazarda tutilmagan bo'lsa yoki uning o'zga ishtirokchilari bilan boshqacha kelishuv mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining tugatilishi yoki denonsatsiya qilinishi O'zbekiston Respublikasini ushbu xalqaro shartnomani bajarish majburiyatidan ozod qiladi hamda shartnomada tugatilguniga qadar uni bajarish natijasida yuzaga kelgan O'zbekiston Respublikasining huquqlari, majburiyatları yoki yuridik holatiga ta'sir qilmaydi.

13.3. Chet davlat sudsining va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini iqtisodiy suds tomonidan tan olish hamda ularni ijroga qaratish tartibi

Odatda sudsarning qarorlari ular chiqarilgan davlat hududidagina tan olinadi va ijro etiladi. Shu bilan birga xalqaro huquqda bir davlatning vakolatli organlari, xususan, vakolatli sudsleri tomonidan muayyan nizolarni hal etish bilan bog'liq chiqarilgan qarorlari ham boshqa davlat uchun huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bunday huquqiy oqibatlar chet davlat sudsining va arbitrajlarining qarorlarini tan olish va ularni ijroga qaratish orqali vujudga keladi.

IPK 25-moddasi birinchi qismining 6-bandiga ko'ra, iqtisodiy sudga taalluqli ishlar jumlasiga chet davlat sudsleri va

arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijro etishga qaratish to'g'risidagi ishlar ham kiradi.

Mazmun-mohiyatiga ko'ra chet davlat sudining va arbitrajining qarorini tan olish deganda, chet davlatning vakolatlari yoki arbitrajlari tomonidan chiqariladigan va qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarining ular ijro qilinishi lozim bo'lgan davlat sudlari (mahalliy sudlar) tomonidan o'zlarining sud hujjatlari kabi qonuniy kuchga egaligining tan olinishi tushuniladi.

Yodda tuting!

Chet davlat sudlari yoki arbitrajlarining qarorlarini tan olish va ijroga qaratish uchun sudning qarori ijro etilishi kerak bo'lgan davlat xalqaro tan olingan usulda va shaklda bunga o'z roziligidini bildirgan bo'lishi zarur. Rozilik bildirish ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama tuzilgan xalqaro shartnomalarda o'z aksini topadi.

IPKning 31-moddasida belgilanishicha, chet davlat sudlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar jumlasiga:

► tadbirkorlik faoliyatini va boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan nizolar bo'yicha chet davlat sudlari tomonidan qabul qilingan qarorni tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi;

► tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan nizolar bo'yicha chet el arbitrajlari tomonidan qabul qilingan qarorni tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar kiradi.

Ushbu Kodeks 32-moddasining ikkinchi qismida sudlovga tegishlilik haqidagi o'ziga xos qoida nazarda tutilgan bo'lib, uning mazmunidan ma'lum bo'lishicha, chet davlat sudlari va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi ishlarni tuman (shahar), tumanlararo iqtisodiy sudlar emas, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari ko'rib chiqadi.

Shuni inobatga olish kerakki, chet davlat sudlari yoki arbitrajlarining qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi

iltimosnomani ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlar ham, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, IPKda belgilangan qoidalar bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Mazkur masalani tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar haqida so'z yuritilganda, ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda chet davlat arbitrajining hal qiluv qarorlari (qarorlari)ni tan olish va ijroga qaratishga oid protsessual tartib-qoidalar asosan Nyu-York shahrida 1958-yil 10-iyunda imzolangan «Chet el mamlakatlari hakamlik qarorini e'tirof etish va ijro etish to'g'risida»gi Konvensiyada, chet davlat sudlarining hal qiluv qarorlari (qarorlari)ni tan olish va ijroga qaratishga oid protsessual tartib-qoidalar esa yuqorida ta'kidlangan Kiyev bitimi, Minsk va Kishinev konvensiyaları, O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa tegishli davlatlar o'rtaida tuzilgan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda belgilab berilgan.

Fuqarolik, iqtisodiy, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar bilan bog'liq Kiyev Bitimi, Minsk va Kishinev konvensiyalarida chet davlat sudlarining hal qiluv qarorlarini tan olish hamda ularni ijroga qaratish tartibi bir muncha kengroq yoritilgan bo'lsa-da, ushbu konvensiyalar asosan MDH davlatlari o'rtaida tuzilgan xolos.

Shuning uchun ushbu konvensiyalarda nazarda tutilgan chet davlat sudlarining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalalariga oid qoidalar faqatgina mazkur kovensiyalarning ishtirokchilari bo'lgan davlatlarning sudlari tomonidan chiqarilgan sud hujjalari nisbatan qo'llaniladi.

Agar ushbu konvensiyalar ishtirokchisi bo'lmagan yoxud O'zbekiston Respublikasi bilan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida ikki tomonlama shartnomasi tuzmagan chet davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risida iltimosnomasi berilgan bo'lsa, bunday iltimosnomasi ko'rib chiqilmaydi.

Chet davlat sudi deganda chet davlatning taraflar o'rtaida nizoni hal etuvchi vakolati organi tushuniladi, chet el arbitraji

deganda chet davlatning taraflar o'rtasidagi nizoni hal etish uchun doimiy yoki vaqtincha asosda faoliyat ko'rsatadigan nodavlat tashkiloti tushuniladi.

Kiyev Bitimining 1-moddasida yozilishicha, mazkur Bitim xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi, ular bilan davlat va boshqa organlar o'rtasidagi shartnomaviy va boshqa fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizolardan kelib chiqadigan ishlarni hal qilish, shuningdek, ular bo'yicha qarorlarni ijro etish masalalarini tartibga soladi.

Ushbu moddaning mazmuniga ko'ra, ushbu Bitim Minsk va Kishinev konvensiyalaridan farqli ravishda faqat xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish tartibini belgilab beradi, xolos.

Bu yerda inobatga olish kerakki, tan olinishi so'ralayotgan qarorlar ham aynan yuqorida masalalarini hal qilish vakolatiga ega bo'lgan sudlar, shu jumladan, arbitraj (xo'jalik) sudlari, hakamlik sudlari va boshqa organlar tomonidan chiqarilgan bo'lishi kerak.

Bitimning 2-moddasidagi qoidaga ko'ra, nizoning taraflari xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni korxonalar, ularning birlashmalari, har qanday tashkiliy-huquqly shakldagi tashkilotlar, shuningdek, yakka tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolar bo'lislari kerak.

Kiyev Bitimining 4-moddasida nazarda tutilgan vakolatli sud deganda, qarori boshqa ahslashuvchi taraf hududida ijroga qaratilishi lozim bo'lgan, qayd etilgan Bitimning 4-moddasi qoidalariiga muvofiq nizolarni ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan ahslashuvchi tarafning sudi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida bunday sudlar bo'lib iqtisodiy sudlar hisoblanadi.

Agar tan olinishi so'ralayotgan sudning qarori xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan nizoga yoki taraf sifatida yakka tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolar ishtirot etigan (masalan, korporativ) nizoga oid bo'lsa, bu holda iqtisodiy sudlar sudning qarorini Kiyev Bitimi emas, Minsk yoki Kishinev konvensiyalari asosida tan oladi va ijroga qaratadi.

Minsk konvensiyasining 51-moddasiga ko'ra, har bir kelishilgan tomon mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan shartlar asosida boshqa kelishilgan tomon hududida chiqarilgan quyidagi qarorlarni tan olishadi va ijro qilishadi:

- a) adliya muassasalarining fucarolik va oilaviy ishlari bo'yicha qarorlari. Shu jumladan, bu kabi ishlar bo'yicha sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimlari va pul majburiyatlariga oid notarial hujjatlar (kevinchalik qarorlar);
- b) jinoyat ishlari bo'yicha sudsarning zararni undirish to'g'risidagi qarorlari.

Kishinev konvensiyasi 54-moddasining 1-bandida Minsk Konvensiyasining 51-moddasida ko'rsatilgan ikki turdag'i qarorlardan tashqari sudsarning da'veni ta'minlash maqsadida mol-mulkni, shu jumladan, bank hisob raqamlaridagi pul mablag'larini xatlash to'g'risidagi qarorlari ham tan olinishi va ijro qilinishi belgilangan.

Minsk Konvensiyasining 52-moddasidagi qoidaga ko'ra har bir Kelishilgan Tomonning adliya muassasalari chiqargan va qonuniy kuchga kirgan, o'z xarakteriga ko'ra ijroni talab qilmaydigan qarorlari boshqa Kelishilgan Tomonning hududida maxsus ish yurituvisiz tan olinadi, agar:

a) so'raleyotgan Kelishilgan Tomonlarning adliya muassasalari ilgari shu ish bo'yicha qonuniy kuchga kirgan qarorni chiqarmagan bo'lsa;

b) ushbu Konvensiyaga ko'ra, unda nazarda tutilgan hollarda esa, hududida qaror tan olinishi lozim bo'lgan Kelishilgan Tomonning qonunchiligiga ko'ra ish ushbu Kelishilgan Tomonlarning adliya muassasalarining mutlaq vakolatiga kirmasa.

Chet davlat sudsari yoki arbitrajlarining qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishga oid xalqaro huquq normalari O'zbekiston Respublikasi bilan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida tuzilgan ikki

temonlarma shartnomalarda ham bevosita ko'zda tutilishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-maydag'i 626-I-soni qarori bilan ratifikatsiya qilingan «O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtaida fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida»gi shartnomaning «Qarorlarni tan olish va ijro etish» deb nomlangan III bobi (17–22-moddalari)da tan olinishi va bajarilishi lozim bo'lgan sud qarorlari, ularni tan olish va ijro etish tartibi, tan olishni rad qilish asoslari kabi normalar aks etgan.

Ushbu Shartnomaning 17-modasida qayd etilishicha, ahslashuvchi Tomonlar boshqa Ahslashuvchi Tomonning hududida qabul qilingan quyidagi qarorlarni o'z hududida tan olishi va agar qarorning tusiga qarab uning bajarilishi talab etilsa, unda ijro etishi lozim:

- 1) fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlari;
- 2) jinoiy ishlar bo'yicha yetkazilgan zararni qoplashga oid sud qarorlari;
- 3) arbitraj sudining qarorlari.

2. Ushbu Shartnomada qo'llanadigan «sud qarorlari» atamasи quyidagini anglatadi:

O'zbekiston Respublikasida – sud qarori, ajrimi, hukmi, sud tasdiqlagan yarashuv haqidagi bitim, shuningdek, fuqarolik ishining mohiyati bo'yicha sudyu chiqargan qaror;

Xitoy Xalq Respublikasida – sud tomonidan chiqarilgan qaror, ajrim, yarashuv akti.

Yodda tuting!

Iqtisodiy sudlar O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtaida tuzilgan Shartnomaga ko'ra uning 17-moddasidagi ro'yxatda qayd etilmagan boshqa sudlar, ya'ni arbitrajlar (hakamliklar)ning qarorlarini o'zar olish va ijro etishni Nyu-York Konvensiyasiga muvofiq amalga oshiradi.

Shartnoma 1-moddasining 2 va 3-bandlaridagi qoidaga ko'ra, ushbu modda 1-bandining qoidalari har qaysi istalgan Ahslashuvchi Tomon hududida ularning o'z milliy qonunlariga muvofiq ta'sis etilgan yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi,

ushbu Shartnomada qo'llanilladigan «fugorolik ishlari» atamasi xo'jalik, oila va nikoh hamda mehnat ishlarini ham qamrab oladi. Shunday ekan, Ahdlashuvchi bir Tomonning xo'jalik, iqtisodiy ishlar bo'yicha tegishli sudlari chiqqargan qarorlar Ahdlashuvchi ikkinchi Tomonning mazkur toifadagi ishlarni ko'rishga vakolatli bo'lgan sudlari, ya'ni O'zbekistonda iqtisodiy sudlar tomonidan tan olinadi va ijroga qaratiladi.

**O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq
Respublikasi o'rtaida tuzilgan shartnoma
12-moddasining mazmuni**

- sud tomonidan tasdiqlangan sud qarorining nusxasi, agar nusxada qarorning kuchga kirganligi va uning ijro etish mumkinligi haqida aniq ko'rsatma bo'lmasa, bu to'g'risida sud ma'lumotnomasining bir nusxasi ilova qilinishi kerak;
- protsessda ishtirok etmagan tomonga qonunda belgilangan tartibda sudga chaqiriq haqidagi xabarnoma taqdim etilganligi va muomalaga layoqatsiz bo'lgan holda esa uning tegishli vakili bo'lganligi haqida tasdiqlovchi hujjat;
- ushbu moddada eslatib o'tilgan iltimosnomaning va tegishli hujjatlarning tasdiqlangan tarjimasi.

Shartnomaning 21-modasi mazmunidan ma'lum bo'lishicha, quyidagi hollardan birida sud qarorini tan olishni va ijro etishni rad qilish mumkin:

- 1) agar qabul qilingan qaror Ahdlashuvchi Tomonning qonunlariga muvofiq bu qaror qonuniy kuchga kirmagan bo'lsa yoki ijrosi mumkin bo'lmasa;
- 2) agar qarorni tan olish va ijro etish haqidagi iltimosnomalaratilgan Ahdlashuvchi Tomonning qonunlariga muvofiq ish so'ralayotgan Ahdlashuvchi Tomon sudining mutlaq vakolat doirasiga kiradigan bo'lsa;
- 3) agar protsessda ishtirok etmagan Tomonga Ahdlashuvchi Tomon qonunlariga muvofiq qarorni qabul qilgan muassasa

sudga chaqiriq haqidagi xabarnomani taqdim etmagan bo'lsa, yoki, muomalaga layoqatsiz bo'lган holda, uning tegishli vakili bo'lмаган bo'lsa;

4) agar aynan shu Tomonlar orasidagi aynan shu huquqiy nizo bo'yicha so'raleyotgan Ahdlashuvchi Tomon sudi chiqargan qaror qonuniy kuchga kirgan bo'lsa, yoki xuddi shu nizo u yerda ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, yoki ushbu nizo bo'yicha uchinchi davlat qarorining qonuniy kuchga kirganligi tan olingan bo'lsa;

5) agar iltimosnomasi qaratilgan Ahdlashuvchi Tomonning qarorni tan olishi yoki ijro etishi uning suverenitetiga, xavfsizligiga yoki jamoat tartibiga putur yetkazadigan bo'lsa.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Kiiev, Minsk, Kishinev konvensiyalarining ishtirokchisi bo'lмаган yoki O'zbekiston Respublikasi bilan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida ikki tomonlama shartnomaga tuzmagan chet davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnomasi iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Biroq, agar tan olinishi va ijroga qaratilishi so'raleyotgan qaror muayyan arbitraj tomonidan chiqarilgan bo'lsa, taraflarning o'zaro aloqalarida nizo kelib chiqqan taqdirda u aynan shu arbitraj tomonidan ko'riliishi haqidagi kelishuvi mavjud bo'lsa, bunday qaror iqtisodiy sud tomonidan Nyu-York konvensiyasi asosida tan olinishi va ijroga qaratilishi mumkin. Bunda inobatga olish kerakki, nomlanishi qanday bo'lishidan qat'i nazar, muayyan davlatning doimiy asosda faoliyat yuritadigan vakolatli sudlari, jumladan, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar, xo'jalik sudlari, arbitraj sudlari, iqtisodiy sudlarning qarorlarini tan olish va ijroga qaratishda Nyu-York konvensiyasini qo'llab bo'lmaydi.

Nyu-York konvensiyasi 1-moddasining 1-bandida yozilishicha, mazkur Konvensiya taraflar jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin bo'lган nizolar bo'yicha qarorlarni tan olish va ijroga qaratish so'raleyotgan davlatda boshqa davlat hududidagi hakamlik qarorlarini tan olish va ijroga qaratish jarayonlariga ta'dbiq etiladi. Shuning uchun mazkur Konvensiya bo'yicha tan olinishi so'raleyotgan qaror u chiqarilgan ishda ishtirok etgan taraflarning yuridik shaxs yoki

jismoniy shaxs ekanligiga hamda nizoning mazmuniga qarab, tegishlicha fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar yoki iqtisodiy sudlar tomonidan tan olinadi va ijroga qaratiladi.

Konvensiyasi 1-moddasining 2-bandı mazmuniga ko'ra, «hakamlik qarorlari» deganda har bir alohida ish bo'yicha taraflarning kelishuviga asosida tayinlangan hakamlar yoki taraflar o'zaro kelishgan holda murojaat qilgan doimiy hakamlik tomonidan chiqarilgan qarorlar tushuniladi.

Konvensiyadagi «hakamlik» tushunchasi O'zbekistondagi «xalqaro arbitraj sudi» tushunchasiga mos keladi.

Ushbu Konvensiyaning 4-moddasiga ko'ra, hakamlik qarorini tan olish va ijroga qaratishni so'rayotgan taraf iltimosnomani berishda tegishli tartibda tasdiqlangan hakamlik qarori va hakamlik kelishuvining asli yoki tegishli tartibda tasdiqlangan nusxalarini taqdim etadi. Agar hakamlik qarori va kelishuv rasmiy (o'zbek) tilda bayon etilmagan bo'lsa, ushbu qarorni tan olish va ijroga qaratishni so'rayotgan taraf bu hujjatlarning rasmiy tildagi tarjimasini taqdim qiladi. Tarjima rasmiy yoki qasamyod qilgan tarjimon, diplomatik yoxud konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu talablarga rioya qilinmasdan berilgan iltimosnomasi sud tomonidan qaytarilishi kerak. Hakamlik qarorini tan olish va ijroga qaratish Nyu-York Konvensiyasining 5-moddasida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgandagina rad etilishi mumkin.

Xalqaro huquq talablariga ko'ra, aksariyat hollarda chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza hal qiluv qarori foydasiga chiqarilgan nizo tarafi tomonidan qarzdorning yashash joyidagi yoki turgan joyidagi sudga, agar yashash joyi va turgan joyi noma'lum bo'lsa, uning mulki turgan joydagi sudga beriladi. Ushbu mazmundagi qoida Belorussiya Respublikasining xo'jalik protsessual qonunchiligidagi ham mavjud.

Chet davlat sudlarining va arbitrajlarining hujjatlari turlicha shaklda, ya'ni ajrim, qaror, hal qiluv qarori, sud buyrug'i ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ammo sud hujjatlari qanday shaklda chiqarilgan bo'lishidan qat'i nazar, agar ular belgilangan

tartibda tan olinib, ijroga qaratilgan bo'lsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, sud hujjatini ijro etishga mas'ul tashkilotlar, davlat organlari uchun mahalliy sudlar tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari kabi tegishli huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Odatda chet davlat sudlari yoki arbitrajlarining qarorlari ular ijro qilinishi lozim bo'lgan davlat sudlari (mahalliy sudlar) tomonidan tan olinganida ular bo'yicha ijro varaqalari beriladi. Ammo ba'zi qarorlar qonuniy kuchga kirgandan so'ng tegishli huquqiy oqibatlar keltirib chiqarsa-da, ular bo'yicha muayyan ijro harakatlarini amalgalash oshirish talab qilinmaganligi bois, ijro varaqalari berilmaydi. Masalan, chet davlat sudlari yoki arbitrajlarining biror buyruqni yoxud shartnomani haqiqiy emas deb topish, mulk huquqini tasdiqlash, muayyan yuridik faktini belgilash va hokazo shu kabi turdag'i qarorlari shular jumlasidandir. Bunday qarorlar boshqa davlatda belgilangan tartibda tan olingan paytdan boshlab, ijro qilingan hisoblanadi.

Sudlar chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini ijroga qaratish to'g'risidagi ajrimga asosan berilgan ijro varaqasida chet davlat sudi yoki arbitraji qarori qonuniy kuchga kirgan sanani ko'rsatishlari lozim. Chunki bunday ijro varaqasi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, qaror qonuniy kuchga kirgan vaqtidan e'tiboran uch yil ichida majburiy ijro etish uchun topshirilishi mumkin.

IPKning 249-moddasiga ko'ra, chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza arizachi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga qarzdorning joylashgan yeri yoki yashash joyi bo'yicha yoxud, agar qarzdorning joylashgan yeri yoki yashash joyi noma'lum bo'lsa, qarzdor davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bo'yicha beriladi.

Arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan iqtisodiy sudning nomi;
- 2) chet davlat sudining yoki arbitrajining nomi va joylashgan yeri hamda uning tarkibi;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomlari (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;

4) arizachi tan olish va ijroga qaratishni so'rayotgan chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarori to'g'risidagi ma'lumotlar;

5) arizachining chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnomasi;

6) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Arizada arizachi yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Amaldagi iqtisodiy protsessual qonunchilikda chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati chet davlat sudlari uchun alohida, chet davlat arbitrajlari uchun alohida keltirilgan.

Jumladan, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, chet davlat sudining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1) arizachi tan olish va ijroga qaratishni so'rayotgan chet davlat sudining hal qiluv qarori yoki uning chet davlatning yoki O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;

2) agar hal qiluv qarori matnining o'zida ko'rsatilmagan bo'lsa, hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat;

3) hal qiluv qarori qisman ijro etilganligi to'g'risidagi hujjat, agar u tegishli chet davlat hududida ilgari ijro etilgan bo'lsa;

4) o'ziga qarshi hal qiluv qarori qabul qilingan va sud protsessida ishtirok etmagan taraf ishni ko'rish vaqt hamda joyi to'g'risida o'z vaqtida va tegishli tartibda xabardor qilinganligini anglatuvchi hujjat;

5) vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki boshqa hujjat;

6) chet davlat sudining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaning ko'chirma nusxasi qarzdorga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat;

7) agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji hamda pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

8) agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu moddaning 1–5-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan davlat tilidagi tarjimasi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, chet el arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1) chet el arbitrajining hal qiluv qarori yoki uning chet davlat yoki O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;

2) arbitraj muhokamasi to'g'risidagi bitimning asli yoki uning chet davlatning yoki O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxasi;

3) hal qiluv qarori qisman ijro etilganligi to'g'risidagi hujjat, agar u ilgari tegishli chet davlat hududida ijro etilgan bo'lsa;

4) o'ziga qarshi hal qiluv qarori qabul qilingan va protsessda ishtirok etmagan taraf ishni ko'rish vaqt hamda joyi to'g'risida o'z vaqtida va tegishli tartibda xabardor qilinganligini anglatuvchi hujjat;

5) vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki boshqa hujjat;

6) chet el arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaning ko'chirma nusxasi qarzdorga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat;

7) agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji hamda pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

8) agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu moddaning 1–5-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan davlat tilidagi tarjimasi.

Sud chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani qabul qilish haqidagi masalani hal etishda ariza ushbu Kodeksning 249–252-moddalari talablari buzilgan holda berilganligini aniqlasa, arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni undiruvchiga qaytaradi.

Sud arizani qaytarish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ajrim, ariza va unga ilova qilingan hujjatlar undiruvchiga ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran besh kun ichida yuboriladi.

Arizani qaytarish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs umumiy tartibda ariza bilan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudiga yangidan murojaat etishga haqli.

Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani qaytarish haqidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza iqtisodiy sudga dastlabki murojaat etilgan kunda berilgan deb hisoblanadi.

IPKning 254-moddasiga ko'ra Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza, agar O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mazkur bobda belgilangan xususiyatlarni e'tiborga olgan holda ushbu Kodeksning qoidalari bo'yicha u iqtisodiy sudga kelib tushgan kundan e'tiboran olti oydan oshmagan muddatda sud majlisida ko'rildi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudi ajrimi bilan ushbu Kodeksning 127-moddasida nazarda tutilgan tartibda xabardor qilinadi. Sud majlisining vaqtini va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ishni ko'rish uchun to'sqinlik qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudi ishni ko'rishda ushbu Kodeksning 255-256-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudiga taqdim etilgan, bildirilgan talablar va e'tirozlarni asoslovchi dalillarni tekshirish yo'li bilan aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudi ishni ko'rishda chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas.

Vodda tuting!

Agar chet davlat sudi qarorining tan olinishi va ijroga qaratilishi yuqorida qayd etilgan bitim va konvensiyalar asosida emas, balki O'zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan ikki tomontlama huquqiy yordam ko'rsatish haqidagi xalqaro shartnomasi asosida so'ralayotgan bo'lsa, u holda qarorni tan olish va ijroga qaratish tartibi ham shu ikki tomontlama shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Bu hollarda Kiyev Bitimini yoki Nyu-York, Minsk, Kishinyov konvensiyalarini qo'llab bo'lmaydi.

**Kiyev Bitimining 9-moddasi va IPKning 255-moddasi
mazmuniga ko'ra sud chet davlat sudining hal qiluv qarorini
tan olishni va ijroga qaratishni quyidagi hollarda to'liq yoki
qisman rad etadi, agar:**

- | | |
|---|--|
| 1 | hududida hal qiluv qarori qabul qilingan davlatning qonuniga binoan u qonuniy kuchga kirmagan bo'lsa; |
| 2 | hal qiluv qarori o'z zarariga qabul qilingan tarajishni ko'rib chiqish vaqtini va joyi to'g'risida o'z vaqtida hamda belgilangan tartibda xabardor qilingagan yoki boshqa sabablarga ko'ra sudga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmagan bo'lsa; |
| 3 | ishni ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarga yoki qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi sudining mutlaq vakolatiga tegishli bo'lsa; |
| 4 | O'zbekiston Respublikasi sudining ayni bir taraflar o'rtaida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa; |

5	O'zbekiston Respublikasi sudining ish yurituvida ayni bir tarafda o'rtaida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizoga doir ish mavjud bo'lib, u yuzasidan ish yuritish chet davlat sudida ishni yurtitish qo'zg'atilganidan oldin qo'zg'atilgan bo'lsa;
6	chet davlat sudining hal qiluv qarorini majburiy ijroga qaratish muddati o'tgan bo'lib, bu muddat sudi tomonidan tiklanmagan bo'lsa;
7	taraf nizoning vakolati bo'limgan chet davlat sudi tomonidan hal etilganligini isbotlovchi dalilni taqdim etgan bo'lsa;
8	hal qiluv qarori chet davlatning vakolatli organi tomonidan bekor qilingan bo'lsa;
9	hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasining chet davlat sudi hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq xalqaro shartnomalari ishtirokchisi bo'limgan chet davlat sudi tomonidan chiqarilgan bo'lsa;
10	chet davlat sudining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, xavfsizligiga zarar yetkazsa yoki qonun hujjatlarining asosiy prinsiplariga zid bo'lsa.

Ta'kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish asoslarining ro'yxati tugal hisoblanadi. Shu bilan birga bunday hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida bevosita nazarda tutilgan taqdirdagina, boshqa asoslarga ko'ra ham rad etilishi mumkin.

IPKnинг 256-moddasida chet el arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratishni rad qilish asoslari alohida berilgan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudi hal qiluv qarori o'ziga qarshi qaratilgan tarafning arizasiga ko'ra, chet el arbitrajining hal qiluv qarorini tan olishni va ijroga qaratishni rad qiladi, agar taraf:

1) arbitraj bitimining taraflari o'zlariga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha qaysidir darajada muomalaga layoqatsiz bo'lganligini yoki arbitraj bitimining taraflari qaysi qonunga bo'ysundirgan bo'lsalar, o'sha qonun bo'yicha, bunday ko'rsatma mavjud bo'limganda esa – hal qiluv qarori chiqarilgan mamlakatning qonuni bo'yicha haqiqiy emasligini;

2) hal qiluv qarori o'ziga qarshi qaratilgan taraf arbitraj tayinlanganligi to'g'risida yoki arbitraj muhokamasi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligini yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini;

3) arbitraj bitimi yoki arbitraj haqidagi shartnoma shartida nazarda tutilmagan yoki ularning shartiga tegishli bo'limgan nizo bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilganligini yoxud arbitraj bitimi yoki arbitraj haqidagi shartnoma shartidan tashqari chiqadigan masalalar bo'yicha qaror mavjudligini, bundan arbitraj bitimi yoki arbitraj haqidagi shartnoma sharti doirasidagi masalalar bo'yicha qarorlar qamrab olinmagan masalalar bo'yicha qarorlardan ajratib olinishi mumkin bo'lgan hollar mustasno;

4) arbitraj organining tarkibi yoki arbitraj protsessi taraflarning kelishuviga muvofiq kelmaganligini yoki bunday shart bo'lmasa, arbitraj bo'lib o'tgan mamlakat qonuniga mos kelmaganligini;

5) hal qiluv qarori taraflar uchun yakuniy bo'limganligini yoki u qabul qilingan va qonuni qo'llanilayotgan davlatning vakolatli organi tomonidan bekor qilinganligini yoxud ijrosi to'xtatilganligini;

6) nizo vakolatli bo'limgan chet davlat arbitraji tomonidan hal etilganligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etsa.

Shuningdek, chet el arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish quyidagi hollarda rad qilinishi mumkin, agar:

1) nizo obyekti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha arbitraj muhokamasining predmeti bo'la olmasa;

2) ushbu hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O'zbekiston Respublikasining ommaviy tartibiga zid bo'lsa yoki unga tahdid solsa;

3) chet el arbitrajining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish muddati o'tgan bo'lsa.

IPKning 257-moddasida belgilanishicha, chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani ko'rish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudi ushbu Kodeksning 22-bobida belgilangan qoidalarga ko'ra ajrim chiqaradi.

Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ish bo'yicha ajrimda:

1) chet davlat sudining yoki arbitrajining nomi va joylashgan yeri;

2) arizachi va qarzdorning nomlari (familiyasi, ismi, otasining ismi);

3) arizachi tan olish va ijroga qaratishni iltimos qilayotgan chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarori to'g'risidagi ma'lumotlar;

4) chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish yoxud uni tan olishni va ijroga qaratishni rad qilish to'g'risida ko'rsatma bo'lishi kerak.

Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ish bo'yicha ajrim ustidan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Chet davlat sudining va arbitrajining hal qiluv qarorini ijroga qaratish chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risida ajrim chiqargan sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Bunday ijro varaqlari ham mahalliy sudlar tomonidan chiqariladigan ijro varaqlari yoki sud buyruqlari kabi O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunida belgilangan tartibda ijro etiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Chet el shaxslari deganda kimlarni tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlari iqtisodiyot sohasida chet ellik shaxslar ishtirokida yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlarni qaysi hollarda ko'rib chiqadi?
3. «Jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni» deganda nimani tushunasiz? «Yuridik shaxsning shaxsiy qonuni» deganda-chi?
4. Chet el shaxslarining iqtisodiy sud ishlarida ishtirok etishi jarayonlarini tartibga soluvchi qanday xalqaro shartnomalarni bilasiz?
5. Chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni ko'rishda sudlovga tegishlilikning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.
6. Xalqaro tashkilotlarning sud immuniteti, deganda nimani tushunasiz?
7. Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish tartibini qisqacha tushuntirib bering.
8. Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizada qanday ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak?
9. Chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaga qanday hujjatlar ilova qilinadi?
10. Sud chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratishni qaysi hollarda to'liq yoki qisman rad etadi?

KAZUSLAR

1-kazus

Germaniya Federativ Respublikasi fuqarosi Z. bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'rtasidagi nizoni iqtisodiy sudida ko'rish jarayonida suda taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomasi mazmuni bo'yicha GFR qonunchiligi qo'llanilishi belgilanganligiga qaramay, uni qo'llash O'zR huquq tartiboti

asoslariga zid kelganligi tufayli O'zR qonunchiligini qo'llash haqida ajrim chiqaradi.

Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering. Fikringizni qonun hujjatlari asosida asoslantiring.

2-kazus

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi N. hamda Rossiya Federatsiyasi fuqarosi B. o'tirasida 2000-yilda Toshkentda qo'shma korxona ta'sis etishda va taraflar o'zaro shartnomaga muvofiq qo'llaniladigan huquq sohasi sifatida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligini tanlashdi. 2007-yilda esa Rossiya Federatsiyasi fuqarosi hisoblangan B. O'zbekiston fuqaroligini qabul qildi.

Ushbu vaziyatda agar o'rtada nizo kelib chiqsa, qaysi mamlakat huquqi qo'llanadi? Fikringizni qonun hujjatlari asosida asoslantiring.

14-bob. SUD HUJJATLARINI QAYTA KO'RISH. SUD HUJJATLARINING IJROSI

14.1. Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti tushunchasi va ahamiyati

Sud hujjatlarini qayta ko'rish – iqtisodiy protsessning mustaqil bosqichi bo'lib, sud hujjatlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishining huquqiy kafolati bo'lib hisoblanadi.



Sud qarorlarini qayta ko'rish institutlariga:

- ❖ apellyatsiya instansiyasida ish yuritish;
- ❖ cassatsiya instansiyasida ish yuritish;
- ❖ qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish yuzasidan ish yuritish kiradi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi «Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan Iqtisodiy protsessual kodeksga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-663-sonli Qonuniga asosan IPKning 36-bobi «Sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish» o'z kuchini yo'qotdi. Endilikda sud hujjatlari apellyatsiya, cassatsiya tartibida va qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari esa yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'riliishi mumkin.

Sud qarorlarini qayta ko'rish institutlaring obyekti bo'lib sud hujjatlari hisoblanadi. IPKning 5-moddasiga ko'ra, iqtisodiy

sud hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug'i shaklidagi sud hujjatlarini qabul qiladi. Biroq, ushbu sud hujjatlaridan faqat sud buyrug'i apellyatsiya, cassatsiya tartibida, shuningdek, yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rilmaydi.

14.2. Apellyatsiya instansiyasida ish yuritish

Apellyatsiya instansiyasida ish yuritish IPKning 34-bobi (259–281-moddalar) bilan tartibga solinadi.

IPKning 259-moddasiga ko'ra, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berish (protest keltirish) huquqiga quyidagi subektlar ega:

- ❖ ishda ishtirok etuvchi shaxslar;
- ❖ ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar;
- ❖ prokuror (yuqori turuvchi prokuror);
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil.


Qayd etish lozim, prokuror, yuqori turuvchi prokuror:

birinchidan, prokuror ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha;

ikkinchidan, taraflarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya protesti keltirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil – tadbirkorlik subyektlari o'ttasida yuzaga keladigan iqtisodiy nizolar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan nizolar bo'yicha birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyatini berolmaydi.

Apellyatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'rib chiqadigan sudlar:



Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash haqida apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish muddatini tiklashni rad etish haqida apellyatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammoy huquqlari va majburiyatlar to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar, shuningdek, sud majlisining vaqt va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmagan ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun apellyatsiya shikoyatini berish muddati ularga hal qiluv qarori qabul qilinganligi ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

Yedda tuting!

Apellyatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) apellyatsiya shikoyati (protesti) yo'llanayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);
- 3) ustidan shikoyat (protest) berilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan iqtisodiy sudning nomi, ishning raqami va hal qiluv qarori qabul qilingan sana, nizoning predmeti;
- 4) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning talablari hamda shikoyat (protest) berayotgan shaxs ish holatlari va dalillarga, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga havola qilgan holda hal qiluv qarorini noto'g'ri deb hisoblash uchun keltingan asoslar;
- 5) shikoyatga (protestga) ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

Apellyatsiya shikoyatida shikoyat berayotgan shaxsning yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyatiga:

- ❖ davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- ❖ ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga apellyatsiya shikoyati va unga ilova qilingan, ularda mavjud bo'limgan

hujjatlarning ko'chirma nusxalari yuborilganligini yoki topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;

❖ apellyatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan taqdirda, uning imzolashga doir vakolatini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi lozim.

Apellyatsiya protestiga, birinchidan, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga apellyatsiya protestining va unga ilova qilingan, ushbu shaxslarda mayjud bo'limgan hujjatlarning ko'chirma nusxalari yuborilganligini yoki topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat; ikkinchidan, prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ish bo'yicha tarafning murojaati ko'chirma nusxasi ilova qilinishi lozim.

Da'vo arizasini qaytarish yoki da'vo arizasini qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan da'vo arizasi va sudga taqdim etishda unga ilova qilingan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish, qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to'g'risidagi masala shikoyat (protest) ish bilan birga sudga kelib tushgan kunidan e'tiboran besh kundan kechiktirmay suda tomonidan yakka tartibda hal qilinadi va bu haqda ajrim chiqariladi. Ajrimning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay yuborilishi lozim.

Agar apellyatsiya shikoyati (protesti) belgilangan shaki va mazmun talablariga rioya qilingan holda berilgan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan ish yuritishga qabul qilinadi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish bo'yicha sud majlisini o'tkazish vaqtি va joyi ko'rsatiladi.

Suda apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etiladi:

1) apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'limgan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

2) apellyatsiya shikoyati (protesti) qonunchilikka muvofiq apellyatsiya tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin bo'lmasan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

3) apellyatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

4) apellyatsiya shikoyatini (protestini) berishning o'tkazib yuborilgan muddatining tiklanishi rad etilgan bo'lsa;

5) apellyatsiya shikoyatidan (protestidan) uni bergan shaxs voz kechganligi (uni chaqirib olganligi) sababli apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risida ajrim mavjud bo'lsa.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari ko'rsatiladi, shuningdek, apellyatsiya shikoyatini berishda to'langan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi masala hal etiladi. Ushbu ajrim ustidan kassatsiya shikoyati (protesti) berilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, apellyatsiya shikoyati (protesti) sudga dastlab murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) sudya tomonidan quyidagi hollarda qaytariladi:

birinchidan, apellyatsiya shikoyati (protesti) imzolanmagan bo'lsa yoxud uni imzolash huquqiga ega bo'lmasan shaxs yoinki mansab mavqeい yoki familiyasi va ismi, otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;

ikkinchidan, apellyatsiya shikoyatining (protestining) shakli va mazmuni IPKning 263-moddasida belgilangan talablarga muvofiq bo'lmasa yoki apellyatsiya shikoyatiga IPK 265-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar yoxud prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ish bo'yicha keltirilgan protestga taraflning murojaati ko'chirma nusxasi ilova qilinmagan bo'lsa;

uchinchidan, apellyatsiya shikoyatiga (protestiga)

uning ko'chirma nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuborilganligiga doir dalillar ilova qilinmagan bo'lsa;

to'rtinchidan, davlat bo'ji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda hamda miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar apellyatsiya shikoyatiga ilova qilinmagan bo'lsa, qonunda davlat bojini to'lash muddati ni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati nazarda tutilgan hollarda esa, bu haqda iltimosnomasi mavjud bo'lmasa yoxud iltim os nomasiga rad etilgan bo'lsa;

beshinchidan, apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarorini qabul qilgan iqtisodiy sudni chetlab o'tgan holda yuborilgan bo'lsa;

oltinchidan, apellyatsiya shikoyati (protesti) belgilangan muddat o'tganidan keyin berilgan bo'lsa va o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnomasi mavjud bo'lmasa;

yettinchidan, apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilguniga qadar shikoyatni (protestini) bergan shaxsdan uni qaytarib olish (chaqirib olish) to'g'risida ari za tushgan bo'lsa.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risidagi ajrimda apellyatsiya shikoya tini (protestini) qaytarish asoslari ko'rsatiladi, apellyatsiya shikoyatini berishda to'langan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi rasmala hal etiladi.

Agar apellyatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilinganidan so'ng uning imzolanmaganligi yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lmasan yoxud mansab mavqeい yoki familiyasi va ismi, otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolanganligi aniqlansa apellyatsiya shikoyati (protesti) ko'rmasdan qoldiriladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqariladi va ushbu ajrim ustidan kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin shikoyat (protest) belgilangan tartibda sudga yangidan berilishi mumkin.

Apellyatsiya instansiysi sudi apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni quyida gi hollarda tugatadi:

- 1) apellyatsiya shikoyati (protesti) ushbu Kodeksga muvofiq apellyatsiya tartibida shikoyat qilinmaydigan ajrim ustidan berilgan va u apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan xatoga yo'l qo'yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa;
- 2) apellyatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan va u apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan xatoga yo'l qo'yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa;
- 3) apellyatsiya shikoyati sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'lman shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- 4) apellyatsiya shikoyati ish yuritishga qabul qilinganidan so'ng shikoyat bergen shaxs tomonidan shikoyatdan voz kechish to'g'risida ariza kelib tushgan bo'lsa;
- 5) apellyatsiya protesti ish yuritishga qabul qilinganidan so'ng protest keltirgan prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror tomonidan protestni chaqirib olish to'g'risida ariza kelib tushgan bo'lsa;
- 6) apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;
- 7) apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar ishda taraf bo'lган fuqaro vafot etsa, nizoli huquqiy munosabat esa huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Agar apellyatsiya shikoyatida (protestida) shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) hal qiluv qarorini qabul qilgan birinchi instansiya sudida ko'rib chiqish predmeti bo'lman yangi talablar bildirilgan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sudi apellyatsiya shikoyatining (protestining) bu talablarga taalluqli qismi bo'yicha ish yuritishni tugatadi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha birinchi sud majlisni apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kundan kechiktirmay o'tkazilishi kerak.

Apellyatsiya instansiyasi sudida: ishlarni birlashtirish to'g'risidagi; da'vening predmetini yoki asosini, da'vo talablarining miqdorini o'zgartirish haqidagi; qarshi da'vo taqdim etish; ishda

ishtirok etish uchun uchinchi shaxslarni jalb etish to'g'risidagi qoidalari, shuningdek, IPKda faqat birinchi instansiya sudida ishni ko'rish uchun belgilangan boshqa qoidalar qo'llanilmaydi.

Apellyatsiya instansiyasi sudining sud majlisiga sud muhokamasini o'tkazish vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan apellyatsiya shikoyatini (protestini) bergen shaxsning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning kelmaganligi ishni ularning ishtirokisiz ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

Apellyatsiya instansiyasi sudida ishni ko'rish raislik qiluvchining yoki sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi.

Ma'ruzachi ishning holatlarini, birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining mazmunini, apellyatsiya shikoyati (protesti) vajlarini va uning yuzasidan berilgan yozma fikrni bayon qiladi.

Sud ma'ruzadan keyin sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitadi, ular apellyatsiya shikoyatida (protestida) ko'rsatilmagan vajlarni keltirishga va qo'shimcha materiallar taqdim etishga ham haqli.

Dastlab apellyatsiya shikoyati bergen shaxs yoki uning vakili yoxud, agar ish protest bo'yicha ko'rيلayotgan bo'lsa, prokuror so'zga chiqadi. Hal qiluv qarori ustidan har ikkala taraf tomonidan shikoyat berilgan bo'lsa, birinchi bo'lib da'vogar so'zga chiqadi.

IPKning 50-moddasida nazarda tutilgan tartibda ishda ishtirok etuvchi davlat organlari va boshqa shaxslar, agar ular sudning qarori ustidan shikoyat bermagan bo'lsa, taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so'zga chiqadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari eshitilganidan so'ng apellyatsiya instansiyasi sudi qaror chiqarish uchun maslahatxonaga kiradi.

Sud muhokamasi tugaganidan keyin qabul qilingan qarorning xulosa qismi e'lon qilinadi va u ishga qo'shib qo'yiladi.

Qaror besh kun ichida to'liq hajmda tuziladi va imzolanadi.

Raislik qiluvchi qarorning xulosa qismi e'lon qilinganidan keyin ishda ishtirok etuvchi shaxslarga qarorning to'liq hajmda tuzilishi va ularga yuborilishi muddatini, shuningdek, qaror ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntiradi.

Sud ishni apellyatsiya instansiyasida ko'rish chog'ida birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligini va asosliligini tekshiradi. Sud yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Apellyatsiya instansiyasining sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to'liq hajmda tekshirishi shart.

Birinchi instansiya sudida ko'rib chiqish predmeti bo'limgan yangi talablar apellyatsiya instansiysi sudi tomonidan qabul qilinmaydi va ko'rilmaydi.

Apellyatsiya instansiysi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatini (protestini) apellyatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan ortiq bo'limgan muddatda ko'rib chiqadi.

Sudning soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan, huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ko'rib chiqiladi.

Alovida hollarda apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqish muddati ishni ko'rayotgan sudlov hay'ati tomonidan ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin.

Yodda tuting!

Apellyatsiya instansiysi sudi quyidagi vakolatlarga ega:

- hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishga;
- hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga va yangi qaror qabul qilishga;
- hal qiluv qarorini o'zgartirishga;
- hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud da'veoni to'liq yoki qisman ko'masdan qoldirishga;
- IPK 279-moddasi to'rtinchı qismining 4-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lgan taqdirda hal qiluv qarorini bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun yuborishga haqli.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

birinchidan, ish uchun ahamiyatli holatlarning to'liq aniqlanmaganligi;

ikkinchidan, sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

uchinchidan, hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariiga muvofiq emasligi;

to'rtinchidan, moddiy va (yoki) protsessual huquq normalarining buzilganligi yoxud noto'g'ri qo'llanilganligi.

Moddiy huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi deganda:

❖ qo'llanilishi lozim bo'lgan qonunchilik hujjatining qo'llanilmaganligi;

❖ qo'llanilishi mumkin bo'lмаган qonunchilik hujjatining qo'llanilganligi;

❖ qonunchilik hujjatining noto'g'ri talqin qilinganligi nazarda tutiladi.

Protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi, agar bu noto'g'ri hal qiluv qarori qabul qilinishiga olib kelgan bo'lsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o'zgartirish yoxud bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi munosabati bilan birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini har qanday holda bekor qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

1) sud tomonidan ishning qonunga xilof tarkibda ko'riganligi;

2) ishning ishtirok etuvchi, sud majlisi vaqt va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmagan biror-bir shaxs yo'qligida ko'riganligi;

3) sud ishi yuritilayotgan til to'g'risidagi qoidalar ishni ko'rish chog'ida buzilganligi;

4) ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatları to'g'risida sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinganligi;

5) hal qiluv qarorining suda tomonidan imzolanmaganligi yoxud hal qiluv qarorida ko'rsatilganidan boshqa suda tomonidan imzolanganligi;

6) ishda sud majlisi bayonnomasining mavjud emasligi, uning imzolanmaganligi yoki IPK 202-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilganidan boshqa shaxslar tomonidan imzolanganligi yoxud, agar sud majlisida audio- yoki videoyozuv amalga oshirilgan bo'lsa, audio- va videoyozuvlarning elektron yoki boshqa tashuvchilari sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yilmaganligi;

7) bildirilgan talab bo'yicha sud hal qiluv qarori qabul qilmaganligi;

8) sudyalar maslahatining sir saqlanishi to'g'risidagi qoidaning buzilganligi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini, agar taraflar o'rtasida kelishuv bitimi tuzilgan va u apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, bekor qiladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi, qaror isjni ko'rgan sudyalar tomonidan imzolanadi.

Apellyatsiya instansiyasi sudining qarorida quyidagilar ko'rsatiladi:

1) apellyatsiya instansiyasi sudining nomi, qarorni qabul qilgan sud tarkibi, sud majlisi kotibi;

2) ishning raqami, qaror qabul qilingan sana va joy;

3) apellyatsiya shikoyatini (protestini) bergen shaxsnинг nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), uning protsessual holati;

4) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, shuningdek, ular vakillarining va sud protsessi boshqa ishtirokchilarining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);

5) nizo predmeti;

6) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qabul qilingan sana, uni qabul qilgan sudyaning familiyasi, ism-sharifining bosh harflari;

7) ish bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarori mazmunining qisqacha bayoni;

8) apellyatsiya shikoyatida (protestida) keltirilgan hal qiluv qarorining qonuniyligini va asosliligini tekshirish to'g'risida talab bildirilishiga doir asoslar;

9) apellyatsiya shikoyati (protesti) yuzasidan yozma fikrda bayon qilingan vajlar;

10) ishda ishtirok etuvchi va sud majlisida hozir bo'lgan shaxslarning tushuntirishlari;

11) apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan aniqlangan ish holatlari; sudning ushbu holatlar to'g'risidagi xulosalari uchun asos bo'lgan dalillar; sud qarorni qabul qilishda amal qilgan qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar; sudning u yoki bu dalillarni rad etishiga va ishda ishtirok etuvchi shaxslar havola qilgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llamaganligiga doir sabablar;

12) agar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori to'liq yoki qisman o'zgartirilgan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sudi uning xulosalariga qo'shilmaganligining sabablari;

13) agar ish yangidan ko'rish uchun yuborilayotgan bo'lsa, birinchi instansiya sudi tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar;

14) apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish natijalari to'g'risidagi xulosalar.

Apellyatsiya instansiyasi sudining qarorida ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'ttasida sud xarajatlarining taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Sudning hal qiluv qarori bekor qilinib, ish yangidan ko'rish uchun yuborilgan taqdirda, sud xarajatlarini taqsimlash to'g'risidagi masala ishni yangidan ko'rayotgan sud tomonidan hal etiladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi qarorining ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga u qabul qilingan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay IPKning 188-moddasida nazarda tutilgan tartibda yuboriladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

14.3. Kassatsiya instansiyasida ish yuritish

Kassatsiya instansiyasida ish yuritish IPKning 35-bobi bilan tartibga solinadi. IPKning 282-moddasiga ko'ra, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan, apellyatsiya tartibida ko'rilgan hal qiluv qarori va apellyatsiya instansiyasi sudining qarori ustidan quyidagi subektlar kassatsiya shikoyatini (protestini keltirishga) berishga haqlidir:

- ❖ ishda ishtirok etuvchi shaxslar;
- ❖ ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammalo huquqlari va majburiyatlarini to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (bundan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy nizolar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan nizolar mustasno).
- ❖ prokuror, yuqori turuvchi prokuror (agar ish bo'yicha prokuror ishtirok etgan bo'lsa, shuningdek, tarasflarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda).

Kassatsiya shikoyati (protesti) ning obyekti va uni ko'rib chiqadigan sud:



Kassatsiya shikoyati (protesti) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga beriladi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya instansiysi sudi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir yil ichida berilishi **mumkin**.

Kassatsiya shikoyati (protesti) berishning o'tkazib yuborilgan muddati shikoyat (protest) bergan shaxsning iltimosnomasi bo'yicha kassatsiya instansiysi sudi tomonidan, agar iltimosnoma kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o'tgan kundan e'tiboran uch oy ichida berilgan va kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o'tkazib yuborilishining sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo'lsa, tiklanishi mumkin.

Kassatsiya shikoyati (protesti) berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash haqida kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddatini tiklashni rad etish haqida kassatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Yodda tuting!

Kassatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) kassatsiya shikoyati (protesti) yo'llanayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);
- 3) ustidan shikoyat (protest) berilayotgan hal qiluv qarorini, qarorni qabul qilgan sudning nomi;
- 4) ishning raqami, hai qiluv qarori, qaror qabul qilingan sana, nizo predmeti;
- 5) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning talablarini va shaxs qonunlarga yoki boshqa normativ-huquqiy hujjalarga, ish holatlariiga hamda **dalillarga** havola qilingan holda sud hujjatini noto'g'ri deb hisoblash uchun keltingan asoslar;
- 6) shikoyatga (protestga) ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

Kassatsiya shikoyatida uni berayotgan shaxsning yoki uning vakilining telefonlari, faksiları raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatiga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1) davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

2) ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga cassatsiya shikoyatining va unga ilova qilingan, ushbu shaxslarda mavjud bo'limgan hujjatlarning ko'chirma nusxalari yuborilganligini yoki topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;

3) cassatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan taqdirda, uning imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjat.

Kassatsiya protestiga ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga cassatsiya protesti va unga ilova qilingan, ushbu shaxslarda mavjud bo'limgan hujjatlarning ko'chirma nusxalari yuborilganligini yoki topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat, prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ish bo'yicha tarafning murojaati ko'chirma nusxasi ilova qilinadi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish va apellyatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan berilgan cassatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan shikoyat (protest) va uni sudga taqdim etishda unga ilova qilingan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi cassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha tegishli iqtisodiy suddan ishni talab qilib olishga haqli. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va ularning o'rinnbosarları, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar prokurorlari IPKning 282-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda, cassatsiya protesti kiritish masalasini hal etish uchun tegishli iqtisodiy suddan ishni talab qilib olishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi cassatsiya shikoyatini (protestini) besh kundan ortiq bo'limgan muddatda o'rjanadi va uning natijalari bo'yicha quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

1) cassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish va ishni talab qilib olish to'g'risida;

2) cassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish haqida;

3) cassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish to'g'risida.

Agar cassatsiya shikoyati (protesti) belgilangan shakl va mazmun talablariga rioya qilingan holda berilgan bo'lsa cassatsiya instansiysi sudi tomonidan ish yurituvga qabul qilinadi va bu haqda ajrim chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi cassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi:

1) cassatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'limgan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

2) cassatsiya shikoyati (protesti) qonuniy kuchga kirmagan yoki qonunchilikka muvofiq cassatsiya tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin bo'limgan yoxud apellyatsiya tartibida ko'rilmagan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

3) cassatsiya shikoyati (protesti) cassatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan bo'lsa;

4) cassatsiya shikoyatini (protestini) berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash rad etilgan bo'lsa;

5) cassatsiya shikoyatidan (protestidan) uni bergan shaxs voz kechganligi (uni chaqirib olganligi) sababli cassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritishni tugatish haqidagi ajrim mavjud bo'lsa.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda cassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslarini ko'rsatiladi, cassatsiya shikoyatini berishda to'langan davlat bojini qaytarish haqidagi masala hal etiladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim bekor qilingan taqdirda, cassatsiya shikoyati (protesti) sudga dastlab murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi tomonidan quyidagi hollarda qaytariladi:

1) cassatsiya shikoyati (protesti) imzolanmagan bo'lsa yoxud uni imzolash huquqiga ega bo'limgan shaxs tomonidan

yoki mansab mavqeい yoki familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;

2) kassatsiya shikoyatining (protestining) shakliga va mazmuniga nisbatan IPKning 286-moddasida belgilangan talablarga rioya etilmagan yoki kassatsiya shikoyatiga (protestiga) IPK 288-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlar yoxud prokuror ishtirokisiz ko'rilgan ish bo'yicha protestga taraflarning murojaati ko'chirma nusxasi ilova qilinmagan bo'lsa;

3) kassatsiya shikoyatiga (protestiga) uning ko'chirma nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuborilganligiga doir dalillar ilova qilinmagan bo'lsa;

4) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar kassatsiya shikoyatiga ilova qilinmagan bo'lsa, qonunda davlat bojini to'lash muddatini kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati nazarda tutilgan hollarda esa, bu haqda iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo'lsa;

5) kassatsiya shikoyati (protesti) belgilangan muddat o'tganidan keyin berilgan bo'lsa va o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma mavjud bo'lmasa;

6) kassatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilinganligi to'g'risida sud ajrimi chiqarilguniga qadar shikoyatni (protestni) bergan shaxsdan uni qaytarib olish (chaqirib olish) to'g'risida ariza tushgan bo'lsa.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs kassatsiya shikoyatining (protestining) ko'chirma nusxasini olganidan keyin uning yuzasidan yozma fikrini hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ushbu yozma fikrning ko'chirma nusxalari yuborilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni kassatsiya shikoyati (protesti) ko'rib chiqiladigan kunga qadar yetib borishini ta'minlaydigan muddatda, kassatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kundan kechiktirmay sudga yuborishi mumkin.

Agar kassatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilinganidan so'ng uning imzolanmaganligi yoxud

uni imzolash huquqiga ega bo'Imagan yoki mansab mavqeい yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolanganligi aniqlansa, kassatsiya instansiyasi sudi kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldiradi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin shikoyat (protest) IPKda belgilangan tartibda sudga yangidan berilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ish yuritish quyidagi hollarda tugatiladi:

1) kassatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya tartibida ko'rilmagan yoki ushbu Kodeksga muvofiq kassatsiya tartibida shikoyat qilinmaydigan (protest keltirilmaydigan) sud hujjati ustidan berilgan va u kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan xatoga yo'l qo'yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa;

2) kassatsiya shikoyati (protesti) kassatsiya tartibida ko'rilgan sud hujjati ustidan berilgan va u kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan xatoga yo'l qo'yilib, ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa;

3) kassatsiya shikoyati (protesti) sud hujjati ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqiga ega bo'Imagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

4) kassatsiya shikoyati ish yuritishga qabul qilinganidan keyin shikoyat bergen shaxs tomonidan shikoyatdan voz kechish to'g'risida ariza kelib tushgan bo'lsa;

5) kassatsiya protesti ish yuritishga qabul qilinganidan keyin protest keltirgan prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror tomonidan protestni chaqirib olish to'g'risida ariza kelib tushgan bo'lsa;

6) kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;

7) kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha sud hujjati qabul qilinguniga qadar ishda taraf bo'lgan fuqaro vafot etsa, nizoli huquqiy munosabat esa huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Sud ishni **kassatsiya** taribida ko'rish chog'ida birinchi instansiya va apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan moddiy **huquq** normalari to'g'ri qo'llanilganligini va protsessual qonun talablariga rioya etilganligini ish materiallari bo'yicha tekshiradi. Kassatsiya instansiyasi sudi yangi dalillarni tekshirishga va yangi faktlarni aniqlashga haqli emas.

Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) hal qiluv qarorini, qarorni o'zgarishsiz, kassatsiya shikoyatini (protestini) esa qanoatlantirmasdan qoldirishga;
- 2) hal qiluv qarorini, qarorni o'zgartirishga yoki bekor qilishga va ishni yangidan ko'rib chiqish uchun yubormasdan yangi qaror qabul qilishga;
- 3) IPK 302-moddasi birinchi qismining 1-bandida (ish uchun ahamiyatli holatlarning to'liq aniqlanmaganligi) va to'rtinchi qismining 4-bandi (ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatları to'g'risida sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinganligi) va 7-bandida (bildirilgan talab bo'yicha sud hal qiluv qarori qabul qilmaganligi) nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, hal qiluv qarorini, qarorni bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun sud hujjati bekor qilingan sud instansiyasiga yuborishga;
- 4) hal qiluv qarorini o'zgartirishga;
- 5) hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud da'veoni to'liq yoki qisman ko'rmasdan qoldirishga;
- 6) ayrim sud hujjatlarini bekor qilish va ish bo'yicha ilgari qabul qilingan sud hujjatlaridan birini o'z kuchida qoldirishga haqli.

Kassatsiya saikovati (protesti) u sud muhokamasiда ko'rib chiqish uchun tayinlangan kundan e'tiboran ntc oydan ertiq bo'lmasan muddatda ko'rib chiqiladi

Alovida hollarda kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rib chiqish muddati ishni ko'rayotgan sudlov hay'ati tomonidan ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin

Kassatsiya instansiysi sudi kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi, qaror isjni ko'rgan sudyalar tomonidan imzolanadi.

IPKning 282-moddasida ko'rsatilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga, Bosh prokurori yoki ularning o'rinnbosarlariga isjni kassatsiya tartibida takroran ko'rish haqida protest kiritish to'g'risidagi ariza bilan kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati ichida, mazkur muddat o'tkazib yuborilgan hollarda esa, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida murojaat qilishi mumkin. Ushbu muddatlar o'tgandan keyin berilgan ariza ko'rib chiqilmaydi.

IPKning 302-moddasi birinchi qismining 4-bandida (moddiy va (yoki) protsessual huquq normalarining buzilganligi yoxud noto'g'ri qo'llanilganligi) nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori yoki ularning o'rinnbosarlar kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha chiqarilgan sud hujjatlari ustidan isjni kassatsiya tartibida takroran ko'rish haqida protest kiritishga haqlı.

Ishni kassatsiya tartibida takroran ko'rish umumiy asoslarga ko'ra amalga oshiriladi.

14.4. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish yuzasidan ish yuritish IPKning 37-bobida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish instituti apellyatsiya, kassatsiya tartibida ish yuritish institutlaridek sud hujjatlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga, odil sudlovni amalga oshirishning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish – maxsus subektlar tarkibi, obyekti, mazmuni, qayta ko'rish asoslari bilan o'ziga

xos xususiyatlarga ega bo'lib, iqtisodiy protsessning mustaqil bosqichlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyati, avvalo, sud hujjatlarini qayta ko'rish asoslarida ko'rindi.

Yangi ochilgan holatlar – bu ishni ko'rish vaqtida mavjud bo'lган va uni hal yetishda muhim ahamiyatga ega bo'lган yuridik faktlarga aytildi. Biroq ushbu faktlar arizachiga va sudga bog'liq bo'lмаган obyektiv sabablarga ko'ra ishni ko'rayotgan sudga ham arizachiga ham ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmaydi.

Yangi ochilgan holatlar deganda, ochilgan faktik holatlar aslida mavjud bo'lib, biroq sudning ishni ko'rish vaqtida hisobga olishi mumkin bo'lмаган, arizachiga va sudga noma'lum bo'lган yoki ma'lum bo'lishi mumkin bo'lмаган, sud hujjatlari qabul qilingandan keyingina ma'lum bo'lган holatlarni tushunish lozim.

Agar faktik holatlar sud hujjati qabul qilingandan so'ng vujudga kelgan bo'lsa, bu holat sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun asos bo'la olmaydi, chunki bu IPK 327-moddasining 1-bandi mazmuniga zid bo'ladi.

Yangi ochilgan holatlar mavjud bo'lmasdan, ishni apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish asoslari mavjud bo'lган holatda ishni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish mumkin emas. Bunday hollarda iqtisodiy sud ko'rsatib o'tilgan holatlar mavjud emasligiga asoslanib, ishni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishni rad etishi lozim.

Aksincha, sud hujjati qabul qilingandan keyin vujudga kelgan yangi holatlar ishni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqish uchun emas, balki yangi da'vo bilan murojaat etish uchun asos bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yangi ochilgan holatlar deganda, sud hujjati qabul qilingan paytda mavjud bo'lган, lekin arizachi va sudga ma'lum bo'lмаган, ish bo'yicha chiqarilgan sud hujjatlarini bekor qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган, ish bo'yicha dalil sifatida foydalaniladigan faktik ma'lumotlar yig'indisi tushunilishini qayd etish mumkin.

IPKning 327-moddasiga asosan quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda iqtisodiy sud o'zi qabul qilgan va qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishi mumkin:

birinchidan, sud hujjati qabul qilingan paytda mavjud bo'lgan, lekin arizachiga ma'lum bo'limgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'limgan, ish uchun muhim holatlar;

ikkinchadan, ekspertning bila turib yolg'on xulosa bergenligi, guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuvarlari bergenligi, bila turib noto'g'ri tarjima qilinganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan bo'lsa va mazkur ish bo'yicha qonunga xilof yoki asoslanmagan sud hujjati qabul qilinishiga sabab bo'lgan bo'lsa;

uchinchidan, ishda ishtirok etuvchi shaxsning yoki uning vakilining yoxud sudyaning mazkur ishni ko'rish chog'ida sodir etilgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari;

to'rtinchidan, iqtisodiy sudning, fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, jinoyat ishlari bo'yicha sudning yoki ma'muriy sudning mazkur ish bo'yicha sud hujjatini qabul qilishga asos bo'lgan sud hujjati yoxud boshqa organning shunday hujjati bekor qilinganligi.

IPKning 327-moddasi 1-bandida ko'zda tutilgan asos bo'yicha sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat yetish uchun quyidagi shartlar mujassamlikda mavjud bo'lishi lozim:

❖ faktik holat sud hujjati chiqarilishi vaqtida mavjud bo'lishi;

❖ mazkur faktini isbotlashi lozim bo'lgan arizachiga bu holat ma'lum bo'limgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'limgan (sud hujjati chiqarilish vaqtida bu holat unga noma'lum bo'lgan) bo'lishi lozim;

❖ faktik holat ishni ko'rish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni uning mavjudligi dalillarni boshqacha baholashni, shuningdek, boshqa sud hujjati qabul qilinishini inkor etmaydi.

Agar faktik holatlar sud hujjati qabul qilingandan so'ng vujudga kelgan bo'lsa, bu holat sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun asos bo'la olmaydi, chunki bu IPKning 327-moddasi birinchi qismining 1-bandi mazmuniga zid bo'ladi.

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish dalillarni soxtalashtirish, guvohning bila turib yolg'on ko'rsatma bergani, tarjimonning bila turib noto'g'ri tarjima qilgani, hujjatlar yoki ashyoviy dalillarning soxtaligi mavjud bo'lganida bo'lishi mumkin. Ushbu holatni tashqi alomati sifatida umumiy yurisdiksiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan dalillarni soxtalashtirish faktini belgilanishi hisoblanadi. Ammo bunda soxtalashtirilgan dalillar ishni ko'rish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Bunga soxta bankrotlik holatini misol qilib keltirish mumkin. Iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi qaror chiqarilganidan keyin umumiy yurisdiksiyadagi sudning hukmi bilan iqtisodiy sud tomonidan qaror chiqarilishi uchun asos bo'lgan buxgalterlik balansi qalbakilashtirilib tuzilishi natijasida soxta bankrotlik faktini aniqlanganligini aytish mumkin.

Sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yoki ular vakillarining yoxud sudyalarning shu ishni ko'rish vaqtida jinoiy qilmishlari ham asos bo'lishi mumkin. Masalan, suda tomonidan taraflarning biridan nizoni uning foydasiga hal qilish uchun pora olish fakti.

Bunday holda sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun umumiy yurisdiksiyadagi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yetarli bo'ladi. Chunki mazkur holatda sud hujjatining adolatsizligi fakti belgilanadi.

Ma'lumki Iqtisodiy protsessual kodeksning 327-moddasi birinchi qismining 3-bandida ishda ishtirok etuvchi shaxsning yoki uning vakilining yoxud sudyaning mazkur ishni ko'rish chog'ida sodir etilgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari nazarda tutiladi.

IPK 327-moddasi birinchi qismining 3-bandiga ko'ra ishda ishtirok etuvchi shaxsning yoki uning vakilining yoxud sudyaning mazkur ishni ko'rish chog'ida sodir etilgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun asos bo'ladi.

IPKning 327-moddasi birinchi qismi 4-bandiga muvofiq iqtisodiy sudning, fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, jinoyat ishlari bo'yicha sudning yoki ma'muriy sudning mazkur ish bo'yicha sud hujjatini qabul qilishga asos bo'lgan sud hujjati yoxud boshqa organning shunday hujjati bekor qilinganligi sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun asos bo'ladi.

Mazkur vaziyatda yuqoridagi holatlar ish sudda ko'rilibotganda javobgarga ma'lum bo'lgan, lekin u sud majlisida ishtirok etmaganligi uchun sudga ma'lumot bermagan. Ya'nii sud ish ahamiyatli holatlarni to'liq aniqlamasdan hal qiluv qarori qabul qilgan. Bu holat esa hal qiluv qarorini yangi ochilgan holat bo'yicha ko'rishga asos bo'la olmaydi.

Iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning xususiyatlaridan biri IPKning 327-moddasiga asosan sudning hujjati yangi ochilgan holatlar bo'yicha faqat u qonuniy kuchga kirganidan keyingina qayta ko'riliши mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 328-moddasining birinchi qismiga muvofiq, sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risida ariza faqat ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan berilishi mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy vorislari (IPK 46-moddasi), shuningdek, sud jarimasi solingan shaxslar (IPK 58, 69 va 98-moddalari) ham shunday huquqqa egadir. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxs hisoblanganligi bois, u ham o'zi ishtirok etgan ish bo'yicha qabul qilingan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Ishda ishtirok etishga jaib qilinmagan shaxslar, ularning qonuniy huquq va majburiyatlariga daxildor sud hujjatlari qabul qilingan taqdirda, shu asosda qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza berishga haqli emas, bunday holatda ular faqat sud hujjatlari ustidan apellyatsiya, cassatsiya tartibida shikoyat berishi mumkin. Bunday shaxslar qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etganida arizani qabul qilish IPK 291-moddasi birinchi qismining 1-bandiga mos holda rad etiladi, agar ariza ish yuritishga qabul qilingan bo'lsa, ariza bo'yicha ish yuritish IPK 296-moddasi birinchi qismining 3-bandiga mos holda tugatiladi.

Birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim yangi ochilgan holatlar bo'yicha shu hal qiluv qarorini, ajrimni qabul qilgan sud tomonidan qayta ko'rildi.

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha apellyatsiya yoki cassatsiya instansiyasining qaysi qarorlari va ajrimlari bilan sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilingan bo'lsa, o'sha qarorlar va ajrimlarni qayta ko'rish sud hujjatini o'zgartirgan yoxud yangi sud hujjati qabul qilgan instansiya tomonidan amalga oshiriladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza ushbu sud hujjatini qabul qilgan sudga sud hujjatini qayta ko'rish uchun asos bo'ladijan holatlar ochilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay berilishi lozim.

Ariza berishning o'tkazib yuborilgan muddati, ariza bilan murojaat qilgan shaxsning iltimosnomasi bo'yicha, agar iltimosnomasi qayta ko'rish uchun asos bo'ladijan holatlar ochilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilgan bo'lsa va sud muddatni o'tkazib yuborish sabablarini uzrli deb topsa, sud tomonidan tiklanishi mumkin.

Sud hujjati qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran uch yil o'tgach berilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi. Ushbu qoida

IPKning 327-moddasi 2-4-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha berilgan arizalarga nisbatan tadbiq qilinmaydi.

IPKning 329-moddasida qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuniga qo'yilgan talablar belgilangan bo'lib, unga asosan qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza sudga yozma shaklda beriladi. Ariza uni bergan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomlari (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- 3) atizachi yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishni talab qilayotgan sud hujjatini qabul qilgan sudning nomi, ishning raqami, sud hujjati qabul qilingan sana, nizo predmeti;
- 4) arizachining hujjatlarga havola qilingan fikri bo'yicha sud hujjatini qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan yangi ochilgan holat;
- 5) ariza berayotgan shaxsning talabi;
- 6) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Arizaga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi kerak:

- 1) yangi ochilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalari;
- 2) ariza va hujjatlarning ko'chirma nusxalari ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat;
- 3) sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza vakil tomonidan imzolangan taqdirda, uni imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjat.

Sud qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizani quyidagi hollarda qaytaradi:

- 1) ariza IPKning 328 va 329-moddalarida belgilangan qoidalar buzilgan holda berilgan bo'lsa;
- 2) ariza belgilangan muddat tugaganidan so'ng berilgan bo'lsa va uni tiklash to'g'risida iltimosnomasi mavjud bo'lmasa;

3) ariza berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash sabablari uzsiz deb hisoblanib, shunga ko'ra ariza berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklashga asos mavjud bo'limsa, arizani qaytarish to'g'risida ajrim chiqariladi. Arizani qaytarish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. IPKning 331-moddasi birinchi qismining 1 va 2-bandlarida ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilgach, ariza bergen shaxs ariza bilan sudga yangidan murojaat qilishga haqli.

Iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish IPKning 326-moddasiga asosan birinchi instansiyada qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ajrimi shu hal qiluv qarorini, ajrimni qabul qilgan iqtisodiy sud tomonidan qayta ko'rildi.

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasining sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilingan qarorlari va ajrimlarini qayta ko'rish iqtisodiy sudning sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilingan instansiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza u sudga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Sud majlisining vaqt va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi arizani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza yuzasidan birinchi sud majlisi arizani ish yuritishga qabul qilish haqida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kundan kechiktirmay o'tkazilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksning 333-moddasiga binoan iqtisodiy sud qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib, arizani qanoatlantiradi va sud hujjatini bekor qiladi yoxud qayta ko'rishni rad etadi.

Iqtisodiy sudning majlisi ajrim chiqarish bilan yakunlanadi. Bunda sud yangi ochilgan holatlarning mavjudligini ta'kidlaydi, arizani qanoatlantiradi va sud hujjatini bekor qiladi, yoki arizada sanab o'tilgan holatlarni yangi ochilgan holatlar deb yoki bo'lmasa arizada yangi ochilgan holatlar deb keltirilgan asoslarni ishni hal etish uchun muhim ahamiyatga ega emas deb hisoblab sud hujjatini qayta ko'rishni rad etadi. Iqtisodiy sud yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizani qanoatlantirishni rad etsa, IPKning 333-moddasi 3-qismiga binoan qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha chiqarilgan ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Arizani qanoatlantirish to'g'risidagi (ajrim chiqarilayotgan) va sud hujjatini bekor qilish to'g'risidagi ajrim chiqarilayotganda sud tekshirilishi lozim bo'lgan va ular sud hujjatini bekor qilish natijasida bo'lgan taqdirda ularni belgilashi yoki isbotlangan deb hisoblashga haqli emas.

Ushbu holatda ish bo'yicha sud hujjatini yangi ochilgan holatlar mavjudligi fakti sudga ma'lum bo'lsa hamda oldingi sud hujjatini bekor qilish majburiyati vujudga kelsa, sud ish bo'yicha barcha holatlarni haqiqatda isbotlanganligini e'tirof etishga haqli emas. Bunday vaziyatda iqtisodiy sud ishni yangidan ko'rib chiqadi. Iqtisodiy sud sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha bekor qilganidan so'ng ishni sud muhokamasiga tayyorlash, belgilangan qoidalarga muvofiq belgilanadi hamda mazkur iqtisodiy ishini ko'rish yangidan boshlanadi.

14.5. Sud hujjatlarining ijrosi

Iqtisodiy sndlarning sud hujjatlari IPKning V bo'limi va O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonunida belgilangan qoidalalar asosida ijro etiladi.

Umumiyl qoidaga muvofiq, sud hujjatlari qonuniy kuchga kirgach, ijro varaqasi asosida ijroga qaratiladi. Ijro varaqasi

deganda, sud tomonidan berilgan, undiruvchining sud hujjatini majburiy tartibda ijro ettirish huquqini tasdiqlovchi hujjatga aytildi.

Sud hujjati bo'yicha odatda bitta ijro varaqasi beriladi. Agar sud hujjatini ijro etish turli joylarda yoxud bir nechta undiruvchi foydasiga amalga oshirilishi kerak bo'lsa, sud undiruvchilarning iltimosiga ko'ra ijro etish joyi yoxud sud hujjatining ushbu ijro varaqasi bo'yicha ijro etilishi lozim bo'lgan qismini ko'rsatgan holda bir nechta ijro varaqasini beradi.

Bundan tashqari, pul summalarini bir necha javobgardan undirish to'g'risidagi sud hujjati asosida javobgarlarning soni bo'yicha bir nechta ijro varaqasi beriladi. Bunda, agar solidar javobgarlardan undirish nazarda tutilayotgan bo'lsa, har bir ijro varaqasida undiruvning umumiy summasi ko'rsatilishi va solidar javobgar ekanligi ko'rsatilgan holda javobgarlarning hammasi sanab o'tilishi kerak.

Ijro varaqasi sud hujjatini qabul qilgan sud tomonidan, sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan so'ng besh kun ichida undiruvchiga beriladi yoki uning iltimosnomasiga ko'ra davlat ijrochisiga ijro etish uchun yuboriladi. Shuningdek, budgetga mablag'larni undirish uchun ijro varaqasi qarzdor turgan joydagi davlat ijrochisiga sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan so'ng besh kun ichida yuboriladi. Ijro varaqasi elektron hujjat tarzida ham yuborilishi mumkin.

Ijro varaqasida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- ❖ ijro hujjatini bergen sudning nomi;
- ❖ ijro varaqasi berilgan ish va uning raqami;
- ❖ ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati qabul qilingan sana;
- ❖ undiruvchi va qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi, qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek, qarzdor yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikasiya raqami;
- ❖ sud hujjatining xulosa qismi;

- ❖ ijro varaqasini ijro etish tartibi va usuli, agar bu haqda sud hujjatida ko'rsatilgan bo'lsa;
- ❖ sud hujjati kuchga kirgan sana;
- ❖ ijro hujjati berilgan sana va uni ijroga taqdim etish muddati..

Ijro varaqasi sudya tomonidan imzolanadi va suđning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

Ijro varaqasi sud hujjati qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran yoki sud hujjatining ijrosi kechiktirilgan yoki bo'lib-bo'lib ijro etilgan taqdirda, muddat tugagan kundan e'tiboran uch yil ichida ijroga taqdim etilishi mumkin. Qapyd etish lozim, agar sud hujjatining ijrosi to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, uning ijrosi to'xtatib qo'yilgan vaqt ijro varaqasini ijroga taqdim etish uchun belgilangan muddatga qo'shib hisoblanmaydi.

Agar ijro etilgan sud hujjati o'zgartirilib yoki bekor qilinib, da'veni to'liq yoki qisman rad etish to'g'risida yangi sud hujjati qabul qilinsa yoxud ish yuritish tugatilsa yoki da'vo ko'rmasdan qoldirilsa, bekor qilingan yoki tegishli qismi o'zgartirilgan sud hujjati bo'yicha da'vogar foydasiga undirilgan hamma narsa javobgarga qaytariladi.

Agar ijro etilmagan sud hujjati bekor qilinib yoki o'zgartirilib, da'veni to'liq yoki qisman rad etish to'g'risida yangi sud hujjati qabul qilinsa yoxud ish yuritish tugatilsa yoki da'vo ko'rmasdan qoldirilsa, sud bekor qilingan yoki tegishli qismi o'zgartirilgan sud hujjati bo'yicha undirishni to'liq yoxud qisman bekor qilish haqida sud hujjatini qabul qiladi.

Sud bergen ijro varaqasi asosida davlat ijrochisi tomonidan qo'zg'atilgan ijro ishini yuritishni sud qonunda nazarda tutilgan hollarda, undiruvchining, qarzdorning, davlat ijrochisining arizasiga ko'ra to'xtatib turishi yoki tugatishi mumkin. O'z navbatida, qonunchilikda sud tomonidan ijro ishi yuritishni to'xtatib turish huquqi va majburiyati bir-biridan farqlash talab etiladi. Jumladan, ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to'xtatib turilishi shart:

1) agar sud tomonidan aniqlangan huquqiy munosabat huquqiy vorislikkha yo'l qo'ysa, qarzdor vafot etganda, u

vafot etgan deb e'lon qilinganda yoki bedarak yo'qolgan deb topilganda;

2) qarzdor muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

3) agar qonunchilikda nizolashishga yo'l qo'yilgan bo'lsa, qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashganda;

4) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlarning qarorlari (mansabdar shaxslarning harakatlari) ustidan sudga shikoyat berilganda;

5) ijro hujjati bo'yicha undiruv qaratilgan mol-mulkni ro'yxatdan chiqarish (xatlashdan ozod qilish) to'g'risida sudga da'vo arizasi berilganda;

6) davlat ijrochisi tomonidan ish yuritish to'xtatib turish asoslari vujudlga kelganda.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to'xtatib turlishi mumkin:

1) qarzdor yoki undiruvchi ijro hujjatini bergan tegishli sudga yoki boshqa organga ijro hujjatini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda;

2) qarzdor uzoq muddatli xizmat sajarida bo'lganda;

3) qarzdor statsionar davolash muassasasida davolana-yotganda;

4) davlat ijrochisining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilganda;

5) ro'yxatga olingan mol-mulkni baholash natijalari yuzasidan nizolashilganda;

6) undiruvchi iltimos qilganda.

Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan tutgatiladi:

1) undiruvchi yoki qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda, bedarak yo'qolgan deb topilganda, agar sud hujjati yoxud boshqa organning hujjatida qo'yilgan talablar yoki majburiyatlar huquqiy vorisga yoki bedarak yo'qolganning mol-mulkini ishonchli boshqarib turgan shaxsga o'tishi mumkin bo'lmasa;

2) muayyan harakatlarni amalga oshirish yoxud bunday harakatlarni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi ijro hujjatini ijro etish imkoniyati yo'qolganda.

Iqtisodiy sud tomonidan berilgan ijro hujjati asosida qo'zg'atilgan ijro ishi yuritishni to'xtatib turish va tugatish o'sha iqtisodiy sud yoki davlat ijrochisi turgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ijro ishi yuritishni to'xtatib turish va tugatish quyidagi hollarda ham iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi:

❖ ijro xatlari ijro etilganda, agar undiruvchi va qarzdor yuridik shaxslar yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar bo'lsa;

❖ davlat ijrochisining ijro yig'imini va ijro xarajatlarini undirish to'g'risidagi qarorlari ijro etilganda, agar qarzdor yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqaro bo'lsa.

Sud tomonidan ijro varaqasi chaqirib olinishi va yangi ijro varaqasini berilishi mumkin. Jumladan, sud yozuvdag'i xatolar, harfiy xatolar, hisob-kitobdag'i yanglishishlar bilan berilgan, shuningdek, o'zgartirilgan (bekor qilingan) sud hujjati asosida berilgan ijro varaqasini undiruvchining, qarzdorning, davlat ijrochisining arizasi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan tarafлarni chaqirtmasdan hamda sud muhokamasisiz chaqirib olishga va uning o'niga yangi ijro varaqasini berish huquqiga ega.

Ijro varaqasini chaqirib olish va yangi ijro varaqasini berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi, uning ko'chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek, agar sud qarorining ijrosi davlat ijrochisining ish yurituvida bo'lsa, davlat ijrochisiga yuboriladi.

Yozuvdag'i xatolar, harfiy xatolar, hisob-kitobdag'i yanglishishlar bilan berilgan yoki o'zgartirilgan (bekor qilingan) sud hujjati asosida berilgan ijro varaqasi undiruvchi yoki davlat ijrochisi tomonidan uni bergen sudga ijro etilmasdan qaytariladi. Ijro varaqasini chaqirib olish va yangi ijro varaqasini berish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Apellyatsiya va cassatsiya instansiyalarda ish yuritishning o'ziga xos farqli jihatlarini tahlil qiling.
2. Apellyatsiya instansiyasi sudining vakolatlarini tushuntiring.
3. Kassatsiya va takroran kassatsiya shikoyati (protesti)ni berish tartibi va farqli jihatlarini ko'rsating.
4. Iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning kassatsiya tartibida ish ko'rishdan farqli jihatlarini tushuntiring.
5. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishni qayta ko'rish asoslarini misollar asosida tahlil qiling.
6. Sud tomonidan ijro ishi yuritishni to'xtatish huquqi va majburiyatini tushuntiring.
7. Ijro ishi yurituvini tugatish va tamomlash asoslarini tahlil qiling.

KAZUSLAR

I-kazus

Ishni appellatsiya instansiyasida ko'rish jarayonida arizachi – apellyatsiya shikoyatini beruvchi iltimosnomasi bilan murojaat qilib, ish hujjatlariga qo'shib qo'yishlik uchun qurilish ekspertizasi xulosasini taqdim etdi.

Shuningdek, arizachi qurilish ekspertizasi xulosasini ishni birinchi instansiya sudida ko'rish jarayonida taqdim etilmaganligini hali ish ko'rilayotgan vaqtida ekspertiza yakunlanmaganligi bilan izohladi.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, arizachi tomonidan ishni birinchi instansiya sudida ko'rish jarayonida ekspertiza yakunlanguniga qadar ish yuritish to'xtatib turish so'ralgan, biroq iltimosnomasi sud tomonidan qanoatlantirish rad etilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Iqtisodiy sudning appellatsiya instansiyasi ushbu holatda qanday xulosa qilishi lozim?

2-kazus

«Shodlik» mas'uliyati cheklangan jamiyati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga cassatsiya shikoyati bilan murojaat qilib, birinchi instansiya sudining 2017-yil 13-iyundagi hal qiluv qarorini bekor qilishni so'ragan.

Kassatsiya shikoyatiga davlat bojini to'lashni kechiktirib turish haqidagi iltimosnoma hamda bank hisob varaqlarida pul mablag'lari mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlarning nusxalari ham ilova qilingan edi.

*Sudning ajrimi bilan cassatsiya shikoyati qaytarilgan.
Kassatsiya instansiyasi sudining protsessual harakatlarini tahlil qiling.*

MURATAYEV SERIKBEK ALPAMISOVICH
MUSAYEV BEKZOD TURSUNBOYEVICH
ARTIKOV DILMUROD RAXMATILLAYEVICH

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQ
DARSLIK

Muharrirlar:

A. Ahmedov,
D. Ahmedov

Sahifalovchi:

Sh. Rasulov



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>

«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.

Nashr. lits. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Mujimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,

+99893 554-63-70.

Elektron manzil: yuridiknashr@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi: 25.03.2022-y.

Qog'oz bichimi 60x90 1/16.

«Antiqua» garniturasи.

Oisel usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 26,0.

Nashriyot hisob tabog'i 23,4.

Adadi: 1000 nusxa.

51-buyurtma.

«Print Line Group» XK

bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.



ISBN 978-9943-7580-9-4

9 789943 758094



Yuridik
Adabiyotlar
Publish